ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

2-son
(mart-aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Ijtimoiy va pedagogik innovatsiyalar davrida “Zamonaviy maktab”larni shakllantirish davr talabi

TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

H. Sodiqov	6	Bo‘lajak o‘qituvchilarning muloqot madaniyatini rivojlantirishning samarali yo‘llari
Sh. Primov	10	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari
L. Xayitov	14	Pedagogik amaliyotda bo‘lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish modeli
X. Qodirov	23	Talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirishning strukturaviy-mazmunli modeli
H. Islomova	29	O‘quvchilarning odob-axloq sifatlarini rivojlantirishda maqol va topishmoqlarning ahamiyati (5-sinf misolida)
Q. Azizova	32	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘nikmalarini rivojlantirish mezonlari
F. Umarov	36	Harbiy-kasbiy kompetentlik va harbiy mahoratning umumpedagogik jihatlari
Sh. Shodmonova	40	O‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati (Umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘rgatish misolida)

TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI

D. Qo‘chqarov	45	Matematika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtiruvchi ta’lim jarayonini tashkil qilish usul va uslublari
G‘. Bozorov	49	Matematik mantiq elementlarini talabalarga noan’anaviy o‘rgatish usullari
I. Matyakubov	54	Diplomatiya o‘qitish metodikasini takomillashtirish: o‘rta asrlar xitoy tarixi misolida

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

J. Rustamov	57	Mutaxasislarni tayyorlashda umumkasbiy fanlarini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari
M. Nuriddinova	62	Maktabgacha yoshdagi bolalarni harakat ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish

TA’LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIYALASHTIRISH

Sh. Nizamova	67	Ta’limda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish yo‘llari (Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari misolida)

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

M. Ergasheva	71	Malaka oshirish tizimida xalqaro tajribadan foydalanishning ahamiyati
M. Shodiyeva	75	Mustaqil ta’lim – o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon sifatida



MUSIQA VA SAN’AT TA’LIMI

D. Kavilova 79 Oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

I. Matyakubov 82 Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda multemedia vositalaridan foydalanish



MAKTABGACHA TA’LIM

D. Choriyeva 86 Maktabgacha ta’lim tashkilotida bola shaxsini rivojlantirishda pedagogik diagnostikaning o‘rni va ahamiyati

D. Abdurahimova 91 Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda ertak – tarbiya vositasi sifatida



КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ: ЦЕЛЬ И СОДЕРЖАНИЕ

O. Abdug‘aniyev 94 O‘quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolikni shakllantirish omillari



TA’LIMDA INNOVATSIYALAR

A. Urazimbetova 97 Innovatsion faoliyat asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish

F. Rahimova 101 Ta’lim muassasalari amaliyotida integrativ yondashuv mohiyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari



TA’LIMDA AXBOROT RESURSLARI

O. Qurbonova 104 Ona tili darslarida o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mashq va topshiriqlarning o‘rni



PSIXOLOGIYA

M. Qambarov 109 Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining fikrlash madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari



XALQARO TAJRIBA VA TA’LIM INTEGRATSIYASI

A. Toshxonov 114 Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga integratsiyaning didaktik metatilini joriy etish imkoniyatlari



QIYOSIY PEDAGOGIKA

N. Aripova 117 Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning xorij tajribasi

F. Sattorova 121 Talabalarni chet tiliga oid kompetentligini rivojlantirishning qiyosiy tahlili



TA’LIM TARIXI

M. Nurbayeva 126 Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirishda sharq mutafakkirlarining o‘rni



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

С. Смирнова 131 Критическое мышление как составляющая методологической компетентности педагога



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Ш. Уразметова 135 Применение интерактивныхметодов при преподавании “дискретной математики” в технических вузах



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

А. Артиков 139 Анализ эффективности использования специализированных упражнений, направленных на совершенствование целевой точности технических приемов футболистов

IJTIMOIY VA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR DAVRIDA "ZAMONAVIY MAKTAB"LARNI SHAKLLANTIRISH DAVR TALABI

Bugun har sohada yangilanishlar, tub burilishlar kuzatilmoqla. Bunday jarayonda ziyo tarqatish, xalqning ma'naviyatini, ma'rifatini yuksaltirishdek xayrli tashabbuslarda bosh-qosh bo'layotgan kishilar zamondan bir qadam oldinda yurishi kerak. Chunki odam zulmatni yoritishi uchun, avvalo, o'zi nur taratishi kerak. Ana shu nuqtayi nazardan bugun xalq ta'limi tizimiga tom ma'noda fidoiy ziyolilar kerak.

Xo'sh, zamonaviy maktablar qanday bo'lishi kerak?

"Zamonaviy maktablar" o'zi nomi aytib turganidek, zamon bilan hamnafas holda ilg'or xalqaro tajribalarga asoslanib quriladigan, zamonaviy mebel va jihozlar, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia, video-kuzatuv vositalari bilan jihozlanadigan hamda yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar, badiiy va boshqa adabiyotlar bilan ta'minlanadigan ta'lim muassasalari bo'lishi bilan birga, eng asosiysi, bu dargohlarda millat sha'nini himoya qila oladigan, ma'naviyatli, ma'rifatli, Vataniga sodiq barkamol avlod yetishib chiqishi zarur. Bu maqsadga erishish ta'lim-tarbiya jarayoniga ilmiy asoslangan, tajriba-sinovidan o'tgan pedagogik texnologiyalarni qo'llanmasidan erishib bo'lmasligi aniq.

Yana bir muhim jihatni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Gap shundaki, biz, ya'ni bir zamonlar dunyo tamadduniga, ilm-ma'rifatiga tamal toshini qo'ygan farg'oniylar, xorazmiylar, beruniylar, Ibn sinolar, buxoriylar, navoiylar, Mirzo ulug'beklar avlodi bugun ta'lim tizimida jahonning eng ilg'or texnologiyalaridan foydalanishimiz mumkin. Bu – davr talabi. Biroq, biz qadriyatlari, mentaliteti, ma'naviyati, xarakteri boshqa xalqlarning ta'lim tizimidan ko'r-ko'rona andoza olishimiz, shu asosda o'zimizning ta'lim tizimimizni qaytadan shakllantirishimiz juda katta tarixiy xato bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy bobomiz ta'biri bilan aytganda, bolalari ikki emas, to'rt tilni mukammal egallashi – har bir ota-ona orzusi.

Bu orzu-umidlar bugun ushalyapti. Ushalganda ham davlat miqyosida, Prezident tashabbusi bilan amalga oshmoqda. Xabaringiz bor, 2019-yil 26-noyabrdagi "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, ilg'or arxitektura yechimlari va energiya tejovchi texnologiyalar asosida barpo etiladigan hamda jihozlanadigan, xalqaro talablar asosida sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan "Zamonaviy maktab"lar tashkil etiladi. Bu esa endilikda ta'lim tizimi xodimlari oldiga kasbga sadoqat bilan ishlash, har bir o'quvchining taqdirida o'z farzandining kelajagini ko'ra olishdek mas'uliyatli vazifani qo'yadi.

Qaror bilan, shuningdek, 2020–2022-yillarda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini “Zamonaviy maktab” talablari asosida yangidan qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlashning asosiy parametrlari va manzilli dasturlari tasdiqlandi.

Bizning fikrimizcha, Zamonaviy maktab – bu avvalambor, o‘qituvchi, murabbiy va ta’lim oluvchining ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlikda ijod qilish maskanidir, bunda har bir o‘quvchi iqtidorli ekani ustivor, o‘qituvchilar esa iqtidorni aniqlab, uni rivojlantirishga xizmat qiladilar. Ushbu maskanda ta’lim oluvchi eng asosiy ob'ekt, ta’lim beruvchilar esa uni atrofida, unga xizmat qiladilar.

Shuningdek, zamonaviy maktab – bu ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lib, tizimli qayta tashkil etish natijasida oddiydan-murakkabga, eskilikdan-yangilikka qarab rivojlangan, ta’lim va tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish, mustaqil tanlash va tatbiq etish imkoniyatiga ega, zamonaviy tarkibiy tuzilishga, funksional vazifalarga, maqsadlarga, strategiya va taktika, ta’lim siyosatiga ega bo‘lgan tubdan yangi sifatdagi ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Bu maskandada asosiy vazifa o‘quvchilarga bilim va ijtimoiy tajribani berish emas, ularni shaxs sifatida rivojlantirish, ularda ta’lim maqsadlarini mustaqil belgilash, ushbu masqsadlarga erishish yo‘llarini loyihalashtirish, o‘z faoliyatini nazorat qilish va erishgan natijalarini baholash umuman, ularda o‘qishga o‘rgatish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish ustivordir.

Umuman olganda, zamonaviy maktab deganda nimani tushunishimiz kerak – bu muvaffaqiyatlar, sog‘liq-salomatlik, innovatsiyalar, texnologiyalar, ijodiy salohiyatlar maktabidir. Zamonaviy maktab fikrlash, muammolarni bartaraf etish yo‘llarini hamkorlikda izlashni ta’minlaydi.

Zamonaviy maktabni bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish muassasasi sifatida qaralmoqda bular: intelektual, jismoniy, estetik, ma’naviy. Bizning fikrimizcha ushbu rivojlanish yo‘nalishlari ilgari ham, hozir ham keyin ham asos bo‘lib qoladi. Faqatgina, ularga erishish yo‘llari yangi, zamonaviy bo‘lishi zarur ya’ni, ta’lim oluvchilar zamonaviy maktabga hursandchilik va qiziqish bilan kelishlarini, ta’lim muassasasida olgan bilim, ko‘nikma va malakalari samarasida kelajakda o‘zlari orzu va havas qilgan oliy ta’lim muassasasiga, tanlagan kasblariga ega bo‘lishlarini ta’minlashimiz zarur.

Yana bir asosiy vazifa bu, zamonaviy maktabni boshqarish – rahbarlar bilan pedagoglarning ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga fanlar bo‘yicha chuqur bilim va axloqiy tarbiya berish, kasb tanlashga yo‘llash va har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan faoliyat bo‘lib, mazkur jarayonni yana bir bor takrorlaymiz, ilmiy asosda tashkil etish hamda zaruriy shart-sharoitlar yaratishda ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan boshqaruv organlarining ham faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabni boshkarish tizimini ko‘proq insonparvarlashtirish va demokratlashtirish tamoyillariga asoslanish, bunday shart-sharoitlarda maktab ishini tashkil etish asosida mavjud bo‘lgan psixologik omillarning roli sezilarli ortib boradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda juda jiddiy va keskin o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bu o‘zgarishlar ta’lim tizimini ham rivojlantirish va takomillashtirishga asos bo‘lmoqda. Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish asnosida, g‘arb mamlakatlari g‘oyalari xususan, amerinkanchalashtirish ketidan quvishga o‘tib ketib, o‘zimizning milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, an'analarimizni unitib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lishimiz kerak.

Hamid SODIQOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
"Umumiy pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kasbiy kompetentlarini rivojlantirishga yordam beruvchi didaktik vositalarni tashkil etish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, didaktik materiallar o'quvchilarning o'quv materialini chuqur anglashlari, pedagogning muammoli savollari javoblarini mustaqil izlash va o'z-o'zini tekshirish metodlarini egallashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Didaktik materiallar, mustaqil izlanish, nazorat, innovatsion texnologiya, monitoring.

В статье речь идет о создании дидактических инструментов, которые помогут развить коммуникативные профессиональные компетенции будущих учителей. Также были освещены дидактические материалы, глубокое понимание учащимися учебного материала, самостоятельный поиск ответов на проблемные вопросы педагога, овладение методами самоконтроля.

Ключевые слова. Дидактические материалы, самостоятельные исследования, контроль, инновационные технологии, мониторинг.

The article discusses the issue of creating didactic tools that will help develop the communicative competence and professional competence of future teachers. It also describes how students with didactic materials have a deeper understanding of the teaching material, independent search for answers to teachers problematic questions and self-test methods.

Key words. Didactic materials, independent research, control, innovative technologies, monitoring.

Turli ta'lim texnologiyalarini, birinchi navbatda, innovatsion jarayonlarni amalga oshirish mazkur jarayonning barcha ko'rsatkichlari, jumladan, ular jamiyatning umuman ijtimoiy hayotiga va har bir alohida individning hayotiga ta'siri va dinamikasi bo'yicha tashkil etuvchilarini o'rganish, tahlil qilish monitoringini nazarda tutadi.

Umumta'lim fanlariga taalluqli bo'lgan pedagogik mahorat, boshqa fanlardan qator xususiyatlari bilan farqlanadi, ya'ni pedagogik mahoratni o'rganish kommunikativ tarbiya vazifalarini hal etishga va yoshlarning bilimlari umumiy darajasi hamda nutq madaniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. O'zining dialektik o'zaro aloqadorligiga jamiyat tuzilishini belgilaydigan mazkur ijtimoiy ildizlar bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatilari va kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beruvchi didaktik vositalarni tashkil etishda o'z aksini topishi kerak.

Kommunikativ-nutq faoliyatiga quyidagi talablar qo‘yilgan:

− nutq vazifasini aniq belgilash;

− aniq til materiali va kerakli axborot bilan ta’minlash;

− o‘qitish motivatsiyasini rag‘batlantirish;

− tashabbuskorlikni rag‘batlantirish;

− bilish faolligi va ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

Tadqiqotda mavjud metodik, psixologik, pedagogik tadqiqot ishlari tahlillariga asoslanib, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va pedagogik mahoratning kommunikativ-nutqiy komponentlarini takomillashtirish uchun pedagoglarning kasbiy tayyorgarliklari tizimiga yangi, samarali vositalarni kiritish zaruriyati mavjudligi haqida xulosaga kelindi.

Buning uchun birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatilarini samarali rivojlantirishni ta’minlovchi didaktik materiallar aniqlandi. Materialni tanlash va tashkil etishning samaradorligi tegishli vaziyatda inson nutqni qanday ifodalashi, bunda qanday psixofiziologik mexanizmlar ishlashi bo‘yicha aniqlanadi.

So‘nggi yillarda kommunikativ-nutq madaniyatini o‘qitishning funksional yo‘nalganligi to‘g‘risidagi g‘oyalar kengroq tarqala boshladi. Funksional yondashuv asosida berilgan mazmundan uni ifodalashning turli shakllariga o‘tish qoidasi yotadi. Funksionallik didaktik materialni tuzilishli tashkil etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Nutqning ma’lum tuzilishli invarianti doim kommunikatsiya maqsadlari bilan bog‘lanadi. Bu qanday maqsadlar? Ma’lumki, vaziyat o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati jarayoniga kiritilgan. O‘zaro munosabatlar tizimi ko‘pincha ma’lum kelishmovchiliklar, muammolar bilan kuzatiladi. O‘qituvchi vaziyatga kirishgan bo‘lib, o‘zaro munosabatlarni o‘zgartirishga javob qaytarishi, o‘z munosabatini bildirishi, mavqyeini tiklash yoki hodisani kerakli tomonga yo‘naltirishga harakat qiladi. Bundan, subyektning nutqiy funksiyasi uning yuzaga kelgan muammoga munosabatidan iborat ekanligi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mumkin.

Muammoni hal etishga kommunikativ yondashuv, avvalo, nazarda tutilgan kommunikatsiya sohasida materialni tanlash va tashkil etishga to‘liq muvofiqlikni talab etadi.

Didaktik materialni tanlash va tashkil etish muammosi nutq tizimini modellashtirishni, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarning tuzilishli va funksional jihatlarini hisobga olishni nazarda tutadi:

− imkoniyatga ko‘ra dars davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarning to‘liq ro‘yhati tuziladi (shartli va shartsiz);

− nutq tizimidan pedagogik faoliyatda eng ko‘p foydalaniladigan nutq birliklarini ajratish;

− aniq vaziyatlarda zarur xatti-harakatlarga bog‘liq ravishda nutq birliklari tanlab olinadi.

Kommunikativ tizim asosida didaktik materialga quyidagi talablar qo‘yildi:

Faqatgina kommunikativ qimmatli iboralardan, ya’ni grammatik jihatdan to‘liq to‘g‘ri bo‘lmagan, ammo muloqotda juda ajoyib bo‘lgan, muloqotda shubhasiz, kerak bo‘ladigan iboralardan foydalanish.

Ixtiyoriy nutqiy xatti-harakatlarga mos bo‘lgan nutq vaziyatida amalga oshirilishi kerak.

1. Mazmunli, tuzilishlari va innotatsiya qonuniyatiga rioya etish.

2. Nutqning mantiqiyligi va izchilligi.

3. G‘oyaviy yo‘nalganligi.

O‘qituvchining kasbiy mahorati uning ma’naviy madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Mazkur soha obyektiv bilish nuqtai nazaridan ham va hissiy baholash jihatidan ham inson ongining yuqori tashkil etilgan, moddiy dastlabki asosdan mavhumlashtirilgan hodisalarni: aql-zakovat, dunyoqarash, qadriyatli-me’yoriy yo‘nalishlar va nazariy qarashlarni qamrab oladi.

Ma’naviy madaniyat o‘z tabiatiga ko‘ra, nafaqat ijtimoiy, balki mafkuraviy ham. Mafkura ostida g‘oyalarning tartibga solingan majmui tushunilib, ular ma’lum ijtimoiy guruhning anglangan yoki anglanmagan ehtiyojlariga javob beradi. Mafkuraviy qarashlar, eng avvalo, mavhum fikrlash sohasida emas, balki bevosita insonlarning ijtimoiy munosabatlaridagi o‘zining aniqligida namoyon bo‘luvchi va mos hissiyotlarni uyg‘otuvchi (hissiyotlar, kayfiyatlar, intilishlar, so‘ngra harakatlar) insonlarning umumlashtiruvchi-baholovchi tasavvurlari sohasida yuzaga keladi va ifodalanadi.

Mmafkura ijtimoiy aql-zakovat darajasida ham va mantiqiy hamda nazariy tashkil etilgan konsepsiya darajasida ham ifodalanishi mumkin, ammo uning asosiy farqli jihatlari ifodalanuvchi fikrning aksiologik va pragmatik yo‘nalganligi hisoblanadi. Mafkuraviy yo‘nalgan g‘oyalarni yaratuvchi subyekt bo‘lib, turli moyillarga ega, amaliyotda muayyan maqsadlar, niyatlar, ideallarni amalga oshirishni istagan jonli inson hisoblanadi. Mafkurani yaratishga moyil bo‘lgan inson ongi so‘z bilan ishlaydi. Shuning uchun didaktik materialni tanlashda va tashkil etishda davrning mafkuraviy dunyoqarashiga tayanish zarur. Ma’naviy madaniyatning dialogik tabiati dialog bo‘yicha uning sheriklari bilan o‘zaro munosabatlarda har bir g‘oyaviy oqimni o‘rganish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Axloqiy e’tiqodni shakllantirish vazifasi inson va voqelikning munosabatlari tizimi amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan xulq-atvorning ma’lum shakllarini tarbiyalash bilan birlikda hal etilishi kerak. Shuning uchun xarakterning ijtimoiy qadrli sifatlarini tarbiyalash uchun didaktik materialni aniq tashkil etish zarur.

Didaktik material bo‘lajak o‘qiutvchilarning o‘quv materialini chuqur anglashlari, material qismlarining uyg‘un aloqadorligini tushunishlari, pedagogning muammoli savollarini javoblarni mustaqil izlash, talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini tekshirish metodlarini egallashlari asosida qurilishi kerak. Rasmiy-empirik umumlashtirishga yo‘naltirishdan voz kechish, balki talabalarda mazmunli nazariy umumlashtirish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Nutq qobiliyati o‘qituvchi kasbiy faoliyatining muhim omilidan biri, chunki axborotni o‘qituvchidan o‘quvchiga yetkazish so‘zlashuv xususiyatiga egadir. Bunda nutqning ichki xususiyatlari (mazmunli) ham va tashqi xususiyatlari ham nazarda tutiladi. O‘qituvchi nutq ichki kuchi, ishonarliligi bilan ajralib turishi kerak. U jonli, obrazli, yorqin ifodali bo‘lishi, stilistik, grammatik, fonetik xatoliklardan xoli bo‘lishi kerak. Bir xildagi, cho‘ziq, bir ohangli nutq juda tez toliqtiradi, zerikish, befarqlikka olib keladi. O‘qituvchining haddan ortiq baland, shiddatli nutqi o‘quvchilarning asabini buzadi. Hazil, yengil do‘stona mutoyiba nutqni juda jonlantiradi.

O‘quvchilar bilan to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish kommunikativ qobiliyati, eng avvalo, ikki og‘ishishlarda qochishni nazarda tutadi. O‘quvchilarga befarq – begonalik bilan munosabatda bo‘lmaslik, holatlar farqini doimo ta’kidlamaslik, ularni “Masofada” tutmaslik lozim. Teskari xato qilmaslik ham tanish-bilishchilik munosabatlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Didaktik materialni tanlash va tashkil etishda suggestiv (lotinchadan “Ishontirishga asoslangan”) xususiyatni inobatga olish lozim. Bu talabalarga hissiy-irodaviy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, talablar qo‘yish va ularning bajarilishiga erishish qobiliyati.

Suggestiv qobiliyat o‘qituvchi irodasining rivojlanishi, o‘ziga chuqur ishonch, ta’lim va tarbiya uchun mas’uliyat hissi, shuningdek, kommunikativ-nutq madaniyatiga bog‘liq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq faoliyatlari bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga faol ta’sir etadi, o‘z navbatida bilimlarni o‘zlashtirish o‘quvchidan faol, mustaqil ijodiy fikrlashni talab etuvchi jiddiy muammodir. O‘qituvchining vazifasi to‘g‘ri, obyektiv xulosalarga olib keluvchi, isbotli fikrlashga asoslangan mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatish hisoblanadi.

Aqlning kengligi	Aqlning chuqurligi	Aqlning moslashuvchanligi
Bilish faoliyati	Bilimlar, qiziqishlar	Fikrlash erkinligi, obyektivlik

O‘quvchilar fikrlarining rivojlanishining tuzilishi

O‘qituvchi didaktik materialni tanlash va tashkil etish davomida aql hajmi, chuqurligi va moslashuvchanligiga bog‘liq bo‘lgan, fikrlashning mustaqilligini shakllantiruvchi metodlar va usullarga tayanadi. Fikrlash mustaqilligi o‘quvchilarning pedagog doimiy yordamiga tayanmagan holda, yangi vazifalarni qo‘yishlari va kerakli yechimlar va javoblarni topish ko‘nikmalarida ifodalanadi. Mustaqil fikrlash o‘quvchilar fikrlash faoliyatlarining individual xususiyatlariga bog‘liq. Fikrlash faoliyatini rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarda mulohazalarni shakllantirish va xulosalar yasash qobiliyati takomillashadi.

Bundan tashqari, didaktik materiallarni kiritishning imkoni yo‘qligini anglatuvchi me’yoriylik mezoniga va muloqot maqsadlari uchun kommunikatsiyaning ahamiyatliligi mezoniga javob berishi kerak. Shu tariqa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatilarini samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik material, talabaning intellektual, hissiy, irodaviy, qadriyatli-yo‘nalgan jihatlariga qamrab olib, uning yaxlit, ijodiy shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi didaktik materialni tanlash va tashkil etish davomida aql hajmi, chuqurligi va moslashuvchanligiga bog‘liq bo‘lgan, fikrlashning mustaqilligini shakllantiruvchi usullarga tayanadi. Fikrlash mustaqilligi o‘quvchilar o‘qituvchining doimiy yordamiga tayanmagan holda, yangi vazifalarni qo‘yishlari va kerakli yechimlar va javoblarni topish ko‘nikmalarida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.I. O‘qituvchi, ustoz, murabbiy. // Talabalar va yosh o‘qituvchilar uchun. Risola. – Qo‘qon DPI.– 2009-y.

2. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi. –2007-y.

3. Xalikov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish // – Monografiya. –Iqtisod Moliya. – T., – 2015-y.

Sherzod PRIMOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
“Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari to‘g‘risidagi fikrlar keltirilgan. Shuningdek, muallif, bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha “O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi” maxsus fanining mazmunini tahlil qilib bergan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ kompetentlik, kommunikativ ko‘nikmalar, kasbiy qiziqishlar, motivatsiya, kasbiy muloqot.

В статье представлен обзор теоретико-педагогических основ развития коммуникативной компетентности будущих педагогов. Автором также проанализировано содержание специального предмета “Коммуникативная компетентность учителя” по развитию коммуникативной компетентности будущего учителя.

Ключевые слова. Коммуникативная компетенция, коммуникативные навыки, профессиональные интересы, мотивация, профессиональное общение.

The article presents an overview of the theoretical and pedagogical foundations for the development of communicative competence of future teachers. The author also analyzes the content of the special subject “Teacher’s communicative competence” on the development of the future teacher’s communicative competence.

Key words. ommunicative competence, communicative skills, vocational interest, motivation, vocational conversation.

Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Texnikaviy va kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida”gi va “Ta’lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyalarida, “Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to‘g‘risidagi Bitimida dunyo miqyosida o‘qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalariga katta e’tibor berilgan. Jahonda oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari hamda talabalarni o‘qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko‘maklashish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritishga e’tiborni qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda[1].

[1] YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari. // O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri L.Saidova. –T.; “Adolat”, 2004, – B 19-62.

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo‘lishi, ularning o‘z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish”[2] oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish bo‘yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish globallashuv jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish shartlaridan biri unda insonparvarlik kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Biz aynan pedagogik fanlarning mazmuni bo‘lajak o‘qituvchi kommunikativ insonparvarlik asosini rivojlantirishga ko‘maklashishi mumkin deb hisoblaymiz.

Shuning uchun, psixologik-pedagogik tayyorgarlik mazmuni alohida e’tibor predmetiga aylanadi. Pedagogika sohasining davlat ta’lim standartlari, malaka talablarida fanlarni tanlovi, mantiqi, psixologik-pedagogik fanlarni o‘rganish izchilligi tamoyillariga taalluqlidir.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika sohasining davlat ta’lim standartlari, malaka talablarida psixologik-pedagogik tayyorgarlik fanlarni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga taalluqli masalalar, umuman ta’lim falsafasi, o‘quv-tarbiya jarayonining insonparvarligi asoslari ko‘rib chiqish zarur. Ayrim masalalar esa texnologiya darajasi bilan cheklangan (o‘zaro munosabat texnologiyasi, o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyasi).

Nazoratning turli ko‘rinishlarida yetarlicha ko‘p joy ajratilgan (tashhis, oraliq, joriy, yakuniy,), ammo o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirishning usullaridan biri sifatida, o‘quvchilarning ta’lim va tarbiya olishlari jarayonidagi subyektiv vaziyatlarining namoyon bo‘lishi sifatida o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazorat masalasi ko‘rib chiqilmagan.

Shu bilan birga, pedagogik faoliyat muammolari bo‘yicha ko‘p sonli tadqiqotlar materiallariga asoslanib, aynan o‘qituvchi va o‘quvchining bevosita pedagogik muloqotida pedagogning kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi, uning pedagogik vaziyati namoyon bo‘ladi, kasbiy ko‘nikmalar va malakalar ro‘yxati esa deyarli to‘liq kommunikativ ko‘nikma va malakalardan tashkil topganligini ta’kidlash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik fanlarning bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi va kommunikativ kompetentligining insonparvarlik asosini rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlari to‘liq hajmda foydalanilmaydi.

Bolaga insonparvarlik kommunikativ yo‘nalganlik o‘qituvchining har bir shaxsning mavjud ma’naviyligi va noyobligini anglashini ko‘zda tutadi. Shuning uchun, pedagogika fanlarni o‘qitishda asosiy vazifa bo‘lajak o‘qituvchini o‘quvchilarni xolis, o‘zi bilan teng subyekt sifatida idrok etishga tayyorlash hisoblanadi[3]. Ammo bo‘lajak o‘qituvchi o‘zaro munosabatlardagi haqiqiy tenglik barchaga bir xilda yondashishdan iborat emasligini anglashi lozim.

Shuning uchun, asosiy o‘rin har bir o‘quvchining individualligini ko‘ra olish va qadrlashni tarbiyalash, qayg‘urish va hamdard bo‘lish qobiliyatini rivojlantirish, boshqacha

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada – rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

[3] Бушелова Б.В. Культура общения.– Петропаловск. –1990.

aytganda, pedagogika Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish jarayonida talaba shaxsining insonparvar kommunikativ rivojlantirish alohida o‘rin egallashi kerak.

Pedagogik ta’limning zamonaviy konsepsiyasi asosiy e’tiborni ikkita vazifaga qaratadi. Bu talabada bolaga insonparvarlik, emotsional-qadriyatli yo‘nalganlikni rivojlantirish. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, u pedagogning kommunikativ kompetentligi yuqori darajasini va bo‘lajak kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Tarbiya nazariyasini inson nazariyasining aniq darajasi sifatida qarash qonuniydir. Uning roli va mavqeyini, qadri va vazifasini tushunish tarbiyani talqin etish, pedagogning bolalar bilan o‘zaro munosabati xususiyatlari bilan bog‘liqdir[4].

Ijtimoiy borliqda insonlarning yaratganlaridan boshqa hech nima yo‘qdir, shu sababli ham inson ijtimoiy borliqning subyektidir. Ammo yagona o‘zi sifatida emas, balki vertikal va gorizontal ijtimoiy aloqalar ishtirokchisi sifatida. Insonning subyektliligi o‘zaro munosabatlarda, mazkur o‘zaro munosabatlar orqali amalga oshiriladi[5].

Masalaning bunday qo‘yilishi (g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladigan bola kim sifatida namoyon bo‘ladi) zarurdir, chunki insonga har qanday munosabat ham insonparvarlik hisoblanavermaydi. Insonparvarlik shaxsga nisbatan subyekt sifatida qarashni ko‘zda tutadi[6].

Shu tariqa, mazkur maxsus fanning mazmuni, pedagogika bo‘yicha me’yoriy fanlardan ko‘ra o‘qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta imkoniyatga egadir. Masalan, barcha ko‘rib chiqilayotgan mavzularda pedagogning bolalar bilan o‘zaro munosabatlarining shaxsga-yo‘naltirilgan, insonparvarlik aspektlari yetakchi vaziyatni egallaydi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi” maxsus fanining mazmuni bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetentligining shartlaridan biri sifatida uning shaxsi kommunikativ kompetentligining insonparvarlik asosini o‘z-o‘zi rivojlantirishini rag‘batlantirishga bevosita ko‘maklashadigan tarzda belgilandi. Pedagogik fanlarni bo‘lajak o‘qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga bunday yo‘nalganligi uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, hozirga qadar, o‘qituvchi va talaba o‘zaro munosabatlari pedagogika fanida, yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur muammoning yechimi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar pedagogik o‘zaro munosabatlarning u yoki bu turini o‘rnatishning turli jihatlariga qaratilgan:

– mazkur o‘zaro munosabatlar buzilishi sabablari;

– ma’lum o‘zaro munosabatlar yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiyat va manbalar aniqlash;

– o‘qituvchining pedagogik mahorati darajasidan o‘zaro munosabatlarga bog‘liqlik darajasida o‘rnatilish;

– o‘qituvchining talaba hayotidagi o‘rni va roli o‘zaro munosabatlari darajasida bog‘liqlikligi.

O‘zaro ta’sirning yagona shakli mavjud bo‘lib, so‘zsiz, yaqin vaqtlarga qadar, bu o‘qituvchi va talabalar muloqotining o‘ziga xos xususiyati sifatida xizmat qildi.

Bunday o‘zaro hamkorlik qurilishining afzalliklari deb ataladi: bu munosabatlarni qayta aloqani tashkil etish uchun alohida harakat, asosiy mezonlar, tushunchalar,

[4] Гусинский Э.Н.,Турчанинова Ю.И. Образования личности. –М.,1994.

[5] Крутецский В.А. Психология. –М.:Просвещение,1986. – С.335.

[6] Крутецский В.А. Психология. – М.: Просвещение,1986. –С.335.

tamoyillarni tushunishga “Yagona”, umumiy yondashuv talab etilmaydi, o‘qish vaqtini “Tejash”ga imkon beradi va shunga ko‘ra, “O‘rganilgan bilimlarning sifati”ni tekshirish osonroq kechadi.

Mavzuga doir reja yetarlicha xilma-xildir. “Kommunikativ kompetentlik” boshlang‘ich tushunchasidan tashqari talabalarga bolalar bilan muloqot, o‘zaro munosabat sifatida pedagogik faoliyat tushunchasi beriladi, o‘qituvchi shaxsida kommunikativ kompetentligi xususiyati bo‘yicha insonparvarlikning mavjudligi zarurati ko‘rib chiqilib, u bolalar bilan munosabatlarning va pedagog xulqining bunday darajasiga erishishni nazarda tutadi va bunda o‘quvchilar eng katta qadriyat sifatida idrok etiladi.

Bundan tashqari, o‘zaro munosabatlarning subyekt-subyekt (insonparvarlik) kontekstida kasbiy-professional muammolar oldindan javobi ma’lum bo‘lgan “topishmoq” sifatida emas, balki talabalar va o‘qituvchilarning kundalik hayot faoliyatlarida sodir bo‘ladigan holda, ochiq savollar sifatida taqdim etildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mazkur maxsus fanning mazmuni, pedagogika bo‘yicha me’yoriy fanlardan ko‘ra o‘qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta imkoniyatga egadir. Barcha ko‘rib chiqilayotgan mavzularda pedagogning bolalar bilan o‘zaro munosabatlarining shaxsga-yo‘naltirilgan, insonparvarlik aspektlari yetakchi vaziyatni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari. // O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri L.Saidova. – T.; “Adolat”, 2004, 19-62b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

3. Бушелова Б.В. Культура общения.– Петропаловск, 1990.

4. Бушелова Б.В. Культура общения.– Петропаловск,1990.

5. Крутецкий В.А. Психология. –М.:Просвещение,1986. – С.335.

Lazizbek XAYITOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
“Defektologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

PEDAGOGIK AMALIYOTDA BO‘LAJAK DEFEKTOLOGLARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirishda korreksion-pedagogik faoliyatning tuzilishi inobatga olingan. Shuningdek, muallif mazkur yo‘nalish bo‘yicha turli olimlarning ilmiy izlanishlarini tahlil qilgan holda bo‘lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali rivojlantirish uchun o‘zining tavsiyalarini taqdim qilgan.

Kalit so‘zlar. Defektologiya, komponent, korreksion-pedagogik faoliyat, model, didaktik-texnologik sharoit.

В данной статье учтена структура коррекционно-педагогической деятельности в моделировании процесса развития социально-педагогической деятельности будущих дефектологов. Также автор, проанализировав научные исследования различных ученых по данному направлению, представил свои рекомендации для эффективного развития социально-педагогической деятельности будущих дефектологов.

Ключевые слова. Дефектология, компонент, коррекционно-педагогическая деятельность, модель, дидактико-технологические условия.

This article takes into account the structure of correctional and pedagogical activity in modeling the process of development of social and pedagogical competencies of future defectologists. The author also analyzed the scientific research of various scientists in this area and presented his recommendations for the effective development of social and pedagogical competence of future defectologists.

Key words. Defectology, component, correctional and pedagogical activity, model, didactic and technological conditions.

“Modellashtirish” pedagogik amaliyotga texnika fanlaridan kirib kelgan va “haqiqatda amalga oshiriladiganning loyihaviy modelini yaratish” sifatida talqin etiladi.[1] Modellashtirish muammosini ko‘pgina taniqli pedagoglar o‘rganganlar. Masalan, A.S. Makarenko “Insonningkuchli va boy tabiatini, unda barcha yaxshi fazilatlarni” modellashtirishning tarafdori bo‘lgan.[2] V.A. Suxomlinskiy “Modellashtirish” tushunchasiga pedagogik jarayonni qurish malaka-

[1] Симоненко, В.Д., Фомин, Н.В. Современные педагогические технологии: учебное пособие // В.Д. Симоненко, Н.В. Фомин. – Брянск: РИО БГПУ, 2001. - 395с.

[2] Макаренко, А.С. Педагогические сочинения: В 8-ми т. Т. 2 // Сост. М. Д. Виноградова, А. А. Фролов. – М.: Педагогика, 1983. - 512 с.

sini kiritgan[3]. V.V. Kraevskiy pedagogika sohasidagi barcha ilmiy ish ma'lum ma'noda pedagogik loyihalarni yangilash bo'yicha ish hisoblanadi, uning tashkil etuvchisi esa pedagogik modellashtirish hisoblanadi, deb ta'kidlaydi.[4]

Modellashtirish – bu obrazlar, turli jarayonlar va tizimlarni imitatsiyalash, shuningdek, salbiy omillarni bartaraf etishdir.

Pedagogik jarayonmodellashtirishtufayli texnologikka aylanadi, uning natijasida esa "Pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishlarini ta'minlovchi pedagogik texnologiya yaratiladi, pedagogik modellashtirish amaliyot va pedagogik nazariya o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'inga aylanadi".Modellashtirish jarayonida pedagogik nazariya ikki tomonlama rol o'ynashi mumkin. Pedagogiknazariya"Model sifatida foydalanilishi yoki uni shakllantirishning manbai bo'lishi mumkin". Pedagogik amaliyotni modelli ifodalash esa asosiy jarayonlarni umumlashgan ko'rinishda ifodalash va tavsiflashga imkon beradigan holda ularni qayd etishni nazarda tutadi.

Pedagogikada modellashtirish"Pedagogik modellarni qurish asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha izlanishlarni tavsiflashda qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biri" hisoblanadi.[5]

Faoliyat modeliga tadqiqotchilar ma'lum talablarni qo'yadilar. Jumladan model haqiqatga mos (mutaxassisning kasbiy-nazariy va amaliy faoliyati o'rtasidagi maksimal muvofiqlikni ta'minlashi kerak), dinamik (davriy ravishda qaytarilishi kerak, bunga ko'ra jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni uzluksiz aks ettirishga erishish mumkin) va shu bilan birga konservativ (mazkur kasbiy hamjamiyat ega bo'lgan an'anaviy kasbiy bilim, ko'nikmalarni to'plash va o'zlashtirishni ta'minlashi kerak), vaqtda ilgarilovchi, mutaxassisni tayyorlashda istiqbollarni belgilovchi, ya'ni prognostik xususiyatga ega bo'lishi kerak deb hisoblaydigan olimlarning fikrlariga tayanildi.

Yuqorida ifodalanganlarni inobatga olib, V.I. Zagvyazinskiy, N.A. Bessmertnaya, E.N. Jukatinskaya, A.Yu. Kruglikova, E.V. Koltakova, N.G. Petelina tomonidan mutaxassisni tayyorlash modellari ishlab chiqilgan, ammo bugungi kunda mutaxassisni tayyorlash modelini tuzishning o'zi yetarli emas, kompetentlik asosidagi mutaxassisni tayyorlash modelini yaratish yanada dolzarb hisoblanadi(A.A. Derkach, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, V.A. Slastenin, V.D. Shadrikov va b.q.).

Mazkur olimlarning nazariy ishlanmalarini inobatga olib, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar, bo'lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish modelini loyihalashni kasbga zamonaviy talablar asosida tashkil etildi.

"Defektologiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartida oliy ta'lim muassasasining o'quv ta'limiy jarayoni yo'nalishi va mazmuni belgilanadi, defektologgapedagogik talablar "Bakalavrlar kasbiy faoliyati vazifalari", "Bakalavriat asosiy ta'limiy dasturlarini o'zlashtirish natijalariga talablar" masalalari qo'yiladi.

Obyekt mazmunida model pedagogik amaliyot jarayonida talaba – bo'lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning yo'nalishi bo'lishi kerak.

---

[3] Сухомлинский, В.А. Сто советов учителю. Издательство: Удмуртия. 1981. - 296 с.

[4] Краевский, В.В. Повышение квалификации педагогических кадров // В.В. Краевский // Педагогика. 1992. - №7. - С.55-58.

[5] Бойко, Т.Н. Модельный подход к формированию социально педагогической компетентности будущих учителей-логопедов /Т.Н. Бойко // Вестник Брянского государственного университета. 2012. - №1.- Брянск: РИО БГУ, 2012. - С. 31-35.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning asosida imkoniyati cheklangan individuumning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligiga, uning rivojlanishi va o‘z-o‘zini amalga oshirishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bilish, ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy himoyani tashkil etish tizimi to‘g‘risidagi tasavvurlar, defektologning ijtimoiy-pedagogik faoliyatining o‘ziga xosligi va me’yoriy asoslari yotishi aniqlandi.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning ifodalanishko‘rsatkichi bo‘lib, ijtimoiy-pedagogik vazifalarni belgilash va yechish, ijtimoiy-pedagogik hatti-harakatlar usullarini dasturlashtirish va modellashtirish, ijtimoiy-pedagogik hatti-harakatlarni amalga oshirish, ijtimoiy-pedagogik hatti-harakatlar natijalarini baholash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘nikmalar guruhi va amaliy faoliyat tajribasi xizmat qiladi.

Bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal etishda amalga oshirish kasbni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-shaxsiy ustanovkalarga, shaxsiy sifatlarning rivojlanish darajasiga, o‘zini anglash darajasiga, o‘zini-o‘zi amalga oshirishga, kasbiy faoliyatning ahamiyatli ijtimoiy-pedagogik tashkil etuvchilarini amalga oshirishda qadriyatli yo‘nalganlikning shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish jarayoni nazariy model asosida amalga oshirilganida samarali bo‘lishi mumkin. Uni ishlab chiqish shaxsiy yo‘nalgan yondashuvni qo‘llashni talab etib, u modelda bakalavr-logopedlarning shaxsiy tavsiflarini, ularning hamkorlikdagi ta’lim jarayoniga jalb etilganliklarini ajratishni talab etadi.

Bakalavr-defektologning OTMda ta’lim olish jarayoni shaxsiy mazmunga ega bo‘lishi kerak, u olamni va kasbiy faoliyatni anglash vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Pedagogik amaliyot jarayonida ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish modeli o‘z ichiga o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi elementlarni kiritishi kerak: dasturiy-maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli-texnologik, natija-baholash va tashkiliy-pedagogik.

Modelning dasturiy-maqsadli elementi “Defektologiya”ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirishda ta’limiy yo‘nalishlarni aks ettirishi kerak, u maqsadni pedagogik amaliyot jarayonidabo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ko‘zda tutilgan natijasi sifatida belgilanishi kerak.

Maqsadni amalga oshirish barcha subyektlarning pedagogik amaliyot jarayonida pedagogik vaijtimoiy o‘zaro munosabatlarga tayyorliklari doimiy modifikatsiyasini ko‘zda tutuvchi innovatsion xususiyatga ega bo‘lishi kerak.

Modelning nazariy-metodologik elementi boshlang‘ich tadqiqotchilik vaziyatlarini belgilashi kerak va ularga tayangan holda modelni loyihalashni amalga oshirish zarur. Bu holatlar turli nuqtai nazarlardan: shaxsiy yo‘nalgan, faoliyatli, tizimli yondashuvlar va umumiy hamda maxsus ta’limni insonparvarlashtirishning nazariy g‘oyalarini inobatga olgan holda yoritildi.

Modelning nazariy-texnologik elementida bakalavr-logopedlar jalb etilganpedagogik amaliyotning mohiyati va rolini ochib berish zarur. Mazkur mazmunda pedagogik amaliyotbo‘lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligining ijtimoiy-shaxsiy, kognitiv, kasbiy-faoliyatli va analitik-refleksiv komponentlarini shakllantirish omili sifatida xizmat qilishi kerak.

Bo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi modelining ijtimoiy-shaxsiy komponenti mazmuni o‘z ichiga quyidagilarni kiritadi:

• nutq nuqsoniga ega bo‘lgan tarbiyalanuvchi shaxsini qadriyat sifatida tan olish;

• bo‘lajakdefektologning mazmuni, motivlari, maqsadlari, ehtiyojlari;

• ijtimoiy-pedagogikkompetentlikni aktuallashtirishda qadriyatli ustanovkalar.

Bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligi modelining kognitiv komponenti mazmuni o‘z ichiga quyidagilarni kiritadi:

• bo‘lajak defektologning korreksion-pedagogik faoliyatiga yo‘naltirilgan ijtimoiy yo‘nalgan nazariyani bilish;

• ijtimoiy kasbiy vazifalarni yechish algoritmini bilish;

• turli yo‘nalishdagi korreksion tashkilotlardagi mutaxassislarning o‘zaro munosabatlari xususiyatlari, shakllari va asosiy yo‘nalishlarini bilish;

• rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini va ular bilan ishlash metodlarini bilish;

• bolalarning turli ijtimoiy guruhlardagi xulq-atvorlari xususiyatlarini bilish;

• defektolog faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasini bilish.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlik modelining kasbiy-faoliyatli komponentining mazmunini kasbiy ko‘nikmalar, malakalar va bo‘lajak defektologning amaliy faoliyat tajribasi tashkil etadi. Kasbiy-faoliyatli ko‘nikmalar bo‘lajak defektologga quyidagilar uchun imkon beradi:

− ijtimoiy ahamiyatli muammolarni va korreksion-pedagogik faoliyat jarayonlarini tahlil qilishni bilish;

− ijtimoiy kasbiy vazifalarni yechishda mutaxassislarning o‘zaro munosabatlarini loyihalash, qurish va tartibga solishni bilish;

− ta’lim muhiti subyektlarining hamkorlikdagi faoliyatlari va shaxslararo munosabatlarini tashkil etishni bilish;

− kasbiy etika prinsiplariga rioya etib kasbiy vazifalarni bajarishni bilish;

− ijtimoiy-pedagogik vazifalarni yechish metodikasi va texnologiyasini egallaganlik;

− turli yo‘nalishdagi korreksion tashkilotlarda mutaxassislarning o‘zaro munosabatlari metodikasini egallaganlik;

− o‘z ishini rejalashtirish va faoliyatda ijtimoiy yo‘nalgan vazifalarni qo‘yishni bilish ko‘nikmalarini egallaganlik;

− ijtimoiy kasbiy vazifalarni hal etishda mutaxassislarning o‘zaro hamkorliklaridagi faoliyat tajribasini egallash;

− ijtimoiy yo‘nalgan korreksion-pedagogik faoliyatning turli metodlari, metodikasi va usullarini o‘rganish bo‘yicha faoliyat tajribasini egallash.

Bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligi modelining analitik-refleksiv komponenti mazmuni quyidagilarda ifodalanadi:

− o‘z faoliyati natijalarining ongli nazorati;

− hamkorlik va hamkorlikdagi ijodga yo‘nalganlik;

− o‘z zimmasiga nostandart yechimlarni qabul qilish mas’uliyatini olish qobiliyati.

Bo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi modelining sanab o‘tilgan komponentlari o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqadorlikka egadir.Bir komponentning o‘zgarishi o‘z ortidan bo‘lajak defektologijtimoiy-pedagogik kompetentligining boshqa komponentlari o‘zgarishiga olib keladi.

O‘tkazilgan logoped korreksion-pedagogik faoliyati mazmunining tahlili bo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi shakllanishining bosqichlarini ajratish imkonini berdi: motivatsion yo‘nalgan, kasbiy-faoliyatli, kasbiy-analitik.

Motivatsion yo‘nalganbosqichda bo‘lajak kasbiy faoliyatning motivlari va qadriyatlarining shakllanishi sodir bo‘ladi. Mazkur bosqichda pedagogik amaliyotning quyidagi vazifalari hal etiladi:

− bakalavrlarni haqiqiy korreksion tashkilot sharoitlarida umumiy yo‘nalganlik va motivatsiya bilan qurollantirish;

− bakalavr defektologning ko‘p funksional faoliyati to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirish;

− ta’lim tashkilotidagi ijtimoiymutaxassislarning korreksion-ta’limiy jarayondagi o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish;

− talabalarning kasbiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik tashkil etuvchisini amalga oshirishda kasbiy funksiyalarni amaliy egallash bilan ijtimoiy tarbiya nazariyasi bo‘yicha nazariy bilimlarni taqqoslash;

− talabalarni defektolog ta’limiy tashkilotda amalga oshiradigan logoped-bolalarning korreksion rivojlanishlari va ijtimoiy tarbiya amaliyoti bilan tanishtirish.

Mazkur bosqichda talabalarning mustaqil ishlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Kasbiy-faoliyatli bosqichda pedagogik amaliyotning haqiqiy sharoitlarida egallangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va faoliyat tajribasini amaliy qo‘llash muhim hisoblanadi. Mazkur maqsadni inobatga olish bilan pedagogikamaliyotvazifalari quyidagilar hisoblanadi:

− talabalarda ustozning maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar-logopetlar bilan korreksion va ijtimoiy-tarbiyaviy ishi bo‘yicha pedagogik tajribasini kuzatish, tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish;

− mutaxassislarning ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishdagi o‘zaro munosabatlarini loyihalash, qurish va tartibga solish ko‘nikmalarini shakllantirish;

− ijtimoiy-pedagogik vazifalarni yechish metodikasi va texnologiyasi bilan qurollantirish;

− o‘z ishini rejalashtirish va faoliyatda ijtimoiy-yo‘nalgan vazifalarni qo‘yish ko‘nikmasini shakllantirish;

− ijtimoiy yo‘nalgan korreksion-pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish;

− bolalar, ota-onalar, korreksion jarayonning boshqa mutaxassislari bilan ijtimoiy-pedagogik ishda amalga oshiriladigan kompetensiyalarni ishlab chiqish maqsadida tadbirlarni mustaqil o‘tkazish ko‘nikmasini shakllantirish.

Mazkur bosqichda korreksion-pedagogik faoliyat shaxsiy tajribasi va uning natijalarini muhokama qilishga e’tibor qaratish lozim.Kasbiy-analitik bosqichda talabalarning refleksiya va o‘z kasbiy faoliyati, ijtimoiy moslashuvi hamda mobilligini o‘z-o‘zini obyektiv baholashga ijtimoiy aloqador qobiliyatlarning shakllanishi sodir bo‘ladi.

Mazkur bosqichda pedagogik amaliyotvazifalari quyidagilar hisoblanadi:

− og‘ir nutq buzilishlariga ega bo‘lgan bolalar toifalari bilan tanishtirish;

− ta’limiy tashkilotlarda korreksion va ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni mustaqil loyihalash va amalga oshirishga o‘rgatish;

− korreksion-rivojlantiruvchi va ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo‘nalishlariga mos ravishda defektolog faoliyati texnologiyasini amaliy qo‘llashga o‘rgatish;

− imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalari bilan ma’rifiy ishlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha madaniyat muassasalari bilan o‘zaro aloqalar malakalarini shakllantirish;

− egallangan bilimlarni amaliy faoliyatda mustaqil va ijodiy qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish;

− o‘z kasbiy faoliyati refleksiyasi malakalarini shakllantirish.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning barcha rivojlanish bosqichlaridan izchil o‘tish imkoniyati cheklangan bolalarning muammolariga shaxsiy aloqadorlikni, bolalarga jamiyatga moslashish, ijtimoiylashish va integratsiyalarida yordam ko‘rsatish imkoniyatini anglashga yordam berishi kerak.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligining samarali shakllanishiga maxsus vositalar va texnologiyalar yordam berishi kerak.

Vositalar: tashkiliy (ishlab chiqilayotgan modelning ishlashini me’yoriy-huquqiy, moddiy-texnikvailmiy ta’minlash); psixologik-pedagogik (anketalar, “Defektologiya” yo‘nalishi bo‘yicha pedagogik amaliyot jarayoninio‘quv-metodikta’minlash).

Pedagogik amaliyot jarayonida turli ish turlarini bajarishda quyidagi texnologiyalarni moslashtirishni taklif etamiz:

− quyidagi komponentlardan iborat bo‘lgan talabalarniijtimoiy-pedagogik qo‘llabquvvatlash:

− talabaga ta’limiy tashkilotdagi haqiqiy korreksion-ta’limiy jarayon sharoitlariga moslashishda yordam ko‘rsatish;

− talabada pedagogik jarayon subyektlari bilan (nutq buzilishiga ega bolalar, pedagoglar, ota-onalar bilan) o‘zaro aloqalarni tashkil etish jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish;

− muammoli o‘qitish: treninglar, ishbilarmonlik vadidaktiko‘yinlar, munozara metodlari, jamoaviy ijodiy ishlar, pedagogik ustaxonalar, ijtimoiy-pedagogik jarayon variantlarini modellashtirish;

− ijtimoiy-pedagogikvazifalarni yechish texnologiyalari;

− interaktivta’lim texnologiyalari: portfolio texnologiyasi, internet-forum, shahar defektologlariningonlayn-master-klasslari, talabalar tomonidan o‘tkazilgan logopedik mashg‘ulotlar, konsultatsiyalar va tarbiyaviy tadbirlarning videoyozuvlarini tamosha qilish.

Modelning natija-baholash elementini bo‘lajak defektologlarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlik shakllanganligining mezonlari va darajalari hamda obyektiv ko‘rsatkichlarda ifodalanuvchi mazkur mezonlar va darajalarga muvofiqlik bahosi tashkil etishi kerak. Pedagogning ijtimoiy-pedagogik kompetentligiga hamdakompetentlikning boshqa turlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili bo‘lajak defektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi mezonlarini ajratish imkonini berdi.

Mezonlarni ajratish, bo‘lajak defektolog o‘zining lavozim majburiyatlarini bajarishni anglashga qanchalik tayyorligini aniqlashga, shuningdek, keyinchalik turli korreksion-pedagogik vazifalarni bajarishda o‘zining ijtimoiy-pedagogik kompetentligini samarali namoyon etishi uchun yordam beradi.

Nutq buzilishiga ega bo‘lgan tarbiyalanuvchi shaxsini qadriyat sifatida tan olish bo‘lajak defektologning kasbiy faoliyatga ijtimoiy va shaxsiy motivatsiyasini talab etadi. Shuning uchun bo‘lajak defektologijtimoiy-pedagogik kompetentligining motivatsion-shaxsiy mezonini ajratish mumkin.

Kognitiv komponent defektologning bilishga oid sohasining rivojlanishini ko‘zda tutadi (ijtimoiy-pedagogik bilimlarning to‘liqligi, tizimliligi va anglanganligi), shuning uchun bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligining kasbiy-kognitiv mezonini ajratish uchun barcha asoslar mavjud.

Ko‘nikmalar, operatsiyalar va amallar hamda o‘z faoliyati natijalarining ongli nazorati bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligining analitik-faoliyatli mezonini ajratish imkonini beradi.

Bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligi shakllanganligining mezonlariva ko‘rsatkichlari2-jadvalda ifodalangan.

Bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligining mezonlari va ko‘rsatkichlari mazmuni asosida uning shakllanganligi darajalarini ajratish mumkin bo‘lib, uning ostida biror-bir sifat rivojlanishining turli darajalarini tushunamiz.

Ijtimoiy-pedagogikkompetentlikningreproduktiv darajasi – ijtimoiy muammoni avvalgi tajribadagidek yechish natijasida harakatlar rejasi yuzaga kelishi mumkin, ya’ni vaziyatni tanish sodir bo‘ladi. Mazkur holatda muammoning mavjudligi ayon bo‘ladi, uni yechish usullari ma’lum hisoblanadi.

Qisman izlanishli daraja – muammo mavjud, ammo taklif etilgan uni yechish usullari qoniqarli emas, yanada samarali bo‘lganlarini mustaqil topish kerak.

Kreativ daraja – muammo obyektiv mavjud, ammo uni yechayotganning yutug‘iga aylangan, uni izlash ma’lum amaliy ehtiyoj bilan emas, balki bevosita pedagogik jarayonning rivojlanishi kasbiy faolligi va imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi. Bu bo‘lajak defektologni uni ajratishga va yechish usullarini belgilashga majbur etadi. Bu pedagogik vaziyatni istiqbolda ko‘rishdarajasidir.Unda pedagogik faoliyatning prognostik funksiyasi namoyon bo‘ladi va defektologning bo‘lajak kasbiy faoliyatining ijodiy xususiyati mazkur daraja bilan bog‘liq.

Ijtimoiy-pedagogik kompetentlikning mazkurreproduktiv, qisman-izlanishli va kreativ darajalari o‘rtasida sifatli farqlar mavjud.

Dastlabki ikki darajabo‘lajak defektologga ijtimoiy yo‘nalgan korreksion-pedagogik faoliyat usullarini egallash imkonini beradi, bo‘lajak kasbiy faoliyatning ijodiy xususiyati esa kreativ daraja bilan bog‘liq.

Ma’muriy-tashkiliy sharoitlarbo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

− OTMda pedagogik amaliyotni tashkil etishdabo‘lajak defektologning kasbiy-amaliy tayyorgarligi darajasiga zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimining talablari; universitetning turli maxsus tashkilotlar bilan o‘quv-ishlab chiqarish hamkorlik tizimining samaradorligi;

− talabalarning ularda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish jarayonida shaxsiy rivojlanishlari monitoringi.

Didaktik-texnologik sharoitlar quyidagilardan iborat:

− amaliyot dasturlarining variativligi, dinamikligi;

2-jadval

Bo‘lajakdefektologning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi rivojlanganligining mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Ko‘rsatkichlar
Motivatsion shaxsiy	- nutq buzilishiga ega tarbiyalanuvchiga qadriyatli munosabat (bolalarga mehr-muhabbat, korreksion-pedagogik ta’sirning ijobiy natijasiga ishonch); - bo‘lajak defektologning ijtimoiy yo‘nalgan faoliyatiga ijobiy motivatsiya; - ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni ongli aktuallashtirishga ehtiyoj; - boshqa insonlarga ta’sir etish va ishontirish hamda tushuntirish yo‘li bilan o‘z maqsadiga erishish qobiliyati; - shaxsning tizimli o‘zini-o‘zi rivojlantirishi zaruratini anglash; - imkoniyati cheklangan insonlarga munosabatda bag‘rikenglik va empatiya;
Kasbiy-kognitiv	− bo‘lajak defektologning ijtimoiy yo‘nalgan korreksion-pedagogik faoliyati nazariyasining asosiy qoidalarini bilish; - bo‘lajak defektologning ijtimoiy kasbiy vazifalarini hal etish algoritmini bilish; - turli yo‘nalishdagi maxsus tashkilotlarda mutaxassislarning o‘zaro munosabatlarining xususiyatlari, shakllari va asosiy yo‘nalishlarini bilish; - rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini va ular bilan ishlash metodlarini bilish; - bolalarning turli ijtimoiy guruhlardagi xulq-atvorlari xususiyatlarini bilish; - defektolog faoliyatining me’yoriy-huquqiy bazasini bilish; - ijtimoiy-pedagogik vazifalarni yechishning metodikasi va texnologiyasini egallaganlik; - turli yo‘nalishdagi maxsus tashkilotlarda mutaxassislarning o‘zaro munosabatlari metodikasini egallaganlik; - o‘z ishini rejalashtirish va faoliyatda ijtimoiy yo‘nalgan vazifalarni qo‘yishni bilish;
Analitik-faoliyatli	- ijtimoiy yo‘nalgankorreksion-pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilishni bilish; - o‘z-o‘zining diagnostikasi, mustaqil ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashni bilish; - o‘z faoliyati natijalarini ongli nazorat qilishni bilish; - faoliyat va munosabatlar natijalarini oldindan ko‘ra olish va prognozlash qobiliyati; - o‘z zimmasiga nostandart yechimlarni qabul qilish mas’uliyatini olish qobiliyati.

− talabani korreksion-ta’limiy faoliyatsubyekti vaziyatiga qo‘yadigan loyihaviy, muammoli o‘qitish texnologiyalarining ustunligi;

− amaliy faoliyatda muammoli vaziyatlarni modellashtirishning muammoli vaziyatlar texnologiyalarini qo‘llash;

− pedagogikamaliyot o‘tashjarayonidaijtimoiy-pedagogik kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish.

Individual-kasbiy sharoitlar quyidagilardan iborat:

− talabalarning ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni egallashdagi motivatsiyalari va faolliklari;

− bo‘lajak mutaxassis shaxsiningmuhim ijtimoiy yo‘nalgan faoliyat sifatlarining rivojlanganligi;

− pedagogik amaliyot jarayonida individualijtimoiy-pedagogikloyihalarni amalga oshirish;

− talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatlari.

Bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish modelining yakuniy elementi natija hisoblanadi. Bunday natija bo‘lib, umumta’lim va maxsus tashkilotda nutqida buzilishlari bo‘lgan bolalarning muvaffaqiyatli moslashishlari, integratsiyalari va ijtimoiylashuvlari, talaba shaxsining rivojlanishi maqsadida kasbiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogiktashkil etuvchisini muvaffaqiyatli bajarishga ko‘maklashuvchi, defektologning shakllangan ijtimoiy-pedagogik kompetentligi bo‘lishi kerak. Shu tariqa, taklif etilayotgan modelda OTMda bo‘lajak defektologning kasbiy-amaliy tayyorgarligini tashkil etishga asosiy talablar aks etadi.

Umuman olganda, mazkur modeldagi inobatga olingan resurslar to‘laqonli kasbiy faoliyat uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalar va amaliy faoliyat tajribasiga ega bo‘lgan defektolog shaxsini yaxlit shakllantirishni ta’minlaydi, deb hisoblaymiz.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak defektolog ijtimoiy-pedagogik kompetentligini shakllantirish modelining nazariy jihatlari uni samarali amalga oshirish sharoitlarida pedagogik tizimning yaxlitligiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Симоненко, В.Д., Фомин, Н.В. Современные педагогические технологии: учебное пособие // СимоненкоВ.Д., ФоминН.В.– Брянск: РИО БГПУ, 2001. – 395с.

2. Макаренко А.С. Педагогические сочинения: В 8-ми т. Т. 2 // Сост. ВиноградоваМ.Д., ФроловА.А.– М.: Педагогика, 1983. – 512 с.

3. Сухомлинский В.А. Сто советов учителю. – Удмуртия. 1981.

4. Краевский В.В. Повышение квалификации педагогических кадров // Краевский В.В.// Педагогика. 1992. – №7. – С.55-58.

5. Бойко Т.Н. Модельный подход к формированию социально педагогической компетентности будущих учителей-логопедов //БойкоТ.Н. // Вестник Брянского государственного университета. 2012. – №1. – Брянск: РИО БГУ, 2012.

Xasanboy QODIROV,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

TALABALARNING LIDERLIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING STRUKTURAVIY-MAZMUNLI MODELI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda liderlik salohiyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning samarali bosqichlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, muallif liderlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasida tadqiqot olib borgan xorijiy va milliy olimlarning ishlarini chuqur tahlil qilgan holda o‘zining tavsiya va takliflarini keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Liderlik, model, maqsadli komponent, mazmunli-protsessual komponent,-kasbiy funksiya, moslashuvchan funksiya.

В статье приведены эффективные этапы формирования и развития лидерского потенциала у студентов высших учебных заведений, а также, автор представил свои рекомендации и предложения с глубоким анализом работы зарубежных и национальных ученых, проводивших исследования по формированию лидерских навыков у студентов.

Ключевые слова. Лидерство, модель, целевой компонент, содержательно-процессуальный компонент, профессиональная функция, гибкая функция.

The article describes the effective stages of formation and development of leadership potential in students of higher education institutions, also the author presented his recommendations and suggestions with a deep analysis of the work of foreign and national scientists who conducted research on the formation of leadership skills of students.

Keywords. Leadership, model, target component, meaningful-procedural component, professional function, flexible function.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili pedagogik OTM talabalarida liderlikning namoyon bo‘lishini maqsadga muvofiq rag‘batlantirish validerlik salohiyati rivojlanishi jarayonini batafsil modellashtirish zarurati to‘g‘risida guvohlik beradi. Model talabalarning boshqaruv, tashkiliy, kommunikativ va boshqa pedagogik vazifalarni hal etishlari jarayonida aktual kompetensiyalarni shakllantirishda tarbiyaviy muhitning imkoniyatlarini aniqlash va tavsiflashga imkon beradi. O‘rganilayotgan jarayon muvaffaqiyatliligining muhim sharti OTMning maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy muhiti hisoblanadi.

Tadqiq etilayotgan jarayonga o‘xshash amal qiluvchi modellashtirish, moddiy va fikrlash tizimini yaratish metodi uning xususiyatlarini o‘rganishga hamda tizimning uni haqiqiy amalga oshirishdan oldinroq prognozlashtirishga imkon beradi hamda pedagogika uchun yangilik hisoblanmaydi[1].

[1] Кокорин А. А. Анализ: аксиоматическое эссе. – М.: Издательство МГОУ, –2003.– С.305.

Modellashtirishga ko‘ra ko‘pgina olimlar tadqiq etiladigan hodisalar va jarayonlarning mohiyatiga kirib bora olganlar (I.S. Arxangelskiy, O. Agapova, E.L. Belkin, I.Y. Konfederatov, N.V. Kuzmina, V.Y. Skvirskiy). [2]

Tarbiya sohasi ham bundan chetda qolmagan bo‘lib, bunda shaxsni yoki uning alohida sifatlari va tavsiflarini shakllantirishning turli tizimlarining modellarini ishlab chiqish bilan L.V. Bayborodova, Z.I. Vasileva, B.Z. Vulf, I.A. Kolesnikova, V.V. Krayevskiy, L.I. Novikova, S.D. Polyakov, N.L. Selivanova, V.P. Simonov, L.L. Shevchenko va boshqalarshug‘ullanganlar.[3]

Modellashtirishning zarurati tadqiqotdagi belgilangan vazifalar hamda liderlik salohiyatini bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy kompetentligining zaruriy qismi sifatida qaraladigan farazi bilan bog‘liqdir. Mazkurmaqolaning maqsadiga ko‘ra oqilona variant bo‘lib tadqiqot obyektining haqiqiy va prognozlashtiriladigan holati to‘g‘risidagi tasavvurlar majmuini tavsiflaydigan fikriy strukturaviy-mazmunli model hisoblanadi. Bunday modellashtirish pedagogik jarayonni strukturalashtirilgan ifodasini hamda uning maqsadi, vazifalari, amalga oshirish shakllari va metodlarini ko‘zda tutadi.

Maqsadga erishish uchun modelni pedagogik loyihalashda V.P. Bespalko,F.F. Korolev, N.V. Kuzmina, V.P. Simonov va boshqalar ishlarida ifodalangan pedagogik tizimlarning nazariy asoslariga tayanildi.[4]

Pedagogik OTM tarbiyaviy muhitida talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirish modeli uning rivojlanishi darajalarini tabaqalashtiruvchi *maqsadli, mazmunli-protsessual va nazorat-diagnostik*komponentlardan tashkil topgan o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqador majmua sifatida tushuniladi.

Maqsadli komponent pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi liderlik salohiyatini rivojlantirish jarayonining maqsadi, vazifalari, prinsiplari va funksiyalarini ifodalaydi. Model pedagogik OTM tarbiyaviy muhitida talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan va o‘z ichiga quyidagi vazifalar majmuini kiritadi:

• talabalarning OTM tarbiyaviy muhitida o‘zaro aloqalari jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni o‘zlashtirishlari;

• pedagogik faoliyat uchun ahamiyatli bo‘lgan tashkiliy kompetensiyalarni shakllantirish;

• nostandart pedagogik vazifalarni hal etish uchun instrumental kompetensiyalarni rivojlantirish.

Vazifalar tashkil etilgan ijodiy, hamkorlikdagi va rivojlantiruvchi OTM tarbiyaviy muhitining auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarida hal etilib, unda talabalar, shaxsiy ahamiyatli tajriba orttirib, uni refleksiya jarayonida anglaydilar.

OTM tarbiyaviy muhitida talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirish tizimlilik, uzluksizlik, faollik, faoliyatprinsiplariga tayanadi. Tizimlilik rivojlanish jarayoni barcha elementlarining, ya’ni model bosqichlari “Ishtirokchi”, “Murabbiy”, “Tashkilotchi” rolli vaziyatlarining mantiqiy o‘zaro aloqasi, o‘zaro to‘ldirilishi va bog‘liqligini ta’minlaydi. Uzluksizlik ta’limva tarbiyaning o‘zaro bog‘liq va o‘zaro singuvchi xususiyati, tayyorgarlikning nazariy va amaliy jihatlari integratsiyasini ko‘zda tutadi. Bir roldan boshqasiga

[2] Кузьмина Н. В., Реан А. А. Профессионализм педагогической деятельности. – СПб.: НИИРТМ, 1993. – С.89.

[3] Новикова Л. И. Воспитание как педагогическая категория // Педагогика.– 2000. № 6. – С. 28-35.

[4] Педагогика: Учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Издательский центр “Академия”, 2002. – С. 576.

bir maromda o‘tish (“Ishtirokchi”–“Murabbiy” - “Tashkilotchi”) modelning barcha bosqichlarining uzluksizligiga bog‘liq bo‘lib, bu liderlik salohiyati rivojlanishi jarayonining bosqichli, jamlanuvchi va uzluksizligini ta’minlaydi.

Faollik pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan tarbiyaning muammoli masalalariga va qiyinchiliklarni ijodiy yengishga tayyorlikka nisbatan tashabbuskorlik va qat’iyatlilikda ifodalanadi. Faollik liderlik holatining mohiyatini aks ettirib, faoliyatda maqsadga yo‘naltiriladi. Faoliyat prinsip liderlik salohiyati rivojlanishi sohasini belgilaydi – auditoriya va auditoriyadan tashqari, o‘quv va kasbiy faoliyat. Natijada, pedagogik faoliyat turli ko‘rinishlarining qurilgan izchilligi qo‘yilgan vazifalarni bosqichma-bosqich hal etish va maqsadga erishishga olib keladi.

Liderlik salohiyati rivojlanishi jarayoni quyidagilarni bajaradi:

• *tarbiyaviy funksiyani,* u liderlik salohiyatini rivojlantirishning optimal sharoitlarini yaratish uchun OTM tarbiyaviy muhiti imkoniyatlaridan foydalanishni ta’minlaydi;

• *kasbiy funksiya,* asosida nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki yosh o‘qituvchining pedagogik vazifalarni samarali amalga oshirishi uchun muhim bo‘lgan salohiyatlar yotuvchi pedagogik kompetentlikni shakllantirishga javob beradi;

• *moslashuvchan funksiya,* nostandart vaziyatlarda mustaqil ijodiy qarorlarni qabul qilishni rag‘batlantirish orqali bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Mazmunli-protsessual komponent talabalarning rolli vaziyatlarni (“Ishtirokchi” – “Murabbiy” – “Tashkilotchi”) bosqichli o‘tishlarini ta’minlovchi, ish mazmuni, metodlari va shakllarini o‘zidabirlashtiradi.

Mazmun liderlik salohiyati rivojlanishi jarayonining mohiyatini aks ettiradi:

1. pedagogik kasbda liderlik salohiyatining mohiyati va vazifasini aniqlash;
2. talabalar liderlik salohiyatini rivojlantirishga asosiy yondashuvlarni o‘rganish;
3. tarbiyaviy muhitda o‘zaro munosabatlar jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni o‘zlashtirish;
4. pedagogik faoliyatda ahamiyatli bo‘lgan liderning tashkiliy kompetensiyalarini shakllantirish;
5. instrumental kompetensiyalar asosida nostandart pedagogik vaziyatlarda o‘zining liderlik uslubini yaratish bo‘yicha mustaqil ijodiy faoliyatni faollashtirish.

Talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirish jarayoni nazariy o‘qitish va amaliy-yo‘naltirilgan tayyorgarlik, shuningdek OTM tarbiyaviy muhitida amalga oshadigan auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishda ifodalangan o‘quv faoliyatini qamrab oladi.

Lider o‘qituvchining shakllanishi mazmunli blok vazifalarini hal etishga rolli vaziyatlarni (“Ishtirokchi”, “Murabbiy”, “Tashkilotchi”) bosqichma-bosqich o‘tishga yo‘naltirilgan “Liderlikning 3 bosqichi” mualliflik dasturini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli faoliyatda sodir bo‘ladi. Muvaffaqiyatli, refleksiyasi amalga oshirilgan tajriba talabaning nostandart pedagogik vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini ta’minlaydi, shakllangan kompetensiyalar esa kasbiy kompetentlikda ahamiyatli rol o‘ynaydi.

Birinchi bosqich (“Ishtirokchi”roli)quyidagi shaxsiy o‘zgarishlar bilan belgilanadi:

• muloqotchanlikning va topshirilgan vazifa uchun mas’uliyatni qabul qilish qobiliyati rivojlanishi. Mazkur o‘zgarishlarni qayta anglash asosida shaxs strukturasida “Men-haqiqiy”ni “Men-ideal” bilan taqqoslash va idealning sifatlarini individual tarzda “Men-obrazi”da ifodalash sodir bo‘ladi. Buning natijasi talabaning pedagogik faoliyat jarayonida improvizatsiyaga va ijodni namoyon etishga moyilligi hisoblanadi. Dastur

ishtirokchisining o‘z shaxsiy tuzilmasini anglashi K. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan mos bo‘lgan (kongruent) shaxs modeliga asoslandi[5].

Ma’ruza va seminarlardagi pedagogik ish liderlikning asosiy masalalari, maqsadni belgilash, ijobiy motivatsion “ustanovka” – hayotda va kasbda liderlik salohiyati rivojlanishining ahamiyati bo‘yicha bilimlarni egallashni nazarda tutadi. Mazkur mazmunli vazifa ta’limva tarbiyaning integratsiyasi, liderlik salohiyatining hayot faoliyatining turli jarayonlarida zamonaviy insonning muvaffaqiyatliligi va uning kompetentliligining aloqasini ko‘rib chiqish orqali amalga oshiriladi.

Bu jarayonda quyidagi ish metodlaridan foydalaniladi: muammoli ma’ruzalar va seminarlar, munozaralar, konferensiyalar, master-klasslar va “Talabalar o‘z-o‘zini boshqarishi”, “Yoshlar orasida liderlik”, “Liderlik salohiyati rivojlanishi muammolari va o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi faol hayotiy pozitsiyasi” mavzulari bo‘yicha davra suhbatlari.

Shaxsiy o‘sish psixologik treninglari: kichik guruhlarda tanishishga, jamoalarni hosil qilish va hamjihatlikka, liderlik salohiyatining namoyon bo‘lishiga – muloqotchanlikning rivojlanishi va tashkiliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga, shuningdek, topshirilgan jamoaviy ishda o‘ziga mas’uliyatni olish qobiliyatining shakllanishiga ko‘maklashadi. Didaktik, ishbilarmonlik va rolli o‘yinlar shaxsiy tuzilmalarni bog‘lash uchun zaruriy sharoitlarni yaratadi.

Ikkinchi bosqichda (“Murabbiy” roli)jamoada ishlash ko‘nikmalari, umumiy maqsadni shakllantirish va unga erishishning jamoaviy yo‘llarini ishlab chiqish qobiliyati rivojlanadi. Mazkur bosqich uchun xos bo‘lgan, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi strukturasidagi o‘zgarishlarining ifodasi “Men-obrazi” va “Men-ideal”ni bog‘lash hisoblanib, bu kasbiy kompetentlikka ilgarilab o‘tishning samaradorligini ifodalaydi. Bosqich talabada jamoaning hamkorlikdagi a’zosi sifatlarining va jamoaviy muvaffaqiyatga erishishga intilishlar shakllanishiga ko‘maklashadi. Ushbu maqsadda kichik guruhlarda ishlash, unda o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, shuningdek, kasbiy maqsadni belgilash va nafaqat shaxsiy, balki butun guruhning muvaffaqiyatga erishishi motivatsiyasini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Mazkur bosqichda kichik guruhni boshqarish jarayonida umuman uning vaalohida ishtirokchilarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, nostandart pedagogik vazifalarni yechish samaradorligi, shuningdek, pedagogik faoliyatda yangi rollar va funksiyalarga qat’iy yondashuvlarda namoyon bo‘luvchi ijodiy fikrlash asosi sifatida pedagogik refleksiya shakllanadi.

Ikkinchi bosqich vaqtida “Yoshlar muhitida liderlik”, mavzusi bo‘yicha munozaralar, davra suhbatlari va master-klasslar qo‘llaniladi. O‘yinlar va treninglar boshqalarni jamoaviy muvaffaqiyatga motivatsiyalash qobiliyatini shakllantirish, jamoa hosil qilish va jamoada hamjihatlikni ta’minlash ko‘nikmasini ishlab chiqishga yo‘naltirilganbo‘ladi. Auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlarda vaziyatlarni modellashtirish va tahlil qilish, shuningdek, loyihalar va jamoaviy ijodiy ishlash metodi talabaga o‘zida pedagog rolini sinab ko‘rish va ijodkorlikni rivojlantirish imkonini taqdim etadi.

Liderlik salohiyati rivojlanishining **uchinchi bosqichi**(“Tashkilotchi”roli) quyidagi shaxsiy hosilalar bilan tavsiflanadi: notiqlik va kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi, bu esa jamoani boshqarishda muvaffaqiyatlilikning shakllanishiga ko‘maklashadi. Bu o‘zgarishlar o‘z-o‘ziga bahoning oshishiga ko‘maklashadi va shu bilan birga yetarli tajribani egallashga ko‘ra idealga yaqinlashishga va “Men-haqiqiy”, “Men-ideal” va

[5] Берне Р. Развитие Я-концепции и воспитания: пер. с англ. – М.: Прогресс, 1986.– С.423.

“Men-obrazi” o‘rtasidagi muvozanatni topishga imkon beradi. Nostandart vaziyatlarda kasbiy kompetensiyalarni amalga oshirish qobiliyatida ifodalanuvchi pedagogik faoliyatga motivatsiya va yo‘nalganlik mustahkamlanadi.

Talabalarning uchinchi bosqichni o‘tishlari jarayonida ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal etish vosita va usullarining alternativ izlash qobiliyatini shakllantirish, o‘z hatti-harakatlari natijalarini bashoratlashga e’tibor qaratiladi. Tashkiliy va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi va katta guruhlar bilan, jumladan nostandart vaziyatlarda o‘zaro munosabatlarda mos kompetensiyalar aktuallashadi. Qo‘yilgan vazifalarni hal etish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z xulqini anglash, kreativ tanlovni talab etuvchi vaziyatlarni tushunish qobiliyati shakllanadi.

Shaxsiy liderlik uslubini yaratish bo‘yicha mustaqil ijodiy faoliyatni faollashtirish “Tashkilotchi” rolini mazmunli to‘ldirishni ta’minlaydi. Egallangan muvaffaqiyatli tajriba asosida talabaning o‘ziga ishonchi ortadi va kasbiy sohada qat’iyatliroq bo‘lib boradi. O‘yinli va loyihali texnologiyalar, ijtimoiy ishlarda, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish organlarida, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etish kommunikativ va tashkiliy kompetensiyalarni mustahkamlab, notiqlik qobiliyatini va jamoaning tashkil etilishi va o‘z-o‘zini tashkil etishi malakalarini rivojlantiradi. Uchinchi bosqichni o‘zlashtirish pedagog uchun muhim bo‘lgan liderlik salohiyati rivojlanganligini yuqori darajasi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Talabalarning liderlik salohiyatini rivojlantirish jarayonining natijasi nazorat-diagnostik komponent yordamida baholanadi, unda rivojlangan liderlik salohiyati asosi sifatida kompetensiyalar majmuining shakllanganligi mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari ifodalangan. Vazifaning murakkabligiga binoan o‘rganilayotgan jarayon muvaffaqiyatlilik mezoni integrativ hisoblanadi. Shunga ko‘ra uning ko‘rsatkichlarini shakllantirilishi zarur bo‘lgan ajratilgan kompetensiyalarga mos bo‘lgan mavzuga oid guruhlarga ajratish mumkin. Shu munosabat bilan kommunikativ, tashkiliy va instrumental kompetensiyalar guruhi ko‘rinishida ifodalangan liderlik salohiyati rivojlanganligi mezoni mutaxassisga kasbi tomonidan qo‘yilgan talablarga u qanchalik mosligini aks ettiradi. Kommunikativ kompetensiyalar shakllanganligining ko‘rsatkichlari kommunikabellik, boshqalarni motivatsiyalash va notiqlik qobiliyatlari hisoblanadi. Tashkiliy kompetensiyalar shakllanganligi ko‘rsatkichlari – jamoaviy ishda o‘ziga javobgarlikni olishni bilish, jamoa hosil qilish, jamoani tashkil etish va o‘z-o‘zini tashkil etish malakalari hisoblanadi. Instrumental kompetensiyalar shakllanganligi ko‘rsatkichlari – improvizatsiyaga va ijodni namoyon etishga moyillik, yangi rollarga va pedagogik faoliyatdagi funksiyalarga yondashuvda qat’iyatlilik, nostandart vaziyatlarda kasbiy kompetensiyalarni amalga oshirish qobiliyatida ifodalanuvchi pedagogik faoliyatga motivatsiya va yo‘nalganlik. Ko‘rsatkichlar miqdoriy ifodaga ega hisoblanadi. Shuningdek, shakllanganlik darajalari (past, o‘rta, yuqori) va ularning tavsiflari (taqqoslash, umumlashtirish, muvozanat) ajratilgan. Shakllanganlikning bunday strukturasi majmuaviy hamda darajali tashhisni o‘tkazish imkonini beradi. Liderlik salohiyati rivojlanganligi ko‘rsatkichlarining shakllanganligi darajalari kichikdan kattaga ketma-ketlikda tuzilgan va muayyan rolni o‘zlashtirish darajasini, ya’ni talabalarning modelning mazmunli komponenti bosqichlari bo‘yicha ilgarilashlari dinamikasini aks ettiradi.

Birinchi bosqich va “Ishtirokchi” roli kompetensiyalar shakllanganligining past darajasini aks ettiradi va “Men-haqiqiy” hamda ”Men-ideal”ni taqqoslash bilan tavsiflanib, shaxsiy o‘sish “Men-obrazi”ni qurishga undovchi muayyan noqulaylikni ko‘rsatadi. Ikkinchi bosqich (“Murabbiy”) “Men-obrazi” va “Men-ideal”ni qiyoslash uchun asos hi-

soblanadi va kompetensiyalar shakllanganligining o‘rta darajasini belgilaydi. Uchinchi bosqichda “Tashkilotchi” rolida talaba “uchchala – Men”da muvozanat holatiga erishadi (“Men-haqiqiy”, “Men-obrazi” va “Men-ideal”), bu liderlik salohiyatini rivojlantirishni ta’minlovchi kompetensiyalar shakllanganligining yuqori darajasini ko‘rsatadi.

Nazorat-diagnostik komponent liderlik salohiyati rivojlanishi jarayonining majmuaviy hamda har bir element bo‘yicha nazoratni amalga oshirishga ko‘maklashadi, bu uni tuzatish va ixtiyoriy bosqichda tartibga keltirish imkonini beradi. Ifodalangan modelni uning barcha elementlarining birligida qarash lozim. Modelni amaliyotda amalga oshirish talaba shaxsi strukturasida chuqur va barqaror o‘zgarishlarga olib keladi.

Liderlik salohiyati rivojlanishining samaradorligi erishilgan natijalarning optimalligi belgilanadigan ko‘rsatkichlar bilan hamda talabalarning egalllagan rollariga (“Ishtirokchi” – “Tashkilotchi” – “Murabbiy”) mos ravishda mazmunli-protsessual komponent bosqichlari bo‘yicha aniqlanadi.

Strukturaviy-mazmunli modelni amaliy tekshirish uchun pedagogik OTM tarbiyaviy muhitida talabalarning liderlik salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqildi, uning mazmunli asosi “Liderlikning 3 bosqichi” mualliflik dasturidan tashkil topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Борытко Н. М. Методология и методы психолого-педагогических исследований: учеб.пособ. для студ. высш. учеб. завед. // Н.М. Борытко.

2. А.В. Моложавенко, И.А. Соловцова; под ред.Н.М.Борытко. – М.: Издательский центр “Академия”, 2008. –С. 320.

3. Борытко Н. М. Пространство воспитания: образ бытия: Монография/ науч.ред. Н. К. Сергеев. – Волгоград: Перемена, 2000. –С.25.

4. Константинова Н. И. Формирование профессионального самоопределения студентов в условиях социально-воспитательного пространства вуза: дис. канд.пед.наук. – Мурманск, 2006. –С.119.

5. Конышева Л. Н. Формирование лидерских качеств студентов посредством участия в деятельности органов самоуправления: Автореф. дис. канд. пед.наук. – Киров, 2009. –С.19.

6. Симонов В. П. Педагогический менеджмент: Ноу-хау в образовании: учебное пособие. – М.: Высшее образование, 2006. – С. 357.

Hafiza ISLOMOVA,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti, tayanch doktaranti

O‘QUVCHILARNING ODOB-AXLOQ SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAQOL VA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI (5-sinf misolida)

Annotatsiya

Maqolada muallif umumiy o‘rta ta’lim maktabi 5-sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodining kichik janrlari maqol va topishmoqlar orqali o‘quvchilarda odob-axloq, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentlikni rivojlantirish hamda o‘quv dasturiga kiritilgan maqol va topishmoqlarni tahlil qilib bergan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, xalq og‘zaki ijodi, maqol, topishmoq, odob-axloq, kompetentlik, tahlil, bilim, malaka, ko‘nikma.

В данной статье рассматривается развитие этики, знаний, умений, навыков, квалификаций и компетенций у учащихся через пословицы и загадки малых жанров народного устного творчества у учащихся 5-х классов общеобразовательной школы, а также анализ пословиц и загадок, включенных в учебный план.

Ключевые слова. Читатель, народное устное творчество, пословица, загадка, этикет, компетент, анализ, знания, квалификация, навыки.

This article deals with the development of ethics, knowledge, skills, qualifications and competencies of students through proverbs and riddles of small genres of folklore in students of 5th grades of secondary general education, as well as the analysis of proverbs and riddles included in the curriculum.

Key words. Pupil, folklore, proverb, riddle, etiquette, competence, analysis, knowledge, qualifications, skills.

Xalqning boy ma’naviy dunyosi, ularning orzu va intilishlari, ezgu maqsadlari xalq og‘zaki ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq maqol va topishmoqlarida folklorning boshqa janrlarida bo‘lgani kabi jamiyatning muayyan davrlari va rivojlanish bosqichlari, tarixiy o‘tmishlari, xozirgi kunning xususiyatlari, marosim va urf-odatlari, xalqning hayot tarzi aniq aks ettirilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari xalq og‘zaki ijodi namunalarini adabiy ta’lim o‘quv dasturiga kiritilgan tur va janrlari orqali o‘rganishadi. “Adabiyot” fanining 5-sinflar uchun o‘quv dasturi Davlat ta’lim standartining talablari asosida tuzilgan bo‘lib o‘quvchilarining fan bo‘yicha egallashi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga oid kompetensiyalar uchun me’yor hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim sharoitida o‘quvchilar xalq og‘zaki ijodi namunalari ya’ni ertak topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo‘shiqlari, hikoya, she’rlarni o‘qib tushunadi va janr xususiyatlarini farqlay oladi.

O‘qituvchi xalq og‘zaki ijodi namunalarining tur va janrlarini tahlili jarayonida asosiy e’tiborni asarning g‘oyasi va tarbiyaviy jihatiga qaratishi lozim. Umumta’lim maktablarining 5-sinf adabiyot o‘quv dasturidan o‘rin olgan xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommabop va qiziqarli janrlaridan bo‘lgan maqol, topishmoq va ertaklarni o‘quvchilar juda katta qiziqish bilan o‘qib o‘rganadilar. O‘quvchilarining ma’naviy tarbiyasida intellektual o‘sishida xalq maqol va topishmoqlarining juda katta ahamiyati bor. Shuningdek, o‘quvchilar “Adabiyot”

darsligiga kiritilgan bir qator maqol va topishmoqlarni o‘qib o‘rganadilar. DTS talablaridan kelib chiqqan holda topishmoq va maqollarni yod oladilar hamda tahlil qiladilar. Demak, ushbu jarayonda maqol va topishmoqlar o‘quvchilarning ma’naviy yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim vosita ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Maqol xalqning ko‘p yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “Qavlun” – gapirmoq, aytmoq degan ma’noni bildiradi. Maqollarda doimo ibratli fikr aytiladi. Biroq har qanday fikr ibratli bo‘lmaganidek, ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun muayyan shartlari mavjud.

Ana shunday shartlardan biri maqolga aylanuvchi ibratli fikr xalqning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribasida sinalgan bo‘lishidir. O‘quvchilar maqollarni o‘rganish jarayonida ularning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didi hamda kitobxonlik madaniyati ham shakllanadi. O‘zbek xalq maqollarida xalqning tarixi, urf-odati, turmush tarzi, ruhiyati, fe’l atvori, butun borlig‘i aks etadi. Shunga ko‘ra mavzusi xilma-xil va rang-barangdir. Qo‘yidagi maqollarni talqin va tahlili o‘quvchilar tarbiyasida alohida o‘rin tutadi.

Maqollar hayotiy tajribada sinalgan, aniq, tugal fikrni ifodalaydi. Masalan: “Mehnat, mehnatning tagi – rohat”, “Hunarli kishi xor bo‘lmas”, “Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz – hunar” ushbu maqollarda kishilar o‘z mehnati, hunari orqali yaxshi xayot kechirishi qancha mashaqqatalar evaziga egallagan hunari, kasbi orqali hayot yo‘lida qoqilmasligi, keyingi kuni rohat-farog‘atda o‘tishi kabi tarbiyaviy jihatlar ifodalangan. O‘quvchilar maqollar mazmunidan dangasalik, erinchoqlik yomon illat ekanligini, mehnatsevarlik insonning eng oliy fazilatlaridan ekanligini shuningdek mehnat orqali esa yaxshi yashash mumkinligini anglaydilar.

Ushbu maqollar ijtimoiy, hayotiy voqealar hamda ular mazmuni jihatidan o‘quvchilarga tarbiya beradi. “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni”, “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas”, “Vataning tinch – sen tinch” Maqollarda ilgari surilgan asosiy g‘oyaning zamirida har qanday ezgulik, sadoqatlik, uni asrash va qadrlashlik, vatanparvarlik faqat o‘z Vataniga muhabbatigina amalga oshishini, Vatanning tinchligi inson uchun qanchalar bebaho ekanligi, yurtsiz kishining sarson sargardonligi va achchiq iztiroblari yorqin aks etgan. Masalan: “Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagini oldirar, To‘rtavlon tugal bo‘lsa, tepadagini endirar” kabi maqollar aka-ukalar, opa-singillar, do‘stu- dugonalar o‘rtasidagi munosabatlarda ahil, birdam, o‘zaro ittifoq, hamfikr bo‘lishliklari xususidadir. Bir ota-onaning oltiti o‘g‘li bo‘lsa-yu, ular bir birlari bilan ahil-inoq, maslakdosh bo‘lmasalar og‘zidagi oshini ham oldirib o‘z maqsadlariga erisholmaydilar. Shuningdek to‘rt aka-uka bo‘lsa ham ular birdam bo‘lsalar ko‘p ishlarga qodir bo‘lishadi. O‘quvchilar xayotda ahil bo‘lishsagina oz kishi bilan ham katta yutuqlarga erishish mumkinligini lekin o‘zaro ittifoq bo‘lishmasa ko‘p kishi bo‘lishsa ham, hech nima qilisholmasligini anglaydilar. Shu o‘rinda maqollar shakl jihatdan she’riy hamda nasriy tuzilishga ega ekanligini o‘quvchilarga tushintirilsa ularning nazariy bilimlari yanada oshadi. Xalq maqollarida aks etayotgan voqea-hodisalarning tabiatidagi hajmi, rangi, uzunligi, masofasi, holati, sifati va boshqa jihatlari qarama-qarshi qo‘yiladi bunda ziddiyatni tomonlardan birini xalq nuqtai nazaridan tasdiqlaydi yoki inkor etadi. Masalan: “Do‘st achitib gapirar, dushman – kuldirib”, “ Yaxshi bilib so‘zlar, yomon tilib so‘zlar”, maqollarda do‘st va dushmanning, yomon bilan yaxshining munosabati “Jahl dushman, aql – do‘st” ushbu maqolda esa insonning holatidagi sifatlari zid qo‘yilgan.

Shu o‘rinda o‘quvchilarga hajmi, shakli hamda voqelikni aks ettirish jihatidan maqollarga yaqin turuvchi xalq matallarini ham birgalikda o‘rgatib ketishi, tahlil qilishi, namunalar keltirib ularning o‘rtasidagi farq va o‘xshash jihatlarini qiyoslashi orqali ham ularda insoniy fazilatlar rivojlanadi hamda darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan: “Bilim baxt keltirar” maqolida bilimli, aqlli kishi o‘z yo‘lini topadi ya’ni ilimi orqali baxtga erisha oladi kabi ma’no tugal hukm sifatida ifodalanganligi hamda ibratli fikr mavjudligidadir. Lekin “Burnini yerga ishqalamoq”, “Gul tikonsiz bo‘lmas”, “Go‘sht suyaksiz bo‘lmas, sholi kur-

maksiz” kabi matallarda esa aniq, tugal fikr bo‘lmasa ham lekin tarbiyaviy, pand-nasihat ma’nolari o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda alohida o‘rin tutadi. Haqiqiy xalq maqolida mehnatkash omma manfaatlari, ideallari aks etar ekan, maqolga murojaat etgan har bir kishi o‘z xalqi va vataniga iliq mehr bilan qarashga o‘rganadi adolat va ozodlik, mardlik va bahodirlik, insonparvarlik va do‘stlik, tinchlik, mehnatsevarlikka intiladi.

O‘quvchilarning intellektual o‘sishida, ma’naviy tarbiyasida maqol, ertaklar singari o‘z xususiyatlari bilan ulardan farq qiladigan aqliy mashg‘ulotlardan biri topishmoqlarni ham alohida o‘rni bor. Topishmoq shaklan maqollarga yaqin tursa ham, biroq voqelikni aks ettirish tarzi, asosan fikrni yashirin tarzda ifodalishi bilan maqollardan ajralib turadi. O‘zbek xalqi tarixida qadim zamonlardan beri topishmoqlar bo‘lib, bundan ancha ilgari yozilgan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘oti turk” asarida ham topishmoqlarning aytilib yurishi ham keltirilgan. Devonda topishmoq “Tabzug‘” deb nomlangan.

O‘zbek xalq topishmoqlari xalqning madaniyati, tili, tarixi va etnografiyasini, insonlarining o‘sha davrdagi didi, dunyoqarashlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Hozirda respublikamizning turli viloyatlarida topishmoq so‘zining – topmacha, jumboq, cho‘pchak, matal, muammo, lug‘z kabi so‘zlar bilan ifodalanishi asosan bir ma’noda – ma’lum bir predmetning, hodisaning belgisi, ko‘rinishi, sifat va xususiyatlarini ikkinchi bir narsaga ishora hamda uni topish, yechib berish ma’nolarini anglatadi.

5-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturiga kiritilgan topishmoqlardan tashqari mustaqil ravishda o‘quvchilar tomonidan biladigan topishmoqlar bilan birgalikda javoblarini topib tahlil qilinsa o‘quvchilar uchun ham dars qiziqarli bo‘ladi. Topishmoqlar insonlarni o‘rab turgan olam har doim rivojlanib, harakatda butun rang baranglikda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar berilgan topishmoqlarni topishish paytida atrofni kuzatishga, tabiat hodisalarini bilib olishga, ularga bo‘lgan munosabatini bildirishga o‘rganadilar. Masalan: “Bir parcha patir, Olamga tatir” topishmog‘ida to‘lin oy bilan patir bir biriga taqqoslangan va o‘rtasidagi shaklan o‘xshash jihatlari ya’ni topishmoqning javobi oyning juda chiroyli ko‘chimi ya’ni patirga qiyoslangan. Patir inson uchun nihoyatda to‘yimli ozuqa ekanligini, oyning esa, qorong‘u tunni munavvar qilishligini, har ikki holat ham inson uchun qaratilganligi ular orasida juda katta ma’naviy yaqinlik borligi ayon bo‘ladi. “Bir otasi, bir onasi, Necha yuz ming bolasi” ushbu topishmoqda quyoshni – otaga, oyni – onaga, yulduzlarni esa farzandlarga taqqoslanganligi javobi esa quyosh, oy va yulduzlarlarning chiroyli ko‘chimi ota, ona, farzandlarga mujassamlashtirilgan.

Topishmoqlarni topish maqollarni o‘rganib tahlil qilish o‘quvchilarda anchagina bilim talab qiladi. Topishmoq va maqollar o‘quvchilar xotirasini mustahkamlanishida, estetik didini o‘stirishda, aqliy rivojlanishida, zavqlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Demak o‘quvchilar tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan xalq og‘zaki ijodining maqol, topishmoq, ertak kabi eng ommaviy janrlari maktab darsliklariga kiritilishi, o‘quvchilarga yetkazilishi ularda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentligini rivojlanishida katta samara beradi. Topishmoq va maqollar juda katta ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarda qiyoslash, mohirlik, bahs-munozara, muhokama kabi qobiliyatlarini o‘stirishda muhim estetik vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990 y. 99-107 b

2. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” uch tomlik. 1-tom, – T., 1960, – 429 b

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarorining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablari” nomli 3-ilovasi.

4. Umumta’lim maktablarining 5- sinflar uchun adabiyotdan o‘quv dasturi. – T., 2017

5. Z. Husanova. “O‘zbek topishmoqlari”. – T., 1966-y

Qizlarxon AZIZOVA,
Andijon viloyati XTXQTMOXM, “Maktabgacha,
boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

Annotatsiya

Maqola boshlang‘ich ta’lim o‘quvchisining bilim olishga doir ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Muallif boshlang‘ich ta’lim tuzilishi va mazmunini integrativ asosda o‘qitishni ta’minlovchi yangi dasturlar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim muhiti, innovatsion maktablar, mezon, ta’lim mazmuni, variativ dasturlar.

Статья посвящена вопросам развития навыков ученика начального образования по получению знаний. Автор высказал свои мысли и мнения по разработке новых программ и учебно-методических пособий, обеспечивающих интегративное обучение структуры и содержания начального образования.

Ключевые слова. Интеграция, начальное образование, образовательная среда, инновационные школы, критерия, образовательный контент, вариативные программы.

The article deals with the formation of skills and abilities of younger students in the field of knowledge acquisition. The author expressed his views and comments on the development of new programs and educational complexes that provide the structure and content of primary education on a comprehensive basis.

Key word. Integration, primary education, educational environment, innovative schools, educational content, variable programs.

Hozirgi vaqtda ta’lim sohasida davlat ta’lim standartining komponentini joriy etish bilan bog‘liq o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Mazkur o‘zgarishlar boshlang‘ich ta’lim tuzilishi va mazmuniga taalluqlidir. Boshlang‘ich ta’lim tarixida umumiy ta’limning davlat standartida mazmunning strukturaviy birligi sifatida bilimlar va metabilimlar belgilangan va ularning integratsiyasining zaruriy darajasi ta’minlanmoqda.

Shu bilan birga ta’lim muassasalari o‘qituvchilari hamda rahbarlari uchun o‘qitishning nafaqat asosiy mazmunini (Davlat ta’lim standartida belgilangan), balki o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan jarayonlarni ham inobatga oluvchi ta’lim jarayonining asosiy mezonlarini ajratish murakkabligicha qolmoqda.

Biz o‘z rivojlanish dasturini belgilovchi zamonaviy maktab nafaqat fan sohalari, balki ularning o‘quvchining umuman bilishga oid rivojlanishida, qadriyatli va yoshga

oid jihatlaridagi vazifalarini inobatga olib ta'lim mazmuni, tuzilishini belgilovchi o'quv rejasi konsepsiyasiga (uning g'oyasiga) ega bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

I.S.Yakimanskayaning konsepsiyasi bo'yicha, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning asosi muallif tomonidan ishlab chiqilgan mazmunga qator didaktik talablarda amalga oshiriladigan ta'limning subyektliligi prinsipi hisoblanadi: o'quv materiali (uni taqdim etish xarakteri) o'quvchining subyektiv tajribasi mazmunini, jumladan uning avvalgi ta'limi tajribasini aniqlashni ta'minlashi kerak; bilimlarni darslikda (o'qituvchi tomonidan) bayon etish nafaqat ularning hajmini kengaytirishga, predmetli mazmunini strukturalashtirish, integratsiyalash, umumlashtirishga, balki bolaning mavjud tajribasini qayta o'zgartirishga yo'naltirilishi kerak; o'quv materiali shundan tashkil etilishi kerakki, o'quvchi topshiriqlarni bajarish, masalalarni yechishda tanlash imkoniga ega bo'lishi kerak; o'quvchilarni mustaqil tanlovga va o'quv materiali bilan ishlashning ular uchun eng ahamiyatli usullaridan foydalanishga undash zarur; o'quv amallarini bajarish usullari to'g'risidagi bilimlarni kiritishda o'quv ishining umummantiqiy va o'ziga xos maxsus predmetli usullarini ularning shaxsiy rivojlanishdagi vazifalarini inobatga olib ajratish; ta'lim jarayoni subyektiv faoliyati sifatida o'qitishning qurilishi, amalga oshirilishi, refleksiyasi, bahosini ta'minlashi kerak.

Buning uchun, o'qitish birliklarini ajratish, ularni tavsiflash, o'qituvchi tomonidan darsda, individual ishda foydalanish zarur. I.S.Yakimanskaya ta'kidlashicha "shaxsning rivojlanishi va o'z-o'zini amalga oshirishi uchun mazmuni bo'yicha turli-tuman har bir bola uchun qulay ta'lim muhiti kerak".[1]

V.T.Fomenkoning "deyarli barcha standartlar ma'lum umumiy mazmunga, yagona didaktik asosga ega bo'lishi", "ta'lim standartining mazmunini boshqa standartlar bilan umumlashtiruvchi ma'lum vektor tizimi, umumiy asos sifatida",[2] deya ta'kidlagan.

Bolaning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishning sharti sifatida ta'lim muhiti biz tomonimizdan ikki tomondan modellashtiriladi – subyektli, ijtimoiy-madaniy yo'naltiruvchi va obyektli, fazo-predmetli, rivojlantiruvchi. Subyektli jihat barcha faoliyat va muloqot turlari mazmunida o'z aksini topgan insoniy munosabatlar sohasini ifodalaydi. Obyektli jihat subyekt-obyektli o'zaro munosabat sifatida xizmat qilib, bunda bola mustaqil yoki bolalar guruhida "texnogen dunyo" bilan ko'pgina aloqalar va munosabatlarni o'rnatadi. U dastlab madaniy-obrazli usulda shifrlangan predmetlar, belgilar, simvollar va hokazolarning olamini kashf etadi. Obyektli jihat bolaning madaniyat qadriyatlariga mustaqil borishini ta'minlaydi.

Shuning uchun, bola shaxsini oliy qadriyat va ta'lim mazmuni sifatida tan olib, biz uning rivojlanishi manbai sifatida mazmun komponentlarining quyidagi mezonlarini ajratildi: *faoliyatli, shaxsiy yo'naltirilgan, konseptual, muammoli, muqobil (variativ), milliy-hududiy, predmetli mazmunning integratsiyalangan xarakteri.*

Bola hayotida boshlang'ich ta'lim- prinsipial yangi, qimmatli bosqichdir. Mazkur davrda o'quv faoliyatining asoslari shakllanadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim mazmunining xususiyati nafaqat "O'quvchi nimani bilishi kerak (eslab qolishi, amalda

[1] Якиманская И.С Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М., 2002. – С.112.

[2] Фоменко *В.Т.* Дидактический стандарт содержания образовательного процесса. Системный обзор современных образовательных технологий. Ростов н // Д.,– 1994. – С.39.

takrorlashi) kerak?” savoliga javob, balki “O‘quvchi egallagan bilimlarini qo‘llashi (izlashi, baholashi) uchun nima qilishi kerak?” savoliga javob sifatida faoliyat aniq usullarini yig‘indisidir.

Shu tariqa ta’lim mazmunida bilimli komponent mazmuni bilan bir qatorda faoliyatli komponent ifodalangan, bu bolaga kelajakda o‘zgarib boruvchi bilimlar olamida tezroq va muvaffaqiyatliroq moslashishi, jamiyat, uning atrofidagi olam bilan asosiy munosabatlarni o‘rnatishiga imkon beradi. Umumiy boshlang‘ich ta’lim davlat standartida mazmunning strukturaviy birliklari sifatida bilimlar va faoliyat usullari o‘rtasida o‘ziga xos muvozanat o‘rnatiladi.

Har bir o‘quvchi – individual, shaxsiy (subyektli) tajriba tashuvchisidir. U avvalo unga tabiat tomonidan individual shakllanishiga ko‘ra berilgan o‘z imkoniyatini ifodalashga intiladi va mazmun unga shu tariqa mos sharoitlarni taqdim etib yordam berishi kerak. Ta’lim olib bir tomondan, o‘quvchi nimani bilishi va qila olishi bilan boshqa tomondan – u o‘qishga tayyor ekanligi bilan belgilanadi. Berilgan mazmunni o‘zlashtirib o‘quvchi nafaqat ilmiy ma’lumotni oladi, balki uni shaxsiy tajribasi asosida qayta o‘zgartiradi, ya’ni bilishning subyektli modelini quradi va unga nafaqat mantiqiy ahamiyatli, balki o‘rganiladigan obyektlarning shaxsiy ahamiyatli belgilari ham kiritiladi. Didaktik materialni loyihalash bir xilda barqaror natijalarga erishishga imkon beruvchi o‘quv ishlarining shaxsiy ahamiyatli usullarini tanlashga imkon beradi.

Mazmunning alohida yetarlicha zich predmetli qatlamining mavjudligida o‘qituvchi o‘quv jarayonini, uning o‘zi har bir bolaning rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladigan tarzda tashkil etishga intiladi.

Bolalar rivojlantiruvchi topshiriqlarni bajarib atrof-muhitni anglay boshlaydilar, unda insonning rolini tushuna boshlaydilar; kuzatish va taqqoslashga, so‘rash va isbotlash, o‘zaro aloqadorliklar, sabab va oqibatlarni aniqlashga o‘rganadilar; olingan ma’lumotni rasm, sxema, jadval ko‘rinishida ifodalaydilar; hududni tanishga o‘rganadilar, shuningdek, ijodiy mehnatga o‘rganadilar, bu jamiyatning uzluksiz ta’lim tizimiga kirib borishi sharoitlarida alohida dolzarblik kasb etadi.

Konseptual darajada qurilgan mazmun o‘quvchilarning aqliy rivojlanish imkoniyatlariga ko‘proq oshiradi. Mazkur mezon muayyan izchillikni ko‘zda tutib, bunda xususiy yo‘nalganlik tizimi emas, balki umumlashgan prinsip o‘zlashtiriladi. O‘quvchilar uni bir necha xususiy misollarda egallaydilar, ammo ular o‘zlashtirish predmeti sifatida emas, balki ulardan har birining mohiyatini boshqa ixtiyoriy holatning mohiyatini tashkil etadigan umumiy o‘zlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Mazmun tarkibida yetarlicha ifodalangan milliy-hududiy komponentning mavjudligi muhit va o‘quvchilarning mikromuhitlarini integratsiyalash zaruratiga bog‘liqdir. Bola uchun unga yaqin va tushunarli bo‘lganlarni, ya’ni u tomonidan o‘zlashtirilgan va boshdan kechirganlarini tushunishi oson va shunda ushbu asosda o‘rganish obyekti to‘g‘risidagi bilimlarni kengaytirish mumkin. Mazkur yondashuvda o‘quv mazmuni o‘quvchilarning haqiqiy hayot faoliyatlari mazmuniga yaxshi singadi, umumlashtiruvchi, integratsiyalovchi omil hisoblangan qadriyatli yo‘nalganlik, mazmunning baholash, shaxsiy-mazmunli komponentlari faol qo‘llaniladi.

Mazkur yondashuvda I.V.Abakumova ta’kidlaganidek, mazmunni strukturalashtirish “o‘quvchilarning integrativ faoliyatlari materiali sifatida bir xildagi emas (yoki

mazmunli, yoki faqat semantik), balki mazmunni turli xil elementlari xizmat qiladi". [3]

Integrativ asosda o'qitishni ta'minlovchi yangi dasturlar va o'quv-metodik komplektlarni ishlab chiqish mavjud o'quv dasturlarini butunlay qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, yangi mazmunni tanlash va metodik tashkil etishni ko'zda tutadi, ammo boshlang'ich ta'limda bunday integratsiya ta'minlanishini taqozo etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim jarayoni mazmunining mezonlarini ko'rib chiqib, bizning fikrimizcha bir asosiy xususiyatni ajratishimiz mumkin. Boshlang'ich ta'limda ta'lim muhitini tashkil etishda sanab o'tilgan mezonlar umumiylikda, o'zaro aloqadorlikda, o'zaro to'ldirilishida, ya'ni mazmunning integratsiyasida amalga oshiriladi va bu zamonaviy ta'lim jarayonining tavsiflaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Якиманская И.С Личностно-ориентированное обучение в современной школе. М., 2002. – С.112.

2. Фоменко В.Т. Дидактический стандарт содержания образовательного процесса. Системный обзор современных образовательных технологий. Ростов н // Д.,– 1994. – С.39.

3. Абакумова И.В. Обучение и смысл: смыслообразование в учебном процессе (психолого-педагогический подход). – Ростов-на-Дону, 2003. – С. 480.

[3] Абакумова И.В. Обучение и смысл: смыслообразование в учебном процессе (психолого-педагогический подход). – Ростов-на-Дону, 2003. – С. 480.

Farxod UMAROV,
O‘zbekiston respublikasi oliy harbiy aviatsiya
bilim yurti “Aviatsiya qurollari” kafedrasi mudiri, podpolkovnik

HARBIY-KASBIY KOMPETENTLIK VA HARBIY MAHORATNING UMUMPEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada harbiy-kasbiy kompetentlik va harbiy mahoratning umumpedagogik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, muallif harbiylik kasbi, bo‘lg‘usi ofitserlarda kasbiy kompetentlik, harbiy xizmat talablari, oliy harbiy o‘quv yurti ofitserining kasbiy sifatlari haqida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar. Kasb, harbiy, kasbiy kompetentlik, kasbiy mahorat, ofitser, qo‘mondon, kasbiy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, pedagogik madaniyat, harbiy pedagogika.

В статье рассматриваются общепедагогические аспекты военно-профессиональной компетентности и военного мастерства. Автор также привел свое мнение о военной профессии, профессиональной компетентности будущих офицеров, требованиях к военной службе, профессиональных качествах офицера высшего военного учебного заведения.

Ключевые слова. Профессия, военный, профессиональная компетентность, профессиональные навыки, офицер, командир, профессиональная подготовка, психологическая подготовка, педагогическая культура, военная педагогика.

The article deals with general aspects of military professional competence and military skill. The author also gave his opinion about the military profession, professional competence of future officers, requirements for military service, professional qualities of an officer of a higher military educational institution.

Key words. Profession, military, professional competence, professional skills, officer, commander, professional training, psychological training, pedagogical culture, military pedagogy.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘tkazilayotgan islohotlar mamlakatimizning mustaqilligi va hududiy yaxlitligi, davlatimiz tinchligi va barqarorligini yanada ishonchli ta’minlash kafolatini yanada oshirmoqda. Shuningdek, mamlakatimizning tinchlik-osoyishtaligini himoya qilish, mustaqilligimizni yanada mustahkamlashning kafolati bo‘lgan Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy armiyamizning jangovar tayyorgarligi va harbiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa, o‘z-o‘zidan harbiy oliy o‘quv yurti bo‘lajak ofitser kursantlari faoliyatiga ham qator dolzarb vazifalar yuklaydi. Chunki, bugungi kun bo‘lajak ofitser qator pedagogik sifatlar, ya’ni kasbiy kompetentlik, kasbiy mahorat, kasbiy barkamollik kabi ijobiy siftalarga ega bo‘lmoqlari shart sanaladi. Qayd etilgan sifatlarning ichida kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik fenomenlari o‘ziga xos sanalib, u orqali harbiy xizmat sharoitida o‘ta muvaffaqqiyatli faoliyat olib borish mumkin. Demak, kasbiy mahorat va kasbiy kompetentlik sifatlarini harbiylik kasbi bilan bog‘lab o‘rganish o‘ta dolzarb sanaladi.

Pedagogik mazmunga ko‘ra, harbiy kasbiy mahorat – bu harbiy kasbiy tayyorgarlik va harbiy xizmat xodimining jangovar topshiriq va majburiyatlarni muvaffaqqiyatli bajarish qobiliyatidir. Harbiy xizmatda kasbiy mahoratning quyidagi xususiyatlari farqlanadi:

− harbiy xizmatning ijtimoiy-huquqiy, funksional asoslarini mukammal bilish;

− kasbiy vazifalarni oqilona bajarish;

− harbiy xizmatning jamoaviy tarkibiga va harbiy xizmatchilarning faoliyatiga javobgar bo‘lish va hokazo.

Bundan tashqari, bo‘lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini tushuntiruvchi quyidagi jihatlar mavjud:

− ma’naviy javobgarlik;

− fidoyilik;

− mustaqillik;

− munosabatlardagi xolislik;

− rasmiy vazifalarni amalga oshirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik va daxlsizlik va boshqalar.

Harbiy mahorat deganda, har bir bo‘lajak ofitserlardagi kasbiy mahoratning yuqori darajasi yoki ularning harbiy qismda faoliyat olib borishga tayyorligi tushuniladi. Bu holat ulardagi harbiy xizmat vazifalarini kafolatli va samarali bajarilishini ta’minlaydi.

Yuqori harbiy mahoratga ega bo‘lgan ofitserlar, turli sharoitlarda o‘zining funksional vazifalarini barqaror va samarali bajaradilar. Ofitserning harbiy mahorati kasbiy kompetentlikning barcha tarkibiy qismlari bilan bog‘liq sanalib, u tarbiyaviy ishlardagi faollik, xizmat faoliyatidagi samarali mehnat olib borish ishlari bilan izohlanadi. Yuqori lavozimdagi ofitser boshliqning quyidagi boshqaruv sifatlari ajratiladi:

− jangovar hamjihatlik – harbiy xizmat vazifalarini hal qilishda harbiy jamoani yaxlit tarkibga aylantiradigan shaxsiy harakatlar va tartiblilik;

− tayyorlik – harbiy xizmatchilarning yuqori kasbiy mahoratiga asoslangan, vazifalarni hal qilish uchun barcha xodimlarning puxta harakatlari majmui;

− bo‘linmani samarali boshqarish va uni faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishdagi barqarorlik;

− mahorat – jamoaning barcha imkoniyatlardan foydalanish qobiliyati yoki har qanday vaziyatda harbiy xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta’minlaydigan samarali yechimlar, vositalar va usullarni qo‘llay olish;

− ishonchlilik – jamoaning noqulay sharoitlardagi harakatlari sifatini pasaytirmaslik qobiliyati.

Bundan tashqari, harbiy mahoratning muhim tarkibiy qismlariga jamoa a’zolarining bir-birlarini o‘zaro tushunishi va o‘zaro hamjihatligi, harbiy-kasbiy masalalardagi bir xil qarashlar kabilar ham kiritiladi. Bunday jamoadagi jangchilar bir-birini yaxshi bilishadi, mukammal tushunishadi, vaziyatni teng qabul qilishadi va o‘zgargan vaziyatlarga o‘z munosabatlarini bildirishadi. Bularning barchasi birdamlikda, jangovar uyg‘unlikda, bir faoliyat turidan ikkinchisiga tez o‘tish qobiliyati va o‘zaro almashinish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

Harbiy pedagogika ma’lumotlarida harbiy mahorat tushunchasi harbiy xizmat predmetining eng yuqori darajasi deb ta’riflanib, u xizmat faoliyatida oddiy masalalarni emas, balki harbiy xizmatchilarning har tomonlama rivojlanish darajasini, ijtimoiy ong dinamikasini, harbiy xizmatga munosabatini va irodaviy fazilatlari kabi dolzarb masalalarni ham hal etadi.

Bir so‘z bilan aytganda, harbiy-kasbiy, mahorat-kasbiy professionallikni ifodalovchi qator ijobiy fazilatlar majmuidir. Ammo, uning ba’zi pedagogik tarkibiy qismlarini tahlil etish, bo‘lg‘usi ofitserlarning kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq pedagogik, psixologik qonuniyatlarini kengroq tushunishga yordam beradi.

Harbiy sohadagi kasbiy bilimlar, harbiy faoliyatni muvaffaqqiyatli va samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlardan sanaladi. Mazkur sharoitda xizmat faoliyatining eng yuqori maqsadlariga erishiladi.

Xizmat sharoitida harbiy harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

− motivatsion aloqalar, kasbiy harakatlarni nazorat qilish va baholash;

− harbiy xizmatning maqsadi va vazifalarini tushunish, vaziyatni o‘rganish va tez qaror qabul qilish;

− qaror ijrosini rejalashtirish va uning ijrosini tashkil etish;

− natijalarni tahlil qilish va harbiy kasbiy faoliyat profilaktikasi va hokazolar.

Bo‘lg‘usi ofitserning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorati elementlariga, uning kreativ usulda bajaradigan barcha xatti-harakatlari majmui hamda muntazam belgilangan xizmat vazifalari va funksiyalari kiradi. Shuningdek, ofitser tomonidan xizmatning maqsad va vazifalarini har tomonlama tahlil qilish, qonunlar va buyruqlarga mos amaliy ishlarni rejalashtirish va ularni samarali bajarish, natijalarni tahlil qilish kabilar ham kiritiladi. Bu holat o‘z-o‘zidan bo‘lg‘usi ofitser shaxsidagi umumpsixologik sifatlar mazmunini tahlil etishni taqozo etadi.

Bo‘lg‘usi ofitserlarda quyidagi umumpsixologik xususiyatlar ajratiladi:

− analitik va konstruktiv fikrlash usuli;

− hissiy va ixtiyoriy barqarorlik;

− stressga chidamlilik va ekstremal sharoitlar va harbiy xizmat sharoitlariga tez moslashish;

− hamdardlik va tolerantlilik;

− psixofiziologik xususiyatlar.

Yuqorida keltirilgan barcha psixologik sifatlar, bo‘lg‘usi ofitserlar kelgusi faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi psixologik omillar sanalib, ularsiz harbiy faoliyatda hyech qanday muvaffaqqiyatga erishib bo‘lmaydi.

Bo‘lajak ofitserning kasbiy tayyorgarligi masalasi uning harbiy faoliyatdagi o‘rni va rolini belgilaydi. Bunda yo‘nalganlik asosiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar bo‘lsa, harbiy xizmat esa, eng asosiy hayotiy ustuvor yo‘nalish sifatida tan olinadi.

Ofitserning xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishuvini ta’minlovchi psixologik va pedagogik omillar quyidagilar:

− rivojlangan prognozlash qobiliyati;

− sotsial intellekt, ijtimoiy idrok;

− shaxsiy intilish, qaror qabul qilish, yutuqqa nisbatan motivatsiyasi, rivojlangan o‘zini o‘zi boshqarish.

Ofitserning kasbiy faoliyati muvaffaqqiyatini ta’minlovchi harbiy mahorat sifatlari bu kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, psixologik xususiyatlar, kasbiy qarashlar kabilar bilan tavsiflanib, ular doimo o‘zaro ta’sirga va rivojlanishga egadir.

Zamonaviy pedagogika fanida “Pedagogik madaniyat” tushunchasi mavjud bo‘lib, u ham harbiy pedagogikaning asosiy ilmiy kategoriyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Pedagogik madaniyat o‘z mazmunida, bo‘lajak ofitserlardagi pedagogik mahorat va kasbiy-pedagogik fazilatlar, pedagogik e’tiqod va axloq shuningdek, oliy harbiy bilim yurtining tarbiya ishlariga bo‘lgan munosabati kabilarni ham qamrab oladi. Bir so‘z bilan aytganda, pedagogik madaniyat, bo‘lg‘usi ofitserning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak ofitserning kelgusidagi xizmat faoliyatini tahlil qilish, o‘z-o‘zidan pedagogik madaniyatning ayrim jihatlarini ajratib o‘tishga imkon beradi. V.A. Glebov ularni qo‘yidagicha tasniflaydi:

1. Harbiy-pedagogik yo‘nalish.

2. Mafkuraviy, siyosiy, axloqiy va intellektual fazilatlar uyg‘unligi.

3. Pedagogik optimizm.

4. Pedagogik mahorat.

5. Pedagogik yo‘naltirilgan muloqot va xulq-atvor.

6. Bo‘lg‘usi ofitser sifatida doimiy o‘zini o‘zi takomillashtirish.

Yuqorida keltirilgan tasniflar izohi lavozimdagi oliy harbiy bilim yurti rahbar shaxslar faoliyatida ham namoyon bo‘lib, ularga xos pedagogik madaniyat tarkiblari quyidagilarda aks etadi:

− bo‘ysunuvchilarni sevish va hurmat qilish;

− harbiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish va unda yuqori natijalarga erishish;

− bo‘linma xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish;

− akademik qobiliyatga ega bo‘lish ya’ni boshqa sohalarga oid bilimlardan umumiy xabardorlik;

− yuqori darajadagi pedagogik e’tiqod (mutaxassislarni tayyorlashdagi fidoiylik).

Bu borada tadqiqotchi V.A. Suxomlinskiyning fikr-mulohazalari o‘ta ahamiyatli sanaladi. Uning fikricha mustahkam “Pedagogik e’tiqod” ofitser pedagogning axloqiy yadrosidir.

Mazkur mustahkam e’tiqod orqali oliy harbiy bilim yurtlarida olib boriladigan amaliy va nazariy mashg‘ulotlarning samaradorligi, o‘quv va jamoat ishlari natijalarining muvaffaqqiyati ta’minlanadi.

Demak, oliy harbiy bilim yurti ofitser pedagogi o‘zida quyidagi qobiliyatlarni shakllantirgan bo‘lishi kerak:

1. Bilish qobiliyati.

1. Tushuntira olish qobiliyati.

2. Kuzatuvchanlik qobiliyati.

3. Nutq qobiliyati.

4. Tashkilotchilik qobiliyati.

5. To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati.

6. Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati.

7. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, harbiy-kasbiy kompetentlik va harbiy mahorat tushunchalari o‘z mazmunida, qator pedagogik va psixologik fazilatlar majmuini aks ettirib, ular borasida kengroq tadqiqotlar olib borish nafaqat pedagogika fani sohasiga, balki harbiy bilimlar sohasiga ham qator ilmiy yangiliklar olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Военная психология и педагогика. Под ред. В.Ф.Кулакова. – М., 1998.

2. Глебов В.А. Сущность профессиональных компетенций курсантов военного вуза // Современные проблемы науки и образования. – 2013. – № 5.

3. Митина Л.М. Психология профессионального развития. – М., 1998.

4. Протасов А.Н. Управление формированием профессиональной компетентности будущих офицеров: Автореферат диссертации канд. пед. наук. – Саратов, 2007.

5. Сухомлинский В.А. Сто советов учителю. Киев, 2001.

Shaxnoza SHODMONOVA,
Toshkent davlat Pediatriya
instituti akademik litseyining ‘‘Kimyo fanlar’’kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

(Umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘rgatish misolida)

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarga “Kimyoviy bog‘lanish va uning turlari” mavzusini interfaol metodlar yordamida o‘tish va bu metodlar asosida o‘quvchilarning qobiliyatlarini, erkin fikrlashini, muammoli vaziyatlarda yechimlarni izlashini rivojlantirishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Interfaol metodlar, qobiliyat, kimyoviy bog‘lanish, donor, akseptor, strategiya, muammo, orbital, elektromanfiylik, radius, davriy sistema, test.

В статье рассматривается пути преподавания ученикам темы “Химическая связь и её типы” с применением интерактивных методов и на основе этих методов развитие свободного мышления, способности, деятельности и находить решение в проблемной ситуации.

Ключевые слова. Интерактивные методы, способности, химическая связь, донор, аксептор, стратегия, проблема, орбиталь, электротрицательность, радиус, периодическая система, тестирование.

This article is about teaching the topic “Chemical bonding and it’s types” in the lyceum with pupils using interactive methods and it describes pupils abilites basen on these methods, their free thinking and the development of students search for solutions in difficult situations.

Key words. Interactive methods, ability, chemical bonding, donor, akseptor, strategy, problem, orbital, electromagnetic, radius, periodic table, test.

Bugungi tezkor zamonda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yuli – mashg‘ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb qaralmoqda. O‘qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi.

Eng muhimi, interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil

etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Quyida umumiy kimyoning “Kimyoviy bog‘lanish va uning xillari” mavzusini interfaol metodlar yordamida akademik litsey o‘quvchilarida bayon qilinishi keltirilgan.

Bizga ma’lumki kimyoviy bog‘lanishning to‘rtta turi mavjud:

1. Kovalent.
2. Ion.
3. Metall.
4. Vodorod.


O‘quvchilarga “Taqdimot strategiyasi” orqali kimyoviy bog‘lanishning mohiyati va turlari haqida tushuntiriladi.

Ushbu strategiya o‘rganiladigan mavzu mohiyatining kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar yordamida ochib berilishini ta’minlaydi. Uni qo‘llashda mavzuning asosiy g‘oyalari, tayanch tushunchalari, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Strategiya o‘quvchilarda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.


“Muammoli vaziyat” strategiyasi orqali kovalent bog‘lanish va uning turlariga oid test topshiriqlari bajariladi.

Ushbu strategiya o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatlarini tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini o‘rganish, yechimlarini topishga undash orqali ularda muayan ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.


Muammoli vaziyat strategiyasini qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:



SiF_4 bilan HF birikib $H_2[SiF_6]$ ni hosil qiladi. CF_4 shunday birikma hosil qilmaydi. Buning sababi nimada?




O‘quvchilar to‘rt guruhga ajratiladi.




1. uglerod atomida akseptorlik vazifasini bajaradigan bo‘sh orbital yo‘q;
2. uglerod atomining elektromanfiyligi kremniynikidan katta;


3. uglerod atomi radiusi kichik bo‘lishi;
4. C – F bog‘i qutbliligi Si – F nikidan kichik bo‘lishi sababli.




Guruhlarga berilgan topshiriqning muhokamasini bajarishi uchun davriy sistema va oq varoq tarqatiladi.



Guruhlarga muammoli vaziyatning yechimini bajarishi uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Ular berilgan vaqt mobaynida muammoning yechimini o‘zaro muhokama qilishib oq varoqqa yozishadi.




Har qaysi guruh keltirgan muammoning yechimini doskada to‘liq asosslab beradi va o‘qituvchi ular keltirgan javoblarning yechimlarini umumiy jihatlarini aniqlab, taqqoslab ko‘radi.



O‘qituvchi berilgan muammoning yechimini video tasvir orqali ekranda namoyish qiladi. Guruhlar taklif etgan yechimning qaysi biri eng to‘g‘ri va maqbulligini aniqlab o‘quvchilarga e’lon qiladi.

“Charxpalak strategiyasi” orqali o‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

“Charxpalak strategiyasi” metodi o‘quvchilarda o‘rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to‘g‘ri javob berish, o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqtda o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatlarini yaratadi. Uning maqsadi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o‘z-o‘zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash malakalarini rivojlantirishdan iborat.



“TEST” texnologiyasi orqali mavzuga doir test yechiladi.

“Test” (inglizcha sinov, tekshirish) texnologiyasi shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchilar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

1. Quyida keltirilgan moddalarni ularning tarkibida uchraydigan bog‘lar turlari bilan quyidagi guruhlarga joylashtish mumkin:

a) qutbli kovalent bog‘;
b) qutblsiz kovalent bog‘;
c) donor-akseptor bog‘;
d) ion bog‘.

1) H_2; 2) H_3BO_3; 3) KF; 4) $BaSO_3$; 5) CO; 6) KNO_3

a) a-2, 4, 5, 6; b-1; c-5, 6; d-3, 4, 6
b) a-2, 4; b-1; c-5, 6; d-3
c) a-2, 4, 5, 6; b-1; c-5, 6; d-3
d) a-2, 4, 6; b-1; c-5, 6; d-3, 4, 6

2. Is gazida donor-akseptor bog‘lanish qaysi elektronlar hisobiga yuzaga keladi?

a) kislorodning $2s^1$ va $2s^2$ elektronlari hisobiga.
b) kislorodning $2p^1$ va $2p^4$ elektronlari hisobiga.

c) uglerodning $2p^1$ va $2p^2$ elektronlari hisobiga.

d) uglerodning $2s^1$ va $2s^2$ elektronlari hisobiga.

3. Bor, uglerod va azot atomlarining qo‘zg‘algan holatda donor-akseptor bog‘ hosil qilish imkoniyatini ko‘rsating.

a) barchasi donor sifatida qatnashadi;

b) barchasi akseptor sifatida qatnashadi;

c) bor akseptor, azot donor sifatida qatnashadi;

d) azot donor sifatida qatnashadi; bor va uglerod akseptor sifatida qatnashadi.

4. Oltingugurt (IV) oksidida molekula qutbli bo‘lgani holda oltingugurt (VI) oksidida qutbsiz bo‘lishi nima bilan tushuntiriladi?

a) bu molekulalarning ikkalasi ham qutbsiz hisoblanadi, chunki ikkalasi ham sp^2 gibridlangan;

b) oltingugurt (IV) oksidning molekulasi burchakli, oltingugurt (VI) oksidniki esa teng tomonli uchburchak bo‘lgani;

c) oltingugurt (IV) oksidida oltingugurtning oksidlanish darajasi va valentlik qiymati oltingugurt (VI) oksiddagidan kichik bo‘lgani;

d) oltingugurt (IV) oksidda bog‘ hosil qilishda qatnashmagan erkin elektron juft borligi bilan.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning interfaol metodi va dars samaradorligini oshirish muammosini yechishga ilmiy yondashish o‘quvchilarning bilim malaka, ko‘nikma, shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosida interfaol usullarning vazifalarini hal etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djuraev R.H. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2010, – 87-b.

2. Muxamedov O‘.X. Ta’limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar: O‘quv-uslubiy tavsiyalar. O‘zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2016-45 b.

3. Raxmonov B. Anorganik va organik kimyo: o‘quv qo‘llanma //. –T.: Yangi kitob, 2019. – 448 b.

4. Ахметов. Н.С. Общая и неорганическая химия. “ Академия”, 2001.– С.743.

5. Кузьменко Н. Е., Еремин В.В., Попков В.А. Краткий курс химии. Пособие для поступающих в вузы. “Высшая школа” 2002.– С.415.

6. Манкевич Нина Владимировна. Неорганическая химия. Весь школьный курс в таблицах. – Минск: Букмастер: “Кузьма”, 2015- 9-е изд.– С.416.

Diyorbek QO‘CHQAROV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti mustaqil tatqiqotchisi

MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRUVCHI TA’LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH USUL VA USLUBLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoniga zamonaviy darslarni joriy etishni tashkil qilish va o‘tkazish orqali talabalarni erkin fikrlash, ijodiy mulohazalar yuritishini rivojlantirish hamda ularda ta’lim berish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Integrallashgan mashg‘ulotlar, matematik topshiriqlar, tabaqalashgan faoliyat, texnologik yondashuv, o‘quv jarayonini loyihalash, tashhislash, didaktik tahlil qilish, individual hislatlar.

В данной статье предусмотрено формирование знаний, умений и навыков, связанных с развитием творческого мышления и обучения студентов посредством организации и проведения современных уроков в образовательном процессе высших образовательных учреждений.

Ключевые слова. Интегрированное обучение, математические задачи, дифференцированные виды деятельности, технологический подход, проектирование, диагностика, дидактический анализ, индивидуальные чувства.

This article provides for the formation of knowledge, skills related to the development of creative thinking and student learning through the organization and conduct of modern lessons in the educational process of higher educational institutions.

Key words. Integrated trainings, mathematical tasks, stratified activity, technological approach, designing of the educational process, diagnostics, didactic analysis, individual feelings.

Ta’limga innovatsion yondashuvlar nuqtayi nazaridan ta’lim jarayonining bosh harakatlantiruvchi shaxsi o‘z individual xususiyatlari va imkoniyatlariga ko‘ra talabadir. Ta’limga texnologik yondashuv o‘quv jarayonini aynan uch bosqichda tashkil etishni taqozo etadi: talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati uchun didaktik materiallar tayyorlash; talabalarni asosiy maqsad sari yo‘naltirish bo‘lib, uning maqsadi o‘quv faoliyati motivatsiyasi va ta’limning asosiy tamoyillarini, o‘qitish usullarini va nazoratini tushuntirish; o‘quv jarayonining borishini o‘quv maqsadlariga mos ravishda tashkil qilish.

Talabalarning metodik tayyorgarliklarini takomillashtirish uchun quyidagi mashg‘ulotlaridan foydalaniladi: ma’ruza, amaliy, laboratoriya, seminar, kurs ishi, musaqil ta’lim, ta’limiy musobaqa, yozma savol-javob, maslahatlar va shu kabilar. Amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulotlari matematikani o‘qitish metodikasi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktabi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari matematika kursining mazmunli-metodik yo‘nalishi bo‘yicha tashkil etiladi.

Ma’ruza quyidagi didaktik funksiyalarni bajaradi: materialni o‘rganish vazifasini qo‘yish va asoslash, yangi bilimlarni bayon qilish, talabalarning o‘quv faoliyatini motivlash, matematik va metodik bilim va ko‘nikmalarni integrallash, intellektual ko‘nikmalarni singdirish.

Talabalarning ma’ruzadagi o‘quv faoliyatlari – “Ma’ruzani qanday eshitish kerak”, “Ma’ruzani qanday to‘g‘ri yozib olish kerak” kabi umum-o‘quv ko‘nikmalari va usullaridan foydalanib, ma’ruzaning asosiy holatini ajratib yozib oladi, mustaqil ishlar uchun vazifalarni yozib oladi.

Maxsus o‘qitish metodikasi bo‘yicha ma’ruzalar asosan umumiy o‘rta ta’lim maktabi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi matematikasi kursining mazmunli-metodik yo‘nalishiga asosan quriladi va yagona reja asosida olib boriladi. Har bir yo‘nalishga ma’ruza hajmi 2-4 soatni tashkil qiladi.

Amaliy mashg‘ulot elementar matematikaning masalalarini, jumladan umumiy o‘rta ta’lim maktabi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari matematikasi kursining asosiy tiplariga doir masalalar yechishga bag‘ishlanadi. O‘qituvchining vazifasi – oliy ta’lim muassasalari darsliklari va umumiy o‘rta ta’lim maktabi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari darsliklaridan matematik masalalarni tanlash; muayyan mavzularni umumlashtiruvchi takrorlashlarni rejalashtirish; masalalarni yechish bo‘yicha talabalarning o‘quv faoliyatini shakllarini aniqlash (jamoaviy, guruhli va individual yechish).

Talabalar o‘quv faoliyatining asosiy maqsadi – nafaqat asosiy tipdagi matematik masalalarni yechishga o‘rganish, ularni yechish metodlari va usularini egallashdangina iborat bo‘lmasdan, balki o‘quvchilarni masalalar yechishga o‘rgatish metodikasi asosiy usullarini egallash.

Amaliy mashg‘ulotning namunaviy tuzilmasi:

1. Kirish nazorati natijalarining umumiy tahlili.
2. Matematik masalalarni yechishning xususiy va umumiy usullarini ajratib yechish.
3. Matematik masalalarni yechish bilan bog‘liq umumiy o‘quv topshiriqlarining bajarilishini eshitish va muhokama qilish.

Malakaviy amaliyot barcha psixologik-pedagogik o‘quv fanlari doirasida “Matematika o‘qitish nazariyasi va metodikasi” fanidan o‘tkaziladi. Bunda talabalarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish nazarda tutilgan. O‘qituvchining vazifasi – malakaviy amaliyot davridagi talabaning barcha ishlarini rejalashtirish va uning bajarilishini tashkil qilish.

Talabaning maqsadi – matematika darslarini va matematikadan sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazishni rejalashtirishni o‘rganish va o‘tkazish. Talaba shakllangan metodik ko‘nikmalardan foydalanib kurs va bitiruv malakaviy ishlari bo‘yicha izlanishlar olib boradi.

“Matematika tarixi” kursi talabalar uchun majburiydir. O‘qituvchining vazifalari – talabalarda matematika kursining gumanitar potensialini amalga oshirish bilan bog‘liq, xususan akseologik tarkibiy qismni amalga oshiruvchi kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Talabalarning o‘quv faoliyati maqsadi – matematikaning evolyusion rivojlanish mazmunini o‘rganish va tahlil qilishni, eng muhim nazariyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini o‘rganish, matematikaning fanlar tizimi tarixidagi o‘rni va ahamiyatini va ilmiy taraqqiyotni rivojlanishdagi rolini namoyish eta olish, matematika o‘qitishga tarixiy yondashuv metodini o‘zlashtirish.

Kurs ishi va bitiruv malakaviy ishi talabalar tomonidan 4-kursda bajariladi. O‘qituvchining vazifasi – ishning mavzusini aniqlash, talabalar uchun topshiriqlar tayyorlash, o‘rganish uchun adabiyotlar taklif etish, tajriba ishlari elementlarining alohida bosqichlari uchun kalendar reja, konsultatsiya jadvali.

Talabalar o‘quv faoliyatining maqsadi – mutaxassislik bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish, kengaytirish, mustahkamlash, tizimlashtirish va ulardan muayyan kasbiy masalalarni hal etishda qo‘llashni o‘rganish, dasturdan tashqariga chiquvchi kasbiy adabiyotlarni va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish, mustaqil ishlash ko‘nikma va malaka-

larini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot metodikasining asoslarini egallash, matematika o‘qitish jarayonini eksperimentlash va loyihalashtirish.

Nazoratning asosiy shakllari: seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarda so‘zga chiqish, yozma o‘quv topshiriqlarning bajarilishini tekshirish va taqrizlash, auditoriya (uy) mustaqil yoki nazorat ishlari, kollokvium, joriy nazorat (JN); oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YaN).

Seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarda so‘zga chiqish – talaba o‘quv faoliyatining ko‘rinishi bo‘lib, bunda o‘quv axboroti uzatiladi. O‘qituvchining vazifalari – so‘zga chiqish va uni baholash talablarini aniqlaydi.

Talabaning maqsadi – oldindan tayyorlangan material (ma’ruza, nazariy masalaning bayoni, masalalar yechish, o‘quv topshiriqlarini bajarish va h.k.) bilan so‘zga chiqishni o‘rganish va dars davomida tayyorlanmasdan so‘zga chiqish.

So‘zga chiqishga tayyorlanayotgan talabalarga qo‘yiladigan talablar: so‘zga chiqish uchun material mazmunini o‘rganish, so‘zga chiqish rejasini tuzish, tinglovchilarning e’tiborini qaratish uchun material mazmunining o‘rinlarini aniqlash, materialni yaxshi tushunib olish uchun misollardan foydalanish, materialni o‘zlashtirilganligini tekshirish uchun tinglovchilarga savollar tayyorlash, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishni rejalashtirish, yozuv tahtasidagi yozuvlarning borishini o‘ylab ko‘rish, so‘zga chiqadigan vaqtni aniqlash. Shu talablar asosida o‘qituvchi va boshqa talabalar nutqni baholaydi, shuningdek o‘z-o‘zini baholashdan ham foydalaniladi.

Yozma o‘quv topshiriqlarining bajarilishini tekshirish va taqrizlash – muayyan mavzuni individual o‘rganilgandan keyin joriy nazorat amalga oshiriladi. O‘qituvchining vazifalari – o‘quv topshiriqlarining muntazam bajarilishini tekshiradi, topshiriqni qanday darajada bajarilganlik sifatini baholaydi, topshiriqning bajarilishini hisobga olib boradi.

Talabaning maqsadi – o‘quv topshiriqlarini muntazam bajarishni o‘rganish va topshiriqning o‘z vaqtida bajarilganligi haqida hisobot berish.

Nazorat ishlari kurs bo‘yicha integrallashgan xarakterda bo‘lib, maqsadi talabalar bilimini nazorat qilish, kasbiy ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash va o‘z o‘quv faoliyatini o‘zlari nazorat qilishi. Yozma ishlar, diktant, insho, bayon, darajaviy testlar ko‘rinishida auditoriya va uyda bajariladiganlarga ajratiladi. O‘qituvchining vazifalari – barcha sanab o‘tilgan talablar va baholash me’zonlari asosida nazorat ishlari variantlarini tuzish.

Har bir topshiriqni aniq va maydalab shakllantirish zarur (masalan: qayt eting, aylanaga oling, javob varaqasida to‘g‘ri javobni belgilang kabilar, *javobni tanlang kabi emas*) har bir testni zudlik bilan tekshirish usulini topish.

Kurs bo‘yicha sinov seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarda bajarilgan topshiriqlarning natijalariga hamda ushbu mashg‘ulotlardagi talabaning faolligi va yozma ishlarning natijalariga ko‘ra qo‘yiladi. O‘qituvchining vazifasi – nazorat ishlarini o‘z vaqtida o‘tkazish, talabalar tomonidan o‘quv topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish, o‘rganilgan material bo‘yicha umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lgan qo‘shimcha savollar tayyorlash.

Talabaning maqsadi – o‘quv topshiriqlarini muntazam bajarib borish, mashg‘ulotlarda so‘zga chiqish; seminar va amaliy mashg‘ulotlarning topshiriqlarini bajarilishini muhokamasida ishtirok etish. Agar biror bir natijalar qoniqarsiz bo‘lsa, u holda talaba sinovdan o‘tishi uchun qo‘shimcha suhbatga keladi. Ana shunday qo‘shimcha nazorat turlaridan biri *kollokvium* bo‘lib, u pedagogik amaliyot oldidan o‘tkaziladi. Kollokvium uchun o‘quv topshiriqlari integrativ xarakterda bo‘lib, o‘quv metodik faoliyatning darajalariga ko‘ra tabaqalashtirilgan.

Matematik masalalarni yechish jarayonida talaba nafaqat bilimini chuqurlashtiradi va elementar matematikadan yangi bilim va ko‘nikmalarni, kelgusi kasbiy faoliyatida zarur bo‘ladigan metodik ko‘nikmalarni egallaydilar. Matematik masalalarni yechish davomida

talabalar metodik faoliyatga o‘quv topshiriqlari yordamida jalb etiladi. Talabalar shunchaki matematik masalalarni yechish bilan shug‘ullanishmaydi, balki bu masalalarni o‘qitish metodikasini egallashadi.

O‘quv topshiriqlarini bajarish turli xil shakllarda amalga oshiriladi: jamoaviy, guruhli va individual.

1) *Mashg‘ulotda umumiy topshiriqni jamoa bo‘lib yechish*. Barcha talabalar aynan bir o‘quv topshirig‘ini turli o‘quv materiallari uchun bajaradilar (darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, o‘quvchilar uchun didaktik materiallar va h.k.). O‘qituvchi rahbarligida natijani umumiy holda muhokama qilinganda topshiriq to‘liq bajargan bo‘ladi.

Texnologik yondashuvda juda muhim muolajalardan biri maqsad qo‘yishdir: ta’lim maqsadlari o‘quvchilar xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan ta’lim natijalari orqali shakllantiriladi. Bularni o‘qituvchi (yoki boshqa ekspert) ishonchli ravishda sezishi lozim. Ta’limda tashhislanuvchi maqsadlarni loyihalash ko‘nikmasi innovatsion ko‘nikmalarga tegishlidir.

Matematik masalalar yechish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda jamoa bo‘lib ishlash shakli talabalarda qiziqish uyg‘otadi. Masalan: 3 yoki 4 nafar talaba ajratilib, ularga masalani yechimini izlash taklif etiladi. Guruhning qolgan qismi o‘rtoqlarini diqqat bilan eshitishadi, so‘ngra talabalarning izlanish faoliyati muhokama qilinadi. Bunday usul masala yechimini izlashdagi xatolikni ko‘rsatish va butun guruh bo‘lib, uni bartaraf etish yo‘lini topishga imkon yaratadi.

2) *Mashg‘ulotda guruh bo‘lib ishlash.* Pedagogik faoliyatning eng murakkab tomonlaridan biri muloqotdir. O‘quv muloqoti – bilish qiziqishlarini paydo qilish, shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash omillaridan biridir, axborot manbayi bilish vositasi bo‘lib, o‘z-o‘zini va o‘zini namoyon qilishni anglashdir. Talabaning konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ kasbiy ko‘nikma va malakalarini faqatgina kasbiy faoliyatga yaqin faoliyat jarayonida shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida bayon etilgan o‘quv topshiriqlarini bajarish ta’limga innovatsion yondashuvlar asosida o‘quv jarayoni tashkil etishni, ya’ni ta’limga integrativ (integrallashgan mashg‘ulotlar), faoliyatli (matematik va o‘quv topshiriqlarini yechish), tabaqalashgan (vazifani o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha tabaqalashgan, faoliyat shakllarining turli xildagi birikmalari, turli xil ko‘rinishdagi tabaqalashgan nazorat) va texnologik yondashuvlarni amalga oshirishga xizmat qilib qolmsdan, bo‘lg‘usi matematika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A. Некоторые педагогические принципы разработки и использования в учебном процессе учебно - обучающих программ. – Новосибирск.: 1989. – С.15-20.

2. Abdullaeva B.S. Akademik litsey talabalarining matematik tafakkurini rivojlantirish. Ped. fanl. nomz. … diss. – T.: TDPU. 2002 y. – 146b.

3. Abramov A.V. Многоступенчатая подготовка учителей математики. – Екатеринбург: Изд-во Урал, ун-та, 1999. – С.245.

4. Akmalov A.A. Matematika ta’limida tarixiy materiallarni tanlash mezonlari va foydalanish metodikasi. Ped.fan.nom. dar.olish uchun yozilgan diss. – T.: 2008 y. – 116b.

5. Гребенюк О.С., Гребенюк Т.Б. Теория обучения: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. – М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2003. – С.384.

6. Дробышева И.В. Методическая подготовка будущего учителя математики к дифференцированному обучению учащихся средней школы: Авто-реф.дисс. д-ра пед. наук.– М., 2001. – С.44.

G‘iyos BOZOROV,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
‘‘Informatika o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

MATEMATIK MANTIQ ELEMENTLARINI TALABALARGA NOAN’ANAVIY O‘RGATISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada matematik mantiq elementlarini talabalarga o‘rgatish usullari ya’ni rostlik jadvalini tuzish, rostlik jadvali bo‘yicha mantiq funksiyasining bir nechta ko‘rinishlarini tiklash usuli va o‘quvchilarda mantiqiy amallarga doir misollar ishlash ko‘nikmasini oshirish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Rostlik jadvali, kon’yunksiya, dizyunksiya, implikatsiya, ekvivalentsiya, usullar, ko‘nikma, malaka.

В данной статье рассмотрены методы обучения студентов элементам математической логики, то есть составлению истенностной таблицы, методы восстановления по истинностной таблице нескольких видов логистической функции, а также рассмотрена задача повышения навыков студентов решении задач на выполнение логических действий.

Ключевые слова. Истинностная таблица, конъюнкция, дизъюнкция, импликация, эквиваленция, методы, умение, квалификация.

This article discusses methods of teaching students the elements of mathematical logic, that is, compiling a truth table, methods of recovering several types of logistic functions from the truth table and also discusses the task of improving students’ skills in solving problems of performing logical actions.

Key words. Truth table, conjuncture, disjunction, implication, equivalent, methods, skills, qualifications.

Jahonda matematikaga daxldor barcha fanlarni o‘qitishda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hamda shu orqali ta’lim sifatini ta’minlash, ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, matematikaning amaliy tatbiqlari samaradorligini kuchaytirish va fanlararo aloqadorlik asosida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish kabi masalalarni qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar va erishilgan qator ijobiy o‘zgarishlar ta’limning sifat va samaradorligi ortishini yanada jadallashtirmoqda. Ta’lim oluvchilarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi mexanizmlarni va o‘qitishning yangi shakl, noan’anaviy uslublari orqali ularning bilish hamda ta’lim tarbiya jarayoni tizimini takomillashtirish va sifatini boshqarishning mustahkam qonuniy poydevori yaratilgan.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha, matematikani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo‘ladi. U nafaqat misol va masala-

lar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o‘zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishlar, tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o‘rnini etiborga olgan holda uni o‘qitishni kompetentli yondashuv talablari asosida takomillashtirib borish, eng so‘nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o‘quv fanini akademik bilim berishdan ko‘ra ko‘proq hayot bilan bog‘lash, amaliy misol va masalalarni yechish, o‘quvchilarni mustaqil izlanish, o‘qib-o‘rganishga jalb etishning ahamiyati beqiyos.

Bizga ma’lumki, ta’limda matematika asosan amaliy yani turli misollar yordamida o‘rganiladi va har-xil qiziqarli misollar talabalarda bilim, hamda ko‘nikmalar shakllantiradi.

Matematika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lgan matematik mulohazalarni mantiqiy belgilar yordamida ifoda etish va rostlik jadvali bo‘yicha mantiq funksiyasi ko‘rinishini tiklash yordamida talabalar bilimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning maqsadi: Informatika fanida mantiq va mantiqiy amallar yordamida rostlik jadvalini hosil qilish usullarini o‘qitish metodikasini o‘rganish.

O‘quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, muammoli vaziyat o‘rtaga tashlanadi.

“ Mantiq-bu…”, “Mulohaza-bu…”

Mantiq-mantiqiy tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan.

Mantiq fanining obyekti-tafakkur qonunlari, shakllari, uslublari va amallaridir.

Mulohaza-narsa yoki hodisalarni xususiyatini anglatuvchi darak gapdir.

Mantiq ilmi asoslari eramizdan avvalgi IV asrda buyuk yunon olimi Arastu ya’ni (Aristotel) tomonidan yaratilgan. IX-asrda yashab o‘tgan Markaziy osiyolik alloma Abu Nasr Farobiy Arastuning umumiy formal mantiq tizimini uning boshqa asarlari asosida to‘ldirib, o‘z zamonasi uchun eng muhim mantiq fanini shakllantirib bergan.

Zamonaviy kompyuterlar faqat 0 va1 qiymatlarni tushunadi va shularga asoslanib mantiqiy bog’liqlik asosida ishlaydi .

Kompyuter raqamli qurilmalarini mantiqiy holatlarini yozish va tahlil qilish qurilmasi yoki mikroprotsessorli tizimlarning aloqa kanallarini hamda protokollarni diagnostika qilish va sozlashda qo‘llaniladigan mantiqiy analizator qurilmasini hamda protsessor tarkibidagi arifmetik mantiqiy qurilmani ishlash prinsipini tushunish uchun, insonning mantiqiy fikrlashi va xulosa chiqarishi usullarini ko‘rib chiqish kerak.

Odatda murakkab mulohazalar sodda mulohazalardan “VA”, “YOKI”, kabi bog’lovchilari “EMAS” shaklidagi ko‘makchilar yordamida tuziladi. Mulohazalarni lotin alifbosi harflari bilan belgilash qabul qilingan. Har bir mulohaza faqat ikkita “rost” yoki “yolg’on” mantiqiy qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Qulaylik uchun “rost” qiymatni 1 raqami bilan “yolg’on” qiymatni esa 0 raqami bilan belgilab olamiz.

Endi sodda mulohazalar ustida bajarilishi mumkin bo‘lgan ba’zi amallar bilan tanishamiz.

A va B sodda mulohazalar bir paytda rost bo‘lgandagina rost bo‘ladigan yangi (murakkab) mulohazani hosil qilish amali mantiqiy ko‘paytirish amali deyiladi.

Mantiqiy ko‘paytirish amali:

Bu amalni KONYUNKSIYA (lotincha “conjunction”- “bog’layman”) deb ham atashadi. Mantiqiy ko‘paytirish amali ikki yoki undan ortiq sodda mulohazalarni “VA” bog’lovchisi bilan bog’laydi hamda “A va B” , “A and B”, “A∧B”, “A*B” kabi ko‘rinishda yoziladi.

A va B sodda mulohazalarning kamida bittasi rost bo‘lganda rost bo‘ladigan yangi (murakkab) mulohazani hosil qilish amali **mantiqiy qo‘shish** amali deyiladi.

Mantiqiy qo‘shish amali:

Bu amalni DIZYUNKSIYA (lotincha “disjunction”-ajrataman”) deb ham atashadi.

Mantiqiy qo‘shish amali ikki yoki undan ortiq sodda mulohazalarni “YOKI” bog’lovchisi bilan bog’laydi hamda “A yoki B”, “A or B”, “A∨B”, “A+B” ko‘rinishlarda yoziladi.

A mulohaza rost bo‘lganda yolg’on, yolg’on bo‘lganda esa rost qiymat oladigan mulohaza hosil qilish amali mantiqiy inkor amali deyiladi.

Mantiqiy inkor amali:

Bu amalni “ INVERSIYA” deb ham atashadi.

Mantiqiy inkor amali “EMAS A”, “not A”, “¬A” ko‘rinishlarda yoziladi.

A mulohaza rost va B mulohaza yolg’on bo‘lgandagina yolg’on, qolgan hollarda rost bo‘ladigan mulohazaga A va B muloxazalarning implikatsiyasi deyiladi va A $\leftrightarrow$ B ko‘rinishida belgilanadi.

Ikkita mulohaza bo‘lganda ularning qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlari 4 tani tashkil etadi.

1. Ikkisi ham yolg’on
2. Birinchisi yolg’on, ikkinchisi rost
3. Birinchisi rost, ikkinchisi yolg’on
4. Ikkisi ham rost

Shundan kelib chiqib mantiqiy amallarni ifodalaydigan rostlik jadvallari hosil bo‘ladi:

Mantiqiy inkor amalining rostlik jadvali:

Mantiqiy qo‘shish amalining rostlik jadvali:

Mantiqiy ko‘paytirish amalining rostlik jadvali:

Mantiqiy implikatsiya amalining rostlik jadvali:

Mantiqiy ekvivalentsiya amalining rostlik jadvali:

A	B	$\neg A$	$A \vee B$	$A \wedge B$	$A \rightarrow B$	$A \leftrightarrow B$
0	0	1	0	0	1	1
0	1	1	1	0	1	0
1	0	0	1	0	0	0
1	1	0	1	1	1	1

Mantiqiy ifodalarda mantiqiy amallar quyidagi tartibda bajariladi:

1. Mantiqiy inkor ($\neg$)
2. Mantiqiy ko‘paytirish ($\wedge$)
3. Mantiqiy qo‘shish ($\vee$)
4. Mantiqiy implikatsiya ($\rightarrow$)
5. Mantiqiy ekvivalentsiya ($\leftrightarrow$)

Teng kuchli yoki bir xil amallar ketma-ketligi bajarilayotganda, amallar chapdan o‘nga qarab tartib bilan bajariladi. Ifodada esa qavslar ishtirok etganda dastlab qavslar

ichidagi amallar bajariladi. Ichma-ich joylashgan qavslarda eng ichkaridagi qavs ichidagi amallar birinchi bajariladi.

Endi yuqorida keltirilgan mantiqiy amallarning bazi birlariga doir misollarni qarab chiqamiz.

Rostlik jadvali bo‘yicha mantiq funksiyasi ko‘rinishini tiklash usuli.

1-misol. Aytaylik A, B o‘zgaruvchilarga bo‘liq bo‘lgan α=α(A,B) formula berilgan bo‘lsin.

A	B	α=α(A,B)
0	0	0
0	1	1
1	0	0
1	1	0

bu rostlik jadvaliga ega bo‘lgan bir nechta teng kuchli formulalar mavjud. Ulardan ikkitasini topishni ko‘rib chiqamiz.

Rostlik jadvalida α=α(A,B) formula 1 ga teng bo‘lgan qator tartib raqamini yozib chiqamiz ya’ni 2-qator. Har bir qator mantiqiy imkoniyatlaridagina 1 ga, boshqa imkoniyatlarda esa 0 ga teng bo‘lgan formulalarni yozib chiqamiz. Buning uchun 1 ga teng bo‘lgan qatordagi mulohaza o‘zgaruvchilari qiymatlarini 1(rost) ga aylantirib, mulohaza o‘zgaruvchilari kon’yunksiyasini olish lozim.

2-qator uchun: ⅂A∧B (1) bo‘ladi.

Endi ikkinchi tenglikni hosil qilamiz: Rostlik jadvalida α=α(A,B) formula 0 ga teng bo‘lgan qator tartib raqamlarini yozib chiqamiz. 1-qator, 3-qator, 4-qator. Har bir qator mantiqiy imkoniyatlaridagina 0 ga teng bo‘lgan, boshqa imkoniyatlarda esa 1 ga teng bo‘lgan formulalarni yozib chiqamiz. Buning uchun 0 ga teng bo‘lgan qatordagi mulohaza o‘zgaruvchilari qiymatlarini 0(yolg‘on) ga aylantirib, mulohaza o‘zgaruvchilari diz’yunksiyasini olish lozim.

Shunda 1-qator uchun: A∨B; 3-qator uchun: ⅂A∨B; 4-qator uchun: ⅂A∨⅂B bo‘ladi.

Agar qatorlar bo‘yicha olingan formulalar kon’yunksiyasi olinsa, hosil bo‘lgan formula qidirilayotgan formula bo‘ladi.

α=α(A,B)=(A∨B)∧(⅂A∨B)∧(⅂A∨⅂B) (2)

Mazkur usul yordamida teng kuchli formulalar ham yaratish mumkin bo‘ladi.

2-misol. Aytaylik A, B, C o‘zgaruvchilarga bo‘liq bo‘lgan α=α(A,B,C) formula berilgan bo‘lsin.

A	B	C	α=α(A,B,C)
0	0	0	1
0	0	1	0
0	1	0	1
0	1	1	1
1	0	0	0
1	0	1	1
1	1	0	1
1	1	1	0

bu rostlik jadvaliga ega bo‘lgan bir nechta teng kuchli formulalar mavjud. Ulardan ikkitasini topishni ko‘rib chiqamiz.

Rostlik jadvalida α=α(A,B,C) formula 1 ga teng bo‘lgan qator tartib raqamlarini yozib chiqamiz. 1-qator, 3-qator, 4-qator, 6-qator, 7-qator. Har bir qator mantiqiy imkoniyatlaridagina 1 ga, boshqa imkoniyatlarda esa 0 ga teng bo‘lgan formulalarni yozib chiqamiz. Buning uchun 1 ga teng bo‘lgan qatordagi mulohaza o‘zgaruvchilari qiymatlarini 1(rost) ga aylantirib, mulohaza o‘zgaruvchilari kon’yunksiyasini olish lozim.

1-qator uchun: ⅂A^⅂B^⅂C; 3-qator uchun: ⅂A^B^⅂C; 4-qator uchun: ⅂A^B^C; 6-qator uchun: A^⅂B^C; 7-qator uchun: A^B^⅂C bo‘ladi. Agar qatorlar bo‘yicha olingan formulalar diz’yunksiyasi olinsa hosil bo‘lgan formula qidirilayotgan formula bo‘ladi:

α=(⅂A^⅂B^⅂C) v (⅂A^B^⅂C) v (⅂A^B^C) v (A^⅂B^C) v (A^B^⅂C) (1)

Endi ikkinchi tenglikni hosil qilamiz: Rostlik jadvalida α=α(A,B,C) formula 0 ga teng bo‘lgan qator tartib raqamlarini yozib chiqamiz ya’ni 2-qator, 5-qator, 8-qator. Har bir qator mantiqiy imkoniyatlaridagina 0 ga boshqa imkoniyatlarda esa 1 ga teng bo‘lgan formulalarni yozib chiqamiz. Buning uchun 0 ga teng bo‘lgan qatordagi mulohaza o‘zgaruvchilari qiymatlarini 0(yolg‘on) ga aylantirib, mulohaza o‘zgaruvchilari diz’yunksiyasini olish lozim.

Shunda 2-qator uchun: AvBv⅂C; 5-qator uchun: ⅂AvBvC; 8-qator uchun: ⅂Av⅂Bv⅂C bo‘ladi.

Agar qatorlar bo‘yicha olingan formulalar kon’yunksiyasi olinsa, hosil bo‘lgan formula qidirilayotgan formula bo‘ladi.

α=α(A,B,C)=(AvBv⅂C)^(⅂AvBvC)^(⅂Av⅂Bv⅂C) (2)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kun o‘quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o‘qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o‘g‘il-qizlar (G‘arbda Z avlod deyiladi) o‘zining bir qator umumiy sifatlari bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istaklarimiz global makonda qariyb o‘xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o‘qitish usullari bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Shu qatorda mantiqiy amallar mantiq ilmida ham algoritmik tafakkurni, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu bilimlarni egallash uchun mantiqiy amallar, 0 va 1 larni ustida bajariladigan amallarni mukammal o‘rganish kerak. Bu bizga mantiqiy tafakkurimizni qolaversa kompyuter texnikasini asl mohiyatini anglab yetishimizga yordam beradi. “Mantiqiy amallar” tushunchasini o‘rganishimizda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlaridan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закревский А.Д. Решение больших систем логических уравнений. – Минск: ОИПИНАН Беларуси, 2009. – С.96.

2. Катериночкина Н.Н., Королёва З.Е., Мадатян Х.А., Платоненко И.М. Методы решения булевых уравнений. – М.: ВС РАН, 1988. – С.22.

3. Левченков В.С. Булевы уравнения в алгебре логики и теории множеств // Вестник Московского ун-та., № 15, Вычислителная математика и кибернетика, 1999, № 3. – С.17-20.

Ikrom MATYAKUBOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedogogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

DIPLOMATIYA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: O‘RTA ASRLAR XITOY TARIXI MISOLIDA

Annotatsiya

Maqolada o‘rta asrlarda xitoydagi diplomatik jarayonlarni hozirgi zamon diplomatiyasining asosi ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, muallif o‘rta asrlardagi diplomatik aloqalarni qanday paydo bo‘lganligi, tarkibiy qismlari, nima maqsadda olib borilganligini va o‘rta asrlardagi tarixiy diplomatiyani o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Tarix, diplomatiya, jarayon, deduksiya, emissar, siyosiy qaramlik, assemilyatsiya.

В статье освещаются дипломатические процессы в Китае в средние века как основа современной дипломатии. Автор также высказал свои собственные взгляды и мнения о том, как возникли дипломатические отношения в средние века, в каких целях они осуществлялись, и как усовершенствовать методику преподавания современной дипломатии.

Ключевые слова. История, дипломатия, процесс, дедукция, эмиссар, политическая зависимость, ассимиляция.

The article examines the diplomatic processes in China in the Middle ages as the basis of modern diplomacy. The author also provides an analysis of medieval diplomatic relations and the origin of their goals.

Key words. History, diplomacy, process, deduction, emissary, political dependence, assimilation.

Tarix fani o‘z o‘rnida gumanitar fan bo‘lib, gapirib berish, rasm ko‘rsatish, xarita orqali tushuntirish, kino va video filmlar orqali anglatish va shu kabi ko‘plab usullari mavjud. Ushbu usullar tinglovchi talabalarning ongiga singdirishda (didaktik) tarbiyaviy ahamiyatga molik jixatlarini aytib o‘tmasdan ilojimiz yo‘q.

O‘rta asrlardagi xitoydagi diplomatik jarayonlar xozirgi zamon diplomatiyasining debochalaridan biridir. Chjurchjen[1] qabilalari Gaoli[2] shoxligi bilan bo‘lgan birodarlik aloqasi keyinchalik qarindosh urug‘chilik va so‘ngra esa xalqlarning assemiliyasiyasi omili bo‘lib xizmat qiladi. Chjurchjenlar, Gaoli shoxligi o‘rtasida X asr ya’ni 948-yilga kelib podshoh Chondjon davrida mol ayriboshlash va savdo-sotiq kuchayadi va ikki xalq o‘rtasida shartnoma tuziladi. Mazkur shartnoma diplomatiyaning poy qadami edi. Shu

[1] Xitoy solnomalarida Chjurchjen qabilalarini shunday atalgan.

[2] Xitoy solnomalarida Kareyts yarim orolida yashovchi millatni shunday atashgan.

bilan bir qatorda, uzoq sharq mintaqasiga (Dan) boj, xiroj atamasini olib kiradi[3]. Bu esa, aloqalarni kuchayishi va jadallashuviga olib keladi. Biroq, bu siyosiy qaramlik edi. Ular 49 ta Chjurjenning oilasi bilan birga Chongju[4] tumanidan joy beradi. 1052-yilga kelib bunday voqealar ko‘paya boshlaydi. 1073-yili Gaolining ijtimoiy tuzumida Chjurchjen qabilalari o‘ziga hos muhim o‘rin tuta boshlaydi. Lekin, G‘arbiy Chjurchjenlar bundan mustasno edilar. Chunki ular Lyaolar[5] ta’siri ostida edilar. 1089-yilga kelib ularni Gaolida bo‘lishini cheklab qo‘yishgan. O‘sha davrdagi Chjurchjenlar qabilasidagi Gaolining maxalliy elchilari orqali so‘rovnomalar to‘ldirilgach borishlari mumkin bo‘lgan. Gaoliga kirishga ruxsat berilgan mexmonlar 15 kundan oshiq qolishlari taqiqlangan va to‘g‘ri poytaxtga borishlari shart edi. O‘sha davrga o‘ziga xos g‘alati qonun qabul qilingan edi. Ushbu qonunga binoan boshqa qabila va millatlarni ayniqsa o‘qimishli xitoyliklarni Gaoliga kiritmaslik shart edi.

Chjurchjenlar boshlig‘i Inge bilan 1102-yilga kelib hamfikirlilik tashabbusini ilgari suradi. Bu esa, o‘ziga hos uslubdagi diplomatik aloqa edi. Vanyan qirollik oilasini davolagan Gaolilik tabibni uyiga jo‘natib yuboradi. Inge tabibni elchi sifatida yuboradi va u hamma to‘siqlardan o‘tib borishiga ishonmas edi. Ushbu diplomatik paypaslov kutilmagan natijalarga olib keldi. Tabib o‘z vataniga yaxshi yetib olib, Chjurchjenlarning xarbiy salohiyati oshib va zaxiralari boyib borayotganligi haqida aytdi. Bundan xavotir olgan Gaoli hukumdori chegaradagi Chjurchjen qabilalariga vakillarini (Emissar) jo‘natadi. Shunda ular Gaoli hukumatini Chjurchjen qabilalariga tan oldirmoqchi edilar. Bunga qarshi Inge o‘z qo‘shini bilan mazkur qabilalarni bosib oladi. Shundan so‘ng, 1103-yil Gaoli hukumati birinchi bor rasmiy elchi yuboradi va o‘sha vaqtda Chjuchjenlar chin ma’noda xavfsiraganligidan dalolat beradi[6]. Elchi esa, ular bilan tinchlik sulxini tuzishga kirishadi. Qabila sardori Inge o‘zining qarindoshi bo‘lmish Sageni elchi qilib gaoliga yuboradi. Ammo, o‘sha vaqtga kelib Inge vafot etadi. Uning vafoti bilan tinchlik sulxi buziladi. Beshdaryo uchun kurash boshlanadi hamda Chjurchjenlar qabila sardorlari Uyasu bilan Aguda Gaoli tarkibiga kirgan Chjurchjenlarni bir yoqadan bosh chiqarib, Gaolida g‘alayon ko‘tarishga chaqiradi. Gaoli podshoxi o‘z hukumatini va yerlarini saqlab qolish uchun kurashar edi. Shunday bo‘lsa ham, Chjurchjenlar norozi kayfiyatda qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirishar edi. Bu esa, diplomatik aloqalarni buzishga sabab bo‘la olmadi[7]. 1106-yil Edjon taxtga o‘tirish munosabati bilan elchi Chjurchjen qabilalariga boradi. Ular ham javob tariqasida elchi yuborishadi. Shu bilan bir qatorda, mustaqil Chjurchjen qabilasidan ham elchi keladi[8].

1107-yilda Chjurchjenlar xarbiy bo‘linmasi Yun Gvanda beshdaryo hududi Xelanini bosib olishadi[9]. 1108-yilda u yerda 9 ta qal’a istehkom qurishadi. Gaoli hukumatiga elchi Shisiyan 3 marotaba tashrif buyuradi. Bu tashrifdan maqsad tinchlik sulxini tuzish edi. Ammo, Gaolilar vaqtdan yutmoqchi edilar. Ularning hamma ishonchi Lyaolardan edi. Qirollar uchrashuvida bu tashvish va muammoning sababi qal’a etib ko‘rsatiladi.

[3] Воробёв М В “ЧжурЧжени и государства Цзин”– Наука. 1975.– С. 322. 295-353.

[4] Xozirgi Pxenyan sharqida joylashgan Chongju shahri.

[5] X asrlarda janubiy sharqiy Xitoyda hukum surgan sulolani xitoy solnomalarida kelgan nomi.

[6] Кычанов Е. И. // Тангуты о Китае (по тангутским первоисточникам) – Сибирь, Центральная и Восточная Азия в средние века. История и культура востока Азии. // Новосибирск 1975. – С120. 112-123.

[7] Кычанов Е.И. Манголы в VI первой половине XII в.// Дальний Восток и соседние территории в средние века. История и культура Востока и Азии. //– Новосибирск, 1980. – С.302.296-305.

[8] Бичурин Н.Я. // Записки о Монголии // – Санкпетербург 1828. – С.173. 168-189 стр.

[9] Хозирги шимолий Хамгён ва Пхенян шахарлари.

Shu zahotiyoq bu qal’alarni Gaolilarga bo‘shatib beriladi. Quydagi jadvalga qaralsa yarim asr davomida Gaoli va Chjurchjenlarning aloqasi qay tarzda davom etganini ko‘rishingiz mumkin. Gaoliga ko‘pincha qabila boshliqlari qo‘mondonlar Shimoliy g‘arb, Shimoliy sharq, Shimoliy, Sharqiy va G‘arbiy Chjurchjen qabilalari boshliqlari kelishar edi.

Taxminan 383 ta tashrifdan 60% foizi Sharqiy Chjurchjen to‘g‘ri kelsa, 20% foizi G‘arbiy Chjurchjen qabilalariga to‘g‘ru kelar edi. 10%foizi tartibsiz Chjurchjenlarga yana 10%foizi qolganlariga to‘g‘ri kelar edi. XI asrning 30-yillariga kelib Tartibsiz Chjurchjenlar unchalik tilga olinmaydi. Biroq, XII asrga kelib yana Gaoli va Xitoy solnomalarida paydo bo‘la boshlaydi. Gaoli va Xitoy amaldorlari bu xalqqa nisbatan loqayd bo‘lganligi uchun ham qabilalar joyini aniqlay olishmagan[10]. Shu sababli ham, yozma manbaalarda to‘g‘ri yorita olishmagan. XI asrning yarmiga kelib shimoliy sharq va shimoliy g‘arb Chjurchjen qabilalari diplomatik aloqasi to‘xtab qoladi. G‘arbiy Chjurchjen qabilalarining elchilik munosabatlari soviy boshlaydi. Oxirgi elchilik munosabati 1086-yil bo‘lib o‘tadi. Bu ham qabilaning rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Ushbu bordi-keldilar muhim diplomatik masalani hal qilmagan. Ular savdo-sotiq tufayli ham bo‘lishi mumkin edi[11]. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Gaoli va Chjurchjenlar aloqasi, diplomatik doktarinasi faqatgina do‘stona aloqa desak bo‘ladi. Chunki ular koreslardan o‘rgangan savdo-sotiq ishlarida koreyslar kabi bo‘la olmasalarda biroq ulardan ham kam emas edilar. Szin sulolasi koreyslarga nisbatan hech qanday yomonligi va qasdi ham yo‘q edi va shu sababdan ham Szin sulolasiga qarshi qanchalik qo‘zg‘olon va g‘alayonlar qilmasinlar shunda ham ularga qarshi urush boshlamaganlar.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Бичурин Н.Я. // Записки о Монголии // – Санкпетербург 1828.-С.173. 168-189 стр

2. Воробёв М В “ЧжурЧжени и государства Сзин”, Наука. 1975. – С. 322.

3. Шанюе З. // Очерк история Китая с древних времён до опюмный войны // – Москва – 1959. – С.184.

4. Кычанов Е.И. Манголы в ВИ первой половине ХИИ в.// Далний Восток и соседние территории в средние века. История и култура Востока и Азии. – Новосибирск, 1980 – С.302.

5. Кычанов е. И. //Тангуты о Китае – Сибир, Сентралная и Восточная Азия в средние века. История и култура востока Азии. // Новосибирск 1975– С.120.

[10] Розова М Г//История дома Цзинь, царствовошега в северной часть китая с 1114-год по 1234-год//-Наука Москва Новосибирьск 1956. –С81.56-112.

[11] Шанюе//Очерк история Китая с древних времён до опюмный войны // – Москва-1959.С.184.182-186стр

Jamshid RUSTAMOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Oliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

MUTAXASISLARNI TAYYORLASHDA UMUMKASBIY FANLARINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqola iqtisodchi kadrlarni elektron axborot muhitida ko‘nikma malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyat davomida davriy va uzluksiz metodik tayyorgarligini oshirish masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Masofaviy ta’lim olish shakllari, konsultatsiya, laboratoriya ishlari, namoyish tajribalar, vebinar, masofaviy ta’lim olish metodlari, axborot-retseptiv metod, reproduktiv metod.

В статье изложены вопросы совершенствования требований к содержанию и качеству повышения квалификации экономических кадров в электронной информационной среде на основе современных подходов, повышения периодической и непрерывной методической подготовки в процессе профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Формы дистанционного обучения, консультации, лабораторные работы, демонстрационные эксперименты, вебинар, методики дистанционного обучения, информационно-рецептурный метод, репродуктивный метод.

The article considers the issues of improving the requirements for the content and quality of professional development of economists-specialists in the electronic information environment on the basis of modern approaches, technologies of continuous methodological training in the course of their professional activities.

Key words. Forms of distance learning, consultations, laboratory work, demonstration experiments, webinar, distance learning methods, information and prescription method, reproductive method.

Ilm-fan rivoji, bu malakali mutaxassislarning faoliyatidir. Shu jumladan malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning o‘ta iqtidorlilariga zamonaviy axborot oqimini o‘zlashtirishga, ilmiy tekshirish faoliyati individual va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ilmiy-texnikaviy informatsiya va o‘quv ilmiy adabiyot bilan ijodiy ishlay olishga imkoniyat berishi lozim. Ma’lumki, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini tadbiq etish orqaligina zamon talabiga mos mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish mumkin.

Umumkasbiy fanlarni o‘qitishdagi dasturli-uslubiy tizimida nazariy ma’lumotlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa talabalarni fanga tegishli bo‘lgan belgilar, qonun-

lar, tushunchalar, modellar haqidagi nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar propedevtik ma’lumot bo‘lib hisoblanadi. Bunday, mavjud ilmiy-nazariy ma’lumotlar asosida amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan aniq muammo hal bo‘ladi va ta’lim metodi tanlanadi. Tanlangan ta’lim metodi bo‘yicha ish olib borilib ta’lim sifati va samaradorligi nazorat qilinadi.

Ishlab chiqilgan amaliy dasturlar majmui quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• umumkasbiy fanlarni o‘qitish uchun zarur bo‘lgan axborot texnologiya vositalarini aniqlash;

• axborot texnologiyalari vositalarining qo‘llanilish darajasini aniqlash;

• ilg‘or pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ko‘rsatmalardan foydalana olish qobiliyatini aniqlash;

• o‘quv jarayonini nazorat qilish va boshqarish metodikasini joriy eta olish qobiliyatini aniqlash;

• nazariya bilan amaliyot aloqasini o‘rnata bilishni aniqlash;

• mavjud ilg‘or texnologiyani boshqa fanlarni o‘qitishga joriy qila bilish qobiliyatini aniqlash.

Amaliy dasturlar majmui mazmuniga ko‘ra quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• barcha akademik guruhlar bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar yig‘ish;

• o‘rganiladigan fan bo‘yicha har bir talabada ma’lumot bo‘lishi;

• talabalarning reyting ballari natijalari (har bir guruh bo‘yicha) bir fan bo‘yicha (oylik, xaftalik, yarim yillik, yillik);

• fan bo‘yicha o‘tilgan o‘quv soatlari miqdori;

• fan bo‘yicha o‘zlashtirish natijalari jadvali.

Ma’lumki, har qanday pedagogik natija talabalarning o‘zlashtirish darajasi bo‘ladi. Bunda o‘zlashtirish darajasi o‘quv rejasi, ulardagi fanlar hamda har bir fan bo‘yicha davlat ta’lim standarti talablaridagi bilim, ko‘nikma va malakalar e’tiborga olinadi [3].

Bularni e’tiborga olib, dasturli-uslubiy tizimning umumkasbiy fanlarini o‘qitish va shu asosda ularni o‘qitish monitoringini aniqlash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish mumkin ekanligini ilmiy asoslandi:

• o‘rganiladigan fan bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish va sinflarga ajratish;

• ma’lumotlar hajmini aniqlash (nazariy, amaliy, ma’lumotnoma (spravochnik) va mustaqil ta’lim bo‘yicha);

• dastlabki ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rnatish;

• bog‘lanishlarni modellashtirish va ulardan amaliy ishlarda foydalanish mezonlarini aniqlanash;

• talabani dasturli-uslubiy ta’minot bo‘yicha ta’lim olishga o‘rgatish;

• kompyuterdan foydalangan holdagi ta’limni olib borishga talabani tayyorlash;

• muntazam ravishda talaba bilimini kuzatib borish va tuzatish ishlarini amalga oshirish.

Fikrimizcha, ko‘rib chiqilayotgan didaktik bosqichning miqyosida ma’ruzalarning ahamiyati katta. Ma’ruzalarning ta’rif tavsifi va tipologiyasi xususidagi munozaralarga to‘xtalmasdan, shuni ta’kidlaymizki, ayni bosqichning ma’ruzalari bu - avvalo o‘rganish predmetining asosiy mazmunini tizimli ravishda yuksak saviyada bayon qilishdir. Bunday ma’ruzalarning o‘quv maqsadlari talabalarni fanning ma’lum so-

halaridagi asosiy nazariy qonun va qoidalari, o‘rganish predmetining tamoyillari va qonuniyatlari, amaliy qo‘llanilish sohalari, bugungi ahvoli va rivojlanishi istiqbollari bilan tanishtirishdir. Bunday ma’ruzalar bo‘lajak mutaxassisning g‘oyaviy-nazariy va kasbiy-malakaviy shakllanishining asosiy mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, ta’limdagi zarur o‘zlashtirish, ham bevosita, ham ko‘rgazmalilik vositalarini, belgilarni va ilmiy usullarni qo‘llash bilan vositali ravishda yuz berishi mumkin. Vositali o‘zlashtirish bevosita o‘zlashtirishga nisbatan ahamiyatliroq, chunki bunda nafaqat hodisaning tashqi ko‘rinish, balki uning mohiyati va qonuniyatini ochib berish va tushuntirish imkoniyati mavjud bo‘ladi [1, 5].

Tadqiqotlar shuniko‘rsatadiki birinchi kurs talabalari vositali ravishda o‘zlashtirishga to‘la darajada tayyor bo‘lmaydilar: ular uchun formulalar va belgilanishlar (simvollar) ortida real shaklni ko‘rish qiyin bo‘ladi. Bir qancha fundamental fanlarning yuqori darajada matematikalashganligi tamoyil jihatidan zamonaviy fan talablariga javob berishi bilan birga o‘zining salbiy didaktik oqibatlariga ham ega.

Masalan, iqtisodiy masalalar natijasini topish mavzusi kabi, ma’ruzalardan sekin-asta ma’ruzaviy eksperiment chekinib bormoqda, ko‘rgazmaviy vositalar (maketlar, modellar, illyustrativ jadvallar va boshqalar) kam qo‘llanilmoqda. Ikki soat davomidagi matematik amallar talabalarga o‘rganayotgan hodisaning fizik mohiyatini puxta tushuntirish va ko‘rgazmali tasvirlash uchun vaqt qoldirmaydi. Natijada talaba o‘quv materiallarini yuzaki o‘zlashtiradi, tajribali pedagoglarning ta’kidlashicha, talaba xulosa va formulalarni biladi, ammo mutlaqo hech narsani tushunmaydi [2].

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan bosqichdagi ma’ruzalarda konkret va mavhum tomonlar puxta o‘ylangan, qat’iy aniqlangan bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, avvalgidek o‘zining imkoniyatlari bilan mavhum tushunchalarni ma’lum darajada moddiylashtira oladigan (materiallashtiradigan), ularni talabalar uchun tushunarli bo‘lgan konkret shakllarda taqdim etadigan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarur.

Bugungi kunda bunday o‘qitish vositalariga asosan statik va dinamik proeksion jihozlar, model qurilmalarini kiritish mumkin. Statik proeksion jihozlar yordamida bu muammoni hal qilish qiyin, chunki ularda jarayonlarning dinamikasini aks ettirish imkoniyati yo‘q. Dinamik proeksiya jihozlarining esa aksincha imkoniyatlari yuqori: o‘quv kinofilmlarida, mulimedia, kompyuter ekranlarida ko‘rinmaydigan jarayonlar va hodisalarni ko‘rsatish, multiplikatsiya vositalari bilan jarayonlarning qonuniyatlari va fizik mohiyatini qayd etish mumkin. Ammo metodik nuqtai nazardan ma’ruza jarayonida kinofragmentlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bir qancha jiddiy cheklanishlarga ega. O‘quv filmi, ayniqsa multimedia (multiplikatsiya) o‘ziga xos darajada shartli, ma’lum rangli axborotga va odatda ortiqcha emotsionallikka ega. Tasvir qat’iy dastur bo‘yicha kechadi, jadallik ma’ruzachiga bog‘liq bo‘lmay, u o‘zining bayon qilish uslubini ekrandagi tasvir mazmuniga moslashtirishga majbur. Tasvirni namoyish qilish talabaning diqqatini unga yo‘naltiradi va konspekt yozishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Ma’ruzachining auditoriya bilan aloqasining uzilib qolish ehtimoli mavjud bo‘lib, uni qayta tiklash maxsus choralar talab qiladi. O‘quv filmlari, multimedia va boshqa ko‘rgazmali vositalar(qurilmalar)ning rolini inkor qilmagan holda umumilmiy siklning fundamental fanlari bo‘yicha ma’ruzalarda abstraktlikni “jonlantirish”ning optimal vositasi model qurilmalari deb hisoblaymiz.

Natural modellarni, hodisalar va jarayonlar modellarini, ilmiy nazariyalar va kombinatsiyalashgan modellarni ma’ruza tajriba-sinovi yoki namoyish shaklida qo‘llash mavhumlikni aniqlik bilan bog‘lash vazifasini hal qiladi va shu asosda talabalarning murakkab o‘quv axborotini (boshlang‘ich) o‘zlashtirish sifatini yaxshilaydi [6].

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqishda Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi[1].

Mavzuning asosiy tushunchalariga oid o‘quv materiallarini yaratishda rastrli yoki vektorli rasmlar bilan ishlovchi dasturlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularqatoriga Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe PhotoShop, Adobe Illustrator kabilarnikiritishmumkin.

Pedagogik dasturiy vositalarni Internet tarmog‘iga joylashtirishda HTML giper matn hujjatlaridan foydalaniladi, chunki u Internet tizimining gipermatnli tili hisoblanadi hamda unda yaratilgan hujjatlarni o‘qish dasturi Microsoft Windows ning operatsion tizimi tarkibiga kiradi. Shuni ta’kidlash joizki, bunda pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi. Multimedia dasturiy mahsulotlarini yaratish uchun juda katta tayyorgarlik zarur. Bu yerda tayyorgarlikni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- informatikaning umumiy asoslari;
- grafika bilan ishlash;
- ovoz bilan ishlash;
- integratsiyalashgan muhitda ishlash;
- o‘rgatuvchi tomonidan dasturlarni yaratish metodikasining egallanishi.

Odatda o‘rgatuvchi multimediali dasturiy vositalar yaratish bilan kompyuter dasturchilari shug‘ullanadilar. Ammo bu dasturchilar o‘zlari yaratayotgan mahsulot sifati bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lsalarda, ko‘p hollarda o‘qitish metodikasini yetarlicha o‘zlashtirmagan bo‘lishlari mumkin. Bunday holda esa o‘rgatuvchi dasturiy vositaning metodik talablarga to‘liq javob berishini ta’minlay olmaydi. Shu sababdan, dasturiy multimedia mahsulotlarni yarata olish malakasini shakllantirishda ko‘p bosqichli tayyorgarlikni amalga oshirish zarur.

Xulosa qilib aytganda elektron axborot ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini tashkil etish kasbiy ta’limning elektron axborot ta’lim muhitini, integrallashgan axborot-ta’lim resurslarini yaratishni ta’lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etishni taqozo etadi. Bunday muhitda bo‘lajak iqtisodchilarni tayyorlash sifatini yanada oshirib borishga qaratilgan quyidagi ilmiy-metodik vazifalarni amalga oshirish lozim:

- oliy ta’lim muassasalarida iqtisodchilarni tayyorlashga nisbatan texnologik yondashuvga erishish;
- oliy ta’lim tizimida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan kasbiy ta’lim jarayonida foydalanish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik ta’minotni hamda undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish;
- kasbiyta’lim yo‘nalishlari pedagoglari va talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko‘p bosqichli tizimni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

[1] Begimqulov U.Sh. va boshqalar.Pedagogik ta’limni axborotlashtirish:nazariya va amaliyot– Toshkent: Fan, 2011. – 178 b.

Bundan tashqari kasbiy ta’lim jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi quyidagi masalalarga e’tibor qaratish zaruriyati mavjud:

- erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish asosida kasbiy ta’lim sohalari bo‘yicha ta’limning yagona axborot-ta’lim portallarini yaratish;
- kasbiy ta’lim tizimida fanlarning yagona axborot-metodik ta’minotini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi fan portallarini yaratish;
- axborot-ta’lim portalining resurslaridan kasbiy ta’lim o‘quv jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chambers, W.N. Creative Scientist of Today // W.N. Chambers// Science. – L., – Vol. 145.

2. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot) – T.: Moliya, 2003.

3. Sayidaxmetov N.S, Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya moxiyati va zamonaviy loyixasi. – T.: 1999.

4. Наумкина Ю.Б. Самосовершенствование учителей с разными уровнями профессионально-педагогической компетентности. // Социальная психология XXI столетия.// Под редакцией проф. Козлова В.В. Ярославль, 2002. – С. 285.

5. Пинчук В. Инновационные процессы - основа проектирования новых образовательных технологий // Образование и управления. 1998. – № 3. – С. 96.

6. Рогов Е.И. Личностно-профессиональное развитие учителя в педагогической деятельности:Дисс. докт.пед.наук. – Ростов на Дону, 1999. – С.341.

Muyassar NURIDDINOVA,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
“Milliy sport turlari, o‘yinlari nazariyasi va uslubiyati”
kafedrasi mustaqil tatqiqotchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HARAKAT KO‘NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni harakat ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiyani tashkil etish shakllari hamda mazmuni yoritilgan. Shuningdek, muallif mazkur faoliyatni samarali tashkil etish uchun kerakli tavsiyalarni ishlab chiqib taqdim qilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yosh davri, bolaning jismoniy rivojlanishi, harakat, ko‘nikma va malakalar.

В статье освещены формы и содержание развития навыков передвижения детей дошкольного возраста, организации физического воспитания в дошкольном образовательном учреждении. Также автор выработал и представил необходимые рекомендации для эффективной организации данной деятельности.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, физическое развития ребенка, двигительний режим, умения и навыки.

The article highlights the forms and content of the development of movement skills of preschool children, the organization of physical education in a preschool educational institution. The author also developed and presented the necessary recommendations for the effective organization of this activity.

Key words. Preschool age, physical development of the child, action, skill and qualifications.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish bo‘yicha qarorni imzoladi. Yangi tuzilgan tashkilot zimmasiga maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, infratuzilmasini va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, tashkilotlarga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari yuklandi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan 30 dan ortiq me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular orasida “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari”, “Ilk qadam” o‘quv dasturi va unga muvofiq ishlab chiqilgan guruhlar kesimida mavzuiy rejalashtirish, jismoniy tarbiyadan nazariy va amaliy majmua, maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining ish jurnali shular jumlasidandir.

Maktabgacha ta’lim muassasasida kun tartibi aniq belgilangan faoliyatlar orqali quyidagi yosh guruhlarida kichik (3-4 yosh); o‘rta (4-5 yosh); katta (5-6 yosh), maktabga tayyorlov guruhlari (6-7 yosh) rejalashtiriladi va shunga mos ravishda tashkillashtiriladi. Ta’lim tashkilotida 5 yo‘nalish bo‘yicha ta’lim-tarbiya berilib, ilk bo‘g‘ini bu jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini tashkil etishdir. Ushbu tashkilotlarda mazkur 5 yo‘nalish bo‘yicha rivojlantiruvchi muhit yaratilib, uning ilk bo‘g‘ini “Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini amalga oshirish”ni qamrab oladi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg‘un rivojlantirish maktabgacha jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolaning jismoniy rivojlanishi va uning faol harakatlanishiga imkon yaratish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonning mazmuni va metodlarini ishlab chiqishga ilmiy yondashish, tizimli xususiyatlarga rioya qilish, chiniqtirish, chidamlilikni oshirish, zarur ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash, mashg‘ulotlarda va o‘yin faoliyatida mustaqil fikrlashga, jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalashga oid muhim masalalarni hal etish lozim.

Maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quv yiliga 72 ta mashg‘ulotga mo‘ljallanadi. Barcha guruhlarda haftasiga 2 ta mashg‘ulotdan, (ikkinchisi ochiq havoda rejalashtiriladi) bolaning fiziologik holatiga qarab, hafta kunlariga taqsimlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini jismoniy tarbiya yo‘riqchisi olib boradi. Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi faoliyatni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomaga ko‘ra faoliyat yuritadi. Mazkur yo‘riqnoma jismoniy tarbiya yo‘riqchisining ishini tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, uning majburiyatlari, lavozim vazifalari va huquqlari belgilab berilgan yagona me’yoriy hujjatdir.

Maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya yo‘riqchisi faoliyati quyidagi hujjatlar asosida yuritiladi:

- mashg‘ulotlarning haftalik jadvali;
- kunlik, oylik, yillik ish rejasi;
- tarbiyachi bilan hamkorlikda ishlash rejasi;
- bolalar bilan individual ishlash rejasi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi jismoniy tarbiya yo‘riqchisining ish rejasi 3 ta asosiy tarkibda shakllantiriladi:

1. Me’yoriy hujjatlar bilan ishlash – “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” va dasturlarga amal qilish, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi yuritishi lozim bo‘lgan ish hujjatlarini tayyorlash, barcha yosh guruhlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ishlab chiqish.
2. Tarbiyaviy-ta’limiy jarayonlarni tashkil etish – mashg‘ulotga tayyorgarlikni yuqori saviyada tashkillashtirish, bolalarni mashg‘ulotga qiziqishlarini orttirish maqsadida qiziqarli ko‘rgazmalar va jihozlarni tayyorlash, to‘garaklar tashkil etish, bolalarni sport bayramlariga jalb etish, jismoniy rivojlanishda orqada qolgan bolalar bilan yakka tartibda ishlashni yo‘lga qo‘yish.
3. Hamkorlik – ota-onalar va boshqa pedagoglar bilan hamkorlik ishlarini tashkil qilish.

Bolaning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayonligini hisobga olib, jismoniy rivojlanish qonuniyatlari va uning ilk harakatlariga imkon yaratish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonning mazmuni va metodlarini ishlab chiqishga ilmiy yondashish, tizimli gigiyenaga rioya qilish, tabiiy va sun’iy vositalar asosida chiniqtirish, faol harakat qilish-

ning zarur ko‘nikmalarini tarbiyalash, turli mashg‘ulotlarda va o‘yin faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish kelgusidagi ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda tizimli mashg‘ulotlar va harakatli o‘yinlardan foydalanish juda zarur bo‘lib, maktabgacha yosh davrining har bir bosqichi rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra o‘ziga xos jihatlarga ajratiladi. Bolaning o‘sib, ulg‘ayishida jismoniy faollik, asosiy harakatlar tartibi muhim hisoblanib, aynan shu jarayonlar metodik jihatdan to‘g‘ri va tizimli ravishda tashkillashtirilsa, bola shaxsining jismoniy taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasasida ushbu vazifalar tizimli amalga oshirilib, uning dastlabki bo‘g‘ini bu o‘yin shaklidagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotidir.


Jismoniy tarbiya mashg‘uloti kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo‘lib, o‘ziga xos vazifa va mazmunga ega. Mashg‘ulotning kirish qismi maqsad va vazifalarga ko‘ra uyushtiriladi. Jumladan, bolalar kiyimlari va maxsus joy, jihoz va inventarlar yaroqliligi nazorati, bola hayoti xavfsizligini ta’minlashda texnik qoidalarga rioya etilishi kabilardir. Mashg‘ulotning bu qismi vazifasi bolalarda unga nisbatan qiziqish uyg‘otishdan tortib to diqqatni jamlash, ayrim harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va keyingi faoliyatga tayyorlashni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu qismda saflanish mashqlari – turlicha saflanishlar, qayta saflanishlar, turli topshiriqlar bilan bajariladigan (yo‘nalishi ko‘rsatilgan burilishlar) yurish va yugurish, yengil yugurish hamda keyinchalik kichik davra bo‘lib saflanish, turli ko‘rinishdagi yurishlar – tovonda, oyoq uchida, belgilangan chiziqda, narvonda yurish va boshqa mashqlar tanlab olinadi.

Kirish qismi bolalarning qatorlarga bo‘linib, doira bo‘lib saflanishi, tarqalishi bilan yakunlanadi. Bu bolalarni mashg‘ulotning asosiy qismi boshlanishidagi umumrivojlantiruvchi mashqlarni o‘rgatishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotning asosiy qismida bir holatda dastlab bolalarni umumrivojlantiruvchi mashqlarga, so‘ng asosiy harakatlarga o‘rgatish (2-3tagacha), jismoniy sifatlar (kuch, chaqqonlik, epchillik va boshq.)ni tarbiyalash vazifalari belgilanadi. So‘ng asosiy harakatlarni mustahkamlaydigan harakatli o‘yinlar o‘tkaziladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bolalar buyumlar, bayroqchalar, tayoqchalar, chambaraklar, arqonlar bilan bajarishlari mumkin. Mashg‘ulotni yakunlovchi qismi tinch holdagi harakatli o‘yindan so‘ng tobora sekinlashadigan suratdagi yurishlar bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari muntazam tashkil etilganda bolalarda harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi va malakalarni ortishiga sabab bo‘ladi. Ayrim mashg‘ulotlarda asosiy e’tibor bolalarni yangi jismoniy mashqlarni avval o‘rganilgani bilan birga o‘rgatishga, ikkinchi xil mashg‘ulotlarda harakat materialining bolalar tomonidan o‘zlashtirish darajasiga e’tibor qaratiladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotida qo‘yilgan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi, erishilayotgan natijalar, yakka tartibdagi mashqlar tahlil qilinadi. Avvalgi va keyingi mashg‘ulotlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik, umumiy maqsadga yo‘nalganlik, oddiydan murakkablashib boradigan harakatlarni qo‘llash, mashqlar orasidagi izchillik dasturga muvofiqlik nazorat qilinadi. Mashg‘ulot shunday tashkil etilganda bolalarda mas’uliyat, o‘zini tuta bilish, topshiriqni mustaqil bajarish malakasi shakllanib, o‘z ko‘nikmalarini ongli ravishda orttirib borish imkoniyati yaratiladi.

Ertalabki badantarbiya mashqlari bola sog‘lig‘ini mustahkamlashning zaruriy sharti bo‘lib, bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatning oshishiga yordam beradi, ijobiy emotsiya va tetiklikni uyg‘otadi. Jismoniy mashqlarni ochiq havoda yoki derazalari ochiq xonada suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush)

bilan o‘tkazishni ta’minlash sog‘lomlashtiruvchi samarani beradi: nerv tizimning umumiy holati va funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi, uni mustahkamlaydi va chiniqtiradi, bolalarda yengillik va quvonchni uyg‘otadi.



Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya tadbirlarini tashkillashtirish shakllari.

Quvnoq jismoniy daqiqalar qisqa muddatli jismoniy mashqlardan iborat bo‘lib, o‘rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlar o‘rtasidagi tanaffusda, shuningdek, mashg‘ulot jarayonining o‘zida (rasm chizish, applikatsiya, qurish-yasash va boshqalarda) o‘tkaziladi. Jismoniy tarbiya daqiqalarining ahamiyati bola faoliyati va holatini harakat aktivligi orqali almashtirishdan iborat bo‘lib, u charchoqni yozadi, bolaning emotsional ijobiy holatini tiklaydi.

Mavsumiy sog‘lomlashtiruvchi tadbirlar, maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarni chiniqtirish maqsadida yozgi va qishki mavsumda o‘zgacha tayyorgarlik ishlari amalga oshiriladi. Yozda havo, suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush, cho‘milish) va quyosh nurlaridan foydalaniladi. Tabiiy omillardan kompleks foydalanish bolalarda tashqi muhitning turli noxush ta’siri (nam havo, yomg‘ir, shamol, qor)ga nisbatan chidamlilik hosil qiladi. Chiniqtirish tadbirlari jismoniy mashqlar bilan birgalikda olib borilganda juda samarali bo‘ladi: aktiv muskul ishi issiqlik regulyatsiyasining takomillashuv jarayoniga va bu bilan organizmning tashqi muhitga moslashuviga yordam beradi. Har qanday mavsumda bola uchun qiziqarli jismoniy mashqlar va o‘yinlar bilan birgalikda amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlari emotsional ko‘tarinkilik uyg‘otadi, hamda kichkintoyning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni (6-7 yosh) sportga jalb qilishda birinchi navbatda bolalarning yoshi, jismoniy ko‘rsatkichlari va albatta qobiliyatiga qarab yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Bolalarni zamonaviy sport turlariga, jumladan, gimnastika (u o‘z ichiga sport gimnastikasi, badiiy gimnastika va akrobatikani oladi), gardish, lenta, arqonchalar, turli hajmdagi to‘plar bilan mashq bajarishga qiziqishlari ortadi.

Harakatli o‘yinlar bolalarni tezkorlikka, epchilikka va chidamlilikka o‘rgatib, ularda psixik jarayonlar: xotirani yaxshilashga, diqqatni jamlash, irodani mustahkamlash, ijodkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Harakatli o‘yinlarni tanlab olishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini hamda jismoniy mashqlarni tanlash qoidasi asoslarini hisobga olishi kerak. Bolalarni maktabga tayyorlashda shuni unutmaslik zarurki, ularning sog‘ligini mustahkamlash, harakat malakalarini oshirib, me’yorida rivojlantirib borish ham nazarda tutiladi. 3-7 yoshdagi bolalarning o‘yinlari mazmunan

kengayib, murakkablashib boradi. O‘yinni tashkil etishda barcha shart-sharoitlar to‘g‘ri hisobga olish va inventarlarni teng taqsimlash hamda o‘yin jarayonini kuzatish uning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Ota-onalar bilan ishlash, bolaning kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish – bu hayot faoliyatining asosiy jarayonlarini ta’lim-tarbiyaviy faoliyatini maqsadga muvofiq joriy etish, kichkintoy uchun qiziq bo‘lgan jarayonlarni muntazam uyushtirish, zarur sharoitlarni yaratishdir.

Oilada ota-ona farzandining sog‘ligini muhofaza qilish va kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishda quyidagilarga rioya etish maqsadga muvofiqdir:

• bolalarning yoshga doir xususiyatlarini kuzatish;

• jamoaviy ta’lim-tarbiya olishlarini ta’minlash;

• ularning har tomonlama faoliyati va muloqoti uchun zarur moddiy muhitni yaratish;

• uy sharoitida turli faoliyatlar (o‘yin, mehnat, mashg‘ulot)ni joriy etish va bularni to‘g‘ri tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasasida jismonan rivojlantirish va tarbiyalashda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining jismoniy rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘nalishidagi talablarni bajarishga erishish zarur. Bunda kichik yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishda maktabgacha ta’lim muassasasida kun tartibiga muvofiq jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, sport tadbirlari, sayr, ko‘ngilochar soatlar, quvnoq daqiqalar, badantarbiya mashqlari, faollik markazlarida barcha faoliyatlarni guruhlar kesimida pedagogik me’yorlarga muvofiq amalga oshirish bolalarning jismoniy jihatdan yetuk rivojlanishi ta’minlanadi. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanganlik darajalarini aniqlash – jismoniy rivojlanish xaritasini tuzish, oraliq (dekabr, yanvar, may) davrlarda kuzatish va natijalarni qayd etib borish, tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanishlarini nazorat qilish, yil davomidagi mashg‘ulotlarda bajartirish lozim bo‘lgan mashq va harakatli o‘yinlarni tanlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – T., 2018.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish. – T., 2018.

3. Nuriddinova M.M. Kichkintoylar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari. – T., 2019.

4. Nuriddinova M.M. Maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya yo‘riqchilari uchun me’yoriy hujjatlar majmuyi. – T., 2013.

5. Nuriddinova M.M. va bosh. Jismoniy tarbiya metodikasi. – T., 2019.

6. Nuriddinova M.M. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumiga metodik tavsiyalar. – T., 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2019-yil 30-avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i.

8. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T., 2018.

9. Usmonxodjaev T.S. va bosh. Milliy va harakatli o‘yinlar. – T., 2015.

Shoira NIZAMOVA,
A.Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI,
mustaqil tatqiqotchisi

TA’LIMDA IQTISODIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

(Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar mazmuni yoritilgan. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti jarayonida rahbarning iqtisodiy masalalarni bartaraf etishdagi faoliyatiga e’tibor berilgan. Muallf umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqarishda direktorlar iqtisodiy faoliyatining tashkil etish yo‘llari to‘g‘risida ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Maktabni boshqarish, direktorlar iqtisodiy faoliyati, raqobatbardosh xodim, iqtisodiy kompetentlik, iqtisodiy savodxonlik.

В данной статье освещено содержание проводимой в нашей стране работы по развитию образования. Также было уделено внимание деятельности руководителя в решении экономических вопросов в процессе рыночной экономики. Автор привел данные о путях организации экономической деятельности директоров при управлении общеобразовательными школами.

Ключевые слова. Управление школой, экономическая деятельность директоров, конкурентоспособный сотрудник, экономическая компетентность, экономическая грамотность.

This article highlights the content of the work carried out in our country on the development of education. Attention was also paid to the activities of the head in solving economic issues in the market economy. The author provided data on the ways of organizing the economic activity of directors in the management of secondary schools.

Key words. School management, economic activity of directors, competitive employee, economic competence, economic literacy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 5-sentabrdagi 5538-son farmonida Xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashishga e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta’limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash moliyalashtirish kabi bir qator muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish masalasiga ham to‘xtaladi. Hozirda ushbu sohadagi

mavjud bo‘lgan muammolar umumiy o‘rta ta’limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta’minlash masalalarida xalq ta’limi bo‘limlari va umumta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik darajasining pastligi, rahbarlar, o‘qituvchilar va umumta’lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko‘payib ketganligi, ta’lim sifatini ta’minlash, o‘qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta’lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, o‘quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi, xalq ta’limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me’moriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligidir.

Bu kabi muammolarni bartaraf etishda albatta maktab direktorining boshqaruvdagi mahorati va iqtisodiy bilimlarga ega ekanligi yordam beradi. Ushbu farmonda 2018-yil 1-oktabrdan boshlab korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining xalq ta’limi muassasalarining ko‘chmas mulkini ijaraga berishdan tushgan mablag‘ning 1 foizining xalq ta’limi muassasalarini rivojlantirishning byudjetdan tashqari jamg‘armalariga yo‘naltirishi, umumta’lim muassasasi rahbariga xalq ta’limi muassasalarini rivojlantirish byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘larini erkin tasarruf etish, shu jumladan jamg‘arma daromadlarining jami summasidan 10 foizini o‘z moddiy rag‘batlantirishi uchun yo‘naltirish huquqini taqdim etishi[1] ta’kidlangan.

Xuddi shu to‘g‘rida O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan tashqari mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirishini e’tiborga olish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta’lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish masalasiga to‘xtaladi.[2] Yuqorida ko‘rsatilgan masalalarning bajarilishida bevosita umumiy o‘rta ta’lim maktablarining direktorlari iqtisodiy bilimdonligi va iqtisodiy kompetentlikka egaligi alohida ahamiyatga ega.

“Mahoratli menejer (direktor)” – menejment nazariyasining asosiy tamoyillarini biladigan menejer yuqori kasbiy kompetentligi bilan ajralib turadi. [3]

Bugungi kunda maktab direktorlarining iqtisodiy faoliyatni olib borishida bir qancha muammolar bor. Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatishning rivojlantirishi bo‘yicha uzluksiz ishlar amalga oshirilmoqda. Marketing xizmatlari xalq ta’limi sohasiga kirib bormoqda.

Marketing nazariyasi asoschilaridan biri F. Kotler shunday degan: “Xizmat – bu bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir; buning natijasida hech bir narsaga ega bo‘linmaydi. Xizmat ko‘rsatish moddiy mahsulot billan bog‘liq bo‘lishi mumkin”[4].

Ta’lim xizmatlarini tashkil etishdagi maktab direktorlarining iqtisodiy faoliyatini kuzatishimiz mumkin. Iqtisodiy kompetent rahbar kuzatuvlarining uzoq vaqt davomida, qo‘shimcha mablag‘ va pullik xizmatlar tashkil etishi ishda uning mustaqilligini ang-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 5-sentyabrdagi 5538-son farmoni

[2] O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

[3] Хроленко А.Т. Самоменеджмент. – М.: Экономика, 1996. –139 с

[4] Ф.Котлер. Маркетинг менеджмент, ПИТЕР, — 2012 г.

laydi, faoliyatni mustahkamlaydi, bu bilan boshqaruvda o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi. Demakki, ta’limdagi bu tusdagi boshqaruv har bir insonni va ularning ehtiyojlarini diqqat markaziga qo‘yishi, ta’lim xizmatlari XXI asrning yangi voqyeliklariga moslashtirishi, bunda eng muhimi inson kapitali va uning samarali mehnat qilishini hisobga oladi.

Iqtisodiy kompetentlikka ega rahbar ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan yetuk, raqobatbardosh, mahoratli mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish orqali ta’lim tizimini o‘zgartirishni, uni yangi mazmun bilan to‘ldirishni, yangi progressiv va samarali usul, metod va o‘quv faoliyati vositalaridan foydalanishni, o‘quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashning maqbul shart-sharoitlarini aniqlashni nazarda tutadi.[5]

Shu maqsadda malaka oshirishda ta’limning o‘quv amaliyotiga bozor iqtisodiyoti ehtiyojlarini o‘rganuvchi “Yangi” bilimlar bilan tanishtirilab maxsus o‘quv kurslari mashg‘ulotlar olib borilmoqda. “Maktab boshqaruvida moliyaviy masalalar” modulida Xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish masalalariga alohida to‘xtalishi rahbarlarning iqtisodiy savodxon ekanligini bildiradi.

Ushbu masala bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunga qadar ta’lim jarayonida rahbarlarning iqtisodiy kompetentligi bozor sharoitida xodimlarning hayot uchun iqtisodiy ijodiy individualligini rivojlantirishga yordam beradi.

Rahbarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish jarayonini ilmiy-metodik jihatdan o‘rganish va pedagogika fanida iqtisodiy kompetentlikni samarali shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni zaif jihatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv amaliy mashqlar va topshiriqlarni bajarishni talab etadi. Bu muammolarni hal etish uchun, rahbarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish yo‘llarini topish va muammoni nazariy va amaliy jihatdan asoslashda quyidagilarga e’tibor beriladi.Buning uchun rahbar boshqaruvda:

- ta’lim muhitida moliyaviy va iqtisodiy munosabatlarning turli shakllaridan foydalanish;
- moliyaviy muammolarini hal qilishda mustaqilligi;
- moliyaviy savodxonlik natijalarga erishish kafolati.

Maktab direktorining iqtisodiy bilimdonligi natijasida maktabni rivojlantirish uchun investitsiyalarni olib kirish, imkoniyat darajasida ichki rezervlardan foydalangan holda mablag‘ topish, homiylar ko‘magida maktabning moddiy ta’minotini yaxshilash, davlat tomonidan ta’minlanadigan jamg‘arma mablag‘larini sarflash, qo‘shimcha mablag‘ topishni rag‘batlantirish masalalari bilan shug‘ullanishda muammolarni bartaraf etish salohiyatiga ega bo‘ladi.

Hozirda rahbarga qo‘yilayotgan talablardan biri ham ularning iqtisodiy kompetent bo‘lishdir. 2020-yil mamlakatimizda “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb bejizga nomlanmadi. Ta’lim sohasining rivojlanishi, ta’lim xizmatlarining yaxshilanishi, ta’limning turli shaklda tashkil etilishi va iqtisodiy-innavatsion yangiliklarning ta’limga tatbiq etilishi yutug‘imizdir. Shiddat bilan o‘tayotgan davrimizda farzandlarmiznig yaxshi bilim olishi ta’lim muassasalaridagi yaratilgan sharoitga, yuksak salohiyatli o‘qituvlarga va bilimdon, ishbilarmon va iqtisodiy kompetent rahbarga bevosita bog‘liqdir.

[5] 138. Щетинин, В.П. Экономика образования. Учебное пособие // В.П.Щетинин, Н.А.Хроменков, Б.С.Рябушкин. – М.: Рос. Пед. агенство, 2006. - 306 с.

Bugungi kunda rahbar kadrlar faoliyati samarali bo‘lishi uchun avvalo, ularni tanlash prinsiplarini yangilash va qonuniy asoslarini takomillashtirish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu ma’noda rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida, birinchidan, ular ongiga har qanday rahbar xalq oldida, yurt oldida hisobdor, javobgar ekanligi hissini singdirish kerak. Ikkinchidan, ularni rahbarlikka oid bilimlar, ayniqsa, rahbarlikda muvaffaqiyatga erishishga olib keladigan va muvaffaqiyatli rahbarlikka to‘sqinlik qiladigan shaxs xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantirish lozim. Uchinchidan, har bir rahbar kadrni zamonaviy rahbar kadrlarga qo‘yiladigan talablar va mas’uliyat mezonlaridan xabardor qilish darkor. To‘rtinchidan, muvaffaqiyatli rahbarlikka erishish uchun rahbar faoliyatida adolatlilik, odillik singari zarur sifatlar aks etishi kerak. Beshinchidan, har bir rahbar aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarali usullarini bilishi muhim. Oltinchidan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 5-sentabrdagi 5538-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasitasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5712-son Farmoni.

Ф. Котлер. Маркетинг менеджмент, ПИТЕР, – 2012 г.

3. Фалевич Л.Н. Формирование экономической компетентности учащихся профессиональных училищ в современных условиях. дис. канд. пед. наук: // Фалевич Л.Н. – СПб., 2005. – С. 172.

4. Хаматнурова Е.Н. Становление экономической компетентности будущего педагога профессионального обучения Текст. : автореф. . канд. пед. наук : 13.00.08 // Хаматнурова Е.Н. Ом. гос. пед. ун-т. – Омск, 2007. – 23 с.

5. Хроленко А.Т. Самоменеджмент. – М.: Экономика, 1996. – 139 с.

6. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-образовательной парадигмы образования // А.В. Хуторской // Народное образование. 2003. – №2. – С. 58-64, №5.-С. 55-61.

7. Щетинин, В.П. Экономика образования. Учебное пособие. В.П. Щетинин, Н.А. Хроменков, Б.С. Рябушкин. – М.:Рос. Пед. агенство, 2006. – 306 с.

Maloxat ERGASHEVA,
A.Avloniy nomidagi XTTRXMKQTMOI,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri, dotsent

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola xalq ta'limi tizimi xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalariga bag'ishlangan. Muallif xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik faoliyatini rivojlantirish, pedagog kadrlar uchun seminar-treninglar tashkil etish bo'yicha o'z tavsiya va takliflarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Xalqaro hamkorlik, malaka oshirish tizimi, sifat mezonlari, zamonaviy texnologiyalar, amaliy treninglar.

Статья посвящена вопросам повышения квалификации и переподготовки работников системы народного образования. Автор дал свои рекомендации и предложения по развитию сотрудничества с зарубежными образовательными учреждениями, организации семинаров-тренингов для педагогических кадров.

Ключевые слова. Международное сотрудничество, система повышения квалификации, критерии качества, современные технологии, практические тренинги.

The article is devoted to the issues of professional development and retraining of employees of the public education system. The author gave his recommendations and suggestions for developing cooperation with foreign educational institutions, organizing training seminars for teachers.

Key words. International cooperation, system of improvement of professional skill, quality criteria, modern technologies, practical trainings.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar yagona maqsad-barkamol shaxs, malakali rahbar va mutaxassisni tarbiyalash hamda tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib,mazkur maqsadni to'laqonli amalga oshirilishi uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish, uning mazmunini ijtimoiy talablarga muvofiq ravishda yangilash asosida ta'minlanadi.

Respublika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri – malakali kadrlar hisoblanadi. Ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim sohasi menejerlari va o'qituvchilar jamoasining rahbarlik, pedagogik mahorati va malakasini oshirish,pedagogik faoliyati samaradorligini tahlil qilish muammolari ta'limning sifat mezonlarini belgilashga imkon beradi. A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida ham Germaniya, Koreya Respublikasi, Amerika qo'shma shtatlari kabi xorijiy davlatlarning ta'lim sohasi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari bilan shug'ullanuvchi yetakchi tashkilotlari va markazlari bilan amaliy seminar treninglar tashkil etish va o'tkazish

bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish” O‘zbekiston-Germaniyaning Gyote instituti Toshkent filiali ko‘magida Germaniyalik o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasi bo‘yicha yetakchi mutaxassis, pedagogika va psixologiya fanlari doktori professor Villi Rolf Xanish “Change Management”mavzusida hamda Xalq ta’limi vazirligining Amerika qo‘shma shtatlari (AQSh) “Fulbrayt DAST (Fulbright DAST) dasturi bilan hamkorlik loyihalar doirasida “Menejment, Ta’lim menejmenti, amaliy treninglarni samarali tashkil etish texnologiyalari” mavzusidaAQShning Pittsburg universiteti professori Judi Smetana tomonidan institut professor-o‘qituvchilari, ilmiy-izlanuvchi doktorantlari uchun amaliy seminar trening mashg‘ulotlarini o‘tkazdi. Ushbu seminar-treninglar nafaqat institutimizda, balki respublikamizning boshqa hududlarida jumladan,Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlariva Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi tizimi pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarida ham o‘tkazilgan. Bundan tashqari,“Ta’limda menejmentning dolzarb masalalari” mavzusida institutda o‘tkazilgan respublika ilmiy konferensiyasida “Maktab direktorlari menejer sifatida” mavzusida hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirlar va seminar mashg‘ulotlari natijalari haqida o‘z fikrlarini bayon etildi.

“Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish” o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasi bo‘yicha yetakchi mutaxassislar, trenerligida “Change Management”, “Menejment, Ta’lim menejmenti, amaliy treninglarni samarali tashkil etish texnologiyalari-SMART goals” mavzularida o‘quv-seminar natijalari o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasi bo‘yicha yetakchi mutaxassislar o‘zlarinning ma’ruza matnlari va amaliy dars ishlanmalarigaintegratsiya qilishgan. Mashg‘ulotlarni ishlab chiqisho‘quv materiallarining mazmuni va uni taqdim etish metodlari hamda o‘quv mashq va topshiriqlarini yaratish jarayoni ko‘rib chiqildi. Albatta baholash bosqichiga aloxida e’tibor berib, aniq amaliy misollar keltirildi.

Hozirgi kunda har bir ma’ruza matni va amaliy mashg‘ulot materiallariga seminar-treningning asosiy mazmuni, ya’ni“Shaxsiy konsepsiya qo‘rg‘onini rivojlantirish omillari va bosqichlari” integratsiya qilindi.

AQShning Pittsburg universiteti professori Judi Smetana tomonidantaqdim etilgan amaliy mashg‘ulotlarda, kattalarta’limi nazariyasi masalalarini tahlil qilish bo‘yicha “ADDIE” modeli bilan tanishtirildi. Shuningdek,SMART-strategik maqsadni belgilash texnikasi asosidao‘quv maqsadlarini aniq belgilashga amaliy misollar keltirildi.

Xalqaro hamkorlik soxasida o‘tkazilgan amaliy trening va seminarlar natijasida institutimizda quyidagiishlar amalga oshirildi:

1. Umumta’lim maktablari direktorlari uchun “Ta’lim soxasi menejeri” yo‘nalishidagi malaka oshirish kurslari o‘quv reja va o‘quv dasturlari yangilandi. Mazkur o‘quv reja tarkibiga “Time management”, “Proekt menejment” kabi modullar kiritildi va maktab direktorlarining shaxsiy va professional kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga aloxida e’tibor qaratildi.
2. Maktab raxbarlarining “O‘zgarishlarga moslashuvchanlik” ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha amaliy dars mashg‘ulotlari uchun “Change Management” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqildi.
3. “Fulbrayt DAST (Fulbright DAST)” dasturi loyihasi doirasida “Ijobiy psixologiya bilim-ko‘nikmalarini o‘qitish bo‘yicha materiallarni madaniy muhitga moslashtirish” mavzusida AQShlik psixolog mutaxassisi, prfessor Lori Vulf tomonidan “Maktablarda

zo‘ravonlikni oldini olish va ijobiy psixologiyani o‘qitish metodikasi” loyixasi doirasida o‘tkazilgan amaliy trening natijasida “O‘quvchi-yoshlarning psixologik muommolari va yechimlari” nomli uslubiy qo‘llanma yaratildi va maktab amaliyotchi psixologlariga foydalanish uchun tavsiya etildi.

Trener sifatida biz uchun kattalarta’limi nazariyasini bilishimiz muhimdir. Kattalarta’limi nazariyasi bizga trening dasturlari loyihasini tayyorlashni boshlagan dastlabki daqiqalardanoq nimalarni e’tiborga olishimiz zarurligi haqida ma’lumot beradi. Kattalarta’lim nazariyasining asosiy tamoyillari haqida birinchi bo‘lib amerikalik pedagog Malkolm Shepard Noulzma’lumot bergan. (Svanson & Xolton, 2001).

R.A.Svanson va F.Xoltonlarning ta’kidlashicha, kattalar o‘qib-o‘rganishga qanday yondashishini Malkolm Shepard Noulz tomonidan ta’riflanganoltita tamoyili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Kattalar nima uchun o‘rganayotganini bilishlari lozim.**

Kattalar odatda “Bu bilim(ma’lumot) meni kasbimda qanday yordam berishi mumkin?” yoki “Nima uchun zarur, menga qanday foydasi bor?” degan savollarni berishi tabiiy.

Bu esa kattalar ta’limi borasida muhim xulosaga olib keladi: agar o‘ziga foyda bo‘lishini bilsa, kattalarta’lim jarayoniga jiddiyroq yondashadi. Bundan kelib chiqadiki, kattalarga nima foydali ekaniga e’tibor berishi zarur – ya’ni, ishda yoki uyda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan bilim bo‘lishi lozim.

2. **Kattalar o‘zini mas’uliyatli, o‘zini-o‘zi yo‘lga soluvchi shaxs deb biladi.**

Kattalar o‘z xayotini yo‘lga solish faqat o‘z mas’uliyati deb biladi: qanday kasb tanlash, farzandlarni qanday tarbiyalash, qanday dam olish kabi qarorlarni o‘zi qabul qilishni xohlaydi. Ta’limda ham bu o‘z aksini topadi, kattalar qanday kursni o‘qishni va kurs ichida ma’lum mustaqillikni istaydi. Ta’lim nuqtai nazaridan, katalar o‘rganish maqsadi va vazifalarini o‘zi belgilashni xohlaydi.

3. **Kattalar malaka oshirish ta’limiga ma’lum darajada tajriba bilan keladi.**

Kattalar turli darajada bo‘lsada, maktabda o‘qish, ishlash, boshqarish, farzand o‘stirish, siyosatni tushunish va hokazo tajribaga ega bo‘ladi. Shu sababdan ular malaka oshirish ta’limiga o‘z tajribasiga qo‘shimcha sifatida qaraydi. Ta’limiy mashqlar samarali, faollik va hamkorlikka undovchi bo‘lishi zarur.

4. **Kattalar qachon o‘zi tayyor bo‘lganda, foydali va qulay vaqtda o‘rganishni xohlaydi.**

Maktabda bolalar ko‘pincha o‘zi tayyor bo‘lmagan narsalarni o‘rganadi. Masalan, 16 yoshga yetmagan bolalarga biznes malakalaridan ta’lim berish maqsadga muvofiq bo‘lmasligi mumkin. Kattalar esa, odatda o‘zlarini tayyor his qilmasdan avval o‘quv kurslariga kirishmaydi. Masalan, agar biror kishi biznes sohasiga kirmoqchi bo‘lmasa, biznes malakalari kursini o‘qimaydi. Demak, ular nimani xohlasa, shuni o‘rganadi va ta’lim olish orqali erishmoqchi bo‘lgan aniq maqsadlarga ega bo‘ladi. (Biroq, ba’zi tinglovchilar o‘z ehtiyojlariga mos kelmagan kurslarda ham o‘qishadi. Shu sababdan, ularga ta’lim olishni boshlashdan avval yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishva qo‘llab-quvvatlash lozim.)

5. **Kattalarta’lim olishni hayotiy maqsad va tajribalariga tayanib, muammolardan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.**

Kattalar ko‘pincha qandaydir muammoni hal qilish uchun malaka oshirish, ta’lim olishga kirishadi. Masalan, biror ayol kishi kompyuterlar bilan ishlaydigan idoraga ishga kirmoqchi bo‘lsa, va o‘zi kompyuterlar haqida hech narsa bilmasa, bu ayol axborot texnologiyalar kursida o‘qishi mumkin. Boshqacha so‘z bilan aytganda, kattalar ko‘pincha maqsadga intilgan bo‘ladi. Demak malaka oshirish kurslarini kattalarning

o‘z maqsadiga erishishiga ko‘maklashadigan qilib yaratishimiz lozim – ya’ni, kurslar mustahkam, amaliy aspektga ega bo‘lsin.

6. **Kattalarni odatda shaxsiy omillar qiziqtiradi.**

Noulzning ta’kidlashiga ko‘ra, kattalarning malaka oshirishdan maqsadi, asosan kasbiy yutuqlarga erishish yoki yaxshiroq xayot kechirishdan iborat bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu biroz boshqacharoq, ya’ni yaxshi ish topish, yuqori mansabga ko‘tarilish, ko‘proq pul topish asosiy qiziqtiruvchi faktorlar hisoblanadi.

“ADDIE” - bu o‘qituvchilar/trenerlarning o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda yo‘riqnoma sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan model yoki tavsiyadir.

U dasturni ishlab chiqishda har bir qadamni bosqichma-bosqich baholab, xulosa berish imkonini beradi. Shuningdek, bu model dasturni dinamik va interfaol baholab borish uchun yaratilgan.

Bu modelni har qanday holatga moslab qo‘llasa bo‘ladi, ya’ni tashkil etiladigan treningning mazmun-mohiyati, ishtirokchilar kontingentini inobatga olgan holda uni turli xil faoliyat uchun, masalan, tashkil etish, jamoaviy trening mashg‘ulotlari yoki alohida ehtiyojlar asosida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

Mazkur texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi: ta’lim menejerlarini erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, uzoqni ko‘ra olishga, strategik fikr yuritishga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash orqali muammolar yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi rahbar mutuxassis kadrlarni malakasini oshirish qayta tayyorlash instituti tomonidanO‘zbekiston-Germaniya o‘rtasidagi hamkorlik ishlarinitashkil etilganligi, olib borganamaliy seminar treningi kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarni qaror toptirishda, ulardagi bilish faolligi, kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini egallashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chan, J.F. (2010). Designing and Developing Training Programs. Wiley & Sons Publishers: San Francisco, CA.

2. Swanson, R.A. & Holton III, E.F. 2001.Berrett-Koehler Publishers, Inc: San Francisco.

3. Vandenberg, L. (2007). Facilitating Adult Learning, How to teach so people learn. PDF. Adult Learning and Teaching, Fall Conference.

Matluba SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM “Maktabgacha,
Boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD)

MUSTAQIL TA’LIM – O‘QITUVCHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI BELGILAB BERUVCHI MEZON SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘qituvchilarning mustaqil ta’limi, uni uzluksiz tashkil etishning mohiyati va zaruriyati, shuningdek, o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakllari, asosiy tamoyillari batafsil bayon etilgan. Mustaqil ta’lim jarayonining natijaviyligini aniqlash, mustaqil ta’lim natijasida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Mustaqil ta’lim, mustaqil malaka oshirish, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va kasbiy layoqati, umumiy va kasbiy madaniyat, uzluksizlik.

В данной статье подробно описаны самостоятельное образование учителей, суть и необходимость его непрерывной организации, а также формы, основные принципы совершенствования профессиональных компетенций учителей посредством самостоятельного образования. Разработаны критерии и показатели, определяющие результативность самостоятельного образовательного процесса, степень развития профессиональной компетентности учителей в результате самостоятельного обучения .

Ключевые слова. Самостоятельное образование, самостоятельное повышение квалификации, профессиональная компетентность и профессиональная способность учителя, общая и профессиональная культура, непрерывность.

In this article it is thoroughly stated the role of learner autonomy, necessity and essence of organizing it regularly, besides the forms and main principles of developing professional competencies of teachers through self-studying. It is worked out criteria and indicators defining the productivity of the self-study process, the level of the development teachers’ professional competencies in the result of self-studying.

Key words. Self-study, self-development of qualification, professional competencies and skills of teachers, general and professional culture, continuity.

Hozir zamonaviy ta’limni tashkil etishning muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijaga erishishdir. Buning uchun pedagog, avvalo, ta’lim samarasini oshiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirishi lozim. Bunda o‘quv predmetining o‘ziga xos jihatini, mashg‘ulot o‘tiladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘qituvchilarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e’tiborga olish zarur. Bu vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchi o‘quv jarayoniga kompleks tayyorgarlik ko‘rishi talab qilinadi. O‘qituvchi ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga va o‘z ustida ishlashiga bog‘liqdir. Pedagoglar mehnat faoliyatlari davomida o‘z ustida mustaqil

ishlab kasbiy layoqati uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘lga kiritadilar. Tajribalardan ma’lumki, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida uning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ravishda egallangan ma’lumotlar mustaqil ta’lim jarayonida, ya’ni yangiliklar yoki zaruriy tushunchalar unga biror bir shaxs tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, refleksiv faoliyat jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi. Zero, ta’lim tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifalardan biri ham pedagog xodimlarni ko‘proq mustaqil ta’lim olishga undash, uning metodik tizimini yaratishdan iboratdir.

O‘qituvchining mustaqil ta’limi – muayyan fandan belgilangan bilim, ko‘nikma va malaka hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir ma’lumotlarning ma’lum bir qismini tinglovchi-o‘qituvchi tomonidan (davriy malaka oshirish kurslarida) auditoriyadan tashqarida yoki kasbiy faoliyati davomida mustaqil o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyat bo‘lib, o‘qituvchining mustaqil tarzda kasb mahoratini oshirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirishga, kasbiy layoqati va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga yo‘naltiradi. Shuningdek, o‘qituvchining o‘z lavozimi va mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz ravishda mustaqil o‘zlashtirishini ham nazarda tutadi.

Mustaqil ta’lim bu – pedagogning qobiliyatlari va o‘ziga xosliklarini rivojlantirishga yo‘nlatirilgan, o‘zi tomonidan boshqariladigan va kasbiy fazilatlarini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan faoliyatlarini birlashtiradi. Mustaqil ta’limning zaruriyati, bir tomondan, o‘qituvchi faoliyatining xususiyatlari, uning ijtimoiy mohiyati, ikkinchi tomondan, pedagog mehnatining doimiy o‘zgarishdagi sharoitlari, jamiyat ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivoji, inson shaxsiga, uning ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarning almashinuviga nisbatan tez va mutanosib javob bera olish qobiliyati, o‘z faoliyatini qayta qurishga, yangi va murakkabroq muammolarni mohirlik bilan hal qila olishga tayyorligiga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan bog`liq uzluksiz ta’limning mavjud holati va an`analari bilan izohlanadi. Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda, o‘qituvchining mustaqil ta’limi[1]:

− mustaqil ravishda yoki mutaxassislarning rahbarligi ostida amalga oshiriladigan va shaxsning o‘z-o‘zini anglash va o‘zini o‘zi anglatishga qaratilgan bilish faoliyatining alohida turi sifatida;

− asosini ma’lum bir mavzu bo‘yicha axborotlar manbai bilan faol mustaqil ishlash tashkil qiluvchi, muayyan tarzda shakllantirilgan shaxsiy bilish jarayoni shaklida namoyon bo‘luvchi shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirish yo‘li sifatida;

− jamiyat oldida turgan ta’lim-tarbiya muammolarini hal qilish maqsadida shaxs uzluksiz ta’lim tizimining elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

− O‘qituvchining mustaqil ta’limini uning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishning quyidagi shakllaridan foydalanish mumkin:

− muayyan fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;

− (bitiruv) malakaviy ishi, ilmiy-ijodiy loyiha ishi, mustaqil ish uchun materiallar to‘plash;

− amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash yoki bajarish;

− amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

O‘qituvchi mustaqil ta’limining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat[2]:

– uzluksizlik; maqsadga intilish; yaxlitlik; umumiy va kasbiy madaniyatning uyg`unligi;

[1] N.Raxmanqulova, M.Yuldashev, A.Baxramov, M.Ahmedov, T.Raimov, A.Ametov. Xalq ta`limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo`llab-quvvatlash. – T.: Lesson-press, 2018. 160 b.

[2] O`sha manba.

o‘zaro bog`liqlik va vorislik; erishish mumkinligi; ilgarilab borish tavsifi; quyi bosqichdan yuqori bosqichga o‘tishning uzviyligi; o‘zgaruvchanlik va boshqalar.

O‘qituvchilar mustaqil ta’limini samarali tashkil etishda tizimli yondashish, barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish, tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Mustaqil ta’lim natijasida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko‘rsatkichlar

Mustaqil ta’lim orqali natijaga erishish usullari	**Mustaqil ta’lim natijasida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko‘rsatkichlar**
Sohaga tegishli dissertatsiya, maqolalar, Internet nashrlari asosida qo‘shimcha ma’lumotlarni mutolaa qilish	o‘zini o‘zi rivojlantirishga qiziqishning barqarorligi
Seminar-trening, master-klass, interfaol mashg‘ulotlar, vebinar darslarda ishtirok etish	kasbiy faoliyat sohasidagi yangiliklarga qiziqish hissi namoyishi
Xalqaro ilmiy tajribalarni milliy qadriyatlarga ustuvorlik asosida o‘rganish	kasbiy faoliyat sohasida rivojlanish
Ilg‘or tajribalar, o‘zaro darslarni kuzatish	kasbga nisbatan qiziqishning namoyish etilishi, ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini anglashi
Sayyor malaka oshirish kursi, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish	kasbiy vazifalarini shakllantirish va kasbiy muammolarini hal etish, sifat va samaradorligini baholashi
Mustaqil o‘qib o‘rganish, o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirish ustida ishlash	axborotni izlash, undan foydalanish samaradorligi
Maqsadli sho‘ba va o‘quvlar faoliyatida ishtirok etish	samarali aloqa texnologiyasiga ega bo‘lish: modellash, tashkil etish, boshqarish, aks ettirish
Pedagogik nashrlar, Internet resurslaridan kerakli manbalarni izlash va foydalanish	Internet resurslari materiallaridan foydalanish samaradorligi
Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan optimal foydalana olish
Maqsadlarni optimal belgilash, vazifalar, pedagogik rejalashtirish usullarini tanlash	o‘quv jarayonining sifati uchun mas’uliyatning namoyon bo‘lishi

Mustaqil ta’lim orqali mustaqil malaka oshirishni muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

– maqsad (yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va h.k.) aniq asoslanishi;

– mustaqil malaka oshirish va topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan tinglovchi-o‘qituvchilarning yetarli darajada xabardor bo‘lishi;

– maslahat va boshqa yordam turlarining to‘g‘ri belgilanishi (yo‘llanma va ko‘rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo‘yicha tushuncha berish va h.k.);

– vazifa va topshiriqlarning aniq va ravshan belgilanishi;

– nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

O‘qituvchi mustaqil ta’limining vazifalari quyidagilardan iborat:

− yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

− kerakli ma’lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
− axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
− elektron o‘quv va ilmiy adabiyotlar hamda ma’lumotlar banki bilan ishlash;
− internet tarmog‘idan maqsadli foydalanish;
− topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
− muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
− o‘z faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish ko‘nikmasini egallash;
− umumiy va xususiy kompetensiyalarni egallash.

Mustaqil ta’limning mazmuni pedagogning bilim olishga intilishi, uzluksiz ta’lim vositasida o‘zini o‘zi anglashiga ortib borayotgan ehtiyojini qanoatlantirishda ifodalanadi. Mustaqil ta’limsiz, o‘zini o‘zi rivojlantirmasdan turib pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’limni zamonaviylashtirish mumkin emas.

Mustaqil ta’lim jarayonini har jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mustaqil ta’lim jarayonining natijaviyligini aniqlash, mustaqil ta’lim natijasida o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi mezon va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish ushbu vaziyatda katta rol o‘ynaydi. Mustaqil ta’lim orqali o‘qituvchi shaxsiy va kasbiy rivojlanadi. O‘qituvchi mustaqil ta’limining natijaviyligi o‘qitishning qator tamoyillariga rioya etish asosida aniqlanadi[3]:

– insonparvarlashtirish va demokratlashtirish – talim mazmuni va shakllarini pedagog tomonidan tanlash erkinligi;

– uzluksizlik – malaka oshirish va mustaqil ta’limning murakkab tavsifli, tizimli, rejalashtirilgan va o‘zaro aloqadorligi;

– faoliyatga yo‘naltirilganligi – o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatining shakllanganligi;

– hamkorlik – ta’lim jarayonida rollarning almashishi, o‘qitishda hamkorlik va refleksivlik.

Xulosa shuki, mustaqil ta’limni tashkil etish orqali pedagogning o‘z-o‘zini tahlil qilishi, kasbiy muammolarni aniqlash va shakllantirishi, qiyinchiliklarni tushunish, ularni bartaraf etish usullarini topish va nazariyani o‘rganish uchun qiziqtiruvchi, tashkiliy-mohiyatli sharoitlarni yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori. 2018-yil 5-sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.

3. Jo‘rayev R., Yuldashev M., Rahmonqulova N., Bahromov A., Zokirov A. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O‘quv-metodik qo‘llanma. –Toshkent.: Adabiyot uchqunlari, 2014, 160 b.

4. Raxmanqulova N, Yuldashev M, Baxramov A, Ahmedov M, Raimov T, Ametov A. Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash. – T.: Lesson-press, 2018. 160 b.

[3] N.Raxmanqulova, M.Yuldashev, A.Baxramov, M.Ahmedov, T.Raimov, A.Ametov. Xalq ta`limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo`llab-quvvatlash. – T.: Lesson-press, 2018. 160 b.

Dilyoraxon Kavilova,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti, mustaqil tatqiqotchisi

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUSIQIY-IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, pedagog va talabalarning shu yo'ldagi vazifalari va musiqaning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, ijod, qobiliyat, talaba, pedagogika, ma'naviyat, metod, texnologiya.

Данная статья посвящена развитию музыкальных и творческих способностей студентов высших учебных заведений. Также были описаны задачи педагога и студентов на этом пути и особенности музыки.

Ключевые слова. Музыка, творчество, способность, студент, педагогика, духовность, метод, технология.

This article is devoted to the development of musical and creative abilities of students of higher educational institutions. In addition to this, the tasks of the teacher and students in this area are outlined, as well as the peculiar features of music.

Key words. Music, creativity, ability, student, pedagogy, spirituality, method, technology.

Madaniyat, san'at, jumladan, musiqa san'ati asoslari taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining negizlaridan birini tashkil qiladi[1].

Mazkur hujjat mamlakatimiz taraqqiyoti uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Hujjatning to'rtinchi ustuvor yo'nalishida madaniyat va san'at sohalarini yanada taraqqiy ettirish vazifalari belgilab qo'yilgan.

Kundan-kunga yangi innovatsion g'oyalar, pedagogik texnologiyalar, usullar, metodlar rivojlanib bormoqda. Sohani zamon bilan hamnafas holatda ekanligini ta'minlash biz mutahassislarning vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish, shuningdek, oliy ta'limning ta'lim sifatini

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ya’ni, musiqa san’atida asarlarni yetuk mahorat bilan ijro etishning samarali usul va metodlarini hozirgi zamon talablariga mos holda ishlab chiqish bugungi kunda juda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimizning ijodkor ziyolilari bilan 2017-yil 3-avgustda o‘tkazgan uchrashuvida: “Inson qalbini, uning dard-u intilishlari, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini betakror so‘z, ohang va ranglarda tarannum etishni o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas’uliyatli va sharafli ekanini barchamiz bilamiz”, – deya so‘zlagan nutqlarida yurtimizda o‘zining noyob iste’dodi va mahoratini xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga bag‘ishlagan, inson qalbining muhandislari bo‘lgan ijodkor ziyolilariga doimo g‘amxo‘rlik masalasi O‘zbekistonda bugun olib borilayotgan davlat siyosatida alohida o‘rin egallashini ta’kidlab o‘tdilar.

Ijodkor deganda, “yaratish”, “vujudga keltirish”, ya’ni, “ijod etuvchi”, “yuzaga keltiruvchi” degan ma’nolar tushuniladi. Shu jumladan, har bir talaba ijodkor shaxs sanaladi. O‘zbek xalqi azal-azaldan ham ma’naviy, ham madaniy, ham jismonan yetuk xalqlardan biri hisoblangan. Hozirda o‘sib ulg‘ayayotgan yoshlarimiz orasida ham har tomonlama mukammal, yetuk, qobiliyatli ijodkorlar yo‘q emas, albatta.

Yoshlar o‘rtasida madaniyat va san’at asarlariga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ajdodlarimizdan me’ros bo‘lib kelayotgan an’analarni targ‘ib qilish, yosh iqtidorli ijodkorlarni vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va fidoiylik ruhida tarbiyalashga xizmat qilivchi san’at turlarini rivojlantirish biz mutahassislarning asosiy vazifamizdir.

Musiqani tinglayotgan inson bevosita, uning og‘ushiga, ya’ni boshqa olamga g‘arq bo‘ladi. U insonni o‘yga tomishga, fikrlashga, hayol surishga, xursand bo‘lishga, darddan forig‘ bo‘lishga va kerak bo‘lsa, shirin xotiralar ila ko‘z yosh to‘kishga ham majbur qiladi.

Musiqa ta’limi talabalarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi.

AQShda XIX asrdayoq tashkil topgan konservatoriyalar vaqt o‘tishi bilan universitetlarga qo‘shilib ketgan. Bundan kutilgan maqsad – ta’limni yaxshilashga intilish, yoshlarga nafaqat musiqali tayyorgarlikni berish, shuningdek ularning adabiyot, san’atning boshqa turlari bo‘yicha bilimlarini kengaytirishidir[2].

Talabalarga dars o‘tish jarayonida ularning nafaqat bilim va tafakkuriga, balki xarakteriga, ma’naviy dunyosiga ham alohida ahamiyat berish lozim. Negaki, talabaning biron-bir asarni sidqidildan his etib ijro etishi bevosita uning kayfiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Shu sababdan, har bir talabaga alohida yondashish zarur.

Shuningdek, dars o‘tish xonasining estetik jihozlanishi talabalarga ijodiy ruh bag‘ishlab, darsda o‘ziga xos kayfiyat uyg‘otishi kerak. Dars xonasida texnik, ko‘rgazmali vositalarning mavjudligi ham juda muhim. Ularning sifatliligi va unumli tatbiq etilishidan darsning muvaffaqiyatli o‘tishi ta’minlanadi.

Bugungi kunda pedagog musiqa darslarda asarlarning ijro yozuvlarini texnik vositalar yordamida eshittirishi talabaning tasavvur doirasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu vositalar talabalarning har bir musiqa cholg‘ularining jaranglashi va ovozning

[2] N.Baxritdinova. O‘zbekistonda bolalar xor madaniyati. – T.,2002. 10 bet.

ifodaliligini idrok etish tasavvurlarini kengaytiradi. Pedagog dars davomida talaba ijrosini diktofonga yozib olib, o‘ziga qaytib eshittirishi ijroga nisbatan munosabat hamda xatolarni anglashiga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Shu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, talabalarning imkoniyat darajasini ham xisobga olish zarur. Ayrim talabalar musiqani tinglash, idrok eta olish malakasiga ega va ular turli janrdagi asarlarni to‘g‘ri, tushunib kuylashga harakat qilishadi. Ayrim talabalar esa, musiqiy savodi bo‘lmaganligi sababli to‘g‘ri kuylash haqida xattoki tushunchaga ham ega bo‘lishmaydi. Bu esa ularning musiqiy tushuncha, ma’lumotlardan qay darajada bahramand bo‘lganliklari hamda musiqiy muhitga munosabati bilan belgilanadi. Oliy ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan talaba boshlang‘ich bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lmog‘i lozim va shu oliy o‘quv dargohida o‘z bilimlarini yanada rivojlantirishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir bo‘lajak mutaxassis o‘z sohasiga sidqidildan yondashishi, chuqur bilimga ega bo‘lishi va o‘z ustida tinimsiz ishlashi lozim. Inson izlanishdan to‘xtab qolar ekan, hech qachon rivojlanmaydi va yuqori natijaga erishmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Xalq so‘zi, 2017-y 8-fevral.

2. Baxritdinova. N. O‘zbekistonda bolalar xor madaniyati. – T.,2002. 10b.

3. Azizxo‘jaeva.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006. 160 bet.

Izzat MATYAKUBOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedaogika universiteti,
“Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING IJODIY IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MULTEMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqola bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini o‘zini-o‘zi anglash, musiqiy-ijrochilik faoliyatini ongli qabul qilish, shu bilan birga o‘zining ijodiy imkoniyatlarini mustaqil o‘rganish, ijro qilinayotgan musiqiy asarni badiiy mazmunini tushunish va musiqiy-ijrochilik faoliyatdagi shaxsiy faollik tavsifini idrok etish masalalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Metod, metodika, musiqa, musiqiy-ijrochilik, integrativ tuzilma, kogtiniv faoliyat, refleksiv, o‘qituvchi, musiqachi, musiqiy asbob.

Статья посвящена вопросам самореализации будущего учителя музыки, осознанного восприятия музыкально-исполнительской деятельности, самостоятельного изучения его творческих возможностей, понимания художественного содержания исполняемого музыкального произведения и восприятия описания личной активности в музыкально-исполнительской деятельности.

Ключевые слова. Метод, методы, музыка, музыкальное исполнительство, интегративная структура, познавательная деятельность, рефлексив, учитель, музыкант, музыкальный инструмент.

The article is devoted to the issues of self-realization of a future music teacher, a conscious perception of musical performance, independent study of his creative abilities, understanding of the artistic content of an performed musical work and perception of a description of personal activity in musical performing activity.

Key words. Method, methods, music, music-performance, integrative structure, cognitive activity, reflexive, teacher, musician, musical instrument.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatining asosi sifatida uning musiqiy-ijrochilik, ya’ni amaliy kompetensiyasi namoyon bo‘ladi. Mazkur kompetensiyaning tuzilmasi va komponentlarini ochib berish vazifasini hal etishdan avval, musiqa o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining o‘ziga xosliklari tahliliga e’tibor qaratildi. Musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi “O‘qituvchi” va “Musiqachi” tushunchalariga taalluqli elementlarning o‘zaro aloqadorligini asoslash zaruriyati bilan belgilanadi. Shuning uchun, musiqiy asboblar bilan ishlash musiqa o‘qituvchisi egallashi lozim bo‘lgan eng muhim ko‘nikmalar sirasiga kiradi.

Musiqa o‘qituvchisining musiqiy-ijrochilik faoliyatini musiqiy asarni ijro etish, asarning mualliflik mohiyatini badiiy obrazlarda tinglovchi(o‘quvchi)ga yetkazishga yo‘naltirilgan ijrochilik (o‘qituvchi) va musiqiy asar muallifining bevosita o‘zaro harakati sifatida tavsiflash mumkin. Musiqiy ijrochilik kommunikativ funksiyani bajaradi, ya’ni musiqa

ovoz uyg‘unligining barqaror turlaridan foydalanish qoidalariga amal qilish tizimi sifatida musiqa tili vositasida amalga oshirilidagan eng qulay axborot almashinuv jarayoni tarzida namoyon bo‘ladi.

Musiqiy-ijrochilik faoliyati asar matni (musiqiy til) ni o‘zlashtirish, undagi g‘oyani talqin qilish, asardagi badiiy obraz va mazmun, bastakorlik mahoratini aniq namoyish etishning ifodaviy vositalarini oqilona tanlab olishda o‘z aksini topadi. Shunday qilib, musiqa san’atining ijodiy tabiati musiqa o‘qituvchisi uchun musiqiy asarni talqin etish, asarni yorqin, obrazli ijro etish, tinglovchilarda emotsional yo‘nalganlik va ijodiy holatni yuzaga keltirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-ijrochilik faoliyatining o‘ziga xosliklarini ochib beruvchi nazariy asoslar, kompetensiyaviy yondashuvning asosiy qoidalariga tayangan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy kompetensiyasi tizimli tashkil etiladigan, murakkab darajali tuzilmaga ega hamda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-ijrochilik faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beradigan shaxsiy, kognitiv-faoliyatga doir va refleksiv komponentlarning o‘zaro birgalikdagi harakati yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladigan integrativ shaxs tavsifidir.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishning integrativ-tuzilmali modeli – bu musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni ta’minlovchi oliy ta’limda o‘qitish jarayonini maxsus tashkil etishning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi bloklar majmuini o‘zida aks ettiruvchi yaxlit tizim. Integrativ-tuzilmali model quyidagi bloklardan tashkil topgan: maqsadga yo‘naltirilgan, mazmunli, tashkiliy-boshqaruvga doir, natijaviy-mezonli.

Modelning maqsadga yo‘naltirilgan bloki uni amalga oshirishning umumiy mantig‘i va bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-ijrochilik faoliyatini rivojlantirish jarayoniga yo‘nalganlikning mohiyatini aniqlab beradi.

Modellashtirish jarayoni tizimli tavsifga ega bo‘lishi uchun maxsus shart-sharoitlarni ishlab chiqishni talab etdi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodik shart-sharoitlar majmui mavjud bo‘lsa, samarali natijaga erishish mumkin: 1) topshiriqli texnologiya asosida bo‘lajak mutaxassislarning musiqiy-ijrochilik faoliyatini tashkil etish; 2) musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish jarayonini dialogik munosabatlar asosida amalga oshirish; 3) musiqiy-ijrochilik faoliyatida bo‘lajak mutaxassisning refleksiv-pozitsion yo‘nalganligini ta’minlash.[1]


Birinchi metodik shartni aniqlashda biz bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatga yo‘naltirishga imkon beruvchi mazkur jarayonga mos texnologiya asosida o‘quv-bilish faoliyatini hisobga oldik. Adabiyotlar tahlili va shaxsiy tajriba bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirishning samarali texnologiyasi sifatida kasbiy vazifa va aniq vaziyatlarni hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar xizmat qilishini ko‘rsatdi.[2]

Mazkur shart-sharoitni amalga oshirish metodikasi muammolilik, asarlarni yaxlit taqdim etish, fanlararo integratsiya, mustqail faoliyat va ijodkorlik tamoyillari asosiga qurildi.

Birinchi metodik shart-sharoitni amalga oshirishning metodik mexanizmi sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: a) o‘quv materiallarini kasbiy yo‘naltirilgan topshiriq va muammoli vaziyatlar tarzida taqdim etish; b) talabalarning kasbiy musiqiy-ijrochilik faoliyati tajribasini o‘zlashtirish algoritmidan foydalanish; d) faoliyatning (o‘quv, o‘quv-kasbiy) yetakchi turi bilan bog‘liqlikda ta’limni tashkil etish shakl va metodlarini tanlash.

[1] Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, –2005 y., –84 bet.

[2] Юдин В.В. Педагогическая технология: Учебное пособие. –Ч.1.– Ярославль: ЯрГПУ, 1997. – С.148.



1-rasm. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning integrativ-tuzilmali modeli.

Topshiriqqa asoslangan texnologiyalarning umumnazariy qoidalari asosida vazifalarning quyidagi turlari aniqlashtirildi: 1) analitik-prognostik; 2) bilish-izlanishli; 3) tashkiliy-regulyativ; 4) kommunikativ-ijodiy; 5) refleksiv.

Musiqiy asar ustida ishlash jarayoni uch asosiy bosqichga asoslanib amalga oshirildi:

1) yo‘naltiruvchi (ijrochilik konsepsiyasini ishlab chiqish);

2) ijrochilik (texnik detallarga ishlov berish, mualliflik va ijrochilik dizayni, uning sahna ko‘rinishini yaratish);

3) refleksiv (vazifalarni hal etishning har bir bosqichida talabalarning harakatlarini tahlil etish va o‘z-o‘zini tahlil etishga yo‘naltirish).

Ikkinchi metodik shart – bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish jarayonini dialogik munosabatlar asosida amalga oshirish. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish individual tavsifga egadir. Bundan tashqari, alohida muloqot subyekti sifatida musiqa xizmat qiladi. Musiqiy-pedagogik muloqot mazmuni va o‘ziga xosligi musiqiy asarda badiiy “Men”ni ko‘ra olish, u bilan ma’naviy-shaxsiy aloqani o‘rnatish, dialogga kirisha olishda o‘z ifodasini topadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan, musiqaga doir va refleksiv yondashuvlar nuqtayi nazaridan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish jarayonini dialogik munosabatlar negizida amalga oshirishda madaniy dialog, madaniyat bilan uyg‘unlik, qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanildi hamda quyidagi dialogik turdagi o‘zaro birgalikdagi harakatni talab etdi: “muallif – ijrochi”; o‘qituvchi (ijrochi) – talaba (ijrochi); “tinglovchi – ijrochi”. Muloqotning mazkur turlari musiqiy-ijrochilikka doir bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi musiqiy asarlar ustida ishlash uchun qulay imkoniyat yaratdi. Ularni o‘zlashtirishdagi ketma-ketlik, musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish jarayonining tizimliligi birgalikdagi-produktiv faoliyat texnologiyasi asosida ta’minlandi.

Ana shu tarzda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-ijrochilik kompetentligini rivojlantirish jarayonini dialogik munosabatlar negizida amalga oshirishning metodik mexanizmlari sifatida quyidagilar aniqlashtirildi: a) o‘zaro birgalikdagi harakatning dialogik turi; b) talabalar bilan hamkorlikdagi produktiv faoliyat doirasida ishni tashkil etish; d) talabalarning emotsional reaksiyalarini qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyat vaziyatini yaratish.

Uchinchi metodik shart-sharoit – musiqiy-ijrochilik faoliyatida bo‘lajak mutaxassisning refleksiv-pozitsion yo‘nalganligini ta’minlash. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy-ijrochilik kompetentligi o‘z-o‘zini anglash darajasida shaxsning kasbiy sifat va xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur shart-sharoit uzviylik va uzluksizlik, identivlik, o‘z-o‘zini baholash, individuallashtirish tamoyillari asoslanib amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. –T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti,–2005 y., –84b.

2. Юдин В.В. Педагогическая технология: Учебное пособие.– Ч. 1.– Ярославль: ЯрГПУ, – 1997. –С.148.

Durdona CHORIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti, "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning shaxsini rivojlantirish, maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostikasining o'ziga xos xususiyatlari, shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish, individual tuzatuvchi ta'lim va tarbiya dasturini tuzish, bola shaxsini rivojlantirish uchun pedagogik diagnostik usullarni to'g'ri qo'llash maqsadida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon orasidagi uzviylik haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim muassasalari, bola shaxsini rivojlantirish, pedagogik diagnostika, biologik va ijtimoiy-psixologik, lokalizasiya, praksis, individual funksiya, vaziyatli yondashuv.

В статье представлена информация о преемственности между педагогическим процессом, осуществляемым в целях развития личности детей в дошкольных образовательных организациях, особенностей педагогической диагностики в дошкольном образовании, этического, интеллектуального, эстетического, физического, социологического, экологического и социально-психологического воздействия на человека, составления индивидуальной корректирующей образовательной и воспитательной программы, правильного применения методов педагогической диагностики для развития личности ребенка.

Ключевые слова. Дошкольные учреждения, развитие личности ребенка, педагогическая диагностика, биологическая и социально-психологическая, локализация, праксис, индивидуальная функция, ситуационный подход.

This article provides information about the continuity between the pedagogical process in development of personality of children in preschool educational institutions, peculiarities of pedagogical diagnosis in primary education, ethical, intellectual, aesthetic, physical, sociological, ecological, and socio-psychological effects on humans, making individual adjustment of educational and training programs, the correct application of methods of pedagogical diagnostics of development of personality of the child.

Key words. Preschool institutions, child personality development, pedagogical diagnostics, biological and socio-psychological, localization, praxis, individual function, situational approach.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmo-

qda. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish”[1] – kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsini rivojlantirish, maktabgacha ta’limda pedagogik monitoring texnologiyalarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Bolaning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy, ma’naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ma’naviy sifatlar, his-tuyg‘ular (burch, vijdon, mas’uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning rivojlanishiga ta’sir etadi.

Bolani maktabgacha ta’lim muassasalar guruhidagi tengdoshlari bilan munosabatlar tizimida o‘rganish katta ahamiyatga ega va dolzarbdir, chunki juda muhim davr maktabgacha yoshdagi davr hisoblanadi. Bu bola shaxsining dastlabki shakllanish davri. Bu vaqtda, bolaning tengdoshlari bilan muloqotida, uning shaxsining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan juda murakkab munosabatlar paydo bo‘ladi.

Bolalar bilan muomala qilish bolaning aqliy rivojlanishi uchun zaruriy shartdir. Muloqotga erta ehtiyoj uning asosiy ijtimoiy ehtiyojiga aylanadi. Bu bola shaxsining ijtimoiy fazilatlarini shakllantirish, bolalarning jamoaviy o‘zaro munosabatlari tamoyillarining namoyon bo‘lishi va rivojlanishi shartidir.

Ijtimoiy pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatish lozim.

Maktabgacha ta’lim muassasalarda bolalarga o‘z vataniga muhabbat hissini singdirishimiz, ota-onalarini va kattalarni hurmat qilish, yosh avlodni o‘z xatti-harakatlari uchun yuqori javobgarlik ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda bola shaxsini rivojlanishining ayrim jihatlari va aqliy rivojlanish darajalari diagnostikasi alohida o‘rin tutadi.Tarbiyachilar va ota-onalar bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishi, faol, mustaqil va ijodiy, o‘z hayotiga tegishli qarorlarni qabul qilish va o‘z-o‘zini boshqarishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashlari kerak. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik diognostika quyidagicha ko‘rib chiqilishi lozim:

− oilada majburiy va bolalarning ijtimoiy tarbiyasi;

− ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvini amalga oshirish vositasi;

− har bir bolaning individual, shaxsiy rivojlanishi va o‘zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish uchun asos;

− zamonaviy tez o‘zgaruvchan jamiyatda intellektual, nutq va ijtimoiy buzilishlar, bola shaxsini moslashtirish muammolari paydo bo‘lishining oldini olishning yetakchi sharti;

− oila, maktabgacha ta’lim va ijtimoiy muassasalarning bolaga ko‘rsatadigan pedagogik ta’sirining maqsadga muvofiqligi va samaraliligini sinash usuli.

Yuqoridagi pedagogik diognostika bolalar, tarbiyachilar va ota-onalarning amaliy faoliyatining tarkibiy qismiga aylantiradi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ–4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. - T., 2019.-B.39.

A. Savchenkoning fikriga ko‘ra, har bir tarbiyachi tashxis qo‘yishi kerak, chunki tarbiyachining psixologik qobiliyati tarbiyaviy ishlarni va pedagogik jarayonni samaradorligini kafolati bo‘lib, tarbiyachilarning pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini kengaytiradi. Zamonaviylik tarbiyachidan pedagogik diagnostikani chuqur o‘rganishni va bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Shunday qilib, biz pedagogik diognostikani erta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish va tarbiyalashning asosiy sharti sifatida belgilaymiz, bu bizga rivojlanish dinamikasini aniqlashga, tuzatuvchi va profilaktik tadbirlarning pedagogik ta’sirini tashkil etishni sifatli taminlashga imkon beradi.

Pedagogik diagnostika fan va san’atdir. Ammo, afsuski, bugungi kunda ko‘pgina tarbiyachilar buni noto‘g‘ri tushunmoqdalar. Har qanday vazifani bajarishga to‘liq javobgarlik hamda nazariy bilim va tajriba bir-birini to‘ldirishini tushunib, yaqinlashish kerak, ammo uni hech qachon almashtirish kerak emas. Bu qanday qilib bola shaxsini rivojlantirish, tarbiyalash mumkinligi pedagog tarbiyachilarning mahoratiga bog‘liq. Pedagogik diagnostik usullar pedagoglarning bolalarga ta’lim-tarbiya berish va ularni rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun yordam berishga qaratilgan.

Zamonaviy terminologiyada ifodalangan diagnostika har doim pedagogik faoliyatning texnologik rivojlanishining asosi bo‘lib, uning maqbulligi va samaradorligini ta’minlaydi. Biroq, bilish usullari uzoq vaqtdan beri ibtidoiy bo‘lib kelgan. Shaxsni diagnostika qilish usullari muammosini hal qilishning zamonaviy yo‘llari Blonskiy pedagogik amaliyoti bilan chambarchas bog‘liq. U bolani pedagogik jarayonda o‘rganish zarurligini asoslab berdi va shu bilan birga nafaqat aniq pedagogik tadqiqot vositasi – yoshni aniqlash standartlari, yutuqlarni hisobga olish testlari, ta’lim standartlari, ijtimoiy ekspertiza usullari ishlab chiqilgan, balki bolani o‘rganishga yondashuvning o‘ziga xos mantig‘ini ham belgilab bergan. Ushbu mantiqqa ko‘ra, tadqiqot bolaning rivojlanishi tarixini o‘rganishni o‘z ichiga olgan.

L.S. Vigotskiy shaxsni tashxislashda asosiy yondashuvni – kattalar bilan hamkorlik sharoitida uning rivojlanish potensialini (proksimal rivojlanish zonasini) o‘rganishni aniqladi.

Pedagogik diagnostikaning asosiy maqsadi bolani uning rivojlanishi uchun o‘rganish emas, balki uni boshqarish maqsadida o‘rganish, jamiyatning ijtimoiy tartibini hisobga olgan holda unga ta’sir qilish maqsadida o‘rganishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish asosan ularning munosabatlari jarayonida sodir bo‘ladi. Bolalardagi munosabatlar ta’siri ostida ijobiy va salbiy shaxs xususiyatlari rivojlanishi mumkin. Bolalar bog‘chasidagi bolalar o‘rtasidagi to‘g‘ri o‘zaro munosabatlarni shakllantirishda yetakchi rol tarbiyachiga tegishli bo‘ladi.

Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini diagnostikasi muayyan prinsiplarga asoslanishi kerak. Masalan, pedagogik diognostika o‘tkazishdan oldin quyidagi savollarga aniq javob berishingiz kerak:

- nega bunday qilish kerak?
- qanday tashxis qo‘yish kerak?
- nega aynan shunday?
- samarali tashxis qo‘yish uchun nima qilish kerak?
- boshqalar buni qanday qilishadi?
- tashxis uchun qanday shakllar, usullar, metodlar, tavsiyalar mavjud?
- qanday diagnostik muolajalar ketma-ketlikda o‘tkazish kerak?

− kim tashxis qiladi va natijalarni tahlil qiladi?

− diagnostika testi natijalari qanday yoziladi, saqlanadi va ishlatiladi? Ushbu savollarga javob izlash diagnostika ishining tayyorgarlik bosqichining mazmuniga aylanadi.

Psixologik va pedagogik maslahatning asosiy maqsadi – bu jarayonning normativ mazmuni va davriyligi haqidagi g‘oyalar asosida bolaning aqliy rivojlanishini kuzatish. Shu maqsadda bolalarni pedagogik-psixologik ko‘rikdan o‘tkazishning aniq vazifalari ajratib ko‘rsatiladi:

− rivojlanish anomaliyalarini erta aniqlash, ularni tuzatish va xulq-atvor va faoliyatdagi buzilishlarning oldini olish;

− tekshirilayotgan bolaning rivojlanishidagi asosiy qoida buzarliklarning sabablari va xususiyatlarini aniqlash, bunday huquqbuzarlikning jiddiyligini aniqlash;

− tekshirilayotgan bolaning (shahsiy va intellektual) rivojlanishining individual psixologik xususiyatlarini aniqlash;

– bolani tarbiyalash shartlarini aniqlash;

– pedagogik prognozni asoslash;

– diognostik ishlarining individual dasturini ishlab chiqish;

− ota-onalar va bolalar bilan diognostik ishlarini tashkil qilish.

Psixologik va pedagogik tekshiruvning o‘ziga xos xususiyati – bu bola rivojlanishi hodisalarini tizimli tahlil qilish. Bola rivojlanishining ijtimoiy holatini o‘rganish, bolaning ongi va shaxsi sohasidagi faoliyat va psixologik neoplazmalarning ierarxiyasini ko‘rib chiqish. Bolani rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash bilan bog‘liq har qanday muammolarni muayyan yosh bosqichining mazmuni va shartlari nuqtayi nazaridan, umuman ontogenez qonuniyatlarini hisobga olmasdan hal qilish muvaffaqiyatli bo‘lmaydi.

Aqliy rivojlanish tashxisiga zamonaviy yondashuv va bolaning rivojlanishidagi buzilishlarni o‘rganishning har tomonlama xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolaning kognitiv faoliyatini baholashning asosiy parametrlari aniqlanadi: vazifani belgilash, vazifani bajarishga urinish, o‘rganish va uning faoliyati natijalariga munosabat. Ushbu ko‘rsatkichlar bolalarni diognostik natijalarini sifatli baholashni tashkil etadi. Bolaning harakatlarini baholashga bo‘lgan bunday yondashuv bizga nafaqat rivojlanishning hozirgi darajasini, balki potensialini, ya’ni proksimal rivojlanish zonasi ham aniqlashga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, har bir bola uchun individual tuzatuvchi ta’lim va tarbiya dasturini tuzishga imkon beradi. Ushbu dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

− shaxsiy va intellektual rivojlanishdagi istalmagan salbiy tendensiyalarning oldini olish;

− aqliy rivojlanishidagi og‘ishlarni bolaning shaxsiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish asosida tuzatish, bu faqat “proksimal rivojlanish zonasi” tushunchasi bilan ifodalangan, rivojlanish ehtimolining yaqin prognozini to‘liq tashxis qilish va baholash asosida aniqlanishi mumkin.

Tuzatishli ta’lim va tarbiya, shaxsni rivojlantirish va ikkinchi darajali og‘ishlarning oldini olish bo‘yicha individual dasturning mazmuni birlamchi buzilishlar va ularning og‘irlik darajasiga bog‘liq. Bolalarga psixologik, tibbiy va pedagogik maslahat bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda mutaxassis ota-onalar bilan qisqa suhbat o‘tkazadi, birinchi shikoyatlarni tinglaydi va tuzatadi.

Ikkinchi bosqich bolani tekshirishga bag‘ishlangan. Birinchidan, kognitiv faollik darajasi o‘rganiladi, so‘ngra kerak bo‘lganda eshitish tekshiruvi o‘tkaziladi va yakunida nutq tekshiruvi o‘tkaziladi.

Uchinchi bosqichda oila va bolaning rivojlanishi haqida anamnestik ma’lumotlar yig‘iladi. Erta yoshdagi bolalarni tarbiyalash shartlari, oiladagi mikroiqlim va ota-onalarning bola rivojlanishi muammolarini tushunishlari aniq ko‘rsatilmoqda.

To‘rtinchi bosqichda oilada bolaning yashash sharoitlarini yaratish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bolani tarbiyalashda oilaning ahamiyatini tushuntirish va bolani tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik imkoniyatlaridan foydalanish, ularga bola bilan pedagogik ishning umumiy shakllari texnologiyasini, oilaviy aloqa ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga yordam berish juda muhimdir.

Beshinchi bosqich bolaning rivojlanishi uchun individual tuzatish dasturlarini tayyorlashni o‘z ichiga oladi va pedagogik prognoz qilinadi.

Bola shaxsini rivojlantirish tarbiya jarayonida ruy beradi.

Bola shaxsini rivojlantirishga uchta omil: tarbiya, ijtimoiy muhit va irsiyat nishonalari ta’sir ko‘rsatadi. Bola shaxsini rivojlantirishga – ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. Tabiiy muhit; iqlim sharoitlari, o‘simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli: ham shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko‘paytirib, kishilarini hayvonlarni, o‘simliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muxofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqatda bo‘lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o‘z navbatida shaxsni rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda pedagogik diagnostika pedagogik bilish, har bir bola shaxsini rivojlantirish singari murakkab masalalarni muvaffaqiyatli yechishda tarbiyachi, rahbar – metodistlarga yordam beradi. U bolalarning shaxsiy xususiyatlarini bilishga, shaxsini rivojlantirishga imkon beradi va shu bilan birga pedagog kadrlar metodik ishlarning tashkil etilishidagi samarasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- maydagi PQ–4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2019.–39b.

2. Maksimov V.G. Maktabgacha ta’limdagi pedagogik diagnostika.– M., 2002.

3. Boshlang‘ich Maktabgacha ta’limda rejalashtirilgan natijalarga erishishni baholash. Vazifalar tizimi. 2 soatda, 1 qism / tahr. Kovaleva G.S., Kirish O.B. – M .: Ta’lim, 2009 -yil.

Dilfuzaxon ABDURAHIMOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi,
“Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.n

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ERTAK – TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni va bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Axloqiy tuyg‘u, ko‘nikma, xulq, axloqiy ong, hissiy sezgi, axloqiy munosabat, tafakkur, tamoyil, axloqiy me’yorlar.

В данной статье приводятся сведения о содержании духовно-нравственного воспитания дошкольников и использовании народных сказок в духовно-нравственном воспитании детей.

Ключевые слова. Моральные чувства, навыки, поведение, нравственное сознание,эмоциональная интуиция, нравственное отношение, мышление, принципы, нравственные принципы.

This article provides information on the content of spiritual and moral education of preschool children and the use of folk tales in the spiritual and moral upbringing of children.

Key words. Moral feelings, skills, behavior, moral consciousness, emotional intuition, moral attitude, thinking, principles, moral principles.

Mamlakatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash va tizimga innovatsiyalarni keng tatbiq etishni taqozo etmoqda. Ushbu sohadagi davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”da qayd etilgan.

Maktabgacha yosh – bu bolaning hayotidagi muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bola ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kiradi, u ma’naviy-axloqiy talablarni o‘zlashtiribgina qolmay ularda axloqiy odatlar, his-tuyg‘ular, munosabatlar shakllana boshlaydi. Bu davrda aqliy va hissiy- irodaviy rivojlanish, kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish ko‘p jihatdan ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya bu – axloqiy fazilatlarni, fe’l-atvor xususiyatlarini, ko‘nikma va xulq odatlarni shakllantirish jarayonidir. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy toifasini axloqiy tuyg‘u va axloqiy ong tashkil etadi. (doimiy hissiy sezgi, tajriba, haqiqiy axloqiy munosabatlar va o‘zaro ta’sirlar).

Axloqiy ong – bu bolaning axloqiy munosabatlari va holatini aks ettiruvchi faol jarayondir. Axloqiy ongni rivojlantirishning subyektiv harakatlantiruvchi kuchi bu – axloqiy tafakkurdir. Axloqiy tafakkur vositasida axloqiy ma’lumotlar, munosabatlar, vaziyatlarni doimiy ravishda to‘plash va tushunish, tahlil qilish, baholash, axloqiy qarorlar qabul qilish, mas’uliyatli tanlovlar amalga oshiriladi. Axloqiy tajribalar, vijdon, ongda aks etadigan hissiy holatlarning birligi va ularni tushunish, baholash, axloqiy fikrlash orqali hosil bo‘ladi.

Shaxsning axloqi subyektiv ravishda o‘zlashtirilgan axloqiy tamoyillardan iborat bo‘lib, ular munosabatlar tizimida boshqariladi va doimiy ravishda boshqarilib turuvchi axloqiy tafakkurga ega bo‘ladi. Axloqiy tuyg‘ular, ong va fikrlash axloqiy iroda namoyon bo‘lishining asosi va rag‘batlantiruvchisi hisoblanadi. Inson axloqi axloqiy me’yorlarga ongli ravishda rioya qilishda va axloqiy xatti-harakatlarning odatiy shakllarida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya –bu munosabatlar, o‘zaro ta’sirlar, faoliyat, aloqa va qarama-qarshiliklarni yengib o‘tishning faol hayotiy jarayondir. Bu doimiy va tizimli qarorlar qabul qilish, ma’naviy-axloqiy me’yorlarga mos qat’iy irodali harakatlarni tanlash, ularga muvofiq o‘z-o‘zini boshqarish jarayoni hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim mazmunini tubdan yangilash, innovatsion ta’lim texnologiyalarini tizimga tatbiq qilish, ta’lim-tarbiyaning yangi usullari va shakllarini qidirish va o‘zlashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonlarini variativ dasturlar asosida takomillashtirishga katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Aksariyat pedagog-psixolog olimlarning fikriga ko‘ra, aynan shu davrda odob-axloq, vatanparvarlik, intizomlilik, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, samimiylik kabi axloqiy fazilatlarning poydevori qo‘yiladi. Bola shaxsida bunday fazilatlarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalari alla, ertak, maqol, topishmoqlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Xalq donoligi bilan yaratilgan alla, ertak, maqol, topishmoqlar bolalarda dastlabki ma’naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishda bolaning hissiy sohasiga kuchli ta’sir qiladi va ularda voqelikka barqaror ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiradi.

Ma’lumki, har bir xalqning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos milliy ertaklari mavjud. Rus tilshunosi, ertak tadqiqotchisi V. Ya. Propp shunday deb yozgan: “Ertak – bu xalqlar birligining ramzi. Xalqlar bir-birlarini o‘z ertaklarida tushunishadi. Tilshunoslik yoki hududiy yoki davlat chegaralaridan qat’i nazar, ertaklar bir xalqdan boshqasiga o‘tib ketadi va o‘sha xalq bolalarini ma’naviy boyligini rivojlantiradi va har tomonlama tarbiyalashga xizmat qiladi.”

O‘zbek xalq ertaklarini ko‘plab taniqli folklorshunos olimlar (G‘.Jahongirov, X.Zaripov, Z.Mirtursunov, M.Alaviya, va boshqalar) mafkuraviy mazmun boyligi, kognitiv va didaktik mohiyati va doimiy badiiy ifodasi uchun yuqori baholaganlar.

Ertaklarda insonning jamiyatdagi hayotini, ayniqsa odamlar o‘rtasidagi munosabatlar,axloqiy xatti-harakatlarni, mavhum tushunchalar bilan emas, balki bola uchun muhim bo‘lgan haqiqiy qahramonlarning xatti- harakatlari orqali yoritib beriladi.

Ertak – bu xalqlar birligining timsoli. Xalqlar bir-birlarini ertaklari vositasida tushunishadi. Til va hududiy yoki davlat chegaralaridan qat’iy nazar, ertaklar bir xalqdan boshqasiga keng tarqaladi. Xalq ertaklari har bir xalqning bebaho boyligi, uning hayotga, jamiyatga, tabiatga bo‘lgan qarashidir. Ular bolalarni umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirishga yordam beradigan juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, o‘tmish, hozirgi va kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlik va davomiylikni o‘rgatadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida xalq ertaklaridan foydalanish bolalarning axloqiy tasavvurlari, ongi, hissiyotlari, ko‘nikmalari va odatlari shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Saxiylik, o‘zaro yordam, ma’naviy-axloqiy xususiyatlar o‘zbek xalq ertaklarida alohida ajralib turadi, bu xususiyatlar asosiy ertak qahramonlarining harakatlarida aniq aks ettirilgan. Ertaklarni tinglagan, bolalar yaxshilik bilan yomonlikning, baxt va baxtsizlikning, adolat va adolatsizlikning qarama-qarshi o‘zaro ta’sirini tushunadilar.

Xalq ertaklarida yoritilgan donolik va soddalik, bola shaxsiga yuqori axloqiy g‘oyalarni yetkazishga yordam beradi. Mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, yoshlarga g‘amxo‘rlik tarbiyasi – bu lar xalq pedagogikasining o‘ziga xos belgisi bo‘lib, ma’naviy yo‘lboshchi vazifasini bajaradi. Misol uchun:

Qizcha boshi yerga tekkuncha egilib o‘rmon shoxi bo‘lgan Sherga salom beribdi. Assalomu alaykum o‘rmon shoxi bo‘lgan qo‘rqmas Sher. Men suvsizlikdan qiynalgan xalqim,

yurtim uchun suv yo‘lini ochgani yo‘lga chiqdim. Bu yo‘lda qanday g‘ov bo‘lsa ham kurashaman va yurtimga suv olib boraman, debdi qizcha.

Qizchaning salomidan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan Sher: qo‘rqmas, jasur qiz ekansan. Umrim bino bo‘lib, menga hech kim salom bermagan edi. Sen saloming bilan meni yengding. G‘alaba qilding.Agarda shu maqsadda yo‘lga chiqqan bo‘lsang, men senga yordam beraman debdi.

Keltirilgan ertakdan ko‘rinib turibdiki, ertak qahramonlari har doim o‘zlarining axloq-odoblari, mehnatsevarliklari, Vatani uchun xatto jonidan kechishlari va yo‘lida uchragan har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishlari bilan tinglovchi- bolalarni o‘ziga jalb qilgan.

Bu janrning asosiy xususiyatlaridan biri uning xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan juda yaqin bog‘langan bo‘lishi va insonlarga axloqiy va ma’naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. Ertak insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga nisbatan porloq ishonch bilan to‘la. U insonga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo‘ysunganini ifodalaydi. Ertakda inson tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g‘olib chiqadi. Xalq o‘z ertaklaridan badiiy obrazlar orqali o‘z dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy masalalarni qo‘ygan va o‘zicha hal etgan. Bu fikrlar, intilishlar, orzu-havaslar ommaning diliga, ruhiga yaqin obrazlar orqali ravon, jonli tilda ifodalangan.

Xalq pedagogikasi – xalq ommasining tarbiya borasidagi qarashlari, g‘oya, urf-odatlari, an’analari, tarbiyani amalga oshirishda qo‘llanilib kelgan usul, vosita, ko‘nikma va malakalari yig‘indisini tashkil etadi. Xalq og‘zaki ijodining alohida janrlari xalq amaliy pedagogikasining ta’sirchan va samarali vositasi sifatidagi muhim ahamiyatini bugungi kungacha yo‘qotmagan.

Z. Mirtursunovning ta’kidlashicha, xalq og‘zaki ijodiyoti materiallaridan xalq pedagogikasining ma’nbasi sifatida foydalanishning xarakterli xususiyati shundaki, u yoki bu folklor janri orkali xalqimizning bola tarbiyasi to‘g‘risidagi qarashlari bilan birga, muayyan tarbiya shakllari aks ettirilsa, ikkinchi tomondan bu janr orqali tarbiya tarkibining amalga oshirish metod va vositalari ham ko‘rsatiladi. Folklor asarlarini sinchiklab o‘rganar ekanmiz, ularning hammasida xalqimiz qadim zamonlardan beri, o‘ziga xos milliy tarbiya tizimiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bizning millatimiz va yurtimizdan chiqqan dunyoga mashhur Al Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ma’naviy-axloqiy kamolotida xalq pedagogikasining, xususan, folklor asarlarining tarbiyaviy ta’siri muhim o‘rin tutgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarining asosiy g‘oyasi doimo ezgulik, go‘zallikni targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lib, butun kuch-g‘ayratini va irodasini o‘z vatanini, tinch hayotni va millatlar o‘rtasidagi xalqaro do‘stlikni, ezgulikni yovuzlik ustidan g‘alaba qozonish va ijtimoiy uyg‘unlikni himoya qilishga bag‘ishlaydigan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Folklorda saqlangan o‘tmish tajribasi yosh avlodni hayotga tayyorlashda a’lo va tugamas manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inomova K.M. “Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi” – Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.

2. Musurmonova O. “Oila ma’naviyat-milliy g‘urur”. – Toshkent: O‘qituvchi. 1999, – 200 b.

3. Огузов В.В.Воспитание творческой активности младших дошкольников во внешкольной трудовой деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М, 1990. – С.22 .

4. Н.Назаров Қ. Аксиология. Қадриятлар фалсафаси.– Т., Академия.2011. 384б.

5. Мадаев О. ва бошқалар. Халқ оғзаки поэтик ижоди.–Т.: Шарқ, 2001.– 208б.

Ozod ABDUG'ANIYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

O'QUVCHILARDA IJTIMOIY FAOL FUQAROLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchi-yoshlarda fuqorolik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bugungi kunda ta'lim va fan sohasidagi islohotlarda o'quvchilarda fuqarolik kompetentsiyalarni, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim hamda fanga oid boshqa kompetentsiyalarni shakllantirishning asosiy omillarini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Fuqarolik, kompetentlik, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tafakkur, ta'limda kompetentli yondashuv, kasbiy kompetentlik.

Статья посвящена вопросам развития гражданской компетенции у школьников и молодёжи. Также на сегодняшний день в ходе реформ в сфере образования и науки у молодёжи рассмотрены основные факторы формирования гражданской компетенции, правосознания, правовой культуры, правовых знаний и других связанных с наукой.

Ключевые слова. Гражданство, компетентность, правосознание, правовая культура, правовое мышление, компетентный подход в образовании, профессиональная компетентность.

The article is devoted to the development of civic competence among pupils and youth. Also today, during the reforms in the field of education and science among young people, the main factors of the formation of civic competence, legal awareness, legal culture, legal knowledge and other science-related issues have been considered

Key words. Citizenship, competence, legal awareness, legal culture, legal thinking, a competent approach to education, professional competence.

O'quvchilarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyani shakllantirish O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda kompetensiyalar shakllantiriladi.

Ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasi deb, jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 -yil 24 -yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh-avlod masalasiga to'xtalar ekan: "Jamiyatda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali

ahamiyatga egadir” [1] – degan ushbu murojaatlarida ham ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh-avlodni tarbiyalash ijtimoiy faol fuqaro sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim va fan sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlarda ta’lim va fanni rivojlantiruvchi kompetensiyalar egallanishi natijasi inson uning individualligi rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lib, fuqarolik kompetentligini shakllantirish jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda qurish zaruratini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham fuqarolik kompetentligi mazmunini insonning individualligi konsepsiyasi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish zarurdir. Kompetensiyalarni samarali egallash shartlari bo‘lib inson individualligining barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogika fanida alohida tushuncha sifatida qo‘llanib kelinayotgan kompetentlik, kompetensiya, fuqarolik kompetentlik tushanchalariga alohida tushunchalariga to‘xtalar ekanmiz, bu haqda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlaridagi ilmiy imkoniyatlarga murojaat etishimiz darkor.

Ta’limda kompetentli yondashuvning rivojlanishi zamonaviy bosqichida kompetentlik va kompetensiyalar tizim hosil qiluvchi tushunchalarini aniq ifodalashga urinishlar amalga oshiriladi. B.Gershunskiy kompetentlik tushunchasini inson faoliyatining kasbiy sohasiga nisbatan o‘rgangan bo‘lib, u “kasbiy ta’lim darajasi, insonning tajribasi va individual xususiyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta’limga motivli intilishi va o‘z-o‘zini takomillashtirishi, ishga ijodiy va mas’uliyatli munosabati” bilan belgilanadi. U kasbiy kompetentlikni savodxonlik, ma’lumotlilik, kasbiy kompetentlik, madaniyat va mentalitetdan tashkil topgan ta’limning samaradorligining strukturaviy bo‘g‘inining tashkil etuvchilaridan biri sifatida qaragan.[2]

I.A. Delgas o‘z tadqiqotida esa kompetentlikni “shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi bilim, ko‘nikma, ma’lumotlilikning mavjudligi, olamda o‘z o‘rnini topish usuli bo‘lib, uning oqibatida ta’lim yuqori motivatsiyali va shaxsiy imkoniyatning maksimal talab etilganligini ta’minlovchi sifatida namoyon bo‘ladi, atrofdagilar tomonidan shaxsni tan olish va uning o‘z ahamiyatligini anglashi” sifatida ta’riflaydi.[3]

O.E. Lebedev kompetentlikni noaniqlik vaziyatidagi muayyan faoliyat sohasida muammoni hal etish uchun faoliyat usulini tanlash va asoslash (empirik, nazariy va aksiologik) imkonini beradigan ma’lumotlilik darajasi sifatida talqin etadi. [4]

Tadqiqotchilarda kompetentlik tuzilishi bo‘yicha yagona fikr mavjud emas. Masalan, umumiy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash Strategiyasi “kompetentlik” tushunchasiga kognitiv, operatsional-texnologik, motivatsion, etik, ijtimoiy tashkil etish deya ta’kidlagan edi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentlikni shakllantirish sharoitida obyektiv (maktabning demokratik hayot tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqligi, ta’lim va tarbiya texnologiyalari va b.q.) hamda subyektiv (ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligi va

[1] Xalq so‘zi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020-y. 25-yanvar №.19.

[2] Гершунский, Б.С. Философия образования XXI: В поисках прак-тико-ориентированных концепций // Б.С. Гершунский. – М.: Изд-во “Педагогическое общество России”, 2002 г. – С. 512.

[3] Дельгас, И.А. Компетентностный подход в формировании профессиональной мотивации у студентов педагогического колледжа // И.А.Дельгас // Вестник развития науки и образования,- М., Изд-во «Наука», 2006. №6 – С. 197-202

[4] Лебедев, О.Е. Компетентностный подход в образовании / О.Е. Лебедев // Школьные технологии. – 2004. - № 5. – С. 5-12.

pedagoglarning shaxsiy sifatlari) sharoitlar tushuniladi. Ammo ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligining mazkur mezonlari aniqlashtirishni, jumladan ularni kompetensiyalar tushunchasi bilan qiyoslash va ularni baholash mezonlari va vositalarini aniqlashni talab etadi. [9, b. 34-42].

“Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligi” tushunchasini, uning tuzilishi va uning tarkibiga kiruvchi kompetensiyalar nomenklaturasini aniqlash ham murakkab vazifa hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim davlat standartining Konsepsiyasi umumta’lim sohasidagi davlat talablarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida inson kapitalini rivojlantirish – axborot jamiyati va bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin demokratik mamlakatda yashaydigan va ishlaydigan axloqiy va ma’naviy yetuk, mustaqil, faol va kompetent fuqarolar avlodini tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Shuning uchun, ijtimoiy faol fuqarolik kompetentligi rivojlantirish talabaning ijtimoiylashuvi jarayonining zarur qismi sifatida, tarbiya, rivojlanish, ta’lim, shaxs shakllanishi muammolariga taalluqli psixologik-pedagogik vazifa sifatida qaraymiz, shuning uchun individuallik pedagogikasi konsepsiyasiga tayanamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim davlat standartida ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasiga tarkibidagi tayanch kompetensiyalarga huquqiy onga ega bo‘lish kompetensiyasida konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarni tushuntirib berishni oldiga maqsad qilib qo‘yiladi. Ijtimoiy faol fuqaro ongida avvalo huquqiy madaniyatli bo‘lish kompetensiyasi orqali huquqiy ko‘nikma, o‘quvchilarning ongi va tafakkurida inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq, burch va majburyatlariga rioya qilish refleksi shakllanadi, huquq va erkinliklar, qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda to‘g‘ri qaror qabul qila olish kabi mustaqil faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish kompetensiyasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so‘zi.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 25- yanvar №-19.

2. N.A.Muslimov “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘quvchisini kasbiy shakllantirish”– T.: Fan, 2004.10-b.

3. Дельгас И. А. Компетентностный подход в формировании профессиональной мотивации у студентов педагогического колледжа [Текст] / И.А.Дельгас// Вестник развития науки и образования,– М., Изд-во “Наука”, 2006. №6 – С. 197-202

4. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании / О.Е. Лебедев // Школьные технологии. –2004. - № 5. – С. 5-12.

Aygul URAZIMBETOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

INNOVATSION FAOLIYAT ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda innovatsion faoliyatni amalga oshirish masalalari yoritilgan va xorijiy olimlarning mazkur masalaga bag‘ishlangan ishlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tayanch kompetensiyalarni aniqlash va tanlash ta’lim natijalarining asosiy iste’molchilari bilan belgilanishini va hozirgi vaqtda mazkur jamiyatda qaysi qobiliyatlar va sifatlar qadrli hisoblanishini hamda kompetensiyalarni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlarini keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Tayanch kompetensiyalar, innovatsiya, kompetentli yondashuv, qobiliyatlar, investitsiya, axloqiy talablar.

В статье освещены вопросы осуществления инновационной деятельности в формировании базовых компетенций у учащихся начальных классов и глубоко проанализирована работа иностранных ученых по данному вопросу. Автор также отметил, что определение и выбор базовых компетенций определяются основными потребителями результатов обучения и какие качества и навыки в настоящее время ценятся в данном обществе, а также особенности актуализации компетенций.

Ключевые слова. Базовые компетенции, инновации, компетентный подход, навыки, инвестиции, этические требования.

The article highlights the issues of carrying out innovative activities in the formation of basic competencies in primary school students and deeply analyzes the work of foreign scientists on this issue. The author also noted that the definition and selection of basic competencies are determined by the main consumers of learning outcomes and what qualities and skills are currently valued in a given society, as well as features of updating competencies.

Key words. Basic competencies, innovations, competent approach, skills, investments, ethical requirements.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta’minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish darajasi, salohiyati ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang‘ich ta’lim tizimi alohida o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich ta’limning Davlat ta’lim standarti bo‘yicha bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, tayanch kompetensiyalari

va aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini komunikativ savodxonligini va o‘zini-o‘zi anglash salohiyatini shakllantirishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga o‘rgatish, kompetensiyaviy faoliyatini kengaytirish, o‘quvchilarning erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish ko‘nikmalarini egallashlariga erishishi lozim.

Hozirgi vaqtda bilimlarni to‘plash bilan bir qatorda bilimlarni izlashga qobiliyatlarni va intilishlarni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu rivojlantiruvchi ta’lim to‘g‘risida so‘z yuritish imkonini beradi. Mantiqiy yakunlangan bilimlar tizimi ko‘rinishidagi madaniy tajribani yetkazish asosiy hisoblangan ta’limdagi yondashuv asta-sekin o‘tmishda qolmoqda.

Zamonaviy umumta’lim maktabi ta’lim sifatini boshqarishda yangi tizimli metodlarni joriy etishni talab etuvchi sharoitlarda turibdi. Yangi sharoitlardagi rivojlanish davlat ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan va ta’lim sohasidagi qonunchilikdagi o‘zgarishlar, milliy ta’lim siyosatida yangi ustuvorliklarni ishlab chiqish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalardagi paydo bo‘lgan yangi voqelik bilan yuzaga kelgan institutsional o‘zgarishlar bilan belgilanadi.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy talablari maktab oldiga yangi maqsadlarni qo‘yadi, yangi qadriyatlarni aktuallashtiradi (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini aniqlash, o‘z-o‘zini aktuallashtirish). Ularning asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqiladi.

A.G. Asmolov, V.P. Zinchenkolarning zamonaviy tadqiqotlari mazkur konsepsiyaning umummetodologik mohiyatini ochib beradi, V.A. Bolotov va boshqalar esa uni tashkiliy-boshqaruv darajasida hal etadilar [1].

Mohiyati bolalar jamoasidagi hamkorlikdagi ishlarda ifodalanadigan o‘quvchining aqliy faoliyati va ijtimoiy munosabatlari xususiyatlariga ko‘ra o‘quv guruhlarini tashkil etish hisoblangan ta’limdagi samarali-umumlashtiruvchi yondashuv konsepsiyasi o‘quv vazifalarini hal etish hamda o‘quvchilarning munosabatlarini takomillashtirish uchun bolalarning muloqotlari xususiyatlaridan foydalanish imkonini beradi.

Jamiyatdagi zamonaviy vaziyat, shuningdek, maktabni boshqarish tajribasi ta’lim tizimining rivojlanishi va mustahkamligining asosiy yo‘li – bu har bir ta’lim muassasasi va uning bitiruvchisining raqobatbardoshliligini ta’minlash ekanligini ko‘rsatadi. Raqobatbardoshlikning asosi ta’lim sifati hisoblanadi.

Maktabning murakkab iqtisodiy va ijtimoiy-demografik vaziyatga moslashishi jarayonini tahlil qilib raqobatbardoshlik bir necha tashkil etuvchilardan hosil bo‘lishi to‘g‘risidagi xulosaga kelindi.

Birinchidan, bu maktabning bitiruvchini keyingi bosqich ta’lim xizmatlari yoki mehnat bozoriga moslashishini ta’minlovchi, ta’limning I, II, III bosqichlarida sifatli ta’lim berish qobiliyatidir. Ikkinchidan, bu maktabning “Imidji”: ota-onalar va o‘quvchilarning maktab tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar to‘g‘risidagi yetarlicha xabardorliklari va mazkur ta’lim xizmatlari darajasidan qoniqishlari. Uchinchidan, ota-onalar va o‘quvchilarning ta’lim xizmatlarining barcha turlaridan yetarlicha qoniqishlari.

Ta’lim doimo novatorlik, pedagogik izlanish, Tajriba-sinov ishlari, innovatsion jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan. “Innovatsiya” so‘zi fanda XIX asr oxirida paydo bo‘lgan. XX asrning 30-yillarida G‘arbda yangiliklarni kiritishni tadqiq etishning maxsus tarmog‘i – innovatika yuzaga keldi. U inqirozli va inqirozdan keyingi vaqtlardagi firmalarning yangi xizmatlar, g‘oyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha faoliyatga kuchaygan ehtiyojlarining ifodasi sifatida yuzaga keldi.

Innovatsiya shunday yangilik kiritishni anglatadiki, u o‘z resurslari (zaxiralari) hisobiga tizimda yangiliklarni amalga oshirishdir. Innovatsiyalar – bu pedagogik tizimni takomillashtirishning yaxlitligida olingan g‘oyalar, jarayonlar, vositalar, natijalardir. Ammo qanday bo‘lmasin, pedagogik tizimni yangilash muammosi juda muhim va dolzarb hisoblanadi, tegishli kasbiy tahlilni talab etadi.

Pedagogika fanida maktabni qamrab olgan hodisaning bir necha ta’riflari mavjuddir. Ulardan ayrimlari keltiramiz:

− Innovatsiya – ta’limni yanada yuqori darajaga olib chiquvchi, uning yangilanishining ijodiy, texnologik va metodik konsepsiyasi.

− Innovatsiya – bu me’yor doirasidan chiquvchi, tartibga solinmagan, kasbiy faoliyatni umuman yangi sifat darajasiga olib chiquvchi faoliyatning umuman yangi namunalarini yaratishdir [2].

− Innovatsiya jarayoni – pedagogik yangiliklarning dinamik birligi, ularni pedagogik hamjamiyat tomonidan o‘zlashtirilishi va ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanilishi [3].

Innovatsiyalar to‘g‘risidagi masala ayniqsa zamonaviy maktabda o‘ta muhimdir, chunki ta’lim-tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo‘llari va shunga ko‘ra mazkur tizimni faol isloh etish belgilangan.

Ammo shuni ta’kidlash zarurki, innovatsion jarayonlarga o‘sib boruvchi qiziqishlarga va “Innovatsiya” tushunchasining tarqalishi miqyosiga qaramasdan, hamon innovatsion jarayonlarning umumiy nazariyasi ham va maxsus pedagogik innovatika ham yaratilmagan. Shu bilan birga innovatsion pedagogika bo‘yicha qator ishlar mavjud bo‘lib, ular e’tiborga sazovordir.

Jumladan, faylasuf V.S. Lazarev innovatsion jarayonlar tuzilishini, yangiliklarning asosiy ko‘rsatkichlarini ochib berib, innovatsion jarayonlar (yangiliklarning hayotiy sikli, yangiliklarning kundalik odatiylashishi, yangiliklarning dinamikasi va samaradorligiva b.q.) bilan bog‘liq dastlabki tushunchalarga ta’rif berib tizimli-faoliyatli konsepsiyani taklif etadi [4].

A.F. Prisyajnayaning umumiy innovatika bo‘yicha ishlari e’tiborga sazovor bo‘lib, ularda innovatsion jarayonlarni tadqiq etishda asosiysi – biror-bir tizimning bir holatdan boshqasiga, yangiga o‘tishini o‘rganish va yangilik kiritish jarayonini boshqarish hisoblanishi ta’kidlanadi. Innovatsion jarayonlarni o‘rganishning ahamiyatli vazifasi pedagogik yangiliklarni yaratish va amaliyotda qo‘llash jarayonlarini boshqarish imkoniyatlarini ochib berishi hisoblanadi [5].

Ammo, pedagogik adabiyotlarda innovatsion jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hali yetarlicha yoritilmagan. Yangiliklarni kiritish muammolariga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlarni topish qiyin. Faqatgina so‘nggi yillarda pedagogik adabiyotlarda nashr etilgan alohida ishlarda innovatika to‘g‘risidagi fikrlarni va ta’lim tizimida innovatsion jarayonlar to‘g‘risidagi umumilmiy tasavvurlarni kiritishga urinishlarni uchratish mumkin.

I.P. Podlasiy innovatsiya tushunchasining quyidagicha talqinini keltiradi: “Innovatsiya – bu tizim ichidagi o‘zgarishlardir. Pedagogik talqinda hamda eng umumiy ma’noda innovatsiyalar o‘quv-tarbiya jarayonlarining borishini va natijalarini yaxshilaydigan pedagogik tizimdagi yangiliklarni kiritishni ko‘zda tutadi” [6]. Bunda muallif “pedagogik innovatsiyalarning mohiyatini tushuntirish ziddiyatlarga egaligini” ta’kidlaydi. “Kasbiy pedagogika”da masalan: “Innovatsiyalar - texnika, texnologiya, pedagogika, ilmiy tadqiqotlar sohasidagi yangi amaliy vositaning yaratilishi, tarqatilishi va foydalanilishining kompleks jarayoni” [7] ekanligi ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlarni tushunish uchun metodologik asos bo‘lib tizimli yondashuv hisoblanadi. U tizimlarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri mexanizmini ochib beradi, asosiy vazifani – ta’lim sifatini boshqarishga radikal ta’sir etishning ijobiy omili sifatidagi tizimli sifatlardan foydalanishni amalga oshirish maqsadida tizimlarning manbalari va cheklovchilarining rivojlanishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асмолов А.Г. Психология 21 века и рождение вариативного образовательного пространства России // А.Г. Асмолов // Мир психологии. 1999. –№ 1.– С. 198-208

2. Кирьякова А. В. Теория ориентации личности в мире ценностей :монография // А. В. Кирьякова. – Оренбург., 1996. –188 с.

3. Поляков В.А. Технология карьеры. – М.: 1995.– С.315.

4. Лазарев В.С., Поташник М.М. Как разработать программу развития школы. – М.: 1989

5. Присяжная А. Ф. Прогнозирование как функция педагога (от будущего учителя до профессионала): монография // А. Ф. Присяжная. –Челябинск., Образование, 2006. –С. 306.

6. Подласый И. П. Педагогика начальной школы [Текст]: учеб. пособие // И.П. Подласый – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. –С. 400.

7. Немов Р. С. Психология. Общие основы психологии: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений/ Р. С. Немов. – М.: Просвещение, 1994. – С.576.

Fazilat RAHIMOVA,
Urganch davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi katta o‘qitivchisi

TA’LIM MUASSASALARI AMALIYOTIDA INTEGRATIV YONDASHUV MOHIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada ta’lim muassasalari amaliyotida ta’lim samaradorligini oshirish va integrativ yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, muallif mazkur masalaga oid bo‘lgan tadqiqot va nuqtayi nazarlarni o‘rgangan holda rus olimlarining ta’lim mazmunini integratsiyalashga oid bo‘lgan xolatlarni tahlil qilib bergan.
Kalit so‘zlar. Integratsiya, integrativ yondashuv, ijtimoiy integratsiya, pozitivizm, tadqiqot, faoliyat.

В статье раскрываются особенности повышения эффективности образования и интегративного подхода в практике образовательных учреждений. Также автор, изучив исследования и точки зрения по данному вопросу, проанализировал случаи, связанные с интеграцией содержания образования российских ученых.
Ключевые слова. Интеграция, интегративный подход, социальная интеграция, позитивизм, исследования, деятельность.

The article reveals the features of improving the efficiency of education and integrative approach in the practice of educational institutions. The author also studied the research and points of view on this issue and analyzed the cases related to the integration of the content of education of russian scientists.
Key words. Integration, integrative approach, social integration, positivism, research, activity.

Bugun dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida yurt ravnaqi, jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotida ta’limning o‘rni va ahamiyati, nufuzi yuksala borayotganligi e’tirof etilmoqda. Mazkur masala ta’lim subyekti sanalmish, o‘qituvchi, murabbiy, ustoz pedagog faoliyatini yanada chuqurroq tahlil qilish, mohiyatini to‘laqonli anglash, pedagogik faoliyatni zamon talablari asosida tashkil etgan holda ta’lim amaliyotiga yangicha yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalari qatoridan joy oladi. Ana shunday yondashuvlardan biri ta’limga “integrativ yondashuv” an’anasidir.

Integratsiya (lotincha “*integer*” so‘zidan olingan bo‘lib, to‘la, bus-butun, buzilmagan)[1] oqibat natijada bus-butunlik, mujassamlik kasb etuvchi harakat, qayta-tarkib topish, tiklanish jarayoni sifatida berilgan. Falsafiy ensiklopedik lug‘at talqinida esa *integratsiya* (lotincha “*integration”* so‘zidan olingan bo‘lib tiklanish, to‘ldirish, *integer* butun) o‘zaro birikmagan, ayro qismlar va bo‘laklarning birikuv, jipslashuv jarayoni sifatida e’tirof etiladi. Integratsiya so‘zining ijtimoiy talqinini yoki “ijtimoiy integratsiya” – shaxslar, guruhlar, vakolatli davlat organlari, davlatlar orasida yuzaga kelgan tartibli munosabatlar tizimi sifatida qarash mumkin. Keng ma’noda integratsiya jarayonini yakdillik, mujassamlik,

[1] Философский энциклопедический словарь. 2010

bus-butunlikni tarkib toptirish jarayoni sifatida izohlash mumkin. Bu o‘z navbatida integratsiya jarayoniga kirishayotgan qismlar, bo‘laklarning biri ikkinchisining tarkibiga singib ketishi emas, balki mazkur qismlar, bo‘laklar orasida aloqadorlik, mujassamlilik, birikish orqali yangi, mutloq o‘zgacha mazmun, mohiyat kasb etuvchi bus-butun bo‘lak yoki qismning paydo bo‘lishi tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda: oldindan ma’lum o‘zaro aloqador bo‘lmagan ayro qismlar, bo‘laklar, jarayonlarning mavjudligi, mazkur qism, bo‘lak, jarayonlarni birlashtiruvchi obyektiv sabab, mohiyat va zaruriyatning aniqlanganligi, birikish jarayoniga xos integratsiyaga kirishayotgan elementlar mavjudligi va ularning o‘zgarishini aniqlab beruvchi aloqadorlik qonuniyatlarining berilganligi, birikish natijasida yaratilgan tizimning bus-butunlik, mujassamlik kasb etganligi, birikish natijasida mutloq bus-butunlik xususiyatiga ega bo‘lgan yangi tizimning yaratilganligi integratsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshganligi, yakunlanganligidan dalolat beradi deyish mumkin. Manbalarda “*integratsiya*” atamasining ilm-fan, ta’lim amaliyotiga kirib kelishi, fan metodologiyasida o‘ziga xos ta’limot va yo‘nalishga ega bo‘lib, haqqoniy bilimlarning yagona manbasi sifatida, emperik izlanishlar natijasida hosil bo‘lgan bilimlarni tan oluvchi *pozitivizm* (lotin “*pozitivis*” – ijobiy) oqimiga mansub bo‘lgan ingliz olimi, faylasuf G. Spenser nomi bilan bog‘lashadi. Oqim vakillari kabi uning g‘oyalari zamirida haqqoniy bilimlar, maxsus fanlarga oid bo‘lgan tushuncha, g‘oya, nazariyalarning o‘zaro bog‘lanishi, mutanosib mujassamlashuvi negizida shakllanadigan nuqtayi nazar yotadi.

Ta’lim sohasiga oid bo‘lgan “*integratsiya*” atamasining aniq izohli yagona tasnifi atrofida didaktik olimlarning bir xil nuqtayi nazarning yo‘qligiga qaramasdan, bu xususda olib borilayotgan qator tadqiqotlarni qayd qilish mumkin. Buyuk rus didaktik olimi K.D. Ushinskiy darslarida o‘qish va yozuv amaliyotini integratsiyalash orqali o‘quvchilarni savodga o‘rgatishga yo‘naltirilgan *analitik-sintetik* metodini yaratadi va boshlang‘ich ta’limda muvaffaqiyat bilan qo‘llaydi. Aslida mazkur metod zamirida ikkita nutqiy faoliyat: og‘zaki va yozma nutqlarning biri-ikkinchisini to‘ldirib, boyita borgan holda mutanosib mujassamlashuviga oid faoliyatni tarkib toptiruvchi jarayon shakllana borgan. Rossiya ta’lim amaliyotida mazkur yondashuv XX asrga kelibgina mohiyat jihatidan an’anaviy xarakter kasb eta boshlaydi. Bu davrga kelib “ta’limning kompleks tizimi” atamasini olgan ta’lim amaliyoti asoschilari va tarafdorlari S.T. Shatskiy, P.P. Blonskiy, M.M. Rubenshteynlar o‘z pedagogik tadqiqot natijalarini mehnat ta’limi tamoyillariga yo‘naltirilgan ta’lim amaliyotida amalga oshirganlar. Mazkur yondashuv negizida ular chet ellik hamkorlari amerikalik Jon Dyui, U. Kilpatrik va boshqa pedagog olimlar va faylasuflar g‘oyalari va tajribalarini inobatga olganlar. Jon Dyuining pragmatik yo‘nalishdagi falsafiy qarashlarida ilmiy pedagogik tadqiqotlarning asosiy va zaruriy manbasi sifatida hayot, turmush sinovlaridan muvaffaqiyat bilan o‘tgan usul, metodlar va ularning amaliy natijalari e’tirof etilgan holda bola tarbiyasida amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlargina muhim deb qaraladi.

Mazkur g‘oya negizida rus didaktlarining ta’lim jarayoni va ta’lim mazmunini integratsiyalash masalalari asosan maktab bilan hayotni uzviy bog‘lash, ularga xos bo‘lgan aloqadorlik xususiyatlari va jihatlarini ta’lim materiali mazmuniga mutanosib singdirish an’analarida namoyon bo‘ladi. Jon Dyuining pragmatik g‘oyalari negizida amerika maktablarida o‘quv materiallari o‘quvchilarning qiziqishlari, hohish-istaklari inobatga olingan holda hayotiy, qiziqarli mavzular negizida mujassamlashtirila boshlagan va bunda albatta bolalarning yosh xususiyatlari inobatga olingan. Mazkur ta’lim an’analariga V.O. Suxomlinskiy olti yoshli bolalar bilan tabiat qo‘ynida o‘tkazgan darslarini ham misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur jarayonda o‘quvchilarda kechadigan hissiy va aqliy, kuzatish, tafakkur, nutqiy faoliyatlarning o‘zaro mujassamlashuvi natijasida bilish faoliyatini shakllantirish nazarda tutiladi. Bolalar tabiat qo‘ynida tabiatni his etish, kuzatish, anglash, his-

siy in'ikos, bilish jarayonlari orqali idrok etadilar, hissiy bilish faoliyati orqali aqliy bilishga zamin hozirlanadi. Ma'lum ma'noda bu jarayon integrativ jarayonlarga misol bo'la oladi.

Zamonaviy rus pedagoglari va metodistlari tadqiqotlarida ta'lim jarayoni va ta'lim mazmunini integratsiyalash tizimiga nisbatan turlicha qarashlarni kuzatish mumkin. Rus pedagog olimlari A.P. Belyaev, M.I. Maxmutov, A.A. Pinskiy, V.G. Rozumovskiy kabi olimlarning qarashlari bugun pedagogik ta'limida ham integrativ jarayonlarning an'anaviy tus olayotganligi va uning ayniqsa ta'lim amaliyotida yaqqol namoyon bo'layotganligini qayd etadi. Ular psixologik tafakkur va didaktika, pedagogik psixologiya va sotsiologiya, umumiy va texnik ta'lim kabi jarayonlarning integratsiyalashuvida namoyon bo'layotganligi e'tirof etiladi.[2]

Mazkur masalaga oid bo'lgan tadqiqot va nuqtayi nazarlarni o'rgangan holda rus olimlarining ta'lim mazmunini integratsiyalashga oid bo'lgan quyidagi uch xolatni keltirish mumkin:

1. O'quv fanlari mazmuniga oid bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni mujassamlashtirishga yo'naltirilgan ichki integratsiyalash.
2. Ikki va undan ortiq fanlarga tegishli tushuncha, tasdiq, fakt va g'oyalarni sintezіga oid fanlararo integratsiya.
3. Asosiy va qo'shimcha ta'lim mazmuni kompanentalari sinteziga yo'naltirilgan fan bloklari orasidagi integratsiya.

Ta'limga integrativ yondashuvning asosiy g'oyasi sifatida integrativ yondashuvning shaxsga yo'naltirilganligi, predmetli strukturalar va faoliyat usullari xususida umumiy qonuniyatlarni anglash asosida integrativ bilimlarni egallash, ta'limda ma'nolar mohiyatini shakllantirishga yo'naltirilgan motivlarning ustivor ahamiyat kasb etishi (ta'lim olishga undovchi, ehtiyojni shakllantiruvchi ichki va tashqi faktorlar.[3]

Integratsiya atamasining izohli talqini ta'limiy va ilmiy jarayonlarda namoyon bo'lishiga oid g'oyalar, qarashlar va olimlarning nuqtayi nazarlarini talqin qilar ekansiz integratsiyalash jarayoni: ta'lim mazmuni, ta'lim metodi va turlarining o'zaro aloqadorligi, shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan yakdil ta'lim- tarbiya jarayoni va uni boshqarishning ilmiy-metodik asoslangan tizimi, o'quvchilarda obyektiv reallik haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish jarayoni pedagogik tizimning komponentalari orasidagi turli aloqadorlik, bog'liqlik jarayonlari sifatida qarash mumkin. Respublikamiz ta'lim amaliyotida ham "kompleks ta'lim tizimi" va "fanlararo aloqadorlik" g'oyalarining psixologik- pedagogik, metodik ta'lim mazmuni kabi sifatlari ustivor ahamiyat kasb etgan va mazkur g'oyalar negizida qator nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Ta'limga integrativ yondashuv an'analari asosan respublikamizda mustaqillik yillaridan keyin nazariy va amaliy xarakter kasb etadi va u uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida ayniqsa boshlang'ich ta'lim amaliyotida muvaffaqiyat bilan qo'llanila boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugun integrativ yondashuv g'oyalarining ta'lim-tarbiya amaliyotiga muvaffaqiyat bilan qo'llanilayotganligi, umuman ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar va g'oyalar tahlilida integrativ yondashuvning bo'y ko'rsatayotganligi uning bugungi kundagi ustivor xususiyatini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давыденко Н.В, Салошина Г.Е. Интеграция в обучении.2010.
2. Калинина Е. Интегрированные уроки по изобразительному искуству. // Начальная школа-2002.№2– С. 37-38.
3. Философский энциклопедический словарь. 2010.

[2] Калинина Е. Интегрированные уроки по изобразительному искуству. // Начальная школа-2002.№2-ст 37-38

[3] Давыденко Н.В, Салошина Г.Е. Интеграция в обучении.Urok1/sept.ru.2010

Oysha QURBONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
tayanch doktoranti

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MASHQ VA TOPSHIRIQLARNING O‘RNI

Аннотация

Mazkur maqolada o‘quvchining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ona tili darsliklaridagi mashq va topshiriqlarda berilgan matnlar va ularning xususiyatlari, matnda qo‘llaniladigan leksik birliklarning ishlatilish o‘rinlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Davlat tilida ish yuritish, uslub, matn, morfologik birliklar, morfemik shakllar, sintaktik qurilma, matn ustida ishlash.

В данной статье анализируются тексты и их особенности, место использования лексических единиц, используемых в тексте, изложенные в учебниках родного языка в развитии речевых компетенций учащегося.

Ключевые слова. Работа на деловом языке, деловой стиль, деловой топик, морфологические единици, морфологические формы, синтактические структуры, работа над топиками.

In this article it has ben amalyred exspressions in the situation of official documents, thein features the usaje of stereotypes.

Key words. Working on state language official style, official topic, morphological units, morphemic forms, syntaxtic forms, working on the topics.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash bugungi ta’lim jarayonining asosiy maqsadi sanaladi. Ayniqsa, ona tili ta’limini rivojlantirish, farzandlarimizning har tomonlama bilimli, salohiyatli bo‘lib kamol topishini ta’minlash turli Farmon, Qonun va qarorlarda huquqiy asoslangan. Hozirgi kunda mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorida ta’limning rivojiga alohida e’tibor qaratilgan.

Davlat ta’lim standartida Ona tili fani bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilariga ma’lum talablar qo‘yilgan: Nutqiy kompetensiyaning (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish) quyidagi darajalari ko‘rsatib o‘tilgan:

1) do‘sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma xat yoza oladi; tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi; husnixat, tinish belgilari va

imlo qoidalariga amal qila oladi; ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimai hol, e’lonlarni) yoza oladi.

2) ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma’lumotlarni tushuna oladi; ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, xat, tarjimai hol, e’lonlarni) yoza oladi.

3) ijodiy matnlar yaratadi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash bilan birga o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim vazifa ekanligini anglagan holda ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi o‘sib borishiga zamin yaratish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari ta’limiy vositalarda o‘z aksini topib, ona tili o‘quv dasturlari va o‘quv darsliklari orqali amalga oshadi. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlarning aksariyat qismi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar yoshligidan nutq va uning turlari, ahamiyati, nutqning inson hayotidagi o‘rni haqida tushunchalarga ega bo‘lishadi. 8-sinf “Ona tili” darsligida nutqning turlari va uning ko‘rinishlari haqida 4-mashqda ma’lumot berilgan. “Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvning eng asosiy vositasidir, u yozma va og‘zaki nutq jarayonida o‘z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevaga xos ko‘rinishlari bor”. Ilmiy matnni o‘qing va tushunganlaringizni so‘zlab bering tarzidagi topshiriqlar o‘quvchilarda nutqning shakllanishi yuzasidan bilim va ko‘nikmalar hosil qilishga xizmat qiadi. Bu mashq o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan birgalikda savol-javob orqali mustahkamlash ularning nutqiy kompetensiyalarining rivojlanishini ta’minaydi. Nutq va uning xususiyatlari, nutqda so‘zdan to‘g‘ri foydalanish haqidagi ma’lumotni 10-sinf “Ona tili” darsligida berilgan 2-topshiriqda ham ko‘rishimiz mumkin. “Nutqning aniq va ravshan bo‘lishi, avvalo, so‘zdan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. So‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilish, uning leksik ma’nosini anglash zarur. So‘zning leksik ma’nosini tushunmaslik, uni xato qo‘llashga olib keladi.

So‘z san’atkorlari tilga alohida e’tibor berib kelganlar. Uslub va ifodaning sodda bo‘lishini, nutqda fikriy mujmallikka yo‘l qo‘ymaslikni targ‘ib etganlar. (“O‘zbek tili stilistikasi”). Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchilar o‘z nutqlarida ishlatayotgah so‘zlarning leksik ma’nosini aniq bilishlari talab qilinadi.Tilimizda har bir so‘zning ishlatilish o‘rni bor. “O‘zbek tilining imlo lug’at”ini ham puxta bilishi lozim. O‘quvchilar ona tili darslarida so‘zning leksik ma’nosi, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini va ularning o‘zaro farqlarini “Ona tili” darsliklaridagi qoidalardan, ta’riflardan anglab olish bilan birga mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida olgan bilimlarini ham mustahkamlashadi. “Nutqning madaniyligini ta’minlaydigan kommunikativ sifatlar bir qancha bo‘lib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo‘yalilik. Insonlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va mavqeini belgilaydigan mezon ham uning nutqidir. Bizning fikrimizcha, nutqning madaniyligini ta’minlaydigan kommunikativ sifatlarga dars jarayonida ko‘p vaqt ajratish lozim.11-sinf o‘quvchilarining hammasi ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlarini yaxshi bilmaydilar va o‘z nutqlarida to‘g’ri qo‘llay olishmaydi. Nutqning mantiqiylik, jo‘yalilik ifodalilik sifatlari yuzasidan ularga matn tuzdirish va matnlarini dars jarayonida birgalikda tahlil qilish zarur deb o‘ylaymiz.

11-sinf ona tili darsligidagi 27-mashqda yozma nutqning to‘g‘riligiga e’tibor berish va so‘zlardagi imlo xatolarni topish berilgan. Bu mashqni bajarish orqali o‘quvchilar so‘zning imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilishiga amal qilishni o‘rganadi va ularda to‘g‘ri nutq tuzish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarining ishlatilish o‘rinlarini tushungan holda matnni to‘g‘ri tuzadilar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, 11-sinf “Ona tili” darsligida Sh.Raxmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”dan olingan iboralarning izohlari keltirilgan.

Ko‘z ilg‘amas I Bilinar-bilinmas, mayda.

Ko‘z ilg‘amas II Cheksiz poyoni (oxiri) ko‘rinmaydigan.

Lug‘atda keltirilgan iboralarning izohlari berilishi juda ahamiyatli va zarur. Chunki o‘quvchilar so‘z birikmalari bilan frazeologik iboralarni topishga qiynalishadi. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” dan olingan iboralarni o‘qish, ular yordamida gaplar tuzish va matnda qo‘llash orqali esa ularda iboralar haqidagi bilimlar aniqlashadi.

Ta’lim jarayonida Ona tili fanini o‘qitishga kun sayin e’tibor ortib bormoqda. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab Ona tili darsliklari rangli tarzda nashr qilindi. Rasmlarning rangli berilishi o‘quvchilarda mavzuga qiziqish hosil qilish bilan birga ularning fikrlashiga, nutqiy kompetensiyalarining rivojlanishiga yordam beradi. Misol tariqasida aytish mumkinki, 10-sinf “Ona tili” darsligidagi 52- mashqda asosga qo‘shib yoziladigan munosabat shaklini hosil qiluvchi kelishik qo‘shimchalarining rangli yozilishi,mavzu bo‘yicha o‘quvchiar bilan o‘tkazilgan savol-javoblar, birinchidan, bu o‘quvchining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilar mashqni bajarish natijasida esa so‘zlarga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yishni o‘rganib, so‘zlarning o‘zaro ma’no jihatdan bog‘lanishini aniqlab, so‘z birikmasini tuza oladilar va qo‘shimchani o‘z o‘rnida qo‘lashni o‘rganadilar.

Shu darslikning 67-mashqida shaxs-son qo‘shimchalarining mosini qo‘yib, gaplarni o‘qing va ko‘chiring deyilgan. Bu mashqda ham shaxs-son shakllarini rangli yozilgan bo‘lib, mashqdagi gaplarda bu qo‘shimchalar yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu mashq o‘quvchilarning bilimini oshirish bilan birga mustaqil fikrlash doirasini kengaytiradi, qo‘shimchalarda omonimlikni, ismlarning munosabat shakllari bilan fe’llarning munosabat shakllari orasidagi o‘zaro farqini bilishga va og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga yordam beradi.

Ona tilini o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchiga o‘zining fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, tushunarli va savodli tarzda ifodalashni o‘rgatishdir. Buning uchun o‘quvchi tilshunoslikning fonetika, morfologiya, morfemika, leksikologiya, sintaksis kabi bo‘limlarini yaxshi o‘rganishi lozim.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ularni mushohada qilishga o‘rgatib yozma nutqiga e’tibor qaratish ona tili fani o‘qituvchilarining vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu haqida ma’lumotlar darslik va qo‘llanmalarda yoritilgan. Xususan, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” nomli qo‘llanmasida ma’lumotlar keltirilgan:

Ona tili ta’limining onglilik prinsipi quyidagilarni nazarda tutadi:

– tilning ifoda imkoniyatlridan to‘g’ri va o‘rinli, nutqiy vaziyatlarga mos ravishda foydalana olish;

– mustaqil va ijodiy mushohada malakalarini shakllantirish, ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish;

– kommumikativ savodxonlik, zamonaviy texnik vositaardan til o‘rganish jarayonida unumli foydaanishning turli usul va vositalarini bilish;

– lingvopsixoligik o‘quv topshiriqlari tizimini ona tili ta’limiga joriy etish, o‘quvchi ongida mustaqil mushohada yuritish, so‘z tanlash va fikr ehtiyojini hosil qilishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, nutqiy faoliyat ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning darsdan keyin qo‘shimcha badiiy adabiyotlar mutolaa qilishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Darhaqiqat, o‘quvchilarning badiiy adabiyotni o‘qib, o‘zi mustaqil tahlil qilar ekan, ularning og‘zaki nutqi rivojanishi bilan bir qatorda savodxonlik darajasi ham o‘sadi. Qolaversa, har qanday badiiy asar o‘quvchining dunyoqarashini va so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili darsliklarida nutqiy kompetensiyalari yuzasidan berilgan mashqlar o‘rinli tanlangan. Bu kabi ma’lumotlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining rivojlanishida muhim. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, mashqlarda berilgan ba’zi topshiriqlar tizim asosida yoshiga moslab soddalikdan murakkablik sari yo‘naltirib tuzilgan. Bu esa o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishiga yordam beradi. Ayniqsa, ona tili darslarida o‘quvchilarni rasmiy matn tuzishga o‘rgatish ham maqsadga muvofiq. Shuning uchun ish yuritish hujjatlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida mukammal ma’lumot berish zarur.

Hujjat matnlarida leksik birliklarni to‘g‘ri ishlata olgan o‘quvchi qoliplashgan birikmalarni ham mazkur matnlarda to‘g‘ri qo‘llab rasmiy matn tuza oladi.

Rasmiy uslubning hujjat matnlarida turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalarining ishlatilish o‘rinlari haqida ma’lumot umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” darsliklarida berilgan. Chunonchi, 10-sinf “Ona tili” darsligida qoliplashgan so‘z birikmalari haqida quyidagi ma’lumot berilgan: “Hujjatlar matnini tuzishda turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan foydalanish lozim bo‘ladi. Chunki qoliplashgan yagona doimiy shaklga ega bo‘lgan so‘z tuzilmalari, iboralar muhandislik psixologiyasi ma’lumotlariga ko‘ra boshqa so‘z birikmalariga qaraganda 8-10 marta tez idrok qilinar ekan. Buning ustiga qoliplashgan so‘z birikmalari hujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini anchagina tezlashtirish imkonini beradi”. Hujjat matnlarida qoliplashgan so‘z birikmalari ko‘p uchraydi. Bunday qoliplashgan so‘z birikmalari o‘quvchilarga rasmiy uslubning boshqa nutq uslublaridan farqlanuvchi asosiy jihatini va hujjat matnini to‘g’ri yozishni o‘rganishida asosiy omil bo‘ib xizmat qiladi. Masalan, arizaning matn qismidagi “...ga qabul qilishingizni so‘rayman”, “...ga ruxsat berishingizni so‘rayman” kabi qoliplashgan sintaktik tuzilmalar o‘quvchida hujjat matnini tuzish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bunda o‘quvchilarga qoliplashgan so‘z birikmalari ishtirokida turli rasmiy hujjatlardan namunalar yozdirish juda muhim.

Rasmiy uslub matnlarining shakllanishida har bir matnning o‘ziga xos qoliplashgan birikmalari ishtirok etadi. Hujjat turlarida ishlatilgan qoliplashgan birikmalar biri ikkinchisiga mazmunan to‘g‘ri kelmaydi. Bu qoliplashgan sintaktik tuzilmalarni turli matnlarda turlicha ko‘rishimiz mumkin: masalan, korxona, tashkilot, ta’lim muassasalarida ko‘p qo‘llaniladigan buyruq matnida quyidagicha qoliplashgan so‘z birikmalari ishlatiladi. – Arizasiga ko‘ra .., lavozimiga tayinlansin, ... o‘z xohishiga ko‘ra, ...o‘z lavozimidan ozod qilinsin, ...boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan... kabi. O‘quvchilar hujjat matnlarida qoliplashgan birikmalarni to‘g’ri qo‘llashlari uchun bu birikmalarnig leksik va morfologik xususiyatlarini o‘rgatish kerak va chorak oxirida takrorlash va mustahkamlash darslarida o‘quvchilardan savol-javob o‘tkazish bilan bir qatorda ish yuritish hujjatlaridan mustaqil ravishda yozma ish olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda K.Mavlonovaning ilmiy-tadqiqot ishidagi fikri o‘rinlidir. “O‘qituvchi so‘z va so‘z shakllarini ishlatish mahorati yuzasidan olingan saboqlarni amalda qo‘llashga doir bilim,

ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish maqsadida ayrim nazorat ishlarini tashkil etib turadi. Ayni shunday nazorat ishlaridan biri yozma ishdir”. Ish yuritish hujjatlaridan birortasini o‘quvchi yozma nutqining rivojlanganlik darajasini bilish uchun yozdirilsa, o‘quvchilarning tilshunoslik fani bo‘limlarini qay darajada bilishini ham, yozma savodxonlik darajasini ham osongina aniqlash mumkin bo‘ladi.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda og‘zaki nutqini takomillashtirish bilan birga yozma nutqi ham talab darajasida bo‘lishi lozim.10-11 sinf o‘quvchilari og’zaki va yozma matnni shakllantirish uchun o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga olgan bilimlariga tayanib javob berishi mumkin, lekin ko‘plab o‘quvchilar inshoni yozish jarayonida imloviy,ishoraviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yayotganliklarining guvohi bo‘lyapmiz.

O‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish uchun quyidagi mezonlarga tayanish lozim.

– lug‘atlar bilan ishlashni o‘rganish;
– so‘zni to‘g‘ri ishlatish o‘rnini bilish;
– matnga mos so‘zni tanlay olish;
– tinish belgilarni o‘rnida qo‘llash;
– so‘z birikmalaridagi so‘zlarni bir-biriga to‘g‘ri bog‘lash;
– o‘zbek tilining imlo qoidalariga asoslanib matnni to‘g‘ri tuzish.

Xulosa qilib aytganda, nutq turlari, xususan, yozma nutq jamiyatda millat savodxonligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Ona tili fanini o‘qitishda hozirgi zamon talablari asosida yondashish, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy o‘qituvchi oldida turgan asosiy talablardan biridir. Chunki an’anaviy ta’lim jarayoni o‘quvchilarni tayyor ma’lumotlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi ta’lim jarayoni yangi innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, o‘rgatilayotgan bilimlarni o‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda izlab topishi, erkin holda xulosa chiqarishga undashni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 14-son.

3. Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho‘lpon omidagi NMIU,. 2006.

4. Mahmudov N. v. b. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

5. Mahmudov N. v. b. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-unar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

Musoxon QAMBAROV,
Namangan davlat pedagogika universiteti,
''Pedagogika va psixologiya''kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING FIKRLASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Аннотация

Maqolada mustaqil fikrlash, fikrlash madaniyati, tarbiyalangan fikr tushunchalari ochib berilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash ekanligi hamda fikrlash madaniyatini intellektual tuzilma sifatida tarkibiy qismlari ko'rsatib o'tilgan. Muallif bo'lajak o'qituvchilarni zamonga mos ravishda tayyorlash muammosining qiyosiy tahlili va mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning imkoniyatlarini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar. Fikrlash madaniyati, ratsional fikrlash, didaktika, tafakkurning faolligi, retseptiv, reproduktiv, motivatsiyali, kognitiv-axborotli, operatsion-faoliyatli, hissiy-irodaviy, baholashli-refleksiv, ijodiy jarayon.

В статье раскрываются понятия самостоятельного мышления, культуры мышления, воспитанной мысли, подчеркивается, что одним из важных условий развития культуры самостоятельного мышления будущих учителей является правильный выбор методов обучения, а также компоненты культуры мышления как интеллектуальной структуры. Автор привел сравнительный анализ проблемы подготовки будущих учителей в соответствии со временем и возможности развития самостоятельной культуры мышления.

Ключевые слова. Культура мышления, рациональное мышление, дидактика, активность мышления, рецептивный, репродуктивный, мотивационный, когнитивно-информационный, операционно-деятельный, эмоционально-волевой, оценочно-рефлексивный, творческий процесс.

The article reveals the concepts of free thinking, a culture of thinking, educated thought, emphasizes that one of the important conditions for the development of a culture of free thinking of future teachers is the correct choice of teaching methods, as well as components of a culture of thinking as an intellectual structure. The author gave a comparative analysis of the problem of training future teachers in accordance with time and the possibility of developing free cultural thinking.

Key words. Culture of thinking, rational thinking, didactics, activity of thinking, receptive, reproductive, motivational, cognitive-informational, operational-active, emotional-volitional, evaluative-reflexive, creative process.

Zamonaviy didaktika mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ta'limda ijodiylik va o'z fikr-mulohazalarini himoya qilish usullarini takomillashtirish, unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini izohlaydi.

Mustaqil fikrlash madaniyati tug'ma sifat emas, u insonga tayyor holda berilmaydi. Madaniyatli fikr mantiq qoidalari va talablariga mos kelishi shart. Mustaqil fikrlash ma-

daniyati voqelikni o‘rganish, insoniyat tomonidan to‘plangan bilimlarni egallash orqali shakllanadi va rivojlanadi. Fikrlash madaniyatini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

• shaxsiy to‘plagan bilimlariga tayanish;

• boshqalarning tajribalaridan foydalanish;

• badiiy va ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilish.

Mustaqil fikrlash madaniyati tushunchasi zamirida mustaqil fikrlash ko‘nikmasi tushunchasidan farqli o‘laroq, insonga xos bo‘lgan tafakkurning mazmundorligi, faolligi, tanqidiyligi, ratsionalligi, originalligi, mustaqilligi fikrning elastikligi singari xususiyatlar yotadi. Mustaqil fikrlash madaniyatining bu kabi sifatlarini quyidagicha sharhlash mumkin:

• inson tafakkurining mazmundorligi shaxsning muammo mohiyatiga kirib borishi, asosiy va ikkinchi darajali masalani ajrata bilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi;

• fikrning elastikligi (moslashuvchanligi) shaxsning o‘z fikrlash faoliyatida bir usuldan ikkinchisiga oson o‘tishi, ya’ni faoliyat usulini maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartira olish qobiliyatida nazarga tashlanadi;

• tafakkurning faolligi muammoni hal etishga qaratilgan tirishqoqlikning mavjudligida ko‘rinadi;

• fikrlash jarayonining tanqidiyligi muammoni hal etishda faoliyat usulining to‘g‘ri tanlanganligi, faoliyatni boshqara bilish hamda unda me’yorni saqlash va erishilgan natijaning qanchalik to‘g‘riligida ko‘zga tashlanadi;

• ratsional fikrlash, turli usullarni taqqoslash qobiliyati muammoni hal etishda kam vaqt sarflab ko‘p samara beradigan usullarni topa olishida namoyon bo‘ladi;

• original fikrlash qobiliyati qo‘yilgan muammoni mutlaqo yangi usullardan foydalangan holda hal etishdadir. U ko‘pincha fikrlashning teranligi natijasida namoyon bo‘ladi;

• fikrlashning mustaqilligi muammoning yechimini o‘zgalar yordamisiz mustaqil topa olish, faoliyatning oraliq va oxirgi natijalarini ko‘ra bilishda, fikr-mulohazalarning mustaqil, erkin va asosliligida ifodalanadi.

Bugungacha mustaqil fikrlash madaniyati, nafaqat pedagogik oliy ta’lim tizimida, balki, boshqa ta’lim tizimlarida ham alohida tadqiq qilinmagan. Yuqorida qayd etilgan qarashlar va ilmiy yondashuvlarga tayangan hamda maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda mustaqil fikrlash shaxsda mahsuldor va mantiqiy asosga ega, har bir hayotiy vaziyatning o‘ziga xosligini hisobga olib amalga oshiriladigan intellektual faoliyat, degan xulosaga kelindi. Shundan kelib chiqib, (*mustaqil fikrlash madaniyati*) tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Mustaqil fikrlash madaniyati shaxs aqliy faoliyatining mantiq qonunlari va talablariga mos holda yo‘lga qo‘yilishi, unda hozirjavoblik, nostandart vaziyatlardan chiqishga yo‘l topa bilish, uzoqni ko‘ra olish, maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli, izchil fikr bildirish va to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalari majmuining borligidir”.

Talabalarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlashdir. O‘qitish metodlari muammosi holatini tahlil qilish hozirgi zamon pedagogik amaliyotida o‘qitish metodlarining yagona tasnifi haqida xulosaga kelishni taqozo qiladi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda bilimlarni o‘zlashtirish, bilish va amaliy faoliyat ongli qabul qilish va xotirlab qolish, bilimlar va faoliyat usullarini namuna bo‘yicha yoki o‘xshash vaziyatda qo‘llash shaklida amalga oshiriladi. Bo‘lajak mutaxassisda mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishi, hozirgi pedagogik amaliyotda ro‘y berayotganidek, faqat dastlabki ikki darajasida emas, balki barcha darajalarda ta’minlanishi lozim.

Pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabalarining mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishida quyidagilar hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir:

• mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning motivatsiyali-qiziqish, o‘z-o‘zini tasdiqlash;

• kognitiv-muayan sohaga oid bilimlarga ega bo‘lish;

• operatsional – fikrlarni tizimli va izchil bayon eta olish;

• hissiy-irodaviy va mazmuniy to‘siqlarni bartaraf etish.

• baholovchi-refleksiv fikrlarni adekvat baholash singari komponentlarining rivojlanishini ta’minlash;

• metodlar tanlashda bo‘lajak mutaxassis tanlagan ixtisoslikni, uning hayotiy tajribasi va madaniy darajasini hisobga olish;

• mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanilganda individga xos xususiyatlarni hisobga olish va shaxsning o‘zligini namoyish etishiga imkoniyat yaratish;

• ta’lim muhitida talabalarda mustaqil fikrlash madaniyati rivojlanishining pedagogik holatini hisobga olish va samara beradigan metodning natijalarini oldindan ko‘ra bilish.

Ma’lumki, o‘qitish metodlari talabalarning bilish faoliyatlarini tashkil etishning tabiati bo‘yicha tasniflanadi. Shunda ta’limda quyidagi o‘qitish metodlari borligi qayd etiladi:

• tushuntirish;

• axborotli-retseptiv;

• reproduktiv; muammoli bayon etish;

• qisman izlanishli (evristik); tadqiqiy.

Bular orasida so‘nggi uchta o‘qitish metodi talabalarda mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Tushuntirish, retseptiv va reproduktiv kabi o‘qitish metodlari esa yordamchi rol o‘ynaydi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining mustaqil fikrlash madaniyati atrof-borliqning muhim ichki bog‘lanishlarini anglay bilish, real borliqdagi narsa va hodisalarni idrok etishda mantiqiy fikrlash qobiliyati va bilganlarini yangi nostandart hayotiy vaziyatda qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi.

Psixologiya fani sohasidagi xulosalarga qaraganda, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun o‘smirlik yoshida katta imkoniyatlar mavjud. Buning sababi shundaki, shaxs hayotining ayni shu davri unda tezkor intellektual-psixofiziologik xususiyatlarni shakllantirish uchun qulay sharoitlarga ega. Lekin bu qarash orqali bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish mumkin emas, degan to‘xtamga kelishga asos bermaydi. Mustaqil fikrlash madaniyati insonning butun umri davomida shakllantirilishi va muntazam ravishda rivojlantirilib borilishi mumkin.

Agar bir odam o‘zgalar fikriga, qarashlariga salbiy munosabatda bo‘laversa, u bora-bora besabr, toqatsiz, hissiyotlarning quli bo‘lib boradi. Bu holat odamning tarbiyalanganligiga ham borib taqaladi. Hayotda tarbiya ko‘rgan, tartibli, bama’ni va ularga aks shaxslar bo‘lgani kabi, fikrning ham tarbiyalangan va tarbiyasiz turlari bo‘ladi.

Demak, tarbiya jarayoni boshqariladigan bo‘lganidek, fikrlash jarayoni ham boshqariladi, bunda avvalo, insonning o‘zi va qolaversa, fikr egasini o‘rab turgan muhiti, yaqinlari va muloqot sharoiti muhim rol o‘ynaydi, shu muhit uni boshqarib turadi.

Tarbiyalangan, boshqariladigan, ma’lum bir tizimga solingan fikr shundayki, u odam miyasi ongida mantiqqa bo‘ysungan, aniq tushunchalar, g‘oyalar, bama’ni tasavvurlarga asoslangan bo‘lib, uni izhor etish, u haqida yozish yoki hayotda tadbiq etish nafaqat shaxsga, balki atrof-muhutga ham naf keltiradi. Undan ko‘pchilik manfaatdor bo‘ladi. Agar biror tasodif bilan miyaga chalkash, tartibga solinmagan, asossiz fikrlar kelib qolsa, u uni tiyish, yashirish, o‘zgalarga bildirmaslikka ham chaqirib, shu bilan fikr egasini boshqalar nazaridan qolish, shoshqoloq degan sifatdan qutulishiga sabab

bo‘ladi. Shunday qilib, mustaqil sog‘lom fikrning ijtimoiyligi – uning bevosita jamiyatdagi insonlarga, ularning o‘zaro munosabatlarida bog‘liq ekan. Bundan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Shaxs avvalo, o‘zini yaxshi bilishi, o‘zining har bir harakati va miyasida paydo bo‘layotgan fikrlarning ma’nosini aniq anglagan holda subyektiv ravishda o‘zicha mulohaza qilib fikrning yaxshiligiga ishonish kerak, ya’ni ma’lum ma’noda o‘zidan-o‘zi rozi bo‘lish kerak.

2. O‘zgalar fikrini ham hurmat qilishga o‘rganing! Bu sizga ikki tamonlama foyda keltiradi. Bir tomondan, o‘zgalar nazari va hurmatida bo‘lasiz, ularni ruhlantirayotgan bo‘lasiz, ikkinchi tamondan, o‘zgalarni yaxshi tinglash orqali o‘z fikringizni yana ham silliqlab, tahlil qilib olasiz, natijada yanada yangi, jozibali tushunchalar va fikrlar tug‘ilishiga zamin yaratasiz.

3. O‘zingizga va fikrlaringizga ishoning. Bu sizning tarbiyalangan darajangizga, qolaversa, irodangizga faqat ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Tarbiya ko‘rgan odamlar hech qachon ko‘pchilik oldida o‘zini yo‘qotmaganday, hammada havas hissini uyg‘otgani kabi, fikringiz tarbiyasiga e’tibor bering. Shunda siz mulohaza va iymon bilan, samimiyat va salohiyat bilan o‘z fikrlaringizni boshqalarga qo‘rqmay bayon etish huquqiga ega bo‘lasiz. O‘z fikrini aytishdan oldin o‘zgalarniki bilan qay darajada mantiqan uning bog‘lanishini tahlil qilsa, shaxs fikrining tarbiyalanganligi nomoyon bo‘ladi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil fikrlash madaniyati muayyan bir intellektual tuzilma sifatida tasavvur etilsa, uning quyidagi tarkibiy qismlari borligini ko‘rish mumkin bo‘ladi:

• kasbiy bilimlar (kasbiy faoliyat obyektini o‘rganish va bilish, kasbiy vazifalarni hal etishda fikrning operativ sxemalaridan foydalanish);

• ijtimoiy bilimlar (jamiyatda qabul qilingan qadriyat va me’yorlarga muvofiq qadriyatlar tizimiga ega bo‘lish);

• tarixiy bilish (turli tarixiy dalillar, hodisalar va voqealarni o‘rganish va ularga munosabat).

Pedagogika oliy ta’lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik xususiyatlarini hisobga olib, mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning metodlarini o‘qish-bilish va amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishning integral xarakteristikasi asosida tasniflash mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonga mos ravishda tayyorlash muammosining qiyosiy tahlili bu borada quyidagi ziddiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi:

• oliy pedagogik ta’lim muassasalari oldida turgan nazariy va amaliy masalalar, yosh pedagog va talabalarni tayyorlashning mavjud mazmuniga maktab va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari tomonidan qo‘yilayotgan yangi talablar bilan bo‘lajak pedagoglarga kasbiy ta’lim berishning nazariy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

• fan-texnika taraqqiyotining zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yadigan talablari bilan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimi o‘quvchilarining tayanch bilimlari darajasi;

• pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ishlashini tashkil qilishga qo‘yilgan talablarning kuchaytirilishi bilan mustaqil o‘rganish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ularda bilim va malakalar yetishmasligi;

• mavjud pedagogik ta’lim tizimining ko‘p jihatdan reproduktiv xususiyatga ega ekanligi va oliy pedagogik ta’lim muassasasi bitiruvchisi – bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik moslashuvchanligini shakllantirishga individual-ijodiy yondashish zarurligi;

• o‘qitish jarayoniga mavjud qarashlar bilan jamiyatning kasbiy ta’lim rivojlanishiga qo‘yadigan zamonaviy ijtimoiy talablari;

• o‘qituvchilik kasbining ommaviylik xususiyati bilan maktab hamda akademik litsey va kasb-hunar kolejining ijodiy fikrlovchi, yuksak kasbiy, pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchiga ehtiyoji;

• pedagogik texnologiyalarning ta’lim amaliyotiga nisbatan keng tatbiq etilishi hamda ularning yakuniy natijalari kafolatlanganligi muammosining hal etilmaganligi;

• o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari sifatiga qo‘yiladigan talablar o‘sganligi bilan ularni loyihalashtirishdagi an’anaviy yondashuvlar o‘rtasida;

• pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarni o‘qitish mahoratini shakllantirish zarur bo‘lgani holda shu vazifani bajarish uchun yetarli didaktik ta’minotning yo‘qligi o‘rtasida;

• eng yaxshi o‘qituvchilar faoliyati natijasida paydo bo‘lgan o‘qitish texnologiyasining sifat ko‘rsatkichi va ularni baholashdagi eski metodlar o‘rtasida.

Ko‘rsatib o‘tilgan ziddiyatlarni bartaraf etish, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, kasbiy faoliyat yaxlit manzara hosil qilishi uchun ta’lim jarayoni maqsadlari, mazmuni, shartlari, vositalari, natijalari o‘rtasidagi mustahkam aloqani ta’minlovchi mutaxassis tayyorlash modelini takomillashtirish talab etiladi.

Mustaqil fikrlash madaniyati tushunchasi turli fan vakillari tomonidan ijodiy qobiliyat va kasbiy muvaffaqiyatlarning asosi hamda uning mantiqiy fikrlash qobiliyati birligi sifatida qabul qilingan. Bu birlikning funksional-tarkibiy qismlari intellektual ehtiyoj va qobiliyatlar, bilishga qiziqish, motivatsiyali-qadriyatli yo‘nalishlar, fikrning kasbiy yo‘nalganligi, shaxsning emotsional-irodaviy xususiyatlarini belgilab beradi.

Mustaqil fikrlash madaniyati, bir tomondan, shaxsning fikriy faoliyati mantiq qonunlari va talablariga bog‘liq tushunchalar bilan muammolarni hal etish uquvini, savol-topshiriqlarni to‘g‘ri ifodalash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish, qarashlarni isbotlashni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tomondan, nazariy va amaliy masalalarni hal etishda fikrning eng muvofiq shakllari, tiplari, usullarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil fikrlash madaniyati nutq madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq butun hayotiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida shaxs uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib intellektual-ma’naviy daraja va axborot uzatish madaniyati ko‘rsatkichidir. Mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanish sifati nutq faoliyatining rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” o‘quv fani pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbga doir mustaqil fikrlash madaniyati rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Tarbiya jarayoni hech qachon oldindan to‘la kafolatlanmagan jarayon xususiyatiga ega faoliyat bo‘lgani uchun o‘qituvchi hamisha nostandart vaziyatlarda ish olib borishi va undan muvaffaqiyatli chiqib ketish uchun mustaqil qaror qabul qilishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – T., O‘zbek milliy ensiklopediyasi, 2003.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014

3. Левина М.М. Технологии профессионального педагогического образования. – Москва.: Академия, 2001.

4. Подласий И.П. Педагогика. – Москва.: Высщая образования, 2008. – С.540.

Aziz TOSHXONOV,
Namangan davlat universiteti,
''Boshlang'ich ta'lim metodika'' kafedrasi o'qituvchisi

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING O'QUV JARAYONIGA INTEGRATSIYANING DIDAKTIK METATILINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Аннотация

Maqola metatil o'quv bilimining yangi shakllari va metodlarini yuzaga keltirishi, bunda o'quv vazifalarining muammoli-modelli va farazli-modelli yechimiga bag'ishlangan. Muallif, o'quv bilimi jarayonining o'zi integratsiyaning didaktik metatili vositalari bilan hissiy idrok va fikrlash aloqadorligi orqali sodir bo'lishi, o'qitishning ko'rgazmaliligi vazifasini bajarishi, mazkur vazifani mavhum fikrlashning yuqori darajasiga ko'tarishini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar. Integratsiyaning didaktik metatili, o'quv jarayon, tizim, tuzilma, kognitiv funksiya, invariant hususiyat.

Статья посвящена появлению новых форм и методов метаязыческого образовательного познания, проблемно-моделирующего и гипотетико-моделирующего решения учебных задач. Автор отмечает, что сам процесс усвоения знаний происходит через эмоциональное восприятие и мыслительную коммуникацию с дидактическими метаязыковыми средствами интеграции, выполняя задачу зрительного восприятия учения, поднимая эту задачу на более высокий уровень мышления.

Ключевые слова. Дидактический метаязык интеграции, образовательный процесс, система, структура, когнитивная функция, инвариантный признак.

The article is devoted to the emergence of new forms and methods of metalinguistic educational knowledge, problem-modeling and hypothetical-modeling solutions to educational problems. The author notes that the process of assimilation of knowledge occurs through emotional perception and mental communication with didactic metalinguistic means of integration, performing the task of visual perception of learning, raising this task to a higher level of thinking.

Key words. Didactic integration metalanguage, educational process, system, structure, cognitive function, invariant feature.

Integratsiyaning didaktik tili (IDM) – ta'lim mazmuni va o'qitish jarayonining muddatli kengaytirishning mantiqiy strukturasini aniqlash ko'rinishidagi o'qitish jarayonining ifodalanishi shakllari va mazmunli ahamiyati o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish uchun mo'ljallangan o'quv belgili axborot tizimi. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga IDMni joriy etish imkoniyati boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limlari mazmunida mujassamlangan o'quv bilish jarayoni takrorlanuvchi elementlarining invariant xususiyatlari va belgilarining mavjudligi bilan bog'liq.

IDM yaxlit pedagogik jarayonda umumiy va qonuniyni ajratishga imkon beradi, ta'lim mazmunini tizimlashtiradi, ajratilgan mavhum belgilarni: joylashtirish tizimi va yo'nalishlarini aniqlaydi.

Integratsiyaning didaktik mazmuni tadqiqot metodlari, jumladan formallashtirish metodini o‘quv jarayoniga joriy etish uchun obyektiv sharoitlar yaratadi. Formallashtirish metodi bir ilmiy qoida bir tashqi shaklda, hodisaning ko‘p qirraliligiga ahamiyat bermay ifodalanishini talab etadi.

Integratsiyaning didaktik mazmuni aniqlik, oydinlik va biror-bir istisnolarning mavjud bo‘lmasligini talab etadi. Boshqa tomondan, u o‘qitishning yaxlit jarayonining o‘z mohiyati bo‘yicha ziddiyatli tavsifning vositasi hisoblanadi. Ta’lim mazmunining turli fan sohalaridagi turli-tumanligi va o‘qitish jarayoni bosqichlarining shakliy belgili tizimda to‘liq ifodalana olmaydi. Shakliy ifodalanmagan qoldiq – talabaning pedagogik fikrlashini shakllantirish jarayonining undovchi motivi va harakatlantiruvchi kuchidir. Bu integratsiyaning didaktik mazmunining kognitiv funksiyasini belgilaydi.

Integratsiyaning didaktik mazmunining akkumulyativ funksiyasi pedagogik tajribani to‘plashda ifodalanadi. O‘quv jarayonini turli muddatli bosqichlarda, turli o‘quv fanlarida ifodalashda uning invariantlarini aniqlash o‘qitish subyekti darajasida “pedagogik texnologiya” tushunchasini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Integratsiyaning didaktik mazmunini akkumulyativ funksiyasining ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchining “pedagogik zaxirasini” – belgili ma’lumot tizimini shakllantirish hisoblanadi: sxema-konspektlar, klassifikatsiyalar, metodik ishlanmalar. Bunda yagona integratsiyaning didaktik mazmuni vositalari bilan ifodalangan metodik ishlanmalarni moddiy to‘plash tushuniladi. Yagona belgili ramziylik kasbiy faoliyat jarayonida ularni qulay qiladi.

Integratsiyaning didaktik mazmunini kommunikativ funksiyasi o‘qitish va o‘qishni standartlashtirishda ifodalanadi, bu yaqqol kamchiliklar bilan birga ma’lum afzalliklarga ham ega. Talaba ta’lim mazmunining o‘z formal-mantiqiy modelini qurishda o‘z bilimlarni o‘zlashtirishini tizimda tashkil etadi, mazkur bosqich – o‘qitish va o‘rganish ikki modelining mavjud nomuvofiqliklarini aniqlaydi. Ikki modellar o‘rtasidagi ziddiyatlar – o‘qitishning harakatlantiruvchi kuchi, o‘qish modelini o‘qitish modeliga yaqinlashtirish – o‘qitish yo‘nalishi. Bunda reprroduktiv ta’lim deyarli istisno etiladi.

Kommunikativ funksiyaning ajralmas qismi IDMning tarviyaviy vazifasi hisoblanadi. O‘qitish va o‘qish modellarini (o‘qitishning ikki subyektlarini) taqqoslash orali o‘quv materialining formal-mantiqiy modellari muhokamasi o‘quv o‘zaro aloqalarning xususiyatini belgilaydi – o‘quv bilimida teng huquqli hamkorlik. O‘qitish jarayonining mazkur bosqichining muammosini muhokama etuvchi ikki teng hamkorlar dialogi sifatida quriladi.

Integratsiyaning didaktik mazmunining integrativ funksiyasi bilimlarni tizimga va o‘quv bilimini tizimga shakllantiruvchi (integratsiyaning gorizontal va vertikal tashkil etuvchilari) belgili vositalarning umumiyligida ifodalanadi. Gorizontal va vertikal aloqalar, munosabatlarni aniqlash o‘qitish predmeti va jarayonining mohiyatini tushunishning zaruriy chuqurligini ta’minlaydi, ikki o‘zaro bog‘liq tizimlardan har birining strukturasi, vazifalari va rivojlanish yo‘llarini ochib beradi. O‘quv bilimning integrativ mohiyati “tashkil etish” toifasiga ifodalanadi; integratsiyaning didaktik mazmuni – tashkil etish, qismlarni yaxlitga birlashtirish vositasi.

O‘quv jarayonida integratsiyaning didaktik mazmuni regulyativ funksiyasi doirasida ta’lim mazmuni va shakli me’yori tizimini belgilaydi. O‘quv jarayoniga IDMni joriy etish bilan pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi fakultetida yaxlit pedagogik jarayonda tilni o‘zlashtirish konstruktiv texnologiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga

keladi. Integratsiyaning didaktik mazmunini o‘zlashtirish to‘rt darajada sodir[1] bo‘ladi (V.P. Bespalko): “tanishish”, “nusxalar”, “ko‘nikmalar”, “o‘zgarishlar”.

Texnologiya o‘quv o‘zaro aloqalarga talablar majmuida ifodalangan o‘qitish subyektlari xulqlari qoidalarini belgilaydi. Texnologiya o‘quv rejani shakllantirish omillaridan biri hisoblanib, o‘quv rejasi fanlarini muddatli joylashtirish konsepsiyasini hosil qiladi. O‘quv rejasi integratsiyaning didaktik mazmunini o‘zlashtirishning bir turdagi didaktik vazifalarining majmui sifatida qaraladi. Kognitiv funksiya, integrativ funksiya. kommunikativ funksiya, tarbiyaviy funksiya, akkumulyativ funksiya, boshqaruv funksiyasi.

Bizning fikrimizcha, ajratilgan funksiyalar – integratsiyaning didaktik mazmunining asosiy va yagona – metodologik funksiyasining turli ifodalanishlari bo‘lib, u boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga ko‘maklashadi.

O‘qitish jarayonida o‘quv jarayoni hodisalari integratsiyaning didaktik mazmuni vositalari bilan o‘rganiladi, ammo metatilning o‘zi – o‘quv bilimning aksi, uning rivojlanishi, o‘zgarishining ifodasidir. Metatil o‘quv bilimining yangi shakllari va metodlarini yuzaga keltiradi, bunda o‘quv vazifalarining muammoli-modelli va farazli-modelli yechimiga e’tiborni qaratadi. O‘quv bilimi jarayonining o‘zi IDM vositalari bilan hissiy idrok va fikrlash aloqadorligi orali sodir bo‘ladi. IDM o‘qitishning ko‘rgazmaliligi vazifasini bajarib, mazkur vazifani mavhum fikrlashning yuqori darajasiga ko‘taradi.

Belgili timsollar bilan tanishuv ta’lim oluvchi egallagan mavhum modelini haqiqiy obraz bilan bog‘lash imkoniga ega bo‘lishi uchun mavhum fikrlashning tushunarli darajasida sodir bo‘lishi kerak. Haqiqiy obyektni mavhum model bilan taqqoslash imkoniyati – belgili ifodalardan ongli operatsiyalarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, integratsiya metatili bilan tanishishning ta’limiy didaktik vazifalari tizimi “O‘qitishda mantiq” kursida mujassamlangan tanlangan didaktik materialga mos ravishda tayanishi kerak. IDMning asosiy belgilari sifatida biz didaktik matritsalar, yo‘naltirilgan grafalar, ierarxik grafalar, algoritmi blok-sxemalarni qabul qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Деменева Н.Н. Формирование педагогического мышления у студентов путем активизации обучения на интегративной основе. // Дисс... канд. педагог, наук. – Нижний Новгород. 1993.

2.Иванов О.А. Интегративный принцип построения системы специальной математической и методической подготовки преподавателей профильных школ. // Автореферат дисс... докт. Пед. наук. – М., 1997. – С.33.

3. Михеев В.И. Моделирование и методы теории измерений в педагогике. – М.: Высш. шк., 1987. – С.198.

4. Моисеев Н.Н. Алгоритмы развития. – М.: Наука, 1987. – С.302.

5. Мордкович А.Г. Профессионально-педагогическая направленность специальной подготовки учителей математики в педагогическом институте/ Дисс. ... д-ра пед. наук. – М., 1987.

6. Эрдниев П.М. Теория и методика начального обучения математике. – М.: Просвещение, 1991. – С.123.

[1] Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика. 1989. – С.192.

Nasiba ARIPOVA,
Toshkent arxitektura qurilish instituti,''Jismoniy tarbiya va psixologiya''kafedrasi katta o'qituvchisi

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING XORIJ TAJRIBASI

Аннотация

Ushbu maqolada oliy ta'limda sifat tushunchasi va sifat masalarining talqini xorijiy manbalar asosida tahlil etilgan. Xorijiy tajribalar esa O'zbekistondagi tajribalar bilan qiyoslangan. Oliy ta'limda sifat tushunchasini talqin qilishda Diana Grinning qarashlari ochib berilgan. Sifatni belgilash va baholash har doim bahs munozalar ichida bo'lib kelganligi misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar. Sifat, ta'lim, xorijiy tajriba, baholash tizimi, raqobat, tahlil, buyurtma, omil.

В статье анализируются понятие качества и вопросы качества в высшем образовании, основываясь на международных источниках. Проведён сравнительный анализ международного опыта с опытом Узбекистана. Освещены видение и взгляды Дианы Грин на толкование понятия качества в высшем образовании. Показано с примерами, что определение и оценка качества всегда являлось предметом дискуссий.

Ключевые слова. Качество, образование, зарубежный опыт, система оценки, конкуренция, анализ, заказ, фактор.

The article analyzes the concept of quality and quality issues in higher education, based on international sources. A comparative analysis of international experience with the experience of Uzbekistan. The vision and views of Diana Green on the interpretation of the concept of quality in higher education are highlighted. It is shown with examples that the definition and assessment of quality has always been the subject of debate.

Key words. Quality, education, foreign experience, evaluation system, competition, analysis, order, factor.

Jahonning barcha oliy ta'lim muassasalarida oliy ta'lim sifati, ya'ni sifatli kadrlar tayyorlash hamma vaqt ham dolzarb masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Sifat masalasi, ayniqsa, XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yana ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksariyat davlatlarda oliy ta'lim muassasalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy universitetlarning ko'payishi, shu bilan birga, ta'lim ham iqtisodiy tizimda tovar kabi baholanishi unga o'z mijozlari (buyurtmachi talablari) ga ega bo'lishi, bunda oliy ta'lim muassasalarining raqobatga kirishish yo'llarini sifatli kadr tayyorlashga majbur qilmoqda. Hozirgi davrda va kelajakda ham har bir oliy ta'lim muassasasi o'z mijozlarini o'zi topishi tamoyilida ishlaydi. Ya'ni, bitiruvchilarga bo'lgan talabning kuchayishi bitirib chiqayotgan ta'lim muassasasining yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi va salohiyatliligini bildiradi. Mana shunday beg'araz raqobat muhitida ta'lim muassasasi rostlanadi, shakllanadi va natijada raqobatbardosh kadrlar

yetishib chiqadi. Demak, raqobatbardosh, sifatli kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari iqtisodiy jihatdan kuchayib boradi. Endi shu o‘rinda raqobat va sifatning o‘zi nima?. Uning qanday komponentlari bor?. Degan savolga javob berish va ularni ilmiy tahlil etish lozim. Raqobatning lug‘aviy ma’nosi “raqib”likka taqalib, qandaydir noxush kayfiyat qoldirsa-da, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning turgan-bitgani foydali. Raqobat hamma vaqt ham sifatli bo‘lishga yetaklaydi. Sifat va raqobat bir-biri bilan bog‘liq va deyarli birga qo‘llaniladigan terminlardir. Oliy ta’limda sifat bu ko‘p qirrali, ko‘p darajali, va dinamik tushuncha bo‘lib, u ta’lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga, hamda o‘ziga xos ma’lum standartlarga bog‘liqdir. Batafsilroq ta’rifni A.Karimova, L.Peregudovlar tomonidan berilgan: “Oliy ta’lim sohasida sifat ko‘p qirrali konsepsiya hisoblanadi. U ta’lim sohasidagi barcha funksiya va faoliyat turlari – o‘quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot va stipendiyalar, mutaxassis xodimlar bilan to‘liq ta’minlanganlik, ta’lim oluvchilar, binolar, moddiy-texnika bazasi va jihozlarni, jamiyat va akademik muhit farovonligi yo‘lidagi barcha ishlarni qamrab olishi kerak.”[1]

Ko‘pgina manbalarida sifatning ta’rifida ko‘p munozarali fikrlar bayon qilingan holda, uning qisqa va lo‘nda ta’rifi ham berilgan, ya’ni sifat talablar tavsifiga xos moslik darajasidir. Uning ikki tomoni ko‘rsatiladi:

– ta’lim jarayoni natijasi sifati;

– sifatni ta’minlovchi tizimlar tavsifi.

Bunga ta’lim mazmuni, abiturentlarni tayyorlash jarayoni, pedagog kadrlar, axborot-metodik ta’minot, ta’lim texnologiyalari, ilmiy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, sifat tushunchasi oliy ta’limdan manfaatdor guruhlar va turli vakolatli tashkilotlar tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin.

Xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarda uning uch komponenti haqida ma’lumotlar uchraydi: Ta’lim subyektlari. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– ta’lim tashkilotchilari: rektorat, dekanat, o‘quv bo‘limi, kafedralar kiradi;

– ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi shaxslar: professor-o‘qituvchilar, metodist, maslahatchi, laborant, dastur va o‘quv adabiyotlar kiradi;

– ta’lim xizmatlaridan bahramand bo‘luvchi shaxslar: talaba va tinglovchilar kiradi.

Ta’limning me’yoriy hujjatlari. Ularga ta’lim konsepsiyalari va paradigmalari, o‘qitish texnologiyalari, o‘quv adabiyotlari, sifatli bilimlarni berish va nazorat qilish metodlari kiradi.

Ta’lim muhiti. Bunga ijtimoiy, madaniy, psixologik muhitlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasasi faoliyatida yuqoridagi komponentlar mavjud, lekin uni sifat darajasiga ko‘tarish lozim. Bunda xorijiy tajribalarni o‘rganish shu sohada takomilga erishish uchun asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va ta’lim tizimi dunyo tajribalari asosida yanada boyitib boriladi va shu tariqa globallashuv jarayonida mamlakatimizdagi oliy ta’lim jahon ta’lim tizimida o‘z o‘rnini egallaydi. Demak, ta’limdagi “sifat” kategoriyasi yetakchi komponent bo‘lib xizmat qiladi. Xalq xo‘jaligi va ta’limning qaysi turi va bosqichi bo‘lmasin, uning bozor iqtisodi sharoitida yashashi va amal qilishida sifat mezoni asosiga tayanadi. Oliy ta’lim sohasida sifatning taminlanishi provardda yetuk kadrlar tayyorlashga sabab bo‘ladi. Bu isbot talab qilmaydigan aksioma bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi hukumati, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va oliy ta’lim muassasalarining bosh masalasiga aylangan.

Shuning uchun, sifatning mohiyatini to‘liq anglash va talqin etish ehtiyojlari paydo bo‘ldi. Bunda jahon tajribasini tanqidiy tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda

[1] Миркурбанов Н.М, Аношкина В, Данилова-Кросс Е. высшее образование в Узбекистане: состояние и рекомендации. // Аналитическая записка, 2009. -№ 1 (12), www.undp.uz/publications.

ta'kidlash joizki, oliy ta'limda sifat va sifatni baholash masalasi XX asrning oxirida dunyo miqyosida eng dolzarb masala sifatida maydonga chiqqan. YUNESKO tomonidan 1998-yilda o'tkazilgan konferensiyada butun dunyo dekleratsiyasi qabul qilindi va uning 11-moddasi "Sifatni baholash" deb nomlandi va unda sifat oliy ta'lim sohasida ko'p o'lchamli konsepsiya deb ta'riflandi. Unga ko'ra o'quv va akademik dasturlar, ilmiy tadqiqot ishlari, professor-o'qituvchilar, talabalar, o'quv binolari, moddiy-texnika bazasi, jihozlar, jamiyat uchun jon kuydirish, akademik muhit sifatni belgilovchi dasturlar sifatida keltiriladi. Shuningdek, sifatni baholaydigan tashkilotlar to'g'risida ma'lumot beriladi.

Axborot manbalaridan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jahon oliy ta'limidagi sifat tushunchasini yoritib berish va uning universal izohi bo'yicha muayyan va yakuniy to'xtamga kelingan emas. Shunday bo'lsa-da, uni talqin yoki interpretatsiya qilish orqali tushuntirib berishga dunyoda juda ko'plab olimlar harakat qilganlar. Bu borada g'arb olimlarining turlicha qarashlari yuzaga keldi.

Oliy ta'limda sifat tushunchasini talqin qilishda Diana Grinning qarashlari o'ziga xosdir. U sifatning ananaviy manosi (the traditional concept of quality) to'g'risida fikr yuritadi. Unga ko'ra, mijozlarga talablar darajasida mahsulot yetkazish, servis ko'rsatish va muvaffaqiyatga erishish, imidjga ega bo'lish sifat hisoblanadi. Masalan, Mersedes yoki Rols Roys (Rolls Royce) avtomobil kompaniyalarining mahsulotlari, oliy ta'limda esa Oksford va Kembrij universitetlarining talabalar va tadqiqotchilar o'rtasida imidjga ega bo'lishi yaqqol misol bo'la oladi.

Diana Grin mahsulot yoki servislarning standartlar yoki spetsifikatsiyalarga muvofiqligi (Conformance to specification or standards) to'g'risidagi fikri ham keng tarqalgan. Oliy ta'limda talabaning o'zlashtirishidagi yuqori natija va yetarlicha malakaga ega bo'lishi standartlar orqali baholanadi. Masalan, Britaniya oliy ta'lim muassasalarida "Akademik standart"larga muvofiqlik bo'lish ham sifatli deb qabul qilinadi.

D.Grin sifatning maqsadga muvofiqligi (Quality as fitness for purpose) haqida ham fikr bildiradi. D.Grin bu g'oyani bir necha savollar qo'yish orqali tushuntirib beradi: oliy ta'limning maqsadi jamiyatga yetuk kadrlarni yetkazib berish bo'lsa, u holda bu vazifani ular uddalay olyaptimi, ta'lim dasturlari yetarlicha bilim va ko'nikmalarni aks ettira olganmi, muassasa o'zi belgilagan istiqbol (vision) va missiyalar ado etilmoqdami? va h.k. Demak, ushbu qarashlar ta'lim standartlari sifatining asosini aniqlashda asos bo'ladi deb baholandi.[2]

Oliy ta'limning maqsadini aniqlash va interpretatsiya qilishda turli qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Oliy ta'lim maqsadini talabalar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, rahbariyat yoki hukumat aniqlab berishi munozarasi ham bor. Albatta, ushbu manfaatdor guruhlarning oliy ta'limdan ko'zlagan maqsadlari bir-birlaridan ayni o'rinda farqli va ularning uyg'unligi ham bor. Bu esa, oliy ta'limning ko'p maqsadli ekanligini ham ko'rsatadi.

Dunyoda keyingi 20 yil mobaynida mahsulot ishlab chiqarish ma'lum bir andozalarga emas, balki mijozlarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirildi. Lekin ishlab chiqarishdan farqli o'laroq davlat sektorlarida "mijoz"ning kim ekanligi ham munozara qilinadi. Ayniqsa, oliy ta'limda mijozni aniqlashda fikrlar qarama-qarshiligi mavjud. Oliy ta'limdagi mijoz deganda, uning xizmatidan foydalanuvchilar (talabalar)mi yoki xizmat ko'rsatuvchilar (o'qituvchi yoki hukumat)mi? Talaba mijozmi yoki "mahsulot"mi yoki har ikkalasimi? Albatta, talabaning intellektual ehtiyojidan kelib chiqadigan xizmatlar(yaxshi kutubxona, shinam yotoqhona yoki boshqalar bilan taminlanganlik)ning sifat darajasini baholash oson. Lekin oliy ta'limda u boshqa jarayonlarda kechadi, chunki unda xizmat-

[2] Green, Diana, ed. (1994). What is Quality in Higher Education?. Society for Research into Higher Education, Ltd., London (England). P.1-21.

ning mazmuni deganda, o‘qitish va o‘rganish jarayoni hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabat va muloqot bo‘lib qolmoqda. Ishlab chiqarishdan farqli o‘laroq, oliy ta’limda xizmat ko‘rsatish yoki ishlab chiqarish jarayoni talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi uyg‘unlikda aks etadi. Shuningdek, oliy ta’limdagi sifat mezonlarini faqat talabaning talab va istaklari belgilamaydi, balki oliy ta’limda rahbariyatni ta’lim jarayoni sifati qiziqtirsa, talaba, ota-ona va buyurtmachilarni esa ta’lim natijalari sifati ko‘proq qiziqtirishi mumkin. Oliy ta’lim va uning mijozi borasida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim to‘g‘risidagi manbalarda ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste’molchi funksiyalarini bajarib, tegishli sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida faol ishtirok etishi ta’kidlangan.

Sifatni belgilash va baholash ham har doim bahs munozalar ichida bo‘lib kelgan. K.Kampbel va K.Roznialarning: “Sifat baholanmaydi va o‘lchanmaydi, balki ilm ahli tomonidan sifatning qayerda va qachon taminlanishi tan olinadi” degan talqini ham mavjud va u ham turli munozaralarning yana ham kuchayishiga sabab bo‘ladi. Britaniyalik mualliflar N.Jakson va X.Lund oliy ta’limdagi sifatni baholash masalalariga yondashishda “konseptual tizim”ga asoslanadilar.

Turli mintaqa va mamlakatlarda ta’lim sifatiga qiziqishning o‘sib borishi o‘ziga xos tarzda kechdi. Bunga jamiyatda, fanda, iqtisodiyotda globalizatsiya jarayonlarining boshlanishi va misli ko‘rilmagan darajada tez avj olishi asosiy omil bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Oliy ta’limda sifatga erishish uning salohiyatini, iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi kafolatdir.

2. Xorijiy axborot manbalari bo‘yicha oliy ta’lim sifati o‘rnatilgan me’yorlarga, talablar bo‘yicha tayyorlangan kadrlarning mosligidir.

3. Oliy ta’lim muassasalarida sifatni ta’minlovchi tuzilmalar – bu ta’lim subyektlari, ta’limning me’yoriy asoslari va ta’lim muhitidir.

4. Xorijiy mamlakatlarda sifatning an’anaviy tushunchasi mijoz (talaba, buyurtmachi)ga yuqori darajada mahsulot (kadr) yetkazib berish, servis ko‘rsatish va imidjga ega bo‘lishdir.

5. Xorijiy mamlakatlarda oliy ta’lim muassasalari avtonomiyasining oshib borishi ularda sifatli kadr tayyorlash vazifasini keltirib chiqarar edi. Aks holda bunday oliy ta’lim muassasalari reytingi tushib ketadi va raqobatda o‘z o‘rnini yo‘qotishiga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Миркурбанов Н.М, Аношкина В, Данилова-Кросс Е. высшее образование в Узбекистане: состояние и рекомендации. // Аналитическая записка, 2009. -№ 1 (12), www.undp.uz/publications.

2. Green, Diana, ed. (1994). What is Quality in Higher Education?. Society for Research into Higher Education, Ltd., London (England). P.1-21.

2. Maureen Brookes, Nina Becket (2007). Quality Management in Higher Education: A Review of International.

Fazilat SATTOROVA,
Samarqand davlat universiteti,
tayanch doktoranti

TALABALARNI CHET TILIGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

Аннотация

Maqolada talabalarni tilga oid tayyorgarliklari bilan bog‘liq tadqiqotlarning nazariy-metodologik asosi tahlil qilingan. Muallif kasbiy tayyorlashda yangi talablarga muvofiq, chet tiliga oid kompetentlik nafaqat muloqot (kommunikativ kompetentlik) uchun vosita bo‘lib, balki kasbiy faoliyatni bajarish vositasi bo‘lib xizmat qilishini asoslab bergan.

Kalit so‘zlar. Kompetentli mutaxassis, raqobatbardosh kadrlar, kasbiy mobillik, mehnat bozori, intellektual faoliyat, innovatsiya.

В статье проанализирована теоретико-методологическая основа исследований, связанных с языковой подготовкой студентов. Автор обосновал, что в соответствии с новыми требованиями в профессиональной подготовке компетентность в отношении иностранного языка служит не только средством коммуникации (коммуникативной компетентности), но и средством осуществления профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Компетентные специалисты, конкурентоспособные кадры, профессиональная мобильность, рынок труда, интеллектуальная деятельность, инновация.

The article analyzes the theoretical and methodological basis of research related to the language training of students. The author substantiated that, in accordance with the new requirements in vocational training, competence in relation to a foreign language serves not only as a means of communication (communicative competence), but also as a means of carrying out professional activities.

Key words. Competent specialists, competitive staffs, professional mobility, the labor market, intellectual activity, innovation.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosi mehnat bozorini inobatga olib yangi, o‘zgargan iqtisodiy hamda xalqaro aloqalar rivojlanishi sharoitlarida ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning obyektiv muammosi bilan bog‘liq.

Ta’lim tizimi so‘nggi yillarda yangi davlat ta’lim standartlariga o‘tishi sababli, oliy ta’lim tizimidan nafaqat kasbiy, balki kommunikativ jihatdan kompetentlikka ega bo‘lgan mutaxassislarnit ayyorlashni takomillashtirish talab etiladi.

G.V. Gorlanov, A.K. Markova, A.V. Xutorskoyva boshqalarning tadqiqotlariga asosan mutaxassislarni kasbiy tayyorlash doirasida “Kasbiy kompetentlik” tushunchasini ajratish maqsadga muvofiqdir.[1] U turli mualliflar tomonidan qanday tushunilishini ko‘rib chiqish mkmkin. (1-jadval).

[1] Маркова, А.К. Психология профессионализма // Маркова А.К. – Издательство: Международный гуманитарный фонд Знание, 1996. – 312 с.

1-jadval

Turli mualliflar tadqiqotlarida “kasbiy kompetentlik” tushunchasi ta’riflarining qiyosiy tahlili

Muallif	“Kasbiy kompetentlik” tushunchasining talqini
Gorlanov G.V., Markova A.K., Xutorskoy A.V.	Aniq faoliyat sohasidagi amallarni bajarish uchun zarur bo‘lgan,o‘zaro bog‘liq individual xususiyatlari va shaxs sifatlarining (bilim, ko‘nikma, malakalar, faoliyat usullari, qobiliyatlar) majmui sifatida tushuniladi. Shu asosda tadqiqotchilar asosiy kasbiy kompetensiyalar tarkibini, ayrim ichki, potensial, yashirin yangi hosilalar (bilimlar, jumladan kasbiy bilimlar, tasavvurlar, amallar dasturi (algoritmi), qadriyatlar va munosabatlar tizimi) sifatida belgilaydilar. Ular insonning kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni yechish uchun ichki va tashqi resurslaridan foydalanishga shaxsiy tayyorligini ta’minlaydi.
Kozirev V.A., Radionova N.F., Tryapitsina A.P.	Kasbiy kompetentlik ostida asosiy, maxsus kompetenlikning majmuini tushunadilar. Ularning fikrlariga ko‘ra, asosiy kompetentliklar ixtiyoriy kasbiy faoliyat uchun majburiy hisoblanadi, shaxsning jadal o‘zgaruvchi olamdagi muvaffaqiyati bilan bog‘liq, asosiy kompetentliklar muayyan kasbiy faoliyatning o‘ziga xosligini aks ettiradi, maxsus kompetentlik kasbiy faoliyatning aniq predmetli sohasini tashkil etadi.
Znikina L.S.	Kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni o‘rganish bilan bog‘liq tadqiqot ishida kasbiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatni bajarish usullarini belgilovchi, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy faoliyatni bajarish tajribasidan tashkil topgan tizim sifatida belgilaydi.
Tarxanova E.A.	Kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyatning haqiqiy vaziyatlarida yuzaga keladigan kasbiy vazifalarni bilimlar, kasbiy va hayotiy tajriba, qadriyatlar va yo‘nalganliklaridan foydalana belish qobiliyatini belgilovchi integrativ tavsif sifatida qaraydi.
Nelyubov B.A.	Kasbiy kompetentlik u tomonidan kasbga yaxlit-konseptual yondashuvni, mehnatning ahamiyatliligini tan olish, vazifalarni bajarishga optimal texnologiklik, kasbiy axloq, o‘zini-o‘zi tashkil etish va o‘zini-o‘zi rivojlantirishni kirituvchi ma’lum mutaxassisni o‘qitish va tayyorlash bilan belgilanadi.

Shu tariqa, *“Kasbiy kompetentlik”* tushunchasi – har biri ko‘pgina kompetensiyalardan tashkil topgan, bir qancha kompetensiyalardan iborat bo‘lgan murakkab tushuncha. Mualliflar kasbiy kompetentlikni shakllantirish bevosita ta’lim mazmuni orqali va kasb asoslarini egallash jarayonida shakllanadigan, kasbiy ko‘nikma, malakalar orqali sodir bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Mutaxassisning “Kasbiy kompetentligini” muhandisning kasbiy faoliyatni bajarishi uchun egallashi zarur hisoblangan, asosiy va maxsus kompetentliklar majmui sifatida ta’riflanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida yuzaga kelgan qator qoidalar tahlili mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, jumladan mutaxassisliklar bo‘yicha talabalarni tilga oid tayyorgarliklari bilan bog‘liq tadqiqotlarning nazariy-metodologik asosi sifatida kompetensiyaviy yondashuvning faoliyatli aspektini ajratishning maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy va siyosiy globallashuv doirasida xalqaro hamkorlikning kengayishi tufayli OTM bitiruvchilariga ish beruvchilarning talablari o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassis yuqori kasbiy darajadan tashqari, shuningdek, kelgusi kasbiy faoliyati uchun tilga oid kompetensiyalarning yuqori darajasiga ega bo‘lishi kerak.

Davlatning xalqaro aloqalari rivojlanishi va ularning sifatli o‘zgarishi, ijtimoiy hayot barcha sohalarining baynanmillashuvi chet tillarini inson amaliy va intellektual faoliyatida talab etilishini taqozo etadi. Mazkur o‘zgarishlarning barchasi oliy kasbiy ta’lim tizimida

“chet tili” fanining o‘rniga e’tibor qaratadi. Chet tilini bilish bozor iqtisodiyoti va butunjahon globallashuvi sharoitlarida mutaxassislarga qo‘yiladigan muhim talabga aylanadi.

Ta’limini modernizatsiyalash konsepsiyasiga asosan amaliy natijaga erishishga yo‘naltirilgan chet tilini kommunikativ o‘qitish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. “Chet tili” fani oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartlariga majburiy fanlar qatorida kiritilgan. Uning maqsadi bo‘lajak mutaxassis – fan, texnika, ishlab chiqarish, ta’lim sohasida chet tilidagi kasbiy muloqot ishtirokchisining chet tiliga oid kompetentliklarni shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Talabalarning chet tiliga oid kompetentliklarni egallashlari chet tilida muloqotni o‘zlashtirishlaridan iborat bo‘lib, undan foydalanish kasbiy ehtiyojlarni qondirish, shaxsiy ishga doir aloqalarni amalga oshirish, shuningdek, kelgusi kasbiy mustaqil ta’lim olish va o‘zini-o‘zi takomillashtirishga imkon beradi.

Mazkur holatda chet tiliga oid kompetentlik kasbiy kompetentliklarning asosiy kompetenliklari qismi hisoblanadi va bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlashning nisbatan mustaqil natijasi sifatida tushuniladi hamda chet tilini funksional darajada egallashni anglatadi.

Tadqiqotlar tahlili, tilni o‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishi muammolariga ko‘pgina milliy va xorijiy olimlarning ishlari bag‘ishlanganligini ko‘rsatdi (I.L. Bim, M.N. Vyatyutnev, N.I. Gez, P. Duaye, I.A. Zimnyaya, M. Kenal, E.I. Passov, D. Raven, S. Savinon, V.V. Safonova, Sveyn, D. Xayms va boshqalar).[2]

Ammo, ko‘pgina nashr ishlariga qaramay, mazkur muammoning ko‘pgina jihatlari to‘liq o‘rganilmagan. Ular orasida quyidagilarni ajratish mumkin: “Chet tiliga oid kompetentlik” va “Chet tiliga oid kommunikativ kompetensiya” tushunchalarining aniq ta’riflanmaganligi, chet tiliga oid kompetentliklarning komponentli tarkibi, uni shakllantirish xususiyatlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlanmaganligidir.

Chet tiliga oid kommunikativ kompetensiyalar talqinining aniqlanmaganligi sabablariga mazkur tushunchaning ko‘p aspektliligini hamda mazkur atamani o‘zbek tiliga tarjimasi xususiyatlarini kiritish mumkin: “Communicative competence” ingliz ifodasi tadqiqotchilar tomonidan “Kommunikativ kompetensiya” va “Kommunikativ kompetentlik” sifatida talqin etiladi. Bundan tashqari, atama chegaralarining aniq emasligi ko‘pgina ta’riflar mavjudligiga olib keladi (2-jadval).

“Communicative competence” tushunchasi ta’riflarining qiyosiy tahlili

Muallif	“Communicative competence” tushunchasining talqini
Passov E.I.	Kommunikativ mukamallik to‘g‘risida fikr yuritadi.
Xollidey A.	Tushunchani nutqiy muloqotga ichki tayyorlik va qobiliyat sifatida ta’riflaydi.
Baxman L.F.	“Communicative competence” tushunchasi ostida kommunikativ tilga oid malakani nazarda tutadi.
Xomskiy A.N.	Tushuncha ostida nutqqa oid kompetentlik va kommunikativ savodxonlik, ijtimoiy-lingvistik kompetentlikni tushunadi.
Xayms D.	“Communicative competence” tushunchasini kommunikativ qobiliyatlar va kommunikativ malakalar sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha kommunikativ kompetentlik – bu insonning o‘zgaruvchan ijtimoiy vaziyatlarda tildan aniq va tez foydalanish qobiliyati hisoblanadi.
Goncharova N.L.	Tushunchaga muloqot texnikasini egallaganlikning muayyan darajasini, xulq-atvorning ma’lum me’yorlari va stereotiplarini o‘zlashtirish, o‘rgatish natijalarini kiritadi.
Zimnyaya I.A.	Insonning muloqotning kommunikativ faoliyat subyekti sifatida qatnashishga oid shakllangan qobiliyati to‘g‘risida ta’kidlaydi.

[2] Зимняя, И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе // И. А.Зимняя. – М.: Просвещение, 1991. -222 с.

Keltirilgan ta’riflar va qator tadqiqotlar (O.I. Matyash, M. Osborn, D. Pirson va boshqalar) tahlili kommunikativ kompetentliklar to‘g‘risida zamonaviy professionallik va XXI asrning inson-fuqaro-mutaxassisini tayyorlashning ajralmas natijasining asosi sifatida aytish imkonini beradi.

“Kommunikativ” va “Kompetentlik” atamalari birgalikda dastlab amerikalik tilshunos D. Xayms, rus adabiyotida esa I.A. Zimnyaya tomonidan qo‘llanilgan. Mazkur tushuncha D. Xayms tomonidan u davrdagi strukturaviy lingvistika nazariyasida (N. Xomskiy tomonidan taklif etilgan) mavjud bo‘lgan “Ideal kommunikant” va “Lingvistik kompetentlik” tushunchalarning muqobili sifatida ishlab chiqilgan. “Ideal kommunikant” tushunchasining mohiyati tilni to‘g‘ri, savodli, xatosiz qo‘llashdan iborat bo‘lgan.

D.Xayms “Ideal kommunikant” va “Lingvistik kompetentlik” tushunchalarining vaziyatli bog‘liqligi bilan yetarli emasligini ko‘rsatib “Kommunikativ kompetentlik” tushunchasini kiritgan. D. Xaymsning nuqtai nazariga ko‘ra, kommunikant nafaqat lingvistik kompetentlikka ega bo‘lishi kerak, balki u tilga oid hamjamiyat vakillari tomonidan u yoki bu til qanday qo‘llanilishini bilishi zarurdir. Muallifning g‘oyasiga asosan, to‘laqonli muloqot qilish uchun faqatgina grammatika valeksikani egallash yetarli emas, balki shu bilan birga ularni qo‘llashning ijtimoiy shart-sharoitlarini ham bilish kerak.[3]

Tadqiqotlarning tahlili, bugungi kunda chet tiliga oid kompetentlik, “Chet tiliga oid kompetensiya” va “Chet tiliga oid kommunikativ kompetentlik” tushunchalarining talqinida yagona fikrlar mavjud emasligi va ko‘pincha ular sinonimlar sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Shuningdek, ularning tuzilishiga oid yagona fikr ham mavjud emas. Barcha mualliflar ularning tuzilishining ko‘p komponentliligini tan olishda yagona fikrga keladilar.

Bu “Kommunikativ kompetentlik” tushunchasi – fanlararo tushuncha ekanligi bilan tushuntiriladi. U tilshunoslik, pedagogika, psixologiya, falsafa va boshqa fanlarning turli yo‘nalishlarining yutuqlarini aks ettiradi.

Talabalarning chet tiliga oid kompetentliklarni egallashlari chet tilida muloqotni o‘zlashirishlaridan iborat bo‘lib, u chet tilini kasbiy ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy ishga doir aloqalarni amalga oshirish, shuningdek, kelgusi kasbiy mustaqil ta’lim olish va o‘zini-o‘zi takomillashtirish, kasbiy vazifalarni hal etishda foydalanishga imkon beradi.

Davlat ta’lim standartlaridagi mavjud bo‘lgan chet tili bo‘yicha talabalarni tayyorlashga talablarning tahlili, ular birinchi navbatda, talabalarga bo‘lajak kasbiy faoliyatda hamda kundalik hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga ko‘maklashuvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Oliy kasbiy ta’lim davlat ta’lim standartlaridagi kompetensiyalar umummadaniy (umumiy) va kasbiy (maxsus) kompetensiyalarga bo‘linadi.

Oliy kasbiy ta’lim davlat ta’lim standartlaridagi kompetensiyalar va A.V. Xutorskoyning asosiy ta’limiy kompetensiyalarining qiyosiy-solishtirma tahlili *umumiy* va *maxsus kompetensiyalarning* birligiga asoslangan muhandislik ixtisosligidagi mutaxassisning chet tiliga oid kompetentliklari strukturasini ishlab chiqishga imkon berdi.[4]

Umumiy kompetensiyalarga qadriyatli-mazmunli va umummadaniy kompetensiyalarni kiritamiz. Maxsus kompetensiyalarga kasbiy kompetensiyalar kiritilib, ularning tarkibida o‘quv-bilishga oid, axborot va kommunikativ kompetensiyalarni ajratish mumkin.

Chet tiliga oid kompetentliklar tashkil etuvchilarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. *Qadriyatli-mazmunli kompetensiya.* Talabani kasbiy va shaxsiy o‘zini-o‘zi aniq-

[3] Hymes, D. On Communicative Competence // D. Hymes; in J.B. Pride and J. Holmes (eds.). - New York: Harmondsworth: Penguin, 1972. - P. 269, 208. Keen, K. Competence: What is it and how can it be developed? // I.J. Lowyck, P.De Potter, and J. Elen (Eds.) - Brussels: IBM Education Center, 1992. - P. 111.

[4] Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы // А.В. Хуторской // Народное образование. - 2003. -№ 2. - С. 58.

lash vaziyatiga kirishish darajasi bilan bog‘liq. O‘qituvchining vazifasi – talabaning chet tilini egallashda o‘zi uchun yangi rolni, maqsadli ustanovkalarni nafaqat ta’lim jarayonida, balki bo‘lajak kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun anglashida pedagogik yordam ko‘rsatishdir.

2. *Umummadaniy kompetensiya.* Talabalarning ko‘p madaniyatli dunyoga, milliy madaniyatlar xususiyatlariga, hayotning ma’naviy-axloqiy asoslariga, oilaviy, ijtimoiy, ijtimoiy hodisalar va an’analarga, kasbiy o‘sish strategiyalariga va boshqalarga motivli qiziqishi bilan bog‘liq va bunga yo‘nalgan o‘quv vaziyatlarida shaklllanadi.

3. *Kasbiy kompetensiyalar.* O‘quv-bilishga oid kompetensiya talabaning o‘zini-o‘zi shakllantiradigan faoliyat sub’ekti sifatlarini egallashi, o‘z sub’ektiv faolligini maqsadni belgilash, tahlil qilish, refleksiya, o‘quv-bilishga oid faoliyatini o‘zini-o‘zi baholashi texnologiyalarini o‘zlashtirishida muammolarni yechishning evristik metodlarini amalga oshirishidan tashkil topadi va mos o‘quv vaziyatlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

4. *Axborot kompetensiyasi* talabaning zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashidan iborat.

5. *Kommunikativ kompetensiya* talabaning kasbiy muvaffaqiyatliligiga ko‘maklashuvchi uning ijtimoiy o‘zaro munosabatning samarali usullarini egallashidan iborat.

Shunga ko‘ra, muhandislik ixtisosligidagi mutaxassisning chet tiliga oid kompetentliklari, bizning fikrimizcha, umumiy (qadriyatli-mazmunli, umumadaniy) va maxsus (kasbiy)kompetensiyalar majmuidan tashkil topadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarga qo‘yiladigan, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida va globallashuv sharoitlarida “dunyoning mas’uliyatli fuqarosi” bo‘lish uchun kommunikatsiyalarni o‘rganish muhim talabini belgilovchi kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi doirasidagi tadqiqotchilik pozitsiyalarini, shuningdek, xalqaro aloqalarning rivojlanish jarayonini, ularning sifatli o‘zgarishlari, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining baynalmilallashuvining tahlili “chet tiliga oid kompetentlik” tushunchasini kasbiy kompetentliklar komponenti va kommunikativ kompetentliklar turlari, uning mualliflik mazmuni va strukturasining ta’riflari sifatida ajratishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosaga kelish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Международный гуманитарный фонд “Знание,”– 1996. –312 .

2. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы // А. В. Хуторской // Народное образование. – 2003. - № 2. – С. 58.

3.Зимняя, И. А. Психология обучения иностранным языкам в школе / И. А.Зимняя. – М.: Просвещение, 1991. – С.222.

4. Hymes, D. On Communicative Competence / D. Hymes; in J.B. Pride and J. Holmes (eds.). - New York: Harmondsworth: Penguin, 1972. - P. 269, 208. Keen, K. Competence: What is it and how can it be developed? / I.J. Lowyck, P.De Potter, and J. Elen (Eds.) - Brussels:

5.Вятютнев, М. Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах / М. Н. Вятютнев // Русский язык за рубежом. - 1977. – № 6.– С.38.

Marvarid NURBAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika unversiteti Shahrisabz filiali
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI

Аннотация

Maqola odob-axloq masalalariga qaratilgan bo'lib, unda dinimiz manbalari hamda buyuk mutafakkirlarimizning shu boradagi qimmatli qarashlari bilan boyitilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Odob, axloq, kasbiy faoliyat, fazilat, oila, farzand, mehr, mutafakkir, rivojlantirish.

В статье рассматриваются вопросы морали, обогащенные источниками нашей религии и ценными взглядами наших великих мыслителей.

Ключевые слова. Мораль, этика, человек, качества, образование и воспитание, семья, ребёнок, доброта.

The article considers moral issues enriched by the sources of our religion and the valuable views of our great thinkers.

Key words. Morality, ethics, man, quality, education and upbringing, family, child, kindness.

Jamiyatimizda yashayotgan barcha insonlarning sharafi, obro'si yaxshi xulq bilan ortadi, yomon xulq bilan kamayadi va oxir-oqibat xalq nazaridan qoladi. Oliy xulqli insonlar haqida xalqimiz insoniylik odobi zo'r, axloqli inson, yaxshi fazilatli kishi kabi iboralar bilan alqaydi, baho beradi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida insoniylikning asl nishonasini odamlarning bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi va doimiy ezgulikka intilishida namoyon bo'ladi, deb biladi. U bunday yozadi:

Senga kim qilarkan odamgarchilik,
Javob ber sen unga qilib yaxshilik.
Vafoga vafodur kishilik haqqi,
Vafo qil, odil bo'l, nom ol mangulik.

Insoniylikning tub mohiyati aziz inson zotini hurmat qilish, baxt iqboli yo'lida doimo fidokorlik bilan kurashish va g'amxo'rlik ko'rsatish, bobolarimizning o'tmishda jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissalarini o'rganish, mutafakkir va atoqli kishilarning odamlarni baxt va iqboli haqida g'amxo'rligini yoshlarimizga tushuntirishdan iborat. Odoblar juda ko'p, biroq ularning eng asosiylaridan xabardor bo'lib o'zida shakllantirgan inson, albatta, xalq uchun ham o'z oilasi va do'stlari uchun ham foydali shaxs darajasiga yuksaladi.

Odob insonni ma’naviy kamolotga yetaklaydi. Odob bolalikdan boshlanadi va shakllanib boradi. Yosh ulg‘aygan sari odob darajasi kengayib boradi. Odob kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo‘lib, uni barcha xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go‘zalligi ortadi.

Islom dinida belgilangan odob mezonlari umuminsoniy odob mezonlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

“Adab” arabcha so‘z bo‘lib, odob-axloq ma’nolarini anglatadi. Odob odamning ma’naviy yetukligi, ma’naviylik mezonidir.

Odob deganda, biz tarbiya degan tushunchani anglaymiz. Odobli kishi el o‘rtasida e’zozlidir. Odob insoniy fazilat, kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatdir. U ta’lim-tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig‘i hisoblangan odob barcha fazilatlarning sharmi va hikmatidir. Dono xalqimizning “Adab bozorda sotilmas”, “Odob aqlli kishi uchun ulug‘lik va fazilatdir”, “Odobi yo‘qning aqli yo‘q”, “Odobsiz aql – aqlsiz odob yo‘q” naqllari bejiz aytilmagan. Shunday ekan, aql va odob bir-biriga bog‘liq. Insonda har ikkovi mavjud bo‘lgandagina, u kamol topadi. “Hikmatnoma”da “Adab ikki xildir: hikmat adabi va xizmat adabi. Hikmat adabi poklik va tugri yo‘lga yetaklaydi, xizmat adabi esa badavlatlik va obro‘ga yetkazadi” deb bejiz aytilmagan.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ifodalangan Bobur, Mohimbegim, Gulbadanlarning oilada odob bilan qurgan suhbatlarini tasavvur qilaylik.

Boburning 5 yoshli qizi “Gulbadan odob bilan bosh chayqadi – u podshoh otasining oldida ovqat chaynab o‘tirishdan iymanar edi, lekin dadasining zar qo‘shib to‘qilgan qimmatbaho libosidagi oltin tugmalar uni juda qiziqtirib qo‘ydi…”.

Bobur kamarga osilgan qindan kichkina qalantarosh oldi-yu, o‘sha tugmaning ipidan qirqib olib qizchasiga berdi:

− Lekin yo‘qotma, bu qush – Humo. Ilohim senga baxt keltirsin.

Gulbadan quvonib va hayajonlanib:

− “Rahmat, hazrati… – dedi-yu, lekin jumlaning oxirini uncha kelishtirolmadi…”. Gulbadan keyin Mohimbegim o‘rgatgan she’rlarini o‘qidi. “Qo‘lchalari bilan otasining bo‘ynidan quchdi – “Otajon!”– deb uning yonog‘idan o‘pdi. Bobur ko‘pdan beri his qilmagan bolalarcha bir poklik va ma’sumlik borligiga go‘yo nur bo‘lib taraldi”. Bu ota va qiz o‘rtasidagi odobni, mehrni ko‘rish mumkin. Ayniqsa, qizchaning odob-axlokli bo‘lib o‘sayotganligi ularning suhbatidan ko‘rinib turibdi. Bobur faqat o‘z farzandlari bilangina emas, balki umr yo‘ldoshi Mohinbegim bilan ham samimiy mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lganligini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin.

Bobur: “Mohim, siz mening benazir malagimsiz… Men shoh bo‘lsam ham ulug‘ qalbingiz o‘trusida qulmen!… desa, Mohim erining qulog‘iga: “Siz mening ko‘z ochib ko‘rgan yagona yorimsiz, sochingizdan tirnog‘ingizgacha butun borlig‘ingiz menga jonimdan ham aziz, endi sizni boshqa hech kimga bermasmen!” deydi.

Bu parchadan ko‘rinib turibdiki, Bobur Mohimbegimni doimo hurmat qilgan. Uning ko‘nglini ranjitmagan, maslahatlashib ish tutgan. Xotini va farzandlariga ochiq yuz va shirin so‘zlik bilan muomala qilgan. Qadim-qadimdan oila boshlig‘ining topganini behuda yerlarga emas, faqat oilasining ehtiyoji uchun sarf qilish, xotinining ota-onasini, aka-uka va qarindosh-urug‘larini hurmatlash, ular bilan aloqasini uzmaslik kabi milliy urf-odatlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Erkak doimo oilasini maishiy jihatdan tanglikda qoldirmasligi lozim. U oila a’zolarini moddiy va ma’naviy jihatdan ta’minlashi zarur. Oilaning totuv-baxtli hayot kechirishida er-xotinning bir-biriga sadoqatli bo‘lishida, farzandlarning kamol topishida ayol odobi

ham muhimdir. Yuqoridagi Bobur bilan Mohimbegim haqidagi misollardan ma’lumki, Mohimbegim aqlli, nomusli ayol edi. U erining shodlik va qayg‘usiga barobar sherikdir.

Boburni doimo shirinsuz, xushmuomala bilan qarshi oladi. U uy yumushlarini ham bolalar tarbiyasini ham o‘z vaqtida bajaradi. Eri va bolalari bilan birga o‘tirib, o‘ynab-kuladi. Hech vaqt qovog‘ini solmaydi. Erining ko‘nglini ranjitmaydi Mohimbegim hamisha muloyimlik bilan ish tutadi.

Er-xotinning yaxshi odobi oiladagi farzandlarga ham ta’sir qiladi. Natijada bolalarda vatanparvarlik, fidokorlik, sadoqatlilik, mardlik, jasurlik, chidamlilik, vazminlik, qadr-qimmat kabi xislatlar mujassamlashadi. Odobli bo‘lish, el o‘rtasida odob saqlash, nasihatlarga amal qilish, insof va imonli bo‘lishning asosiy omillaridir. Odob ilm egallash, badiiy, axloqiy, she’riy asarlarni mutolaa qilishdan shakllanadi. Odobli kishi yaxshi ishlarni odat qiladi. Atrofdagi odamlarni, do‘stlarini, ota-onalarini hurmatlaydi. Odob-axloqli kishi sof vijdonli bo‘lib, og‘zidan hech qachon yomon so‘z chiqmaydi. Demak, o‘z tilini odob bilan qurollantirgan, qo‘lini esa to‘g‘rilikka odatlantirgan kishigina kamolotga yetishi mumkin.

Dunyoda odamlarga g‘amxo‘r, mehribon bo‘lib yaxshi nom qoldirish ajoyib saodat ekanligini ulug‘ Navoiy mana bunday ta’riflagan edi.

Bu gulshan ichra yo‘qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bilan ot.

Odatda, bunday odamlar kishilarga mehribon, xushfe’l, oqko‘ngil bo‘ladilar.

Yaxshilik qilgan odam murodiga yetadi. Yaxshilik orqasidan o‘ziga do‘st-birodar orttiradi. Hayoti zavqli va mazmunli o‘tadi. Yaxshi-yomon kuning do‘stlar bilan deganlaridek, odamning kuniga odam yaraydi. Yaxshilik beminnat bo‘lgani yaxshi. Qilgan ishini minnat qilib yurguvchini chayqovchidan farqi yo‘q. Buyuk Navoiy aytadi:

Ey Navoiy, olam ahlida ta’masiz yo‘q kishi,
Har kishida bu sifat yo‘qtur anga bo‘lg‘ay sharaf.

Inson hamisha yaxshi niyat, orzu-havas bilan yashaydi. Bular ilm olish, hunar egasi bo‘lish, jamiyatga va xalqqa naf keltirish, hayotga o‘zining muayyan o‘rnini topish singarilardir. U shu narsalarni amalga oshirish uchun hamisha yaxshi o‘qishi, odob-axloqli bo‘lishi, mehnatni sevishi, jamoat ishlarida faollik ko‘rsatishi doimo el-yurtga, do‘st-birodarlarga, qo‘ni- qo‘shnilarga halol va beminnat xizmat qilishi, qandaydir naf keltirishini o‘ylashi va buni o‘ziga muqaddas burch hisoblashi kerak. Bunday kishilar doim xalq tomonidan e’zozlanib, ardoqlanadi.

Ota-bobolarimiz va momolarimiz azal-azaldan yoshlarni odobli, yaxshi xulqli, mehnatsevar, to‘g‘ri so‘z, rostgo‘y, kamtar, insofli, diyonatli, or-nomusli, o‘z tug‘ishganlariga mehr-muhabbatli, bir so‘z bilan aytganda komil kishilar qilib tarbiyalashga kuch-g‘ayratlari, tajribalari va aql-idroklarini ayamay ishga solib alohida diqqatni qaratganlar.

Yuqorida keltirilgan har bir insoniy xislatlar, insonning insoniylik fazilatlari bo‘lib, ularning mazmun-mohiyatlarini to‘g‘ri anglash katta ahamiyatga ega. Chunki fazilatlarni o‘zida shakllantirgan har qanday inson xushxulq yoki odobli inson deb tan olinadi.

Ayrim fazilatlar yoki insoniylik odoblarini sharhlaymiz. Masalan, Alisher Navoiy xushfe’llik, shirinso‘zlikni ulug‘laydi. U yoshlarga nasihat qilib, shirinso‘zlik el ichra hurmatni oshirishini, noo‘rin va yomon so‘z esa xalq ko‘ngliga qattiq tegib beobro‘ qilishini ta’kidlaydi:

Har kishi chuchuk so‘z elga izhor aylar,
Har nechaki ag‘yor durur, yor aylar.

Sir saqlash ham odobdandir. Saqlanmagan so‘z o‘limga mahkum qilinishi “Qutadg‘u bilig”da Yusuf Xos Hojib tomonidan bunday ta’kidlanadi:

Ko‘ngil sirin asra, chiqarma tilga,
Chiqishi cho‘zilgan o‘ninchi yilga.

Donolar shirinsuxanlikning eng yaxshi alomatlaridan biri rost gapirishdir, kishi so‘ziga yolg‘onni ishlatmasligi, rostlikni o‘ziga bezak qilib olishi lozim, dedilar. Ular yoshlarning tili bilan dili bir bo‘lishiga chaqiradi:

So‘z aytsak rostlikni aylagil odat,
Qidirma rostlikdan yaxshiroq ziynat.
Rostlikdan yaxshiroq ziynatni qachon,
Qayda ko‘rdi ekan biror bilimdon.

Tili zaharlar ham o‘z boshiga kulfat keltiradi ham xalq ko‘ngliga jarohat yetkazadi. Shuning uchun shirinso‘z har bir so‘zni o‘z vaqtida so‘zlash, so‘zlashdan oldin puxta o‘ylab ko‘rishi, yolg‘on gapirmaslik lozim. Rostlik va to‘g‘ri so‘zlashda doim Shayx Sa’diyning quyidagi misralari e’tiborga molikdir.

Kishiga ki, bo‘lsa zaboni durug‘,
Charog‘i dili oni bo‘lmas yorug‘.
Yolg‘on odamni qilur sharmsor,
Yolg‘on odamni qilur be’ikor.

Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Bularning biri, xushxulq, ikkinchisi, ezgu so‘zdir. Yer yuzida insondan qoladigan meros – yaxshi so‘zdir. Uning o‘zi olamdan o‘tib ketadi, shirin so‘zi esa mangu qoladi. Yusuf Xos Hojib:

“So‘zingni tiyib yur, boshing yorilmasin, tilingni tiyib tur, tishing sinmasin”, deb bejiz aytmagan.

Insoniy fazilatlarning yana biri mehnatsevarlikdir. Zeroki, inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiradigan, farovonlik baxsh etadigan yagona narsa bu mehnatdir.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug‘lab kelishgan, o‘zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo‘lib qolgan oltin xazina ilmiy badiiy kitoblar, turli xildagi san’at asarlari, me’morchilik obidalari va boshqalar ana shu mehnatning mahsulidir. Ulug‘ alloma Navoiy mehnatni saodatning kaliti deb biladi:

Umrni zoe etma, mehnat qil,
Mehnatni saodatning kaliti bil.

Dono xalqimiz aytadi: “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lur chiroylik”.

Demak, mehnat bilan topilgan mol-dunyo va boshqa yashashga oid jihozlar mehnat qiluvchi uchun aziz va qadrlidir. Bekorchi sarf-xarajat va manmanlik bilan isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Insonning eng yuksak fazilati bo‘lgan kamtarlik e’zozlansa, takabburlik, manmanlikni pastkash deb hisoblaydi.

Bobokalonimiz hazrat Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiy juda kamtar inson bo‘lganlar. Alloma o‘z farzandiga nasihat qilibdur:

Takabburlik ziyondir undan andisha qilg‘il,
Muloyim bo‘l odamga kamtarlik pesha qilg‘il.
Ko‘rdingmi u boshoqni bosh ko‘tardi ne bo‘ldi,
O‘roqni zarbi bilan yerga yiqildi, so‘ldi.

Kamtarlik to‘g‘risida qahramon adibimiz O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov bunday deydi:

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.

Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l hatto bir qadam,
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun,
O‘par doim peshonasidan.

Insoniylik odoblarining ayrimlaridan xabardor bo‘ldik, lekin bu odoblarning barchasini bilib oldik, degan so‘z emas. Ayniqsa, ming yillar davomida shakllanib, sayqallanib xalq durdonalariga aylangan odob turlari bugungi yoshlarimizning tarbiyasi uchun havodek zarurdir.

Masalan, yaxshi so‘z va so‘zlash odobi, kattaga hurmat, kichikka izzat azaliy odatimiz, mehmon kutish va mehmonga borish odoblari, mehnatsevarlik, kamtarlik, bardoshlilik, sabr-qanoatli bo‘lishga doir ajdodlarimizning o‘gitlari, yaxshi bilan do‘st tutinish, yomon ishlardan hazar qilish, xalq va yor u birodarlarga ezgulik qilishga doir da’vatlarning barchasi komil inson tarbiyasiga daxldordir.

Hadisi muborakda “Kimki ota-onasining roziligini olgan bo‘lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi”, deb keltirilgani bejiz emas. “Kim nima eksa, shuni o‘radi”, degan naql mavjud. Shu bois Ahmad Donish:

Sen otangga harna qilding yaxshilik,
Kut bolangdan yaxshilikka yaxshilik, desa,

Abdulla Avloniy esa:

Tug‘ub tashlov bilan bo‘lmas bola, bo‘lgay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa bo‘lur ul rahnamo sizga.
Temurchilar bolasi tarbiyat topsa bo‘lur olim,
Buzulsa xulqi Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lguchi zolim,

deb yozadi.

Bir suz bilan aytganda, xalqimizning azaliy odati bolalarni odobli qilib tarbiyalash ekanligini unutmasligimiz lozim. Buning uchun sabr-qanoatli bo‘lib, hayotning achchiq-chuchugiga bardosh beradigan, sadoqat bilan oila tutadigan odamlar kerak. Ana shunda farzandlarini aqlli, axloq odobli qilib tarbiyalaydi. Sabrli kishida mehr-muruvvat, insof-diyonat mavjud bo‘ladi. Boyliklarga uchmaydi, turli-tuman so‘zlarga bardosh bilan chidaydi. Insonning fazilati ham ana shundadir.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslaymiz. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib – “Qutadgu bilig”. –T.: Yulduzcha, 1990.
2. Donishmandlar tarbiya haqida. – T.: O‘qituvchi.
3. O. To‘raeva. M. Turopova. Odobnoma.
4. Ulfat Mahkamov. Odob-axloq saboqlari.

Сабина СМИРНОВА,
докторант Ташкентского педагогического
университета им. Низами

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА

Аннотация

Maqolada "Metodologik kompetentlik" tushunchasining mohiyati yoritilgan. Muallif yetakchi mutaxassislarning ilmiy izlanishlarini chuqur tahlil qilgan holda malakali pedagog tayyorlash tizimida tanqidiy fikrlashning samarali metodlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning pedagog uchun metodologik kompetentlik shakllanishining ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Tanqidiy fikrlash, metodologik kompetentlik, refleksiya, tahlil va baholash tizimi, moslashuvchan tizim.

В статье освещена суть понятия "Методологическая компетентность". Автор разработал эффективные методы критического мышления в системе подготовки квалифицированного педагога с углубленным анализом научных исследований ведущих специалистов. Также обосновано значение формирования критического мышления для педагога методологической компетентности.

Ключевые слова. Критическое мышление, методологическая компетентность, рефлексия, система анализа и оценки, гибкая система.

The article highlights the essence of the concept of "Methodological competence". The author has developed effective methods of critical thinking in the training system of a qualified teacher with an in-depth analysis of the scientific research of leading specialists. It also substantiates the importance of the formation of critical thinking for the teacher of methodological competence.

Keywords. Critical thinking, methodological competence, reflection, analysis and evaluation system, flexible system.

В современных условиях развития общества педагог остается основной фигурой, определяющей реформирование и совершенствованиеобразования. А потому нынешнийпреподаватель должен обладать такими личностными качествами, как принятие инноваций, позитивное отношение к прогрессивным изменениям, происходящим в образовательной и своей профессиональной сферах. Эти требования определяют тенденции изменения профессиональных функций учителя. Сегодняпедагог должен не только передавать свои знания и опыт студентам, но и инициировать их самостоятельный поиск и творческое освоение знаний. Только в этом случае преподаватель сможет привить обучающимся навыки правильного отбора учебного материала и грамотной работы с огромным потоком профессиональной информации. Кроме того, перед педагогом также стоит задача создания оптимальных образовательных условий

для каждого конкретного обучающегося, которые способствуют самоактуализации и самореализации личности. В связи с этим сегодня на новый уровень должна быть выведена методологическая компетентностьпреподавателя как важнейшая составляющая его профессиональной культуры.

Под методологической компетентностью преподавателя понимается совокупность знаний, умений, навыков в области преподаваемого предмета, а также владение различными методикамиобучения.Кроме того, важнейшим элементом методологической компетентности является умение грамотно выбирать из всего многообразия имеющихсяметодов, приёмов и форм обученияварианты, подходящие под определенную учебную ситуацию,или же разрабатывать свою собственную технологию, опираясь на поставленные цели и ожидаемые результаты.

Развитие методологической компетентности активизирует творческий потенциал личности, поднимает ее деятельность на более высокую ступень, обеспечивает активное деятельностное восхождение человека в профессиональную среду.[1] Соответственно, для того, чтобы совершенствовать свою методологическую культуру, педагог должен постоянно проводить анализ своей собственной деятельности с разных позиций. То есть здесь невозможно обойтись без рефлексии.А рефлексия, в свою очередь, – это проявление критичности ума педагога. Таким образом, приходим к выводу о том, что одной из составляющих методологической компетентности является критическое мышление.

Критическое мышление, по мнению исследователья Л.Парфентьевой, есть “Такой способ мышления, при котором человек ставит под сомнение поступающую информацию и даже собственные убеждения”. Л. Парфентьева убеждена, что это очень полезный навык, потому как “Вопрос “А, может, всё работает вовсе не так, как мы предполагаем?” помогает развитию”.[2]

Термин “Критическое мышление” достаточно широко используется в педагогике, общественной и повседневной жизни. Разные люди по-разному понимают критическое мышление, например, некоторые приписывают ему даже негативный оттенок критиканства и нигилизма. Между тем, критика – одна из важнейших способностей человека, предохраняющая его от последствий заблуждений и ошибок.

Проанализировав множество определений, можно сделать вывод о том, что критическое мышление – это активный процесс рассмотрения идей с многочисленных точек зрения, включая их сопоставление и сравнение с другими идеями.

Как же на практике работает критическое мышление? И какими навыками должен овладеть педагог, чтобы в полной мере использовать возможности критического мышления в ходе учебного процесса?

“Критическое мышление работает на многих уровнях, не довольствуясь фактами, а вскрывая причины и следствия этих фактов. Критическое мышление предполагает вежливый скептицизм, сомнение в общепринятых истинах, выработку точки зрения по определенному вопросу, способность отстоять ее логическими доводами. Критическое мышление – это не отдельный навык, а сочетание

[1] Бокарева Г., Кикоть Е. Исследовательская готовность как цель процесса развития учащихся // Вестник высшей школы. –М., 2002. – №6. – С.52-54.

[2] Парфентьева Л. Работа будущего: 10 навыков, которые будут востребованы в 2020 году // Журнал SNCMedia. – 2016. [Электронный ресурс]. URL: http://www.sncmedia.ru/career/rabota-budushchego-10-navykov/

многих умений".[3]Следуя мнению авторов технологии РКМЧП ("Развитие критического мышления через чтение и письмо") Чарльза Темпла, КуртаМередита и ДжиннСтил, приходим к тому, что основным элементом критического мышления является способность ставить всё под сомнение, стараясь при этом выйти за рамки стандартных решений. Это значит, что каждый раз при подготовке к занятиям критически мыслящий педагог будет проходить через следующие шаги.

1. *Анализ и оценка.*Навык анализа предполагает умение разложить на составные части проведенные ранее занятиядлятого, чтобы найти недостатки ив дальнейшем их устранить.Однако, прежде чем делать какие-либо выводы, проблему нужно оценить, рассмотреть с разных сторон. Это поможет найти взвешенное, обдуманное решение.

2. *Поиск информации и исследование.*Личной оценки не всегда достаточно,поэтому прежде чем начать искать решение проблемы, нужно собрать и обработать информацию.В наше время умения сортировать,устанавливать, проверять, объяснять и связывать факты, выделять причинно-следственные связи, структурировать, систематизировать, упорядочивать разрозненные данные, используя графические организаторы, и извлекать из них пользу – жизненно важные навыки.

3. *Вопросы.* Именно вопросы делают мышление критическим. Ничего нельзя принимать на веру, необходимо задавать вопросы себе и, если требуется, окружающим на каждом этапе решения проблемы. Ведь вопрос – это звено, связывающее познанное с непознанным, мост, перекинутый от старого знания к новому, могучий стимулятор развития знания.Вопросы, побуждающие размышлять, думать, реконструировать, воображать, творить или тщательно взвешивать, повышают уровень мышления и учат тому,что мышление имеет ценность и что можно внести свой вклад в общее понимание и представление.[4]

4. *Гибкость и дифференциация*. После того, как проблема найдена, проанализирована и изучена, необходимо выбрать оптимальное её решение. Однако, стоит понимать разницу между идеальным и подходящим решением, ведь это далеко не всегда одно и то же. То есть, например, при выборе того или иного метода обучения, нужно учитывать не только свои личные предпочтения, но в первую очередь максимально ориентироваться на возможности и запросы обучаемых. А для этого пригодится следующий навык.

5. *Прогнозирование.* Чтобы грамотно разработать план действий, необходимы навыки прогнозирования исхода или нескольких возможных исходов ситуации, основываясь на анализе предыдущего опыта, своего и чужого, а также любой доступной информации.

После прохождения всех описанных шагов педагог снова должен вернуться к первому пункту – анализу. И это подводит нас к мысли о том, что критически мыслящий педагог никогда не будет останавливаться на достигнутом. Его способность критически оценивать ситуации позволит быть более деятельным и не застревать на неработающих схемах и подходах.

Также стоит отметить тот факт, что процесс формирования критического

[3] Темпл Ч., Стил Дж., Мередит К. Критическое мышление – углубленная методика. Пос. 4. – М.: Изд-во Ин-та. Открытое общество, 1998.

[4] Стил Дж. Дальнейшие методы, способствующие развитию критического мышления / СтилДж.,Мередис К., Темпл Ч. – Бишкек, 1998. – С. 22.

мышления у преподавателя должен являться неотъемлемой составной частью его непрерывного образования. То есть уже с первых дней обучения этой профессии будущий педагог должен начать овладевать всеми видами деятельности, направленными на приобретение навыков критического мышления. А кто его этому обучит? Конечно же, только тот педагог, который сам способен критически размышлять. Исходя из этого, делаем вывод о том, что основной признак критического мышления – это цикличность. Объясняется это тем, что преподаватель, обучая будущих педагогов и используя при этом технологию развития критического мышления, развивает не только навыки студентов, но и совершенствует свои собственные.

В заключение следует сказать, что критическое мышление – это не только обязательная компетенция личности современного педагога. Навыки критического мышления необходимы всем для того, чтобы умело подбирать способы поиска и обращения с информацией, которые помогут правильно оценить чужие утверждения и аргументированно отстаивать свою позицию по отношению к разным сферам жизни.

Использованная литература:

1. Бокарева Г., Кикоть Е. Исследовательская готовность как цель процесса развития учащихся // Вестник высшей школы. – М., 2002. – №6. – С.52-54.

2. Вострикова Н.М. Критическое мышление как психолого-педагогический феномен компетентностного подхода // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 4.

3. Парфентьева Л. Работа будущего: 10 навыков, которые будут востребованы в 2020 году // Журнал SNCMedia. – 2016.

4. Стил Дж. Дальнейшие методы, способствующие развитию критического мышления // Стил Дж., Мередис К., Темпл Ч. – Бишкек, 1998.

5. Темпл Ч., Стил Дж., Мередит К. Критическое мышление – углубленная методика. Пос. 4. – М.: Изд-во Ин-та. Открытое общество, 1998.

Шоира УРАЗМЕТОВА,
преподователь Ургенческого филиала
технического университета информационных технологий

ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХМЕТОДОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ “ДИСКРЕТНОЙ МАТЕМАТИКИ” В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Аннотация

Maqolada “Diskret matematikani” o‘qitishning asosiy metodlari, qiyosiy xususiyatlari va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Muhandislik-texnika yo‘nalishlari talabalari uchun “Diskret matematika” kursini o‘rganishda faol va interaktiv usullardan foydalanish misollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Oliy maktab didaktikasi, didaktik tamoyil, kasbiyyo‘nalish, o‘qitish, o‘zaro aloqalar, vakolatli faoliyat, yondashuv, passiv, faol, interaktiv, o‘qitishusullari, tadqiqot ishlari.

В статье представлены основные методы преподавания “Дискретной математики”, сравнительные особенности и целесообразность их использования. Рассмотрены примеры использования активных и интерактивных методов при изучении курса “Дискретная математика” для студентов инженерно-технических направлений.

Ключевые слова. Дидактика высшей школы, дидактические принципы, профессиональная направленность, обучение, межпредметные связи, компетентно-деятельностный подход, пассивные, активные, интерактивные, методы обучения, исследовательская работа.

The article presents the basic teaching methods of “Discrete Mathematics”, comparative features and the appropriateness of their use. Examples of the use of active and interactive methods in the study of the course "Discrete mathematics" for students of engineering areas are considered.

Key words. Higher school didactics, didactic principles, professional orientation, training, intersubject communications, competence-based approach, passive, active, interactive, teaching methods, research works.

Дискретная математика –это область математики, занимающаяся изучением свойств структур конечного характера, которые возникают как внутри математики, так и в её приложениях. К числу таких конечных структур могут быть отнесены, конечные группы, конечные графы, а также некоторые математические модели преобразователей информации, конечные автоматы, машина Тьюринга и т.п.

История развития дискретной математики уходит своими корнями в древность, где уже тогда были известны комбинаторно-логические задачи, решение которых происходило путем перебора комбинаций дискретных объектов и логического анализа возникающих вариантов.

Начало развития дискретной математики относят к XVII в. и связывают с появлением работ Л. Эйлера в области комбинаторного анализа и теории графов и Я. Бернулли по комбинаторной теории вероятностей. Огромную роль в развитии идеологии дискретной математики сыграл Г.В. Лейбниц. В XIX веке в области дискретной математики работали такие математики как Ж.Л. Лагранж, А. Кэли, Дж. Буль, К. Жордан и другие.

Начиная с середины XX века, в жизнь современного человека бурно вошли информационные системы. В начале своего развития это были кибернетические системы, затем, системы с интеллектуальными свойствами, определяющими в которых были информационно-логические, дискретные процессы решения различных задач.

Развитие высоких технологий в нашем современном мире является основой нашей жизни, что является предпосылкой и причиной потребности высококвалифицированных специалистов в области техники и компьютерной технологии. Развитие высоких технологий требует от специалистов этого профиля проявление не только профессиональных навыков, но и знания математических методов и приемов. Стремительное развитие техники требует от специалистов принятия быстрых и оптимальных решений, но многие выпускники не готовы к решению нестандартных производственных задач.[1]

Раньше специалисту необходимо было соответствовать лишь рабочему месту и владение узкой информацией, которая необходима в определенной сфере. А обучение студентов сводилась к стандартным знаниям, умениям и навыкам, то “Компетенция” предполагает овладение знаниями не только общего рода, но и в определенной широкой области, способность и готовность успешно реализовать свои умения, повышая при этом качество и эффективность своей деятельности. Цели обучения могут быть достигнуты посредством оптимального сочетания содержательных и методических подходов к организации учебного процесса. Эффективное обучение невозможно без активной, заинтересованной учебной деятельности студентов.[2]

Таким образом, перед преподавателем ВУЗа становиться вопрос правильной организации учебного процесса. Рассмотрим основные методы обучения, которые разделяют на три группы: пассивные – это форма взаимодействия преподавателя и студента, в которой преподаватель является основным действующим лицом, управляющим ходом занятия, а студенты выступают в роли пассивных слушателей; активные – это форма взаимодействия студентов и преподавателя, при которой они взаимодействуют друг с другом на равных правах; интерактивные – такая форма взаимодействия педагога и учащихся, при которой создаются условия более активного взаимодействия учащихся не только с педагогом, но и друг с другом.[3]

Специфика активных методов обучения заключается, во-первых, в высокой степени вовлеченности обучаемых в учебно-воспитательный процесс, а также в наличии предпосылок для поэтапной оценки успешности и полноты усвоения изучаемого материала; во-вторых, в творческом характере занятий, в ярко выраженной направленности на развитие или приобретение профессиональных, интеллектуальных, поведенческих навыков и умений; в-третьих, в незаурядном потенциале достижения субъектной позиции в образовательном процессе.[4]Интерактивные методы обучения можно разделить на игровые и неигровые.

---

[1] Есенбекова А.Э., Джумахметова Л.К., Дусталиева С.М. Современный подход к преподаванию математики в вузе // Аспекты и тенденции педагогической науки: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, декабрь 2017 г.). –СПб.: Свое издательство, 2017. –С. 189-192.

[2] О.Г. Князева Проблема профессиональной направленности обучения математике в технических вузах. Вестник ТГПУ. 2009. Выпуск 9 (87).

[3] Е.М. Гусакова, Т.А. Гусакова. Применение активных методов при преподавании математики в вузе / Перспективы Науки и Образования. 2018. 1 (31)

[4] В.К.Михайлова. Использование активных методов обучения в формировании профессиональной компетентности сотрудников правоохранительных органов / Проблемы формирования и развития компетенций обучаемых в системе высшего профессионального образования: материалы межвузовской учебно-методической конференции / Под ред. А.Г. Парадникова Т.Ю. Морозовой. Омск: Омская академия МВД России. 2009.

Игровые интерактивные методы обучения: деловая учебная игра, ролевая игра, психологический тренинг.

Неигровые интерактивные методы обучения: анализ конкретных ситуаций, групповые дискуссии, методы кооперативного обучения. К числу активных иинтерактивных методов обучения относится интерактивная лекция. Интерактивная лекция объединяет в себе аспекты традиционной лекции и тренинговой игры. Этот формат лекции имеет смысл использовать в тех случаях, когда носителем уникальной информации являетесь Вы (или другой эксперт) и когда ресурс времени и других информационных источников ограничен (проблемная лекция, лекция-консультация, лекция – пресс-конференция, лекция вдвоем, лекция-беседа, лекция-дискуссия, лекция-провокация, лекция-исследование, лекция-визуализация и др.).Деловая игра имитирует различные аспекты человеческой активности и социального взаимодействия, снимает противоречия между абстрактным характером учебного предмета и реальным характером профессиональной деятельности.

Ролевая игра используется для решения комплексных задач усвоения нового материала, закрепления и развития творческих способностей, а также для формирования обще-учебных умений. Она дает возможность учащимся понять и изучить материал сразличных позиций.

Анализ конкретных учебных ситуаций – метод обучения, предназначенный для совершенствования навыков и получении опыта в следующих областях:

• выявление, отбор и решение проблем;

• работа с информацией-осмысление значения деталей, описанных в ситуации;

• анализ и синтез информации и аргументов;

• работа с предположениями и заключениями;

• оценка альтернатив; принятие решений;

• слушание и понимание других людей-навыки групповой работы. Компьютерная симуляция-ситуационный тренинг по аналогии с компьютерным тренажером.

В содержании обучения дискретной математике будущих инженеров выделяются две взаимосвязанные компоненты: содержательная и формальная, причем последняя строится на базе следующих двух формально-логических концепций: (а) использование аксиоматического метода для формализации содержательных теорий дискретной математики: (б) выделение определенных взаимосвязанных классов формальных языков, предназначенных для описания информационных процессов. Традиционно, аудиторная нагрузка разделяется на лекционные и практические занятия. Уже на первой лекции можно применить элементы проблемного обучения, направленные на решение нестандартных научно-учебных задач нестандартными методами.[5]

Проблемные ситуации будут способствовать также развитию мотивации обучения. Элементы теории кодирования (коды, исправляющие ошибки, коды Хэмминга) составляют прикладную тему, интенсивно развивающуюся в основном во второй половине двадцатого века. Можно легко найти как практические задачи, которые привели к созданию соответствующих теорий, так и связи этих теорий с такими важными разделами теоретической математики, как линейная алгебра, теория групп и теория полей. Большое место в курсе дискретной математики занимают элементы теории графов – одной из основных теоретических основ современной прикладной математики, которая отличается от традиционных разделов, связанных с понятиями предела и непрерывности.

Теория графов также интенсивно развивалась в основном в 20 веке. Тем не ме-

[5] Анненкова О. С. Лекция как метод обучения в профессиональном образовании/ О. С. Анненкова//Тезисы доклада международной научно-практической конф. «Гарантии качеств профессионального образования», Барнаул, 2010.– С.170-172.

нее, первые источники теории графов относятся к 18 веку, когда Леонард Эйлер первым поставил и решил знаменитую задачу о Семи Мостах Кёнигсберга. Эта проблема, которая до сих пор не утратила своей важности в качестве развлекательной задачи для способных учеников, приводит к важной концепции Эйлерова графа (граф, содержащий Эйлеров цикл, представляющий собой цикл в графе, который посещает каждое ребро ровно один раз). Можно также ввести другие понятия и результаты теории графов (например, гамильтоновы, плоские и двудольные графы), используя историю их возникновения из практических задач и даже из занимательных головоломок. Действительно, студентам дать самостоятельно решить задачу о семи кёнигсбергских мостах, ставшей впоследствии одной из классических задач теории графов. А в дальнейшем рассказать, как родоначальник теории графов Леонард Эйлер в 1736 году в одном из своих писем сформулировал и предложил решение данной задачи, тем самым положив начало теории графов. Подобный подход к подаче материала можно применять на таких темах как раскраска графов, гамильтонов граф, поиск маршрутов в графах (например, алгоритм Терри), определение ядра графа и т.д. По нашему мнению, не стоит оказываться и от традиционного типа чтения лекций – вводной, обобщающей, текущей.

Для активизации лекций следует также проводить:

- по предварительно сформулированным вопросам студентов лекции-консультации[6];
- лекции – диалоги, в которых содержание подается через серию вопросов, на которые студенты должны отвечать по ходу лекции;
- лекции-конференции, на которых студенты выступают с докладами на определенные темы. При составлении плана проведения и формировании содержания лекций необходимо помнить, что “лекция должна стать руководством к самостоятельной работе студента”[7].

Использованная литература:

1. Есенбекова А.Э., Джумахметова Л.К., Дусталиева С.М., Современный подход к преподаванию математики в вузе // Аспекты и тенденции педагогической науки: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, декабрь 2017 г.). –СПб.: Свое издательство, 2017.

2. ГусаковаЕ.М., ГусаковаТ.А. Применение активных методов при преподавании математики в вузе //Перспективы Науки и Образования. 2018.

3. Михайлова В.К. Использование активных методов обучения в формировании профессиональной компетентности сотрудников правоохранительных органов // Проблемы формирования и развития компетенций обучаемых в системе высшего профессионального образования: материалы межвузовской учебно-методической конференции // Под ред. ПарадниковаА.Г.,МорозоваТ.Ю.. –Омск.: Омская академия МВД России. 2009.

4. Анненкова О.С. Лекция как метод обучения в профессиональном образовании//АнненковаО.С.//Тезисы доклада международной научно-практической конф. “Гарантии качеств профессионального образования”, – Барнаул,2010.–С.170-172.

[6] Педагогика высшего образования [Электронный ресурс]. — Режим доступа: URL: http://www.pedagogics-book.ru/index.html (дата обращения: 24.03.2011).

[7] Веников В. А. Мировоззренческие и воспитательные аспекты преподавания технических дисциплин (на примере электротехники и электроэнергетики)/ В. А. Веников, Я. А. Шнейберг. – М.: Высшая школа, 1989. – 175 с.

Аскар Артиков,
преподаватель кафедры "Теории и методики футбола" Узбекского государственного университета физической культуры и спорта.
и.о.доцент,

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УПРАЖНЕНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЦЕЛЕВОЙ ТОЧНОСТИ ТЕХНИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация

Maqolada futbolchilarning texnik usullarni maqsadli aniqligini takomillashtirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Muallif, mashg'ulot jarayonida texnik usullarni maqsadli aniqligini takomillashtirishda o'yin talablariga mos keladigan dinamik, kinematik, fiziologik xarakterdagi mashqlarni bajarish zarurligi bo'yicha o'z fikrlarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Texnik usullarni aniqligi, yuqori malakali futbolchilar, mashg'ulot jarayoni, texnik tayyorgarlik nazorati.

В статье изучена эффективность использования специальных упражнений, направленных на улучшение целевой точности технических методов футболистов. Автор дал свое мнение о необходимости выполнения упражнений динамического, кинематического, физиологического характера, соответствующих требованиям игры, в процессе обучения совершенствуя целевую точность технических методов.

Ключевые слова. Точность технических приемов, футболисты высокой квалификации, тренировочный процесс, контроль технической подготовленности.

The article studies the effectiveness of using special exercises aimed at improving the target accuracy of technical methods of football players. The author gave his opinion about the need to perform exercises of a dynamic, kinematic, physiological nature, corresponding to the requirements of the game, improving the target accuracy of technical methods in the learning process.

Key words. The accuracy of techniques, highly qualified football players, the training process, technical readiness control.

В современном спорте вследствие повышения уровня физической подготовленности спортсменов и быстроты выполнения технических приемов точность движения рассматривается как один из основных критериев эффективности двигательной деятельности, и соответственно, как интегральный критерий освоенности технико-тактического мастерства в спортивных играх.[1]

Изучение и анализ футболистов Узбекистана в отборочных матчах чемпионата мира, лиги чемпионов Азиатской футбольной Конфедерации (АФК) и чемпионате

[1] Годик М.А., Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. – М., ФиС. 1980. – С. 136.

страны показал, что уровень целевой точности игровых приемов у них недостаточно высок. Одной из причин такого положения является несоответствие условий выполнения технических приемов в тренировочных занятиях требованиям современной игры. Низкая интенсивность упражнений, выполняемых в тренировке, не учитывающая состояние организма футболистов не позволяет им улучшить целевую точность технических приемов в матче.

Поэтому возникла необходимость изучения условий выполнения упражнений при совершенствовании целевой точности технических приемов.

Цель исследования выявить эффективность использования специализированных упражнений, направленных на совершенствование целевой точности технических приемов и соответствия условий их выполнения в тренировочных занятиях требованиям соревновательной игры.

Условия, в которых футболисты тренируют действия с мячом, и условия, в которых им приходится выполнять эти действия в соревновательных играх, могут отличаться по двум основным признакам:

– функциональному состоянию игроков на момент выполнения действий с мячом;

– по техническому исполнению футболистами действий с мячом (кинематическим и динамическим характеристикам их движений при выполнении технических приемов).[2]

Для того, чтобы условия тренировок соответствовали требованиям игры необходимо, также иметь информацию о том, в какой зоне интенсивности и с какой степенью точности выполняются технические приемы в процессе занятий. Рассмотрим количество и точность выполнения “передач” мяча, в разных зонах интенсивности. Игровые действия футболистов во время тренировочного занятия фиксировались на видео камеру, а зоны интенсивности определялись системой “PolarTeamPro”.

Все специализированные упражнения разделили на 2 категории:

– стандартные упражнения, в которых стояла простая задача - выполнить технический прием (обработка и передача мяча, сопротивление отсутствует, скорость невысокая, малое количество футболистов);

– ситуационные упражнения, в которых имелось несколько вариантов решения тактической задачи (в одном упражнении разнообразные способы выполнения передачи мяча, активное сопротивление, повышенная скорость и большое количество футболистов).

Задания в стандартных условиях варьировались:

– футболисты выполняли передачи мяча с разным усилием (с максимальной силой; со средней силой). Величина усилия зависела от расстояния, на которое необходимо было сделать передачу мяча.

– передачи мяча, выполнялись в разных направлениях (назад, поперек, вперед, вперед на ход партнеру).

– условия выполнения передач мяча были - простыми (на короткую дистанцию, передача мяча внутренней стороной стопы) и сложными (на среднюю и длинную дистанцию, передача мяча внутренней или внешней стороной подъема с “подкруткой”). Рассмотрим точность выполнения “передач” мяча в ситуационных упражнениях, в которых имелось несколько вариантов решения тактической задачи.

В таблице 1 представлены данные о целевой точности технических приемов футболистов в ситуационных упражнениях.

Рассмотрев несколько наиболее типичных упражнений типа “квадрат” было уста-

[2] Чирва Б. Футбол. Концепция технической и тактической подготовки футболистов/ Дивизион. 2015. – С.351.

новлено, что с изменением условий выполнения упражнения изменялась и точность передач мяча. Так, при выполнении “квадрата” 4х2 на площади 5х5м, без ограничения касаний мяча при интенсивности 120-140 уд/мин точные передачи составили 85,4%.

Таблица 1.

Точность технических приемов в игровых упражнениях при разной интенсивности

№	Упражнение	Точность технических приемов в разных зонах ЧСС (%)			
		120-140 уд/мин	141-150 уд/мин	151-160 уд/мин	Свыше 160 уд/мин
1	Передачи мяча на 10м в движении	73,3	68,2	56,6	51,1
2	Передачи мяча на 30м в движении	71,4	64,1	48,4	28,5
3	Удары по воротам с 16,5м, после ведения мяча	72,3	60,4	55,3	33,1
4	Игра 6х6	63,2	57,3	51,2	49,3
5	Квадрат 4х2	85,4	71,1	66,2	42,3
6	Игра 9х9 в 3-х зонах	73,3	68,1	55,6	46,2

В этом упражнении большинство передач выполнялось внутренней стороной стопы. Этот вид передач мяча является наиболее простым в исполнении и площадь соприкосновения стопы с мячом большая, поэтому при низкой интенсивности упражнения точность была высокой.

Изменив условия выполнения упражнения (ограничение касаний мяча) и повысив интенсивность до 150-160 уд/мин (перемещение футболистов по периметру «квадрата») точность передач мяча снизилась до 66,2%.

Еще больше снизилась точность при выполнении “передач” на высокой скорости (ЧСС свыше 160уд/мин) до 42,3%.

Анализ “передач”мяча в рамку “1,5х1м” в движении с расстояния 10м также имел динамику снижения точности с повышением интенсивности выполнения упражнения. При ЧСС 130-140 уд/мин точность приемов составляла 70%, при ЧСС свыше 160 уд/мин – 50%.

Аналогичная картина наблюдалась и при выполнении передач мяча после ведения в рамку “1,5х1м” с 30м. При ЧСС 130-140 уд/мин точность приемов составляла 60%, при ЧСС свыше 160 уд/мин – 30%.

Эти данные подтверждают, что с повышением интенсивности упражнения (скорости передвижения футболиста) точность технических приемов заметно снижается.

Та же тенденция наблюдалась и при выполнении игровых упражнений «6х6», при ЧСС 130-140 уд/мин точность технических приемов составила 63,2%, а при ЧСС свыше 160 уд/мин – 49,3%.

В игровом упражнении «9х9» в 3-х зонах при ЧСС 130-140 уд/мин точность технических приемов составила 73,3%, а при ЧСС свыше 160 уд/мин – 46,2%.

Если же технические приемы выполнялись при низкой интенсивности и при известных футболисту вариантах выбора решения, то точность их была высокой.

Положительные сдвиги в точности выполнения «передач» отмечались только в тех случаях, когда игроки попадали в привычные для них условия с точки зрения физиологического воздействия на организм.

Если же посмотреть в каких зонах интенсивности проходит матч, то можно отметить следующий факт (диаграмма 3).




Диаграмма 3. Показатели ЧСС футболистов в разных зонах интенсивности.

В тренировочном занятии технические приемы выполнялись в следующих зонах:

а) 120-140 уд/мин – 35% от общего объема времени;

б) 141-160 уд/мин – 29%;

в) свыше 161уд/мин – 22%;

В контрольной игре технические приемы выполнялись в следующих зонах:

а) 120 -140 уд/мин – 5% от общего объема времени;

б) 141-160 уд/мин – 15%;

в) свыше 160 уд/мин – 67%.

Выявлено, что интенсивность выполнения технических приемов тренировочных занятий не соответствует интенсивности игры.

Футболистам необходимо создавать такие условия при совершенствовании целевой точности технических приемов, которые бы не отличались по динамическим, кинематическим характеристикам (быстрота перемещений; величина усилий, прилагаемых при выполнении технических приемов; быстрота оперирования с мячом; внешняя форма движений игроков), выполняемыми ими в официальных матчах.

Использованная литература:

1. Годик М.А., Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. – М., ФиС. 1980. – С.136.

2. Полевщиков М.М., Роженцов В.В., Палагина Н.И. Методика оценки точности двигательных действий спортсмена игровых видов спорта. // Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 2-2. – С. 363-367.

3. Чирва Б. Футбол. Концепция технической и тактической подготовки футболистов/ Дивизион. 2015. – С.351.

* * *

“TEST” texnologiyasi – shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchilar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

* * *

Integrallashgan ta’lim tizimi – psixofiziologik rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega shaxslarni o‘qitish va tarbiyalashni psixofiziologik rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lmagan shaxslar bilan bir vaqtda amalga oshiruvchi tizim.

* * *

Integrativ-tuzilmali model – bu pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni ta’minlovchi, ta’limda o‘qitish jarayonini maxsus tashkil etishning o‘ziga xosligini aks ettiruvchi bloklar majmuini o‘z ichiga olgan yaxlit tizim.

* * *

Kommunikativ-nutq madaniyati – so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib faqat lisoniy hodisa emas, balki insonning ichki kechinmalari bilan bog‘liq ruhiyat va nafosat hodisasi ham hisoblanadi. Kommunikativ-nutq madaniyati – o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o‘zaro axborot almashuvni qamrab olgan kommunikativ jabha sifatida tavsiflanadi.

* * *

Maqsadli komponent – pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi liderlik salohiyatini rivojlantirish jarayonining maqsadi, vazifalari, prinsiplari va funksiyalarini ifodalaydi.

* * *

Mazmunli-protsessual komponent – o‘quvchilarning g‘oyalari, tushunchalari, qadriyatlari to‘plami sifatida tushuniladigan ta’limning mazmunidir. Ushbu komponent o‘quv jarayonining umumiy xususiyatlarini maqsadlar, turlar, usullar, vositalar, pedagogik hamkorlik shakllarini o‘zaro birlashtiradi.

* * *

Рефлексия – форма умственной деятельности человека, направленная на осмысление своих действий, всей человеческой культуры и её основ, содержание рефлексии определено предметно-чувственной деятельностью, рефлексия в конечном счёте есть осознание практики, предметного мира культуры.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:

Pardayev To‘lqin Xasan o‘g‘li

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV,
Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV,
Hikmatilla RASHIDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV,
Oynisa MUSURMONOVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Novoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2020.